

MAXSUS PSIXOLOGIYA

OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA
SURDOPSIXOLOGIYA
LOGOPSIXOLOGIYA
TIFLOPSIXOLOGIYA

TOSHKENT – 2013

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,
M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova

MAXSUS PSIXOLOGIYA

*Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy o'qub yurtlari
5141900 – Defektologiya (oligofrenopsixologiya, surdopsixologiya,
logopsixologiya, tiflopsixologiya) yo'nalishi talabalari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

UO'K: 37.015.3(075)

KBK: 88.4

M 99

Mo'minova L.R.

M 99 Maxsus psixologiya: o'quv qo'llanma / L.R. Mo'minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013. — 272 b.

UO'K: 37.015.3(075)

KBK: 88.4ya73

O'quv qo'llanma to'rt bo'limdan iborat, birinchi bo'limda oligofrenopsixologiya fanining umumiy masalalari, aqliy zaif bolalar rivojlanishi, shaxsni va shaxslararo munosabatlari, bilish jarayonlari, rivojlanishi, faoliyati xususiyatlari yoritib berilgan.

Ikkinchi bo'lim surdopsixologiya fanining umumiy masalalari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari, nutq turlari va nutqning rivojlanish xususiyatlari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning faoliyat turlari, shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan.


Uchinchi bo'limda logopsixologiya fanining nazariy va metodik asoslari, nutq kamchiliklari bo'lgan bolalarning bilish jarayonlari xususiyatlari, shaxs va shaxslararo munosabat rivojlanishi, motorika, faoliyat xususiyatlari ochib berilgan.

To'rtinchi bo'limda tiflopsixologiya fanining umumiy masalalari, tiflopsixologiya fanining predmeti, tiflopsixologiya fanining tarixi, maqsadi, vazifalari va metodlari, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari, bilish jarayonlari, faoliyat xususiyatlari kabi ma'lumotlar berilgan

Taqrizchilar:

G'.B. Shoumarov — «Maxsus ta'lim metodikalari» kafedrası prof.,
p.f.d.,

M.F. Xakimova — dotsent, p.f.d.



ISBN 978-9943-391-63-5

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2013

SO‘ZBOSHI

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ko‘rsatilganidek, shaxsning har tomonlama uyg‘un kamoloti va o‘z qobiliyati hamda malakalarini ro‘yobga chiqarishning sharoitlarini, samarali mexanizmlarini yaratish, eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvor andozalarini o‘zgartirish, respublikada amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning maqsadi va harakatlantiruvchi kuchdir. Bu hujjatlarda komil inson va barkamol shaxs tayyorlash masalalariga alohida urg‘u berilgan.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda ularning ruhiy jarayonlarining rivojlanishini, ayniqsa imkoniyati cheklangan alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarning ruhiy jarayonlari xususiyatlarini bilish defektolog mutaxassislar uchun katta ahamiyatga ega. Shunga bog‘liq ravishda biz tomondan tayyorlangan «Maxsus psixologiya» o‘quv qo‘llanmasi Pedagogika universitetining bakalavr – defektolog ixtisosligi o‘quv rejasi asosida tuzilgan bo‘lib, fan dasturi maqsad va vazifalari mazmunidan kelib chiqqan. Qo‘llanmada maxsus psixologiya nazariyasi va amaliyoti o‘z aksini topgan. Mazkur qo‘llanmada so‘nggi yillardagi darsliklar va qo‘llanmalarda keltirilgan qator nazariy materiallardan foydalanilgan.

O‘quv qo‘llanma to‘rt bo‘limdan iborat bo‘lib, birinchi bo‘lim oligofrenopsixologiya deb nomlangan. Bunda fanning umumiy masalalari, oligofrenopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, metodlari, fanning rivojlanish tarixi, Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari berilgan. Aqli zaif o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlari, shaxsi va shaxslararo munosabatlari, bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan.

Ikkinchi bo‘lim surdopsixologiya deb nomlanib, ushbu fanning umumiy masalalari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari, nutq turlari va nutqining rivojlanish xususiyatlari, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning faoliyat turlari, shuningdek, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalar shaxsining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

Uchinchi bo‘lim logopsixologiya deb nomlangan. Bu bo‘limda fanning nazariy va metodologik asoslari, nutq kamchiliklarining

pedagogik-psixologik klassifikatsiyasi, nutqning rivojlanish qonuniyatlari, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning bilish jarayonlari xususiyatlari, shaxs va shaxslararo munosabatlari rivojlanishi va faoliyat xususiyatlari ochib berilgan.

To'rtinchi bo'lim «Tiflopsixologiya» deb nomlangan. Ushbu faning umumiy masalalari, ya'ni tiflopsixologiya fanining tarixi, tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari, bilish jarayonlari, faoliyat xususiyatlari kabi ma'lumotlar berilgan. Ushbu bo'limda taklif etilayotgan, Rossiya hamda xorij olimlari – tiflopsixologlari tadqiqotlari tahliliga asoslangan, materiallar ko'rish nuqsoniga ega bolalarning boy ichki olamini shakllantirish, ruhiy rivojlanishini kashf qilish, rang-barang axborotlarga to'la hayotga moslashtirish imkoniyatlarini ochib berish uchun zamin hozirlaydi.

O'quv qo'llanma defektologiya yo'nalishi talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilariga mo'ljallangan.

O'quv qo'llanma o'zbek tilida birinchi marta nashr qilinmoqda. Mazkur qo'llanma yuzasidan maorif xodimlari va mutaxassislar o'z fikr-mulohazalarini bildiradilar, degan umiddamiz. Bildirilgan fikr mulohazalar kelajakda o'quv qo'llanmani takomillashtirishga yordam beradi, deb o'ylaymiz.

I bo'lim. OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA

I bob. OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI

1.1. Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uslublari

«Psixologiya, — degan edi L.S.Vigotskiy¹, — birinchidan, konkret, amaliy bo'lib — ta'lim va tarbiya, bolaning rivojlanishi, mehnat faoliyati haqidagi fan bo'lmog'i lozim. Faqat shu vazifagina psixologiyani tirik va kerakli fanga aylantirishi mumkin». Psixologiya umuman ruhiyatning, xususan inson ruhiyatining namoyon bo'lishi, rivojlanishini o'rganuvchi sohadir. Psixologiya ongli subyekt — insonning ichki dunyosini o'rganadi.

Psixologiya atamasi «psixe» — qalb, «logos» — o'qish, so'z ma'nosini bildiradi. Ammo bu qisqa jumla inson ruhiyati haqida yetarli ma'lumot bermaydi. Psixologiya fanining mavzu bahsini ruhiyatni to'laroq tasavvur qilish uchun ruhiy jarayonlarning kechish mohiyatini, ichki kechinmalarning (sezgilar, fikrlar, hissiyotlar) namoyon bo'lish qonuniyatlarini tushunish lozim. Shu o'rinda kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida psixologiya sohasida erishilgan yutuqlarni eslab o'tish joizdir.

Sharq mutafakkiri Abu Ali ibn Sino birinchi bo'lib, psixik funksiyalar miyadagi ma'lum markazlar faoliyatiga bog'liq degan fikrni ilgari surdi va uni ilmiy isbotlashga urindi. Uning fikricha, jonivorlar va insonlar o'simliklar dunyosidan farqli o'laroq, tashqi ta'sir kuchlarini hissiy idrok etish qobiliyatiga ega. Bu qobiliyat uch xil kuch orqali namoyon bo'ladi: tanani harakatga keltiruvchi, harakatlantiruvchi kuch, umumiy kuch (u ko'rish, eshitish, his etish, ta'm va hid bilish faoliyati bilan bog'liq) va aql kuchi (unga xayolot, xotira va aql-idrok kiradi). Mana shu kuchlarning har biri miyaning ma'lum qismi bilan bog'liq hamda bosh miya biron qismining kasallanishi u bilan bog'liq, kuch faoliyatining ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

¹ Л.С. Выгодский — Собр. Соч. : Б 6 т. — М., 1982—1985. — Т. 5.

Ibn Sino insonning tafakkur qobiliyatiga yuqori baho beradi. Inson aql-idrok orqali narsa va hodisalarni qiyoslash va abstraksiyalash yo'li bilan bir-biridan ajratadi. «Tafakkur kuchi, – deb yozadi u, – ezgulik va adovat, haqiqat va yolg'onni farqlaydi hamda ularning foyda yoki zararini his etib tekshiradi» («Tib qonunlari», 1-kitob). Ibn Sino «Tib qonunlari»ning uchinchi kitobida tafakkurga yetadigan zararlar va buning natijasida kelib chiqadigan kasalliklar haqida ham keng ma'lumot beradi. U asablarning asosiy vazifasi miya bilan turli xil sezgi va harakat organlari o'rtasida aloqani amalga oshirishdan iborat ekanini yaxshi tushungan. U sezgi organlari bilan asablar vositasida tashqi muhitning moddiy realligi idrok qilinishini, asablarning biologik va fiziologik funksiyalarini ajratib ko'rsatib beradi. Asablarning foydasi ikki tomonlamadir. Birinchisi bevosita foyda: masalan, miya asablar vositasida hislar va harakatlarni boshqa organlarga yetkazadi; ikkinchisi, bilvosita foyda: masalan, etni mahkamlash va tanaga kuch baxsh etish.

Abu Nasr Forobiyning ta'kidlashicha, bilish nazariyasi, ya'ni insonning bilishini, ruhiy qobiliyatini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolari hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markazdir. Inson barcha bilimlarni tashqaridan oladi. Buning uchun ko'plab vosita va imkoniyatlarga ega: bular sezgi, xotira, tasavvur, mantiqiy fikrlash, aql va nutq – shu vositalar yordamida inson ilmlarni o'zlashtiradi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan soha – aqli zaif bolalar psixologiyasi, maxsus psixologiyaning bir tarmog'i bo'lib, aqliy jihatdan turli darajada me'yordan chetlangan bola va o'quvchilarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganadi. Maxsus psixologiya nuqsonli bolalarning ruhiy qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Aqli zaif bolalar psixologiyasi (oligofrenopsixologiya).
2. Qulog'i kar va zaif eshituvchi bolalar psixologiyasi.
3. Ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar psixologiyasi.
4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar psixologiyasi.
5. Murakkab nuqsonli bolalar psixologiyasi.
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi.
7. Tayanch-harakat tizimi buzilgan bolalar psixologiyasi.

Nuqsonli bolalar ichida aqli zaif bolalar ruhiyati nisbatan mukammal o'rganilgan tarmoqdir. Ammo bu tarmoq ham normal bolalar ruhiyatiga nisbatan birmuncha keng, atroflicha o'rganilmagan.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining maqsad va vazifalari shu toifa bolalarning ruhiy xususiyatlari haqidagi bilimlar bilan defektologlarni, oligofrenopedagoglarni qurollantirishdan iborat. Aqli zaif bolalar ta'lim-tarbiyasi korreksiyasini to'g'ri tashkil qilish uchun bu bolalarning xususiyatlari haqidagi bilimlar juda zarur. Aqli zaif bolalar psixologiyasi ma'lumotlari defektologlarda, oligofrenopedagoglarda obyektiv dunyoqarashning shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Ruhiy jarayonlarni ilmiy jihatdan to'g'ri tushunib yetish shaxsning barkamol shakllanishida alohida ahamiyatga ega.

1.2. Oligofrenopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi

Ma'lumki, har bir fan o'zining yuzaga kelish, rivojlanish, taraqqiy qilish tarixiga, qonuniyatlariga ega. Shu singari aqli zaif bolalar psixologiyasi fani ham ma'lum rivojlanish tarixiga ega. Aqli zaif bolalarning ruhiyatini o'rganishning mumkinligi va zarurligi, ularni o'qitish, tarbiyalash kerakligi, tibbiyot, xususan psixiatriyaning rivoji bilan uzviy bog'liq. XVIII asr oxirlari XIX asr boshlarida aqli zaif bolalarni davolash, tarbiyalash, o'qitishga oid ma'lum ijobiy qarashlar yuzaga keldi va shakllana boshladi. Shuni eslatib o'tish joizki, aqli zaiflar ta'lim-tarbiyasi masalalari dastlab, asosan aqliy nuqsoni og'ir darajadagi bolalar ustida boshlangan. Nisbatan yengil darajadagi aqli zaif bolalarni o'rganish, davolash, tarbiyalash muammolari birmuncha keyinroq, XIX asrning ikkinchi yarmidan o'rganila boshlangan. 1858-yilda rus pedagogi N.A. Dobrolyubov tomonidan aqli zaif bolaning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Uning ko'rsatishicha, «faollikning pastligi», «sekin idrok qilish», «quruq yodlashning ustunligi», «bir xildagi harakatlar», «yangi sharoitlarga yomon moslashish», «bilimlarini to'g'ri ishlata olmaslik» — aqli zaif bolalarga xos xususiyatlar ekan.

XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Rossiyada aqli zaif bolalarni o'rganuvchi, davolovchi, tarbiyalovchi, bilim beruvchi qator davolash, tarbiyalash muassasalari ochila boshlandi (Riga, Peterburg, Moskva, Kiyev shaharlarida). 1910-yilda Moskvada akas-ingil Postovskiylar boshlang'ich bilim yurti qoshida aqli zaif bolalar

uchun yordamchi sinflar ochdilar, hamda bolalarni o'rganish uchun eksperimental psixologik kabinet tashkil qildilar. 1911-yilda shifokor-psixiatr, professor G.I. Rossolimo Moskvada bolalar psixologiyasi va nevropatologiyasi institutini ochdi va bu yerda aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga xos tomonlari o'rganila boshlandi. Aqli zaif bolalarni o'rganishda 1915-yilda G.Y. Troshinning «Tarbiyaning antropologik negizi, normal va anomal bolalar psixologiyasini qiyoslash» nomli asarining chop etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. G.Y. Troshin rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga yordam berishda faol qatnashdi. 1906-yilda G.Y. Troshin boshchiligida davolash maktabi tashkil etildi va bu yerda anomal bolalar uchun chuqur ilmiy bilimlar berish masalalariga e'tibor qaratildi. G.Y. Troshinning asosiy o'rganish predmeti — aqli zaif bolalar edi. Defektologiyaning fan sifatida shakllanishida G.Y. Troshin tomonidan ilgari surilgan va asoslangan normal va nuqsonli bola rivojlanish qonuniyatlari umumiylik to'g'risidagi fikrlari katta ahamiyat kasb etadi. «Mantiqiy normal va nuqsonli bolalar o'rtasida farq yo'q. Unisi ham, bunisi ham inson, unisi ham, bunisi ham bola, unisi ham, bunisi ham bir qonuniyat bo'yicha rivojlanadi». G.Y. Troshin normal rivojlanayotgan va nuqsonli bolaning psixologik rivojlanishini solishtirishga asoslangan bola rivojlanishining psixologik tahliliga yondashishning asosini yaratdi. Uning fikricha, nuqsonli bolani o'rganish inson tabiatini anglashga yordam beradi va psixologiyaning rivojlanishiga bebaho hissa qo'shadi.

1920-yillardan boshlab maxsus psixologiya, xususan aqli zaif bolalar psixologiyasi mustaqil fan sifatida o'quv darajalariga kiritildi. Shu davrdan boshlab bu muammo davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishlar tizimiga kiritilib, alohida e'tibor berila boshlandi. 1925-yilda Moskvada eksperimental defektologiya instituti tashkil etildi. L.S. Vigotskiy (1896–1934) rahbarligida aqli zaif bolalarni o'rganish ishlari boshlab yuborildi. Yetuk psixolog L.S. Vigotskiy maxsus psixologiya sohasida juda katta nazariy meros qoldirdi hamda haqli ravishda oligofrenopsixologiyaning asoschisi hisoblanadi. 1935-yildan aqli zaif bolalar ruhiyatini o'rganuvchi laboratoriyani L.V. Zankov boshqara boshladi. Bir necha yillar mobaynida L.S. Vigotskiy bilan hamkorlikda ishladi. L.V. Zankov aqli zaif bolalar xotirasini rivojlan-

tirish muammolarini ishlab chiqishga katta hissa qo'shdi. 1943-yilda mavjud bo'lgan eksperimental defektologiya instituti Defektologiya ilmiy tekshirish institutiga aylantirildi. Institutga T.A. Vlasova 1985-yilga qadar rahbarlik qildi.

Aqliy jihatdan zaif bolalar psixologiyasini rivojlantirishga J.I. Shif, G.M. Dulnev, B.I. Pinskiy, S.Y. Rubinshteyn kabi olimlar ham katta hissa qo'shdilar.

O'zbekistonda oligofrenopsixologiyaning nazariy va amaliy rivojlanishiga bir qancha pedagog, psixologlar katta hissa qo'shdilar. Urushdan keyingi davrda Respublika maorif vazirligining «Nuqsonli bolalar umumiy majburiy ta'limni ta'minlash choralari to'g'risida» qarori qabul qilindi. Shu bilan bir qatorda respublikaning turli viloyat va shaharlarida aqliy rivojlanishi orqada qolgan bolalar uchun maktab, maktab-internatlar tashkil etila boshlandi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ishi markaziy Osiyoda birinchi bo'lib, 1967-yilda Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika instituti Pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida boshlandi. Shu institutni bitirgan o'zbek olimlaridan G'B. Shoumarov, K.Q. Mamedov va G. Berdiyevlar maxsus psixologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqdalar. Ular tomonidan maxsus psixologiya faniga oid uslubiy tavsiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, monografiyalar yaratilgan.

G'B. Shoumarov «Ruhii rivojlanishi sustlashgan bolalar maxsus maktabini bitirgan yosh oilalarda ijtimoiy-psixologik muammolar» mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. K.Q. Mamedov «Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida)» mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. G. Berdiyev o'z ilmiy-tadqiqot ishida sog'lom va aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari muammosini o'rganib chiqqan.

Mamlakatimiz va chet el defektologlarining nazariy tekshirishlari, tajribalarining ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar potensial rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lar ekan. Aqli zaif bolalarning ruhiy taraqqiyot xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari haqida ularning bilim egallash xususiyatlarini bilmaslik defektologlar uchun kundalik ishlarida katta qiyinchilik, tushunmovchiliklarga olib keladi.

1.3. Oligofrenopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Oligofrenopsixologiya boshqa fanlar singari turli fanlar bilan uzviy bog'liq. Oligofrenopedagogika, psixiatriya, fiziologiya, logopediya, umumiy va bolalar psixologiyasi va boshqa fanlar shular jumlasiga kiradi. Aqli zaif bolalar ruhiyatining o'ziga xosligi yuqorida ko'rsatilgan fan yutuqlarining natijalari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Normal va nuqsonli bola taraqqiyoti umumiy, yagona qonuniyatlar asosida kechishini hisobga olsak, normal bolalar psixologiyasi fani aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun ilmiy asos rolini o'taydi. Ammo, aqli zaif bolalar taraqqiyoti o'ziga xos yo'sinda amalga oshadi. Aqli zaif bolalar psixologiyasi umumiy va ijtimoiy psixologiya ma'lumotlariga asoslanib ish yuritadi.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi yosh davrlar psixologiyasi yutuqlariga ham suyanadi. Qaysi yoshda, qaysi ruhiy holatlar, qay darajada o'sishini, rivojlanishini bilishning ahamiyati katta. Pedagogik psixologiya ham aqli zaif bolalar psixologiyasi uchun yetarli ma'lumotlar beradi.

Logopediya fani bolaning nutqidagi kamchiliklarini aniqlash, logopedik tekshirishni amalga oshirish imkonini beradi. Oligofrenopedagogika fani aqli zaiflik darajalarini, o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida korreksion ish tizimining samarali usullarini tanlashga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar psixologiyasi oligofreniya klinikasi, nevropatologiya, fiziologiya fanlarining yutuqlariga asoslanadi.

Oligofreniya klinikasi aqli zaiflikning etiologiyasini ochib berishga yordam beradi. Nevropatologiya aqli zaif bolalar markaziy asab tizimining anatomik va organik buzilishlari haqida bilim beradi. Fiziologiya esa, markaziy asab tizimining funksional buzilishlari haqida axborot beradi. Bularning barchasi aqli zaif bola ruhiyatining nuqsoni haqidagi bilimlarimizni yanada kengaytiradi, aqli zaif bolalar psixologiyasi, markaziy asab tizimining egiluvchanligi haqida I.P.Pavlovning fiziologik ta'limotiga asoslanadi. Sog'lom qolgan markaziy asab tizimining ayrim qismlari maksimal rivojlanishi, kompensatsiya qilinishi aqli zaif bolalar taraqqiyotidagi yu-

tuqlardandir. Aqli zaif bolalar psixologiyasi psixiatriya yutuqlaridan ham to'la foydalanadi. G.Y.Suxaryova, M.S.Pevzner aqli zaif bolalarni klinik o'rganish ishlariga juda katta hissa qo'shdilar. Ular tomonidan aqli zaif bolalar etiologiyasi, patogenezi, davolash ishlari, kasallik natijalari, kasallikning ikkilamchi asoratlari atroflicha o'rganildi. Aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi, ularning taraqqiyot dinamikasi o'rganildi. Aqli zaiflarga xos, o'xshash tomonlar o'rganilib bayon etildi. Psixiatr, pedagoglar tomonidan hamkorlikda tekshirishlar olib borilishi natijasida aqli zaiflikning pedagogik, psixologik tashxis qilish mezonlari yaratildi. Aqli zaiflik sabablari, darajasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, aqliy taraqqiyot bosh miya zararlanishi darajalariga ko'ra davom etadi.

S.L.Rubinshteynning yozishicha, «a'zo tuzilishi bilan, uning funksiyasi orasidagi bog'liqlik bir tomonlama emas, funktsiya a'zo tuzilishiga bog'liq bo'lib qolmasdan, balki a'zo tuzilishi ham uning funksiyasiga bog'liqdir».

1.4. Oligofrenopsixologiya fani metodlari

Fanning usullari deganda nimani tushunamiz? Aslida, uslublarni turli ma'nolarda tushunish mumkin. Turli fanlarda mujassamlangan nazariy, amaliy bilimlarni o'quvchilar ongiga yetkazishning u yoki bu yo'lini ham uslublar deb tushunish mumkin. Bu yerda esa, har bir fanning shu fanga oid bilimlarni yig'ish, tanlash yo'llari tushuniladi. Aqli zaif bolalarning shaxsiy xususiyatlari, ruhiy jarayonlarining o'ziga xosligi, bilim egallash imkoniyatlari haqidagi oligofrenopedagoglar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar quyidagi uslublar orqali yig'iladi. Bularga kuzatish, tajriba, suhbat, anketa, test, o'quvchilar faoliyat natijalarini tahlil qilish va boshqa usullar kiradi. Kuzatish — eng asosiy usullardan bo'lib, u orqali juda ko'p va sifatli psixologik ma'lumotlar yig'iladi. Ammo, har qanday kuzatish orqali kerakli ma'lumotlar olinmaydi. Tegishli, zarur ma'lumotlarni yig'ish, aniq maqsad asosidagi, izchil kuzatishni talab qiladi. Bu usulning asosiy yutug'i shundaki, kuzatish tabiiy sharoitda, tekshiriluvchi bilmagan holda amalga oshiriladi. Buning oqibatida tekshiriluvchi hech narsadan tortinmagan holda o'zini namoyon qiladi. Ammo bu usulning ham o'ziga xos kamchiligi bor. Bu kamchilik

shundan iboratki, tekshiruvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Lekin kuzatish muddati ortgan sari olinayotgan ma'lumotlar ko'payib boradi. Uzoq muddatli kuzatishlar turli yoshdagi bolalarning nutq, tafakkur, hissiyot, qiziqishlar, xarakter xislatlari, qobiliyatlarini tekshirish vaqtlarida olib boriladi. Bunday uzoq muddatli tekshirish natijalari maxsus kundaliklarda qayd etib boriladi. Kuzatish vaqtlarida bolalarning sog'lig'ini, kayfiyatini, o'zini his qilishini, charchaganlik darajasini inobatga olish talab etiladi.

Psixologik ma'lumotlar yig'ishda tajriba usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning qulayligi shundan iboratki, tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar qisqa muddatlarda qo'lga kiritiladi. Bu usulning afzalligi ham shunda. Ammo, tajriba vaqtida tekshiriluvchi bola har doim ham o'zini erkin tutmaydi. Bola iymanib, uyalib, tortinib turadi. Buning natijasida bola o'zini to'la namoyon etmaydi. Bola o'zining ustida tekshirish olib borilayotganligini bilgani uchun ham, tekshiruvchi uchun kerakli ruhiy jarayonlar haqidagi ma'lumotlar to'liq bo'lmasligi mumkin. Tajriba usuli o'z navbatida tabiiy va laboratoriya tajribalari turlariga bo'linadi.

Psixologik ma'lumotlar suhbat usuli orqali ham yig'iladi. Bola bilan suhbat qilish jarayonida tajriba o'tkazuvchi uchun kerak bo'lgan ma'lumotlar yig'ib boriladi. Suhbat ma'lum bir maqsadga qaratilgan va savollar mavzuga oid tayyorlanishi kerak.

Anketa usulining mohiyati shundan iboratki, kerakli ma'lumotlar bolalarga ma'lum savollarni o'z ichiga olgan anketalar tarqatish orqali olinadi. Bolalar qisqa muddatda javob beradilar. Anketalar tarqatib ma'lumotlar yig'ishning afzalligi, yutug'i shundaki, qisqa muddatda juda ko'p bolalarni tekshirish mumkin.

Shuni qayd etish o'rinliki, keyingi yillarda test usuli keng qo'llanila boshlandi. «Test» inglizcha so'z bo'lib «tekshirish», «sinash» ma'nolarini bildiradi. Maxsus topshiriqlar tizimidan iborat bo'lgan eksperimental tekshirishdir. Test usuli chet ellarda ayniqsa keng qo'llaniladi. Bu usulning afzalligi shundaki, qisqa vaqtda, ommaviy tarzda juda ko'p tekshiriluvchilarni tekshiruvdan o'tkazish, olingan ma'lumotlarni matematik tahlil qilish mumkin. Test usulini qo'llash uchun alohida, maxsus sharoitlar, texnika jihozlari har doim ham talab etilmaganligi

sababli, bu usulni qo'llash birmuncha oson kechadi. Testlar mazmuniga, tuzilish shakliga ko'ra: individual, guruhli, harakat hamda intellektual qobiliyat va boshqa turlarga ajratiladi.

Oligofrenopsixologiya fani usullariga yuqoridagilar bilan birga bola va o'quvchilar ijodiy faoliyat mahsulotlarini psixologik tahlil qilish ham kiradi. Asosiy e'tiborni faqatgina mehnat mahsulotlarini tahlil qilishga qaratiladi, shu bilan birga faoliyatni ham kuzatish dar-kor. Mehnat natijalariga qanday erishilganligini ham aniqlash talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish o'rinliki, juda ko'p hollarda alohida bir usul qo'llanib qolinmasdan, balki bir nechta usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday holat olingan ma'lumotlarning yanada ishonchli, obyektiv bo'lishiga xizmat qiladi.

1.5. VIII turdagi maxsus mehnat ta'limi maktabi o'quvchilarining psixologik tavsifnomasi

Defektologiya muammolari bilan shug'ullanuvchi chet el defektologlari, aqli zaiflik to'g'risida gapirib, bu tushunchani unga aqliy kamchilikni qo'shish bilan kengaytiradilar, uning yuzaga kelishi erta bolalik vaqtida bola rivojlanishini o'ta nomuvofiq ijtimoiy sharoitlari bilan bog'liq bo'ladi. Atrofdagi kishilar bilan intellektual va hissiy muloqot yetishmasligi, doimiy to'yib ovqatlanmaslik va hokozolar ko'zda tutiladi (F. Gallaqhere, O. Meher, Satdenqeu).

So'nggi yillar maxsus adabiyotlarida ham bosh miya po'stlog'i shikastlanishi bilan bog'liq bo'lmagan aqli zaiflik hodisalari to'g'risida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Hozirgi paytda «aqli zaif» termini o'rniga uning sinonimlarini ishlatishga harakat qilinmoqda, negaki, bu termin bolani faqat aqliy jihatdan noadekvatligini bildiradi, u esa motorika, hissiy-irodaviy doira va butun shaxsiy yetishmovchiliklarga ega. Undan tashqari, tashxisning bu shakli ota-onalarga og'ir botadi. Alohida yordamga muhtoj bolalar «Imkoniyati cheklangan bolalar» deb yuritilmoqda. Aqli zaif bolalar asosan maktab va maktab-internatlarida tarbiyalanadilar, ular XX asr oxirigacha yordamchi deb atalardi, hozir VIII turdagi maxsus mehnat ta'limi maktablari deb nomlanadi. Aqli zaif bolalarning ayrim qismi ommaviy umumta'lim maktablarida tashkil

qilingan korreksion rivojlantirish ta'lim sinflarida o'qiydilar, hamda uy sharoitida individual o'qitiladi.

Mehnat ta'limi maktabining barcha o'quvchilarini amaliy maqsadda 2 guruhga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga kiradigan bolalar asosan o'z rivojlanishlarining ma'lum davrida bosh miya kasalligini boshidan kechirgan va shu kasallik qoldirgan nuqson asosida rivojlanayotgan, amalda esa sog' bolalar kiradi. Ikkinchi guruhga bosh miyasidagi kasalliklari davom etayotgan bolalar kiradi. Bunday bolalarda maxsus maktablarda o'qib yurgan vaqtlarida ham kasalliklari davom etib og'irlashishi ham mumkin. Bu bolalarning ruhiy xususiyatlari, bilim egallash imkoniyatlari o'zgarib turish xususiyatiga ega.

Aqli zaif bolalarning ko'p qismini oligofrenlar tashkil qiladilar (grekcha oligof – kam, phrenos – aql). Miya tizimlarining shikastlanishi, asosiysi miyaning o'ta murakkab va kech shakllanuvchi tuzilishlari psixikaning buzilishi va chala rivojlanishiga sabab bo'lib, rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yuzaga keladi; ona qornida, tug'ruq paytida va bir, bir yarim yoshida, ya'ni nutq shakllanmasdan avval. Oligofreniyada miyaning organik yetishmovchiligi rezidal (qoldiq), noprogredi-yent (murakkablashmaydigan) xarakterga ega. Bola hayotining yanada kechroq davrida yuzaga kelgan aqli zaiflik nisbatan kam uchraydi. Bu demensiya deb yuritiladi. Demensiya miyaning organik kasalliklari oqibatida bo'lishi mumkin (masalan: meningoensefalitlar, miya travmalari, silkinishi, lat yeyishi va boshqalar). Demensiyada bolada ortib boruvchi degredatsiya (orqaga ketish) kuzatiladi. Biroq ayrim holatlarda davolash yordamida bu jarayonni birmuncha sekinlashtirish mumkin.

Alohida holatlarda boladagi aqlning sust rivojlanishi kechayotgan ruhiy kasallik bilan qo'shilib ketadi – epilepsiya, shizofreniya, bosh miya zaxmi va boshqalar. Oligofren bolalarning barcha psixik jarayonlarining orqada rivojlanishi va turg'un buzilishlari bilan tavsiflanadi, bu bilish faoliyati doirasi (ayniqsa, og'zaki mantiqiy fikrlashda) va shaxsiy doirada aniq ko'rinadi. Bunda me'yordan ortda qolishgina emas, balki rivojlanishning o'ziga xosligi namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalarni ancha kichik yoshdagi normal rivojlanayotgan bolalarga tenglashtirib bo'lmaydi. Aqli zaiflik – bir me'yorda emas – bola psixik faoliyatining turli tomonlarida ko'rinadi. Kuza-tishlar va eksperimental tadqiqot materiallari bolada ayrim psixik

jarayonlar o'ta keskin o'zgargan bo'lib, boshqalari saqlanib qolgan bo'lishi mumkinligi haqida gapirish imkonini beradi.

O'z rivojlanishida me'yordan chetlashgan, shu jumladan, aqlan orqada qolgan bola psixikasi tuzilishi juda murakkab. Maxsus psixologiya asoschilaridan biri L.S.Vigotskiyning nazariy qoidalariga muvofiq bolada birlamchi nuqson va ikkilamchi asoratlarni ajrata bilish kerak. Aqli zaif bolalarga po'stloq faoliyatining to'laqonli emasligi, mo'ljalga olish faoliyatining bo'shligi, nerv jarayonlarining inertligi, himoya tormozlanishiga ortiqcha moyillik xosdir. Oligofren bolalar psixik faoliyatida aniq aks etgan kamchiliklar bilan birga bu bolalarga rivojlanish jarayoni asosi bo'lib xizmat qiluvchi ayrim ijobiy imkoniyatlar ham xos. O'qituvchilar maxsus aqli zaif bolalar maktabida korreksion ishni tashkil qilib aynan shu imkoniyatlarga tayanadilar.

XX asrning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifidan foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga bo'ladilar: yengil, o'rtacha, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Chet el psixologlari bola intellektual koeffitsientini aniqlashga asoslanadilar. Ma'lumotlarga ko'ra, yengil aqli zaiflikda 70 ga teng, o'rtachada 70 dan 50 gacha diapazonda, chuqurda 25 dan 0 gacha.

Aqli zaif bolalarning dunyoga kelish sabablari turlicha. Odatda, endogen (ichki) va ekzogen (tashqi muhit) omillarini ajratish mumkin. Aniqlanishicha, aqli zaiflikning genetik shakllari ustun tursa, ular tug'ma aqli zaiflar soniga kiradi. Biroq buzilishlarning yuzaga kelishida onaning yuqumli kasalliklari (masalan: qizilcha, homilaning alkogol bilan zaharlanishi, narkotiklar, dorilarni haddan ziyod iste'mol qilish, onaning endokrin kasalliklari, xromosoma buzilishlari) muhim rol o'ynaydi. Ona qornida rivojlanish davrida, tug'ruq paytida va bir-bir yarim yoshida olingan miya shikastlanishlari ma'lum ahamiyatga ega, shu bilan bir qatorda hozirgi iqtisodiy va ekologik vaziyat ham katta rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda bolalar rivojlanishining murakkab nuqsonlari muammosi keskinlashmoqda. VIII turdagi maxsus maktab o'quvchilari tarkibi og'irlashmoqda. Kar va zaif eshituvchi bolalar orasida aqli zaiflikning tarqalishi taxminan 10%, ko'r va qisman ko'ruvchilar o'rtasida 20% ni tashkil etadi.

Bir qator hollarda aqli zaiflik tayanch -harakat tizimi buzilishlari bilan, autizm bilan birlashadi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, murakkab nuqsonlar irsiy kelib chiqishga ega.

Bolada murakkab nuqsonning borligi uning rivojlanishi yo'nalishini tormozlaydi, nuqsonlarni korreksiyalash imkoniyatini kamaytiradi, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil qilishni sezilarli qi-yinlashtiradi. Bunday bolalar bilan muvaffaqiyatli ish olib borish e'tibor va keng bilim doirasiga ega bo'lishni talab qiladi.

Murakkab nuqsonli bolalar alohida muammoni yuzaga keltiradilar. Ular maxsus o'rganilishi kerak. Lekin bu turdagi tadqiqotlar hali juda kam.

Aqli zaif o'quvchilar alohida toifa bolalarni tashkil etadi. Ular boshqa turdagi maxsus maktab o'quvchilaridan farq qiladilar. Biroq har bir VIII turdagi maktab o'quvchilari tarkibi turlicha. Shuning uchun Rossiyada yetakchi bolalar psixologlari tomonidan aqli zaif bolalar tasnifi ishlab chiqilmoqda. Odatda, ular klinik patogene-tik prinsipga asoslanadilar (D.N. Isayev, 1982; M.S. Pevzner, 1959; G.Y. Suxaryova 1965 va boshqalar).

VIII turdagi maxsus maktablarda ishlovchi defektologlar M.S. Pevzner taklif etgan tasnifdan foydalanadilar. Bu tasnif oligofren bolalar xulqi va psixik faoliyatlarini keltirib chiqaruvchi sabablarni tushunish imkonini beradi va korreksion-tarbiyaviy ishlar yo'llarini izlashni yengillashtiradi.

M.S. Pevzner oligofreniyaning 5 ta asosiy turini ajratadi:

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi.
2. Neyrodinamikasi buzilgan oligofrenlar.
3. Ma'lum analizatorlari buzilgan oligofrenlar.
4. Shaxsi qo'pol buzilgan oligofrenlar.
5. Telbanamo xulqli oligofrenlar.

Bu beshta turdan birinchi ikkitasi juda keng tarqalgan.

1. Oligofreniyaning murakkab bo'lmagan turi nerv jarayonlari-ning vazminligi bilan tavsiflanadi. Bu shaklda hissiy irodaviy sfera nisbatan saqlangan. Bilim faoliyatidagi buzilishlar ayrim analiza-torning qo'pol buzilishi bilan kechmaydi. Bola berilgan topshiriq unga oson bo'lsagina maqsadga muvofiq faoliyat ko'rsatadi. Odatda-gi vaziyatda uning xulqi dekvat, u mo'rmin, atrofda qilarga xayrixoh.

Ko'pincha ota-onalar uning harakat, nutq, xotira, fikrlash jihatidan ortda qolishini sezmaydilar va uni normal deb biladilar. Bunday bolalar odatda umumta'lim maktablariga tayyorlanmagan bo'ladilar. Ular muntazam o'zlashtirmovchi o'quvchi bo'lib qoladilar. Bunday bolani VIII turdagi maxsus maktabga yoki maxsus sinfga o'tkazish o'zining o'qishga layoqatsizligini susaytirmaslik imkoniyatini beradi. U dasturni yaxshi o'zlashtirib, ustaxonada mamnuniyat bilan ishlaydi. Uning rivojlanish va moslanish istiqboli ko'ngildagidek bo'ladi.

2. Qo'zg'alish va tormozlanish, hissiy irodaviy sohaning beqarorligi boladagi og'ishlar uning xulqi va faoliyati o'zgarishida aniq namoyon bo'ladi. Qo'zg'aluvchi oligofrenlar ko'pincha notinch, ta'sirchan, to'xtovsiz, harakatlari behalovat, haddan tashqari chalg'iydi, quloqsiz, urushqoq. Ular kattalarning ogohlantirishiga befarq qaraydi.

Sinflarda qo'zg'aluvchan bolalar notekis, shoshib ishlaydilar. Ko'rinib turgan mamnuniyat bilan ustaxonaga boradilar, lekin o'ylamay palapartish ishlaydilar. Ularda tez-tez intizom buzilishlari bo'lib, ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladi. Bu o'quvchilarga tinch sharoit va faoliyat tur-larining o'zgarib turishi kerak. Ularning individual xususiyatlari hisobga olingan ta'lim va tarbiya jarayonida qo'zg'aluvchan oligofrenlar og'ir-vazmin va mehnatga layoqatli bo'lib qoladilar. Ular ijtimoiy moslashadilar, lekin jamoa a'zolari bilan ahamiyatsiz sabablarga ko'ra janjallashadilar, intizomsizlik ko'rsatishlari mumkin.

Tormozlangan oligofrenlar bo'shliq, immillaganlik, inertligi bilan ajralib turadilar, bu ularning motorikasi, xulqi, past mehnat layoqatida ko'rinadi. Ular sekin harakat qiladilar. Ularga o'z faoliyatini tashkil qilish uchun ko'p vaqt kerak. Ular sinfdagilar ortidan ulgurmaydilar. Ularni shoshirish befoyda, negaki ularning o'z harakat templari bor. Ustaxonada ular hafসা bilan, ma'lum bir tirishqoqlik bilan, lekin sekin ishlaydilar. Bu toifaga kiruvchi o'quvchilar bilan olib boriladigan korreksion tarbiyaviy ishlar asosan yuqorida qayd etilgan nuqsonlarni korreksiyalashga yo'naltiriladi.

3. Analizator funksiyasi buzilgan yoki maxsus nutq buzilishi oligofrenlarda po'stloqning tarqoq shikastlanishi yanada chuqur lokal shikastlanishlar bilan birlashib ketadi. Bunday bolalar aqli zaiflik asosiy nuqsonidan tashqari eshitish, ko'rish, nutq, tayanch-harakat apparati nuqsonlariga ega. Ular odatda eshitish, ko'rish zaif bolalar.

bolalar serebral paralichi bo'lgan bolalar va nutqi buzilgan bolalar maktablarining maxsus tashkil qilingan sinflarida o'qiydilar. Ularning hayotiy istiqbollari chegaralangan, negaki 2 yoki 3 xil nuqsonning borligi ularni oldinga siljish va ijtimoiy-mehnat adaptatsiyasini qiyinlashtiradi.

4. Bosh miya postlog'ining peshana bo'limlari yetishmasligi oligofreniyada bolalar bilish faoliyati buzilishlari, shaxsning qo'pol buzilishlari motorikaning keskin buzilishlari bilan kechadi. Bu bolalar bo'sh, g'ayratsiz, yordamga muhtoj. Ularning nutqi ma'nosiz, taqlidiy xarakterda. Bolalar faoliyat va faollikka yo'naltirilgan psixik zo'riqishga qodir emas. Ular vaziyatni yaxshi tushunmaydilar. Bu o'quvchilar mehnatni sevmaydilar, oddiy maishiy burchlarini bajarishdan qochadilar. Ularning rivojlanishi sekin amalga oshadi. Lekin ular maktab ta'limining oddiy turlarini bajarishga o'rgatib boriladi.

5. Telbanamo xulqli oligofreniyada bolada hissiy-irodaviy doira keskin buziladi, shaxsga tegishli komponentlarning o'ziga xos rivojlanmaganligi namoyon bo'ladi. Tez-tez bo'lib turadigan bosh og'rig'i, nevroz xarakterdagi buzilishlar aqliy faoliyat jarayonlariga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazadi. Bu toifadagi anatik-dinamik buzilishlari bo'lgan oligofrenlarni ham kiritish mumkin. Xulqi psixologik mazmun kasb etuvchi oligofrenlarda jinsiy intilishlarning buzilishi, daydib yurishga moyillik, o'g'rilikka ruju qo'yish holatlari kuzatiladi. Bunday nuqsonlar asosan meningoensefalit, meningit, bosh miyasi jarohat olgan oligofrenlarga xosdir.

Aqli zaif bolalar psixik faoliyatida ham, umumiy holatida ham o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir.

Umumiy xususiyatlar deganda barcha aqli zaif bolalarga tegishli, ularni bir toifaga birlashtiruvchi va maxsus VIII turdagi maktablariga yo'llovchi belgilarga aytiladi. Aqli zaif bolalarga og'zaki mantiqiy fikrlash buzilishi, xotiraning, idrokning, ixtiyoriy diqqatning buzilishlari xosdir. Mana shu umumiy psixologik xususiyatlarini hisobga olib o'quv dasturlari va darsliklar tuziladi, maxsus usullar ishlab chiqiladi va sinflarda frontal ishlar tashkil qilinadi.

Psixikaning ayrim belgilari M.S.Pevzner ajratgan oligofreniyaning 5 ta asosiy turining birortasiga tegishligi nuqsonning tuzilishi,

o'ziga xosligi bilan muhim darajada bog'liq. Shunday qilib, faoliyati va xulqi keskin buzilgan, qo'pol motorika buzilishlari, ko'rinib turgan fonetika-fonematik eshitish nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun korreksion xarakterga ega, ularga xos kamchiliklarni yengishga yo'naltirilgan maxsus ish tizimi ko'zda tutilgan.

Nihoyat, o'ziga xos xususiyatlari bilan sinfdoshlaridan keskin farq qiluvchi ayrim o'quvchilar ham uchraydi. Shuningdek, bola joyda juda bo'sh mo'ljalga oladi, bu uni yozish, o'qish matematika va boshqa predmetlarga o'qitishda qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchi individual yondashishga muhtoj, busiz u o'quv dasturini o'zlashtira olmaydi.

Qisqacha oligofrenga o'xshash bolalar haqida to'xtalib o'tamiz. Ko'pchilik hollarda ular maktabga bolalar uylaridan keladilar. Go'dak yoshida bu bolalar chaqaloqlar uyida bo'lgan. Ular hech qachon ona g'amxo'rliги va erkalashini, ota-onalar bilan hissiy muloqotni ko'rmaganlar, ya'ni erta bolalar deprivatsiyasi sharoitida yashaganlar. O'qish va tarbiyani bolalar uyida davom ettirib, bunday bolalar o'z tengdoshlaridan ortda qoladilar, tengdoshlari normal bolalikni shaxsiy rivojlanish va bilish faoliyati shakllanishini ko'zdan kechirganlar. Maktab yoshiga kelib ular xulqi, qiziqishlari, nutqining va oning holati bo'yicha aqli zaif bolalar bilan bir xil darajada bo'ladilar. Ular rivojlanmaganligi turg'un xarakterga ega bo'ladi.

Ular ko'pincha VIII turdagi maxsus korreksion maktablarga yo'llansada, yuqori sinflarga chiqib ularning ba'zilari ijtimoiy imkoniyatlar va boshqa kriteriyalar bo'yicha o'z sinfdoshlaridan o'zib ketadilar. Aynan ana shular o'zlariga qo'yilgan tashxisni oldirib tashlamoqchi bo'ladilar va bunga erishadilar ham. Bir qator hollarda bunday bitiruvchilar o'z ma'lumotlarini davom ettiradilar.

Savol va topshiriqlar

1. Oligofrenopsixologiya fanining maqsad, vazifalari, metodlari nimalardan iborat?
2. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.
3. Oligofrenopsixologiya fanining rivojlanish tarixi.
4. Oligofrenopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligini chizmada ko'rsating.

II bob. AQLI ZAIF O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATI

2.1. Aqli zaif o'quvchilarning idroki

Idrok – bu inson analizatori yoki analizatorlar sistemasiga bevosita ta'sir etuvchi, narsa va hodisalarning butunligicha yoki ularning turli xususiyatlari o'zaro aloqasining shakllanish jarayonidir. Idrok turli sezgilar asosida shakllanadi.

Psixologiyada idrok quyidagilarga ajratiladi: ko'ruv, eshituv, taktil, ta'm bilish va hid bilish.

Idrokning barcha turlarida harakatlanish sezgirligi muhim o'rin tutadi, biroq bularni inson ko'pincha idrok etmaydi. Idrok etishda nutq katta rol o'ynaydi. Narsa va hodisalarning so'zlar bilan ta'riflanishi, ular orasidagi mavjud o'zaro aloqa ta'minlanishini, abstraksiyasi va umumlashtirilishi idrok etilayotganlarning mazmunini ochishga yordam beradi.

Idrokning obyektiv faoliyati inson faoliyatining ilgarilanganligidir. Shu bilan birga faoliyat, amaliyot idrokning rivojlanishiga, harakatlarning to'g'ri va to'la aks etishiga yordam beradi.

Aqli zaif bolaning ruhiyati o'ziga xos sistemani aks ettirib, turli nuqsonlar va rivojlanishda orqada qolishlar to'laligicha faoliyatning ruhiy jarayonlariga ta'sir etadi. Bu holat idrokka ham taalluqlidir.

Aqli zaif o'quvchilarning ko'ruv idroki. Hozirgi kunda eng ko'p o'rganilgani aqli zaif o'quvchilarning ko'ruv idroki hisoblanadi. Bu – ko'rish analizatori boshqalariga nisbatan atrof-olam haqidagi turli xil axborotlarni olishga yordam beradi. Eksperimental psixologik uslublarning ishlab chiqilganligi tegishli ahamiyat kasb etadi.

Ko'rish orqali idrok etish – juda murakkab ish bo'lib, bu jarayonda ko'pgina qo'zg'atuvchilar ko'zga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Idrok etishda analiz qanchalik aniq bo'lsa, sezish shunchalik sifatli, kuchli va to'la, aniq bo'lib ular qo'zg'atuvchilarda differensial aks ettiriladi.

Sharhlash psixologiyasi – katta, murakkab, oligofren bolalarga nisbatan yaxshi o'rganilmagan bir muammodir. Kuzatishlar kichik

sinflarning aqli zaif o'quvchilarining atrofni sharhlash imkoniyatlari juda past, bu ularning xulqiga ham ta'sir qiladi.

Aqli zaif o'quvchilarning ko'ruv idroki qator o'ziga xos xususiyatlar bilan xarakterlanib, bular atrof-olam va uni o'rganishga ta'sir ko'rsatadi. Bu xususiyatlarga obyektни ko'rishni idrok etishning sekinlashishi kiradi. Tajribalarning ko'rsatishicha, bolalarga yaxshi tanish bo'lgan rangli rasmlarni davomiyligi 22 millisekund vaqtni tashkil etgan paytda ko'rsatganda, aqli zaif bolalar bularning birortasini bilmagan va to'g'ri ayta olmagan. Ommaviy umumiy o'rta ta'lim maktabining I sinf o'quvchisi shunday sharoitda ko'rsatilgan rasmlarning 57% ni to'g'ri aytadi va taniy oladi.

Kuzatish muddatini 42 millisekundga cho'zganda aqli zaif bolalardan 55% javoblarni eshitish mumkin. Bunday sharoitda ularning sog'lom tengdoshlarining 95% to'g'ri javob qaytaradi. Ko'rib turganimizdek, aqli zaif bolalarga sog'lom bolalarga nisbatan tanish narsalarni tanib olishi uchun uzoqroq, ya'ni ko'proq vaqt kerak. Bu oligofrenlarga xos bo'lgan analiz va sintez jarayonining sekinlashishi bilan xarakterlanadi.

Maxsus tekshiruvlar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif o'quvchilarga berilgan masala qiyinlashganda, ularda sensor axborotni qayta ishlash ancha sekinlashadi.

Olingan tahlil natijalari aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan korreksion pedagogik ishlarda qo'l kelishi mumkin.

Aqli zaif o'quvchilarning maktabda o'qish yillarida ularning ko'ruv idroki sezilarli darajada tezlashadi. Shunday qilib, III sinf o'quvchilariga 22 millisekund vaqtda ko'rsatilgan rasmlarda 27% to'g'ri topiladi. (Ommaviy maktabning III sinf o'quvchilari 100% natija beradi.) Ammo bu vaqtni 42 millisekundga cho'zganda 100% natija beradi. Ushbu ma'lumotlar oligofrenlarning ko'rib idrok etishi tezlashgani haqida xabar beradi, ammo bu III sinf o'quvchilari uchun yetarlicha sekinlashgan. Aniqlanishicha, aqli zaif bolalarning ko'rilishi sodda bo'lgan narsalarni idrok etishi tezlashib, narsalarning ko'rinishi murakkablashsa, ularning idrok etishlari sekinlashadi.

Shunga ko'ra, murakkab shakllar ko'rish analizatorining analitik-sintetik faoliyatida hali ham sodda ko'rinishlarda aks etadi.

Sog'lom bolalarga nisbatan aqli zaif bolalar atrof vaziyatga ko'z yugurtirib chiqqanda kam narsalarni idrok etadi. Bu ularga atrof-muhit bilan tez tanishishga, ma'lum bir predmetni, hodisani ajratib olishni qiyinlashtiradi.

Aqli zaif o'quvchilarga ko'ruv idrokining torligi ham xarakterlidir. O'quvchilar, ayniqsa, kichik sinf o'quvchilari bir vaqtning o'zida me'yordagi kabi emas, balki 8–12 ta katta bo'lmagan buyumlarni, eng kamida 4–6 ta katta bo'lmagan buyumlarni ko'ra oladi (I.M. Solovyev).

Aqli zaif o'quvchilarning ko'ruv idroki qisqaligi atrof borliqni o'rganish imkoniyatlarini kamaytiradi. Bu bilan ba'zi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishdagi qiyinchiliklarni tushuntirish mumkin.

Aqli zaif bolalarning ko'ruv idrokining yana bir xususiyati yetarlicha differensiallanmaganligi: ular har doim ham ranglarni ajrata olmaydi, atrofdagi obyektlarni, ularga xarakterli bo'lgan qismlarsiz ajratadi. Masalan, birinchi sinf o'quvchilari oq, qora, to'q qizil, to'q ko'k ranglarini ajratishadi. Ammo och rangli, ularga o'xshashlarini ajrata olmaydilar. Chunonchi, ko'p hollarda ko'k va siyohrang, olovrang va qizil ranglarni ajrata olmaydilar. III sinfga kelib oligofren bolalarning rang ajratish xususiyatlari aniqlanadi. Uning aniq ko'rinishlari ba'zi o'quvchilarda saqlanib qoladi.

Aqli zaif o'quvchilarda rang ajrata olmaslikning asosiy sabablari, anglash faoliyatida ranglarni sezish xususiyatining pasayganligi nuqsoni asosiy rolni o'ynaydi.

O'tkazilgan qator tajriba natijalariga ko'ra aqli zaif o'rta maktab o'quvchilari orasida rang ajrata olmaslikning sababi uni idrok etishda emas, balki hamma ranglarning nomlarini bilmasligida. O'quvchilar u yoki bu rangni ancha to'q bo'lgan hollarda aytishadi.

O'quvchilar och tusli rangning nomini aytmoqchi bo'lganlarida, ular o'zgacha nom bilan ataydilar. Masalan, och ko'kni ular «ko'kish – yashil» yoki «yashil sariq» deyishadi. Boshqa hollarda ular «bunaqamas», «ular boshqacha» iboralarini qo'llashadi. Kichik sinflardagi o'quvchilar ranglarni adashtirishadi, masalan, siyohrangni olovrang, olovrangni binafsharang va boshqalar. O'quvchilarda tegishli obyektlarga xos ranglarni ajrata olmasligi, borliqni anglash ko'nikmasini kamaytiradi.

Aqli zaif o'quvchilarning ko'rish o'tkirligi pasaygan bo'ladi. Ular sog'lom tengdoshlariga nisbatan, och fondagi narsalarni qiyinchilik bilan ajratishadi. Ko'rish o'tkirligining sustligi ularga bir-biriga yaqin turgan narsalarni ajratishda o'quvchilar ularni ko'pincha 1 ta katta obyekt sifatida qabul qiladi. Ko'rish o'tkirligining pastligi bolalarda atrof-olam haqida tasavvurlarning yaxlitligiga, birligiga, aniq formalarga ega emasligiga, ba'zi narsalar ularning ko'z ostidan tushib qolishiga olib keladi.

Ko'rishning bu xususiyati kichik maktab o'quvchilarida ko'rib turgan narsalarning unga tegishli bo'lgan qismlarining ko'rinmasligiga olib keladi. Bu asosan, qo'l mehnati darslarini mustaqil bajarganda bilinadi, o'quvchilar ishlarini bo'sh bajaradilar. Yasagan ishlari umuman olganda namunaga o'xshamaydi. Shunga qaramay ular o'z ishlaridan qanoat hosil qilib o'zlarini maqtaydilar va yaxshi va a'lo baholar olishni xohlashadi. Bunday baholash oligofren bolalarga tegishli bo'lib, o'z mehnatlari va namuna o'rtasidagi farqni anglay olmaydilar. Aqli zaif kichik maktab o'quvchilarining narsa va hodisalarni o'zlaricha tanib idrok etishi ularning ilgari egallagan ko'nikmalarida aks etgan. Oligofren o'quvchilar uchun ko'rganlarini umumlashtirish xosdir. Shunga qaramay, birinchi sinf o'quvchilari olmaxon bilan mushuk, soat bilan kompas o'rtasidagi farqni ajrata olmaydi. Ular nuqtayi nazarida sog'lom tengdoshlariga nisbatan, masalan, geometrik figuralardan kvadrat va to'g'ri to'rtburchaklarni, ular orasidagi farqni bilmagan holda bir guruhga mansubligini bildiradilar.

Aqli zaif bolalarda ko'ruv idrokining differensiallanmaganligi tanish obyektlarini sharhlash paytida aniq kuzatiladi. Masalan, 1-sinf o'quvchilariga qalamni ko'rsatib, ulardan nimani ko'rayotganlarini so'ralganda bolalar predmet nomini aytishadi va o'z javoblarini noto'g'ri hisoblashadi. O'quvchilarni davomini kuzatishga yo'naltirilganda, ular uning rangini va qalamning ishlatilishi haqida gapirishadi, ammo uning qalinligi, uzunligi, qirralarining mavjudligi, bir tomonning ochilganligi, qirralarining bir tomonida yozuvning borligiga ahamiyat berishmaydi. Normal rivojlanayotgan bolalar bularni o'zlari bilib aytishadi. Bu ma'lumotlar aqli zaif bolalarning lug'at boyligining kambag'alligidan dalolat beradi. Biroq o'quvchilar bu sifatlarni, noaniq yoki noto'g'ri javobga ishora qilib

ham aytmaydilar. Bu bolalar lug'atida tegishli so'zlar mavjud emasligidan dalolat beradi.

Aqli zaif o'quvchilar uchun ko'ruv idrokini boshqa sharoitlarga moslashtirish qiyin. Agar kichik sinf o'quvchilariga tepasi va tagiga ega predmetlarni 180 gradusda ag'darsa bularni umuman boshqa narsalar deb idrok etishadi. Rasmda ko'rsatilgan tarelka ustidagi piyolani ag'darganda o'quvchilar uni shlyapa, qo'ziqorin deb aytishadi. Aqli zaif bolalar biron narsa-buyumning nomini aytib darrov boshqasiga o'tib ketishadi, ularda shu buyumga qiziqish, uni yaxshilab ko'rishga bo'lgan intilishlari yo'q. Aqli zaif bolalarga nisbatan sog'lom bolalarda to'nkarilgan obyektни tanish jarayoni kuzatiladi. Ba'zi bolalar, avval ko'z yugurtirib chiqib noto'g'ri javob aytishadi. So'ng uni yaxshilab ko'rib chiqib alohida qismlarini topib, uni qo'ziqorin emas, balki ag'darilgan piyola deb aytishadi.

Fazoda mo'ljal olish inson aktivligining muhim turlaridan biridir. U faoliyatning ko'pgina yo'nalishlari uchun kerak. O'tgan asrda aqli zaif bolalar bilan shug'ullangan shifokorlar va pedagoglar, ularning fazoda sust moslashishini kuzatganlar. Fazoviy buzilishlar aqli zaif bolalarda uchraydigan, eng ko'p tarqalgan va ko'p uchraydigan nuqsonlardan hisoblanadi.

Fazoni idrok etish har xil nuqsonli a'zolarning turli xil intermodal aloqalariga asoslanadi. Fazoda komponentning to'liqligi ko'zga ta'sir etayotgan turli funksiyalarga bog'liq: uning o'tkirligiga, perseptiv maydonga, ko'z o'lchagichga, negaki aqli zaif bolalar bu darajaga yetmaydi (T.N. Belovina).

Psixologlar sog'lom bolalarda fazoni o'rganishning 3 asosiy bosqichini ajratishadi. Shundan birinchisi bolada harakatlanishning paydo bo'lishi, fazoda faol o'rnini egallash, shu bilan boshqalarni ko'rishga qulay bo'lgan holatni egallash. Ikkinchisi, predmet — harakatlarini egallash bilan bog'liq bo'lib, ular obyekt xususiyatlarini va fazodagi o'zaro aloqasini kengaytirib o'rganishga turtki bo'ladi. Uchinchi bosqich nutq rivojlanishidan boshlanadi, so'zda fazoviy kategoriyalarni aks ettirish va umumlashtirishning paydo bo'lishi.

Aqli zaif bolalarda ham fazoni bilishning uch asosiy bosqichi o'zgacha tartibda, ammo juda kech muddatlarda o'tadi. Ular o'z

tengdoshlariga nisbatan ancha yuqori yoshlarda harakatlanishni o'rganishadi, bu ularni atrof – fazoni idrok etishini kechiktiradi.

Aqli zaif bolalarga xos bo'lgan uyatchanlik va harakatlar koordinatsiyasining kamligi, bolaga nisbatan yaqinda turgan narsalar bilan ko'rib tanishish shakllanishiga teskari ta'sir ko'rsatadi. Aqli zaif bolalarga maqsadsiz harakatlanishning predmet harakatlarida shakllanish kamchiliklari va ortda qolishlari xos. Ularda sinkeneziy, tonik harakatlanish kuzatiladi. Yuqori shakllardagi motor harakatlanishning rivojlanmasligi predmet harakatlanishni egallashni tormozlaydi, bu o'z o'rnida aqli zaif bolaning atrof-muhitda mo'ljal olishiga xalaqit beradi. Shuning uchun, ikkinchi bosqich fazoni o'rganish cho'zilib ketadi va orqaga suriladi.

Aqli zaif o'quvchilar uchun orqada qolish va nutq rivojlanishining o'zgachaligi ularning fikrlashi bilan bevosita bog'liq, ayniqsa so'z – mantiqiy fikrlashi. Aqli zaif o'quvchilar o'zlarining nutqlarida kelishik qo'shimchalarini va bog'lovchilarni noto'g'ri va tushunmay ishlatadilar, bu tushunchalarni to'g'ri belgilash va umumlashtirishni bilmasliklaridan darak beradi. Boladagi nuqsonli rivojlanish so'z – mantiqning to'liq bazasini ta'minlamaydi.

Maktabgacha bo'lgan davrda psixikaning xususiyatlari fazoviy idrok qilish shakllanishining barcha bosqichlarida muhim bo'lib, u aqli zaif bolalarda kam ifodalangan. Maktab ta'limi davrida rasm, geografiya, qo'l mehnati va kasbiy ta'lim darslarida ularning fazoda mo'ljal olish nuqsonlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, o'quvchilar daftarning varag'ida, sinf xonasida, jismoniy tarbiya zalida, hovlida qiynalib mo'ljal oladilar. Ko'pincha ta'limning boshlarida harflarni qatorlarga yozishmaydi, duch kelgan joyga yozib qo'yishadi, daftarda materialni kerakli tartibda joylashtira olmaydi. Obyektlarni tasvirlashganda, ularning kattaligini sezilarli kattalashtirib yuborishadi, ularni chapga yoki o'ngga surib yuborishadi (T.N. Golovina, I.A. Groshenkov). O'qituvchining rasmni qayerga joylashtirish haqida (pastki burchak, o'rtada, o'ng tomonda) so'z bilan ta'riflashi ayniqsa murakkab vazifa berilganda (tepadagi o'ng burchak) o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Jismoniy tarbiya darslarida ham bunday dalillarni keltirsa bo'ladi, o'quvchilarga tartib bilan turish va zalda berilgan yo'nalish bo'yicha harakatla-

nish murakkablik qiladi. Aqli zaif yuqori sinf o'quvchilari mehnat darslarida andozalarni to'g'ri joylashtirishga qiynalishadi. Ko'pincha ular buni yaxshi uddalay olishmaydi.

Boshlang'ich sinf aqli zaif o'quvchilarning idrok qilishlarining boshqachaligi, ularni sujetli rasmlarni tomosha qilganlarida bilinadi. O'quvchi sujetli rasmni tomosha qila turib, undagi buyumlarni to'g'ri ayta olishi va joylashishini aniqlashi, personajlarni aniqlab olishi, ularni qanday aloqalar bog'lab turishi, sharoitni tushunishi kerak.

Sujetli rasmni tushunishi idrok qilinayotgan tasvirning analiz va sintez qilish sifatiga bog'liq. Agar bunday fikrlash jarayonlari to'liq bajarilmasa, qator hollarda – noto'g'ri ro'yobga chiqariladi. Ta'limning boshlang'ich bosqichida aqli zaif bolalar rasmni ko'ra turib, ko'zga ko'ringan obyektlarni betartib sanashga tushishadi. Ular birlamchi va ikkilamchi obyektlarni ajratishga qiynalishadi (I.I. Budnitskaya, I.M. Solovyov, M.M. Stadnenko). Bunda bolalar ajratgan obyektlarini ma'noviy guruhlarga umumlashtirmay, ularning umumiy mazmunini idrok etishga urinishadi. Buni hattoki, sujetli rasm sodda va o'quvchilarga tushunarlidek bo'lgandan ham ko'rish mumkin. Masalan: «Birinchi marta birinchi sinfga» rasmini ko'ra turib, o'quvchilar tasvirdagi qiz kiyimlarining ko'pgina qismlarini sanashadi, ammo uning qo'lida portfeli borligini, kalendaridagi «1-sentabr» yozuviga, o'quvchi qizning maktabga ketayotganligiga ishora ham qilishmaydi (N.M. Stadnenko).

Normal rivojlanayotgan boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar qisqa muddat ichida sujetli rasmni ko'ra turib, tanish predmetlarni nomlashadi va ajratishadi. Aqli zaif boshlang'ich sinf o'quvchilari esa ko'pincha rasmlarni topib olishda va obyektini tasvirlashda xatoga yo'l qo'yishadi. Bu ularning bilim olish saviyasining pastligidan dalolat beradi. Noto'g'ri analiz qabul qilinayotgan tasvirni tanib olishga ham ko'maklashadi. Rasmda ko'rsatilgan alohida obyektlarni to'g'ri tanlab olishga to'g'ri shakl ajratish katta ahamiyat ko'rsatadi. Faqat shaklgina predmetlarni analiz va taqqoslashda yetakchi belgi hisoblanadi. Aqli zaif o'quvchilar umumiylikni differensiyalashda, alohida va birlikda, tekshiruvni davom ettirishda, shakllarni ajratishda qiynalishadi. Ularga fragmentarlik, idrok etishning kambag'alligi, analiz jarayonlarining sust yo'nalganligi va taqqoslamaslik xos (T.N. Golovina).

Aqli zaif o'quvchilar uchun fazodagi obyektning o'zaro aloqasini aniqlash ham qiyin masaladir. Ko'pgina qiyinchiliklar tasvirdagi tegishli belgilarni idrok qila olmaslik, tushunmaslikdan kelib chiqadi. Hayratlanarlisi shuki, uzoqdagi narsalar rasmda kichraytib tasvirlanadi. Ba'zi obyektlar oldingi qatorda turganlarining qismlari bilan to'sib qo'yilgan bo'lishi mumkin. Masofa chizilayotgan rasmlarning aniq chegaraga, intensiv ranglarga ega emasligiga soyalarning ishlatilganiga, tasvirlarning kichrayganiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Qator hollarda rasmdagi predmetning kichraytirilgan tasviri aqli zaif o'quvchilarni uni uzoqlashganini tushunishga olib kelmaydi.

Agar yugurib ketayotgan kuchukning panjasi qarshisida turgan egasining oldida ko'rinmay qolganida aqli zaif o'quvchilar rassom kuchukni xato tasvirlaganini: unda 3 ta panja emas, 4 ekanligini aytishadi.

O'quvchilar rasmni unda tasvirlangan predmetning farqiga, birinchi, ikkinchi, orqa plandagiga ahamiyat berishmaydi. Bu ularga bir qatordagidek tasavvur beradi. O'quvchilar uchun sujetli rasmdagi holatni to'laligicha anglash, personajlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni aniqlash qiyin. Bunda alohida tasvirlangan personajlarni tanib olish katta ahamiyatga ega. Masalan: o'quvchilarga dasturxonda o'tirgan ona va bola rasmi ko'rsatilgan. Bu yerda ona choy ichib o'tiribdi, o'g'li esa his-hayajon bilan unga muhim bir narsani imo-ishoralar bilan tushuntirayapti. Devorda rasm osilib turibdi. Polkada soat turibdi.

Qayd qilinishicha o'quvchilar rasmdagi personajlarni ajratib tanimay global tushunganda (qiz va bola sifatida) unda rasmining sujeti bunday kechadi: «Qiz va bola choy ichib o'tirishibdi» yoki «Qiz dasturxonda o'tirib choy ichayapti, bola soatga qarayapti». Bu ifodada bolaning ko'tarilgan qo'li xato ifodalanib, imo-ishora sifatida emas, balki chiroqni yoqishga bo'lgan harakatdek ko'riladi. Agar onani bir ayol, bolani esa begona sifatida ko'rishsa o'quvchilarning tasviri bunday bo'ladi: «Ayol va bola dasturxonda o'tirishibdi». Ammo agar ayolda onani, bolada o'g'lini ko'rishsa rasmining to'g'ri interpretatsiyasi yuzaga keladi. «Ona o'g'li bilan choy ichayapti. O'g'li o'qishdan qaytib keldi. Onasiga qiziq narsa haqida gapirib berayapti».

Aqli zaif o'quvchilarning sujetli rasmni anglab yetishi ko'pincha uning mazmuni va kompozitsiyasiga bog'liq. Obyektlar soni ko'p bo'lganda, markaziy obyekt bo'lmagan obyektlar uchraganda, personajlar va ularning tashvishlari shu holatni ham butunligicha qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bunda o'quvchilar egallagan bilimlari, ulardan foydalana olishi, diqqatni jamlab rasmni uzoq tomosha qilishi asosiy rolni egallaydi.

Olingan ma'lumotlar shundan dalolat beradiki, aqli zaif o'quvchilar bilan maxsus ta'lim olib borilganda ularning nutqi va fikrlashi, boshqa psixik jarayonlari, ko'rib idrok etishi yaxshilandi, vaholanki, qilingan ishlar sezgi nuqsonlarini korrektsiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi.

Aqli zaif o'quvchilarning taktil idroki. Insonda idrokning asosiy turlaridan biri teri-tuyish hisoblanadi. Sezgi sistemasi teri-tuyishni shakllantirishni ta'minlaydi, u o'z ichiga teri (taktil, harorat) va kinestetik analizatorlarini oladi. Teri-tuyish organi qo'l hisoblanadi. Teri-tuyish orqali boshqa analizatorlardan olinadigan axborotlar aniqlashadi, kengayadi va chuqurlashtiriladi. Bundan tashqari, ba'zi obyektlarning alohida xususiyatlari ko'rish, eshitish va hid bilish bilan idrok etishga bo'ysunmaydi. Bularga buyumning harakati, uning og'irligi, fakturaning ba'zi sifatlari kiradi va boshqalar. Ularni aniqlash uchun teri-tuyish zarur.

Psixologiya sohasida o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, obyektни idrok qilishning qator xususiyatlaridan, masalan, silliq yoki g'adibudur yuzani insonning ko'rish sistemasi emas, balki qo'li yaxshiroq sezadi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ikki sezgi sistemasi — ko'rish va teri-tuyish (taktil) birgalikda yuqori natijalar beradi.

Aqli zaif o'quvchilarning teri-tuyishni o'rganish muammosi tadqiqotchilar diqqatini tortmagan va bu sohada yetarlicha ma'lumotlar berilmagan. Ushbu kategoriyadagi o'quvchilarning teri-tuyish orqali idrok qilishini ko'rib chiqib, V.I. Lubovskiy shunday xulosaga kelgan, tempning tushunishi va axborotni qayta ishlashda obraz va tushunchalarning to'liq shakllanmaganligi barcha anomal bolalarga xos. Ushbu holatni aqli zaif bolalarga nisbatan olganda R.B. Kaffemas idrok etishning qiyinlashishi, bilish faoliyatining yetarli emas-

ligi barcha oligofren bolalarda uchrab, ularning ko'rgazmali-obraz fikrlashi qiyinlashadi deb ta'kidlaydi. Obrazlar bilan ish olib boranda ko'pgina o'quvchilar katta qiyinchiliklar sezishadi. Shuning uchun obrazlarni shakllantirish davomida turli xildagi axborotlarni ko'proq jalb etish kerak. Obyektни ko'rish va eshitish orqali idrok etishda qisman teri-tuyishni ham ishlatish foydali.

Bu holat insonning hamma sezgi organlari o'zaro aloqadorligi, neyrofiziologik va psixologik tadqiqotlarining yangi ma'lumotlari bilan tasdiqlanadi. Birortasi ishdan chiqsa, boshqalarida ham bu zilishlarni kuzatish mumkin.

Aqli zaif bolalarning teri-tuyish bilan idrok etishini eksperimental o'rganish bo'yicha 2 ta tadqiqot ishi mavjud. Ulardan biri, A.P.Gozova tomonidan bajarilgan bo'lib, o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan obyektlar, katta buyumlar va to'g'ri shakllar orqali teri-tuyish xususiyatlarini yuzaga chiqarishdan iborat. Katta buyumlarga mumdan qilingan nok, fayansdan qilingan idish, yog'och piramida yoki, yelim (plastmassa) eshakcha kirgan. Xuddi shu predmetlar yelimdan yassi shaklda yasalgan.

Aniqlanishicha, katta yassi buyumlarni to'g'ri tanib olish soni o'qitish jarayonida oshib boradi. Oligofren bolalar yassi buyumlarga nisbatan, keng sig'imli predmetlarni osonroq o'zlashtiradilar. Bu yassi tasvirlarning qator teri-tuyish belgilaridan xoli ekanligiga asoslanadi. Bundan tashqari o'quvchilar mustaqil yassi buyumlarni konturi orqali o'rganib, olingan ma'lumotlarni analiz va sintez qilishlari kerak.

A.P.Gozova ma'lumotiga ko'ra, 1-sinf aqli zaif o'quvchilari teri-tuyish orqali katta sig'imli materialni o'zlashtiradilar. Bunda nok va idishni – shisha, piramidani – yog'och deyishadi. Ba'zi bolalar yassi nokka aniqlik kiritaman deb, uni «rezinka» yoki «kvadrat» deb atashadi. Beshinchi sinf o'quvchilarining 20% javoblarida ma'lum bir buyumning borligiga ishora qilinadi: «Qandaydir plastmassa». Ba'zi obyektning shakliga qarab qo'shimchalar kiritishadi «oyna», «aylana», «kurakcha».

Ushbu tadqiqotlarda ishtirok etgan sog'lom bolalarda, aqli zaiflarga nisbatan shakllarni aniq nomlashadi.

Ikkala guruh o'quvchilari o'rtasidagi katta farq yaqqol bilinadi. Sog'lom bolalarga nisbatan, intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda

ko'proq va qo'polroq xatolar uchraydi. Masalan, beshinchi va yettinchi sinf o'quvchilari eshakni tuya yoki olmaxon, deb tanishadi. Bunday xatolar umumiy o'rta ta'lim maktabida 5-sinfdan boshlab kuzatilmaydi. Shuni aytish kerakki, o'rta va yuqori sinflarda o'qiydigan oligofren o'quvchilarda teri-tuyish faoliyatining notekis natijasini ko'rish mumkin bo'lib, ular to'g'ri javoblar bilan bir qatorda qo'pol xatolarga ham yo'l qo'yadilar.

Aqli zaif bolalar o'rganayotgan obyektlarning 1 ta yoki 2 ta asosiy bo'lmagan belgisiga asoslanishadi. Ma'lumki, bunday o'rganish natijalari ko'pincha xato hisoblanadi.

R.B.Kaffemasning keyingi yillarda olib borgan izlanishlari A.P.Gozova tomonidan olingan ma'lumotlarni aniqlashtiradi va tasdiqlaydi. Muallif aqli zaif o'quvchilarga teri-tuyish orqali (ko'rmasdan), tekis chiziqlardan tashkil topgan, oddiy relyefli shakllar bilan tanishishni taklif etgan. So'ng, ko'zlari yordamida xuddi shunday shakllarni cho'plar yordami bilan yasashlari kerak bo'lgan.

Aniqlanishicha, bu turdagi mashqlar hattoki katta sinf o'quvchilarining qo'llaridan kelmaydi. Hatto kichik sinf o'quvchilarining hammasi ham, teri-tuyish orqali shakllar bilan tanisha olmaydi. Ko'pgina bolalar predmetni qo'llarida ushlab turib, hech qanday teri-tuyish harakatlarini bajarishmaydi. Kattalar tomonidan yordam berilmasa, shakllarni o'rgana olmaydi. Katta sinf o'quvchilarida xaotik, impulsiv, ortiqcha shoshqaloqlik harakatlari kuzatildi va bu o'rganilayotgan predmetga nisbatan aniqlik kiritmaydi.

Shuni aytish kerakki, berilgan shaklning to'liq obrazini yaratishda ko'pincha qo'l harakatlarining bir-biriga bo'ysunmasligi xalaqit beradi. Ular alohida ma'lum bo'lmagan, ajratilmagan belgilariga asoslanishadi, bunda ko'pincha informativ belgilar o'zlashtirilmay qolinadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'g'il bolalar qizlarga nisbatan mashqlarni muvaffaqiyatli bajarishadi.

R.B.Kaffemasning fikricha, aqli zaif bolalarda teri-tuyish orqali idrok etishning rivojlanishi uchun, dars va darsdan tashqari vaqtlarda ko'proq e'tibor berilsa muvaffaqiyatga erishilardi. Albatta, bu korreksion ishlarda foydali bo'lib, maxsus maktab

bitiruvchilari joylashadigan turli ishlab chiqarish korxonalaridagi mehnat teri-tuyish orqali idrok etishning rivojlanganligini talab etadi.

Aqli zaif bolalar idrokini o'rganish to'g'ri tashxis qo'yish uchun «Etalonlar metodikasi», «Rasmda kim yashiringan», «Raqamli kodlash» metodikasi, «Yetishmaydigan qismlarni top» nomli uslubiyatdan foydalanish tavsiya etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Idrokning psixologik jarayonini izohlab bering.
2. Aqli zaif o'quvchilar ko'ruv idrokining ahamiyatini tushuntiring.
3. Aqli zaif o'quvchilarning taktil idrok xususiyatlari.
4. Aqli zaif o'quvchilarning idrok xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlarini ochib bering.

2.2. Aqli zaif bolalarning tafakkuri

Tafakkur – atrofdagi borliqning aks etishiga imkon beradigan inson bilish faoliyatining oliy shakli, predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqa va munosabatni o'rnatadi.

Tafakkurning asosiy vazifalari:

- umumiy o'zaro aloqalarni o'rnatish;
- muayyan sinf hodisalari turi sifatida aniq hodisalar mohiyatini tushuntirish;
- bir xil guruh hodisalari xossalarini umumlashtirishi.

Tafakkur operatsiyalari:

- tahlil qilish (xayoliy predmet, hodisa, holatlarni qismlarga ajratish va tarkibiy belgi, qismlarini aniqlash);
- sintez (turli xil belgilar o'rtasidagi aloqani taqqoslash, qiyoslash);
- mavhumlashtirish (predmetning asosiy xossalarini ikkilamchi belgilardan ajratish);
- taqqoslash (ma'lum obyektlarni taqqoslash va ulardagi umumiy yoki farqli belgilarni ajratish);
- umumlashtirish (ikki yoki bir qancha predmet-hodisalarni umumiy belgilariga ko'ra guruhlarga umumlashtirish).

Ko'rgazma-obrazli tafakkur

Bola anglash faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishda tafakkur muhim rol o'ynaydi. Bola rivojlanishining ma'lum bir bosqichida unga ma'lum turdagi faoliyat xos bo'ladi.

Ilk yoshda tafakkur shakllanishida asosiy o'rinni muloqot, predmetli faoliyat egallaydi (L.S.Vigotskiy, A.V.Zoporjets, A.N.Monstev, D.B.Elkonin). Hozirgi vaqtda mashhur psixologlarning ta'kidlashicha, bolalarda maktabgacha yoshda ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli va so'z-mantiq tafakkuri rivojlanadi. Bu tafakkur shakllari ontogenez jarayonida biri-biri bilan almashinadi, ammo birinchi ko'rgazmali-obrazli tafakkur hisoblanadi. U bola rivojlanishi jarayonida, ular tomonidan ijtimoiy malakalarni egallash orqali shakllanadi. Bola tafakkur rivojlanishida kattalar asosiy o'rinni egallaydi, ular tafakkurni o'qitish va tarbiyalash orqali rivojlantirishi kerak. Bolalarda ilk yoshda ko'rgazmali-obrazli tafakkurni o'rganish bilan L.S.Novoselova shug'ullangan. U bola tafakkurining rivojlanishi butunlay uni predmetli faoliyati shakllanishi jarayoni bilan bog'liq deb ko'rsatgan. Bolada predmetlilikning paydo bo'lishi ular tomonidan insoniy faoliyat usullari va amalga oshirish motivlarini egallash yo'li orqali amalga oshadi.

Aqli zaif bolada aks ettiruvchi faoliyatning farqli xususiyati unda bilish faoliyatlarining buzilmaganligi hisoblanadi. Bu eng avvalo umumiy va vositali bilimning buzilishidir.

Maqsadga qaratilgan faoliyat sifatida tafakkur har doim ma'lum muammoning yechimi sifatida yuzaga chiqadi.

Aqliy masalalarni yechish jarayoni bir nechta bosqichlarga ega: masala shartini tushunish, savol qo'yish, yechim ehtimoli farazini yaratish, yechimni topish va uning to'g'riligini tekshirish. Barcha fikrlash jarayonlari o'zida shaxsning qobiliyatlari, bilim va malakalarini ochib beruvchi ixtiyoriy, maqsadga qaratilgan faoliyatlarini amalga oshiradi. Aqliy masalalarni yechish aqli zaif bolalarda boshlang'ich davridayoq muhim qiyinchiliklarga olib keladi. Ular ko'pincha masalani noto'g'ri anglaydi, uni qisqartiradi yoki buzadi. Shu tariqa, avval boshdanoq, maqsadga qaratilgan tafakkur buzil-

gan va u boshqaruvchi vazifani boshqara olmay qoladi. Yechishning keyingi bosqichlarida kamchiliklar kuzatiladi. Qo'llanilayotgan yechish usullari noto'g'ri va samarasiz bo'ladi. Masalani yechish jarayonida qo'yilgan maqsaddan chetga chiqish, muammoning qaysidir xususiy tomonida to'xtab qolish kuzatiladi. Yechish jarayonida ko'pincha xatolar va tekshirishlar majmuyiga olib keladi. Tekshirish zarur bosqich sifatida qabul qilinmaydi.

Olingan natijalar boshlang'ich ma'lumotlar bilan bog'liq bo'lmaydi. Tafakkurning past mahsulligi aqliy masalalarni yechishning barcha bosqichida ko'rinadi.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida aqli zaif bolalarga o'z faoliyatini tashkil etishga, aqliy jarayonning bosqichi to'laqonli o'tishiga yordam berish kerak.

Ko'rgazmali-obrazli tafakkur uchun obrazlar bilan aqliy faoliyat natijalari, tasavvuri orqali aqliy masalalarni yechish xarakterli hisoblanadi.

Haqiqiy hayotdagi predmetlar obrazini tahlil qilish, ichki nutq yordamida amalga oshiriladi. Me'yorda rivojlanayotgan bolalarda ko'rgazmali-obrazli tafakkur asosan maktabgacha yoshda rivojlanadi. Aqli zaif o'quvchilarda tasavvur etilayotgan va idrok etilayotgan predmetlarni analiz va sintez qilishning rivojlanganligi kuzatiladi. Ularning diqqatini predmetlarning mavjud bo'lmagan xususiyatlari, yorqin ko'zga tashlanadigan belgilari tortadi.

Maxsus maktab o'quvchilarida alohida predmetlar va predmetli holatlarni so'z bilan tavsiflashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu toifa o'quvchilar o'zlariga tanish predmetlarni qarama-qarshi qo'yib, ularni taqqoslashda ularning umumiy xususiyatlaridan asosiysini aniqlash imkoniyatiga ega emas. Ularda tasavvurga ko'ra taqqoslash vazifasini tushunmaslik kuzatiladi. O'quvchilar so'zni erkin ravishda qo'llay olmaydi. T.A.Pratsko aqli zaif bolalarda topishmoq materiali asosida so'zli-obrazli masalalarni yechish xususiyatlarini o'rgangan. Uning aniqlashicha, topishmoqni tushunishning boshlang'ich bosqichida o'quvchilar uning javoban ifodasini topgan so'zlarni ajratadi. Nutqning tasviriy vositasi ular uchun tushunarsizligicha qoladi. Ammo aqli zaif o'quvchilarning aqliy faoliyatini ko'rgazmali vositalar yordamida faollashtirish mumkin. Maktab

sharoitida o'qitish jarayonida ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanadi. Obyektlarni aqliy analiz qilish maydoni kengayadi, tasavvur roli kengayadi, mavhumlashtirish qobiliyatining rivojlanishida ahamiyatli siljishlar kuzatiladi, 1-sinfdan 5-sinfgacha ko'rgazmali-obrazli tafakkur rivojlanishida ijobiy dinamika kuzatiladi. Shu bilan birga aqli zaif o'quvchilarning ko'rgazmali-obrazli tafakkuri sog'lom tengdoshlarinikidan baribir pastligi aniqlangan. Ko'pgina aqli zaif o'quvchilarda murakkab hayotiy malakalar bilan bog'liq bilim va tasavvurlari orqali amalga oshiriladigan aqliy faoliyatlarida yetarli darajada umumlashtirishga erishmaydilar. Buning oqibatida ular aqliy masalalarni yechishda so'z ma'nolaridan erkin foydalana olmaydi.

Ko'rgazma-harakatli tafakkur

Ko'rgazma-harakatli tafakkur insonning yangi sharoit va amaliy muammoli topshiriqni yechishning yangi usuli bilan to'qnashganda paydo bo'ladi. Bunday turdagi topshiriqlarga bola butun bolalik davrida – maishiy va o'yin faoliyatlarida duch keladi. Ko'rgazma-harakatli tafakkurning muhim xususiyati shuki, holatni o'zgartirish usuli bo'lib amaliy harakat xizmat qiladi va u sinab ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Aqli zaif bolalarda ko'rgazma-harakatli tafakkurning rivojlanishi orqada qoladi. Aqli zaif bolalar predmetlar bilan harakat qilishlarining har kungi tajribalarini mustaqil umumlashtira olmaydilar. Shuning uchun aqli zaif bolalarda umumqabul qilingan qurollardan foydalanishni talab etadigan anglash bosqichi rivojlanmagan bo'ladi. Amaliy harakatlar va ularni so'z belgilari o'rtasidagi aloqa yetarlicha bo'lmaydi. Nutq tashkil etuvchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. Aqli zaif bolalarda ko'rgazma-harakatli tafakkurni shakllantirish asosiga muammoli amaliy vazifa va vaziyatlarda mustaqil mo'ljal olishni rivojlantirish kiritilishi lozim.

Aqli zaif bolalarda amaliy vazifalarni bajarishda qiyinchilik yuzaga keladi. Masalan, aqli zaif bolalarga kesma rasmlarni birlashtirish va Segen doskasini to'ldirish qiyinchilik tug'diradi. Ularning predmetlar bilan harakatlari impulsiv xarakterga ega, bu harakatlar fikrlash vazifasiga bog'liq bo'ladi.

Mantiqiy tafakkur

Fikrlash qobiliyati aqli zaif bolalarda o'ziga xos tarzda amalga oshadi. Aqliy faoliyat jarayoni o'zaro bog'liq aqliy operatsiyalar bilan amalga oshiriladi. Predmet va hodisalarni tahlil qilish jarayonida aqli zaif bolalar sog'lom tengdoshlariga qaraganda kam, ma'lum qismlarni aniqlaydi. Sintez qilish jarayonida umumlashtirish jarayonining pastligi kuzatiladi. Obyektlarning o'xshash va farqli belgilarini aniqlashda yordam beradigan taqqoslash operatsiyalari ham maktabgacha yoshdagi bolalarda o'ziga xos tarzda kechadi. Ko'pincha yo'q belgilari taqqoslanadi.

Mavhumlashtirish – aqli zaif bolalar uchun ancha qiyin operatsiya hisoblanadi. Mavhum tafakkurning buzilishi aqli zaiflikning asosiy belgisini tashkil etadi. Aqli zaif bolalar tomonidan umumlashtirish situativ xarakterda bo'ladi. Tafakkur bilishning bosh quroli hisoblanadi. U analiz, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish, aniqlashtirish kabi operatsiyalar shaklida kechadi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bu barcha operatsiyalar aqli zaiflarda yetarlicha shakllangan va o'ziga xos tomonlarga ega. V.G. Petrova, B.I. Tinskiy, I.M. Solovyova, N.M. Stadnenko, J.I. Shif ma'lumotlariga ko'ra, aqli zaif bolalar predmetlarni tushunadi, tahlil qiladi, qator zarur xususiyatlarni qoldirib, faqatgina yaqqol aniq qismlarinigina hisobga oladi. Bunday tahlil natijasida ular predmetlarning qismlari bilan aloqasini o'rnatishda qiynalishadi. Odatda, ular faqat predmetlarning ko'ruv xususiyatlariga tayangan holda rangini aniqlashadi. Predmetlarni tahlil qilishda ularning individual belgilarini emas, umumiy belgilarini aniqlaydi. Analizning takomillashganligi uchun predmetlarni sintez qilish qiynalishadi. Predmetlarning alohida qismlarini ajrata turib, ular orasidagi aloqani o'rnatish olmaydi, shuning uchun predmetlar haqida butun tasavvurga ega bo'lishda qiynaladi. Aqli zaif bolalarda taqqoslash operatsiyasida tafakkurning sifatlari yorqin namoyon bo'ladi, unda maxsus qo'yilgan analiz va sintez o'tkaziladi. Ular predmetlar va hodisalardagi asosiy narsani ajrata olmay, mavjud bo'lmagan belgilarni, ko'pincha mos kelmaydigan belgilar taqqoslaydilar. Aqli zaif bolalar o'xshash va farqli predmetlarning farqini aniqlashda qiynaladilar. Ayniqsa ular uchun o'xshashlikni aniqlash qiyin. Ruchka va qalamni taqqoslab, ular: «ular uzunligiga ko'ra

o'xshash, yana ularning terisi bir xil» deb javob berishadi. Aqli zaif bolalar tafakkurining farqli tomoni tanqidiy qarashning yo'qligi, o'z ishlarini mustaqil baholay olmasligidadir. Ular ko'pincha o'z xatolarini belgilashmaydi, bu ayniqsa ruhiy kasallangan bolalarda bosh miyaning peshana qismi jarohatlangan bolalarda va og'ir darajadagi aqli zaif bolalarda yorqin namoyon bo'ladi. Ko'ruv idroki asosida idrok etilgan fikrlash natijasidagi tasvir kambag'alligi, bog'liq emasligi, oddiyliги bilan ajralib turadi. O'quvchi obyektga qarab, uning nomini bilsa ham, qismlarini to'liq aytolmaydi. Odatda, shakllarning umumiy konturlari qismlarini tartibsiz bayon etadi.

Kichik maktab yoshidagi aqli zaif bolalar uchun 2 va undan ortiq predmetni solishtirish qiyinchilik tug'diradi. Solishtirishda I–II sinf o'quvchilari bir obyektни ikkinchisidagi ajratuvchi xususiyatlariga e'tibor beradilar. Bu obyektlarning o'xshash xususiyatlarini hisobga olmaydilar.

Bolalar obyektlar o'rtasidagi farqni solishtirib bo'lmaydigan xususiyatlar bilan qiyoslaydilar. Masalan, bu piyola katta, bunisida esa ko'k gul rasmi bor. Ular har xil. Birinchi predmetning kattaligi, ikkinchi predmetning guli taqqoslangan.

Ayrim hollarda o'quvchilar vazifani oson yengil vazifalar bilan almashtiradi yoki obyektни solishtirish o'rniga ulardan birini analiz qila boshlaydilar. Yoki solishtirishni boshlab, o'z harakatlarini nazorat etolmaydi. Bola o'zi uchun qiyin bo'lgan vazifada to'xtay olmaydi va o'z aqliy faoliyatini yengillashtirib boshqa vazifaga o'tadi.

Aqli zaif bolalar tafakkurini tahlil qilib, bu jarayonning stereotipligi, qiyin harakatligi va umuman to'liq egiluvchan emasligini ta'kidlash joiz. Shuning uchun mavjud bilim va malakalarni yangi sharoitda qo'llash aqli zaif bolalarda qiyinchilik tug'diradi va vazifani xato bajarishga olib keladi.

Aqli zaif o'quvchilar tafakkurini o'rganish va to'g'ri tashxis qo'yish uchun «Kesma rasmlar» metodikasi, «To'rtinchisi ortiqcha» metodikasi, «Klassifikatsiyalar» va «Yetishmaydigan qismlarni aniqlash» metodikalarini tavsiya etish mumkin.

Savol va topshiriqlar

1. Tafakkur operatsiyalarini aytib bering.

2. Aqli zaif bolalarning ko'rgazma-obrazli tafakkur xususiyatlari.
3. Aqli zaif bolalarning ko'rgazma-harakatli tafakkur xususiyatlari.
4. Aqli zaif bolalarning so'z – mantiq tafakkuri xususiyatlarini ochib bering.

2.3. Aqli zaif bolalar xotirasi

Xotira – bu individ tajribasining eslab qolinishi, saqlanishi va kelgusida qayta tiklanishi. Xotiraga, shuningdek, unutish ham kiradi. Bu jarayonlar faoliyatda shakllanadi.

Materialni eslab qolish, hayot faoliyati jarayonida individual tajribaning to'planishi bilan bog'liq. Eslab qolinganni kelgusida qo'llash uchun qayta tiklashi zarurdir. Faoliyatdan ma'lum bir materialning tushib qolishi uni unutishga olib keladi.

Aqli zaif bolalar xotirasi sog'lom bolalar xotirasidan birmuncha farq qilinadi. Savol tug'iladi: Aqli zaif bolalar xotirasi rivojlanadimi? Ha, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, qachonki korreksion ishlari erta boshlansa va to'g'ri yo'lga qo'yilsa. Ma'lumki, xotiraning rivojlanishiga bir qancha analizatorlar o'z ta'sirini o'tkazadi (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, sezish). Ushbu analizatorlarga tayangan holda ish tashkil etilishi aqli zaif bolalarning xotirasini rivojlantiradi.

Matematika, ona tili, o'qish, mehnat, rasm kabi darslarda barcha analizatorlarga tayangan holda ish olib borilishi bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Ya'ni aqli zaif bolaga tushuntirilayotgan mavzu o'qittirilsa, yozdirilsa, ko'rsatib berilsa, iloji bo'lsa shu predmet bolaga his qildirilsa (ushlasa), predmet mazasi aniqlansa bolada predmet haqida ma'lumot kengayadi, bu esa uzoq muddatli xotirani rivojlantiradi.

Aqli zaif bolalar maktabida ta'lim jarayoni asosan takrorlash usuliga tayangan holda olib boriladi. Yilning boshida o'quvchi maktabga kelganda ko'p narsa yoddan chiqadi, o'qituvchining vazifasi o'tilgan materialni esga tushirish, ma'lum bir vaqt ichida (taxminan bir hafta) materiallar takrorlanadi. Takrorlash ishlaridan so'ng yangi mavzuga o'tiladi. Takrorlash ishlarini olib borish jarayonida shunga e'tibor berish lozimki, o'qituvchi bitta metoddan foydalanishi mumkin emas, bitta metoddan foydalanish aqli zaif o'quvchini

charchatib qo'yadi. Shunday metodlarni tanlash kerakki, ushbu metodlar bolaning ortiqcha toliqishiga imkon bermaydi. Faqat shundagina o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishadi.

Aqli zaif bolalar xotira xususiyatlarini bir qancha olimlar G.Y. Troshin, L.V. Zankov, B.I. Pinskiy, G.M. Dulnev va boshqalar ilmiy-tadqiqot sifatida o'rganganlar. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, aqli zaif bolalarning darajalariga qarab, xotira xususiyatlarini rivojlantirish mumkin. Psixologiyadan ma'lumki, inson xotirasini rivojlantirish uchun avvalambor uning barcha bilish jarayonlari ustida ish olib borish lozim.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar xotirasini birmuncha rivojlantirish uchun mayda qo'l motorikalaridan foydalanish samarali natija beradi. Mayda qo'l motorikalarining rivojlanishi ularning nutqiy nuqsonlarini va bilish jarayonlarini rivojlantiradi. Frontal va individual mashg'ulotlarda bilish jarayonlari rivojlantiriladi. Bu mashg'ulotlarda bolalarni har tomondan rivojlantirishga e'tibor beriladi. Bolalarda ixtiyoriy xotiradan ixtiyorsiz xotiraga o'tish uchun bir qancha vazifalar amalga oshiriladi. Bular: plastilindan biror predmetni yasash, yasash vaqtida plastilindan to'g'ri foydalanish, ya'ni gigiyenaga rioya etish, plastilin rangini to'g'ri tanlash, ranglar uyg'unligiga e'tibor qilish malakalarini shakllantirish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Individual mashg'ulotlarda bolalarning nafaqat nutq nuqsoni ustida balki xotira turlari ustida ham ish tashkil etiladi. Chunki bolaning nutqiy nuqsonini bartaraf etish vaqtida bola berilayotgan vazifani yodda saqlashi lozim, bunda asosan uzoq muddatli xotiraga e'tibor beriladi. Logoped ishni tashkil etish vaqtida bolaning individual xususiyatlariga alohida e'tibor berib, mashg'ulotni tashkil qiladi. Demak, mashg'ulot bolaning bilish xususiyatlariga va nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi. Aqli zaif bolalarda barcha ishlar samarasi asosan takrorlashga bog'liq. Vazifalarni bir necha marta takrorlash vaqtida o'tilgan topshiriqlar bolaning xotirasida olib qolinishiga ko'mak beradi.

Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar xotirasi ustida ish olib borish vaqtida tasavvurga ham e'tibor beriladi. Ma'lumki, tasavvurning rivojlanishi xotiraga ham bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, inson

xotirasi qanchalik yaxshi rivojlansa, bu uning barcha bilish jarayonlariga (tafakkur, tasavvur, idrok, xayol kabilar) ijobiy natija beradi.

Yuqori sinf o'quvchilari bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari xotirasining orasida ham katta farq bor. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xotirasi rivojlanishi ilk bosqichlarida ish olib borilsa, yuqori sinf o'quvchilari xotirasi ustida ishlar olib borilgan bo'lib, o'qituvchi asosan ularning uzoq muddatli xotira sifatiga e'tibor bera boshlaydi.

Aqli zaif bolalar bilan ishlash natijasi shuni ko'rsatdiki, ularning xotirasi hajm jihatdan rivojlanishi orqada qolgan bo'ladi. Xotiraning asosiy xususiyatlaridan biri bu uning hajmidir. Aqli zaif bolalarning xotira hajmi qisqa bo'ladi. Bolalarga bilim berish vaqtida ular ma'lumotni juda oz miqdorda esda olib qoladilar. Shuning uchun ular egallashi lozim bo'lgan materialni kam o'zlashtiradilar. Bu esa o'qituvchi dars o'tish vaqtida beriladigan materialning hajmiga ham alohida e'tibor ajratishini talab qiladi. Xotira hajmi qancha rivojlansa, bu ularning bilim olish malakalarini rivojlantiradi.

Xotira hajmini rivojlantirish uchun bolaning individual xususiyatlari inobatga olinadi. Agar aqli zaif bolada bilish jarayonlarining pasayishi bilan birgalikda unda nutqiy nuqsonning bir qancha qo'pol buzilishlari, shu bilan birgalikda tutqanoqlik yoki bo'lmasa eshitish idrokining pasayishi birgalikda kelsa, bu bola bilan ishlash jarayonida barcha nuqsonlari inobatga olinadi. Ya'ni bunday bolaning xotirasini rivojlantirish uchun uning bilish jarayoniga va eshitish xususiyatiga tayangan holda ishlar tashkil etiladi. O'qituvchi aqli zaif bolalar haqidagi bilimi bilan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Chunki bunday bolalar mujassam nuqsonli bolalar sanaladi.

Bugungi kunda inklyuziv ta'limning joriy etilishi ma'lum bir nuqsonga ega bo'lgan bolalarning ta'lim olishiga katta yordam beradi. Asosan ko'rishida nuqsoni bo'lgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalar bilan ta'lim olish huquqiga ega bo'ladilar. Aqli zaif bolalar ham bundan mustasno emas.

Aqli zaif bolalar maktabida yuqori sinflarda bolalarning biror-bir hunarga ega bo'lishi uchun mehnat darslari tashkil etilgan. Bu darslar o'quvchilarni nafaqat biror-bir hunarga, shu bilan birga ularning bilish jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazadi, sababi bola ish-

lash davomida bir qancha ruhiy jarayonlardan foydalanadi, jumladan xotiradan ham. Dars vaqtida o'quvchilar ham bilim oladilar, ham ishlash vaqtida ularning bilish jarayonlari rivojlanadi. Aqli zaif bolalar bilan qancha erta ish tashkil etilsa, bu ularning bilish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq vaqt davomida aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlangan deb yuritilardi. Hozirgi kunda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aqli zaif bolalar xotirasi mexanik ravishda rivojlanmagan, chunki mexanik xotira rivojlanishi uchun ham analiz-sintez malakalari yaxshi shakllangan bo'lishi kerak. Aqli zaif bolalarda esa analiz-sintez malakalari rivojlanishi bir qancha orqada qolgan bo'ladi.

Tadqiqotlarga qaraganda aqli zaif bolalar xotirasi o'n bir va o'n ikki yoshda biroz rivojlanar ekan. O'n uch va o'n to'rt yoshlarda esa aqli zaif bolalar mustaqil ravishda mantiqiy tushunchalardan foydalanishlari mumkin, o'n besh yoshlarda esa aqli zaif bolalarning materialni eslab qolish qobiliyati sog'lom bolalarga yaqinlashadi. Bu shundan dalolat beradiki, demak aqli zaif bolalar bilan olib boriladigan ishlar o'z vaqtida to'g'ri va aniq yo'lga qo'yilsa, bu ularning rivojlanishiga yordam beradi. Defektologning asosiy maqsadi esa aqli zaif bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olib, korreksion ishlarni tashkil etishdan iborat.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, aqli zaif bolalar xotirasi ham rivojlanadi, faqatgina aqli zaif bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim. Aqli zaif bolalar xotirasini tekshirish uchun «10 ta so'zni yod olish» metodikasi, «L.V. Zankov» metodikasi, «Voqealar ketma-ketligini aniqlash» metodikalari tavsiya etiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Xotira psixologik jarayonini izohlab bering.
2. Aqli zaif o'quvchilarning qisqa muddatli xotirasi.
3. Aqli zaif o'quvchilarning uzoq muddatli xotirasi.
4. Aqli zaif o'quvchilarning xotira xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlari mazmunini yoritib.

2.4. Aqli zaif o'quvchilarning diqqati

Diqqat ongning ma'lum manbani to'laroq aks ettirishi uchun o'sha manbaga qaratilishidir. O'sha manbalarga diqqatni qaratish bilish esa, shaxsning faolligini bildiradi. Diqqat hayotda ruhiy faoliyatning bir tomoni bo'lib ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga muvaffaqiyatli bilim, ko'nikma, malaka egallashning asosi hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat ruhiy hayotning xususiyati sifatida mehnat faoliyatida yuzaga kelgan. Diqqatning fiziologik mexanizmlari juda ham murakkabdir. Mutaxassislarning ta'kidlashlaricha, diqqatning mexanizmi reflektor faoliyat bilan bog'liq. Diqqatning namoyon bo'lishini, yuz berishini kishining holatidan, yuz mimikasidan ham bilsa bo'ladi. K.D.Ushinskiy diqqatni inson qalbining eshigi deb bejiz ta'riflamagan bo'lsa kerak. Insonning faollik darajasiga ko'ra diqqatning 3 turini ajratish mumkin:

1. Ixtiyorsiz diqqat.
2. Ixtiyoriy diqqat.
3. Ixtiyoriydan so'nggi diqqat.

Ko'pincha tadqiqotchilarning ta'kidlashlaricha, mo'ljal olish faoliyati hamda yangi tasavvurlarga ehtiyoj hammadan ko'ra bosh miya po'stlog'i to'laqonli bo'lmagan go'daklarda zaiflashgan bo'ladi (S.S.Korsanov, G.Y.Suxaryova). G.Y.Suxaryova ta'kidlashicha, «Oligofren bo'lgan bolalarda sog'lom bola uchun xarakterli bo'lgan atrof-muhitni o'rganishga shiddat bilan intilish mavjud bo'lmaydi».

Aqli zaif bolalar diqqatining o'ziga xosligi anchagina faktorlarga bog'liqdir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari aqli zaiflikning o'zak belgilari (nerv jarayonlarining kam harakatliligi, dominantaning zaifligi, mo'ljal olishning buzilishi) uning butun shaxsiy rivojlanishining borishida chuqur iz qoldiradi, diqqatning tahliliga olib keladi. Bu esa o'z navbatida psixik faoliyatning mazmuniga kirarkan, uning jarayoniga hamda natijasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, bu bolaning analiz va sintez jarayonlarining nisbatan yuqoriroq darajasini talab etuvchi vazifalarni bajarayotganida ayon bo'ladi.

Diqqatning kamchiliklari nutqda o'z asoratini qoldiradi. Bunday bolalar o'zlarining va o'rtoqlarining nutqiga e'tibor berishmaydi. Bu esa harakatlarning parokandaligiga sabab bo'ladi. Diqqat kamchi-

liklari xususan notanish materialni o'tishda, qiyinchiliklarga duch kelganda namoyon bo'ladi. Aqli zaif bolalar qiyinchiliklarni yengib emas, uni chetlab o'tishga urinadi. Aqli zaif bolalarning intilishlari mushohada va muhokamalari bilan asoslanmagan bo'ladi.

Aqli zaif bolalarda iroda jarayonlarining yetarli rivojlanmaganligi hamda hislarini intellektual boshqarishning zaifligi tufayli yorqin va kuchli qo'zg'atuvchilardan foydalanib ixtiyoriy diqqatni tez va osongina keltirib chiqarish mumkin. Lekin ular diqqatini tutib turishi juda mushkul bo'ladi.

Uyg'onish jarayonlarining buzilishi hamda ichki tormozlanish aqli zaif bolaning ish qobiliyati buzilishiga olib keladi. Asab tizimining kam harakatligi, ulardan birining qotib qolishi aqli zaif bolalarga o'z diqqatini bir obyektidan boshqasiga ko'chirishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, bu faoliyatning boshqa turiga qiyinchilik bilan ko'chishga olib keladi. Tanaffusdan so'ng aqli zaif bolalar o'quv materialining mazmuniga o'zlarini qayta jalb etolmaydilar, o'quv jarayoniga kirishib ketolmaydilar. Bu xususan lanj, tormozlangan bolalar uchun xarakterlidir. To'satdan berilgan savolga bola, garchi materialni bilsa ham darhol javob bera olmaydi. Unga diqqatini yangi mazmunga ko'chirish uchun muayyan vaqt kerak.

Sog'lom rivojlanayotgan quyi sinf o'quvchilari bilan aqli zaif bolalar orasidagi keskin farq diqqatni taqsimlashda namoyon bo'ladi.

Ta'lim olish jarayoni diqqat-e'tiborni bir joyga to'plashni talab qiladi. Lekin aqli zaif bolalarda asosiy g'oya zaifdir. U qiyinchilik bilan shakllanadi va yengil so'ladi. Tez yo'qoluvchi bir g'oyaning o'rniga ikkinchisi yuzaga keladi. Bu diqqatning patologiyasiga, faol diqqatning buzilishiga, diqqatning noixtiyoriy tebranishida o'z ifodasini topgan ortiqcha chalg'uvchanlikka olib keladi. Bunday parokandalikda bola o'z faoliyatini ko'ziga nima ko'rinsa shunga sarflab hech bir ishini oxiriga yetkaza olmaydi, o'z diqqatini o'rganish obyektiga jamlay olmaydi.

Diqqatning chalg'uvchanligi uning parishonxotirligida o'z ifodasini topadi. Bu esa diqqatning barqarorligiga batamom ziddir. Toliqish, asablarning bo'shligi, asab tizimining holdan toyishi natijasida tashqi qo'zg'atuvchilarni kuchaytiruvchi chalg'uvchanlik sodir bo'ladi.

Chalg'uvchanlikning oldini olish uchun ma'lum bir vaqtda faoliyat turini o'zgartirib turgan ma'qul. Agar bunday qilinmasa bolalar tormozlanish holatiga tushib qolishib, mehnatdan chiqib ketishadi.

Aqli zaif bolalar irodaga bog'liq ishlarni har doim deyarli qoniqarsiz bajaradilar. Bu o'rinda mashhur fransuz pedagogi E.Segenning ushbu fikrlari e'tiborga loyiq: «Chuqur aqli zaif bola hech narsa qila olmaydi, hech narsa bilmaydi, eng kerakligi esa – u hech narsani xohlamaydi». Demak, aqli zaif bolalardagi asosiy nuqson xohish, istakning yetishmasligidir.

Shu narsa ma'lumki, aqli zaif bolalar dars jarayonlarida tez charchaydilar. Bu bolalarning diqqatlari uzoq muddat biror nuqtaga, ta'limga qaratilmaydi. Shuning oqibatida bu bolalar tez-tez darsdan chalg'ib turadilar. Aqli zaif bolalarning dars vaqtlarida chalg'ib turishlari, ularning o'z xohish-istaklari bilan emas, balki bosh miyalarida yuz bergan kasallikning natijasidir. Shu sababli yordamchi maktablarning xodimlari bunday holatlarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari kerak.

Ta'lim jarayonlarida ixtiyoriy diqqatning vaqti-vaqti bilan ixtiyorsiz diqqatga o'tib turishi yaxshi samara beradi, ya'ni bolaning ixtiyoriy diqqatlari muddati cho'zilib boradi.

Diqqat xususiyatlari

Diqqat xususiyatlariga uning hajmi, taqsimlanishi, yig'ilishi, turg'unligi, o'tishi kiradi.

Diqqatning kuchli va barqaror bo'lishi bir qancha sabablarga bog'liq. Odam o'zining diqqatini uzoq muddat qiziq yoki mazmunli bo'lmagan narsaga qarata olmaydi. Agar diqqatimiz qaratilgan narsa qiziqarli va yangi mazmundor bo'lsa, shu narsaga diqqatni ancha vaqt qaratib turish mumkin. Shu sababli yordamchi maktablarda ta'limni qiziqarli tashkil etish borasida ko'p gapiriladi. Ayrim bolalarning diqqat hajmi keng bo'lsa, ayrim bolalarning diqqat hajmi tor bo'ladi. Bolalarning diqqati ayni bir vaqtda faqat bitta narsagagina emas, balki ikkita yoki uchta narsaga ham birdaniga qaratilishi mumkin. Demak, diqqatning bo'linishi deganda biz ayni bir vaqtda diqqatimizning ikki yoki uch narsaga qaratilishini tushunamiz. Diqqatning ana shunday xususiyatini diqqat-

ning ko'chuvchanligi deb yuritamiz. Diqqatning yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlari tufayli odam atrofdagi muhitga, undagi turli-tuman o'zgarishlarga tez moslasha oladi.

Diqqatning bu asosiy xususiyatlari bolaga tug'ma ravishda, irsiy yo'l bilan berilmaydi. Bu kabi xususiyatlar yoshlikdan boshlab turli faoliyatlar – o'yin, o'qish, mehnat jarayonlarida tarkib topib boradi. Ana shuni nazarda tutib maxsus maktablarning barcha o'qituvchilari turli-tuman dars va o'yin jarayonlarida bolalar diqqatini har tomonlama hamda izchil ravishda shakllantirib borishlari kerak.

L.S. Vigotskiyning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalarda diqqatning oliy shakllarining buzilishi biologik va madaniy rivojlanishi orasidagi bog'liqlikning buzilishidir.

Aqli zaif bolalar bilan korreksion ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bola diqqatining fiziologik mexanizmlarini bilish talab etiladi.

Aqli zaif bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatdan pastdir. Buning sababi, ichki tormozlanishning zaifligi va tashqi tormozlanishning yaqqol ko'zga tashlanishidir. Qiyin boshqariladigan tashqi tormozlanish aqli zaif bolalarda diqqatning turg'unsizligiga olib keladi. Aqli zaif bolalardagi diqqatning taqsimlanishi, o'tishining qiyinligi tormozlanish va qo'zg'alish jarayonlarining mo'rtligi asosida yuz beradi. Aqli zaif bolalar diqqatini tarbiyalab borishda ularning oliy asab faoliyatining tiplarini e'tiborga olish darkor. Aqli zaif bolalar diqqatini shakllantirib borish shaxsni shakllantirib borish bilan uzviy bog'liq. Aqli zaif bolalar diqqatini qator psixologik metodikalar bilan o'rganish mumkin. Ayniqsa, «Shulte jadvali» metodikasi, «Korrektur sinov» metodikasi va «Belgilarni qo'yib chiq» metodikalar yaxshi natija beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Diqqat va uning turlari, xususiyatlariga tavsif bering.
2. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat xususiyatlari haqida nima bilasiz?
3. Aqli zaif o'quvchilarning diqqat xususiyatlarini tekshirish uslubiyatlarini ochib bering.

2.5. Aqli zaif bolalar nutqi.

Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining o'ziga xosligi

Insonning eng muhim fazilatlaridan biri uning so'zlash qobiliyatiga ega bo'lib, nutq vositasida o'zaro aloqa bog'lay olish, fikrlasha bilishidir. Turli tovushlarning ma'lum tartibda birgalashib, payvasta bo'lib qo'shilishidan yuzaga kelgan ma'noli nutq muayyan organizmlarning faoliyati natijasida paydo bo'ladi.

Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til birliklarini o'rinli qo'llash yotadi. Tilning murakkab sistemasi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi. Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida nafaqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanish jarayonida murakkab, sifati jihatidan yangi birlik nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi.

Kishilarning tili vositasida o'zaro munosabatda bo'lish jarayoni nutq deb ataladi.

Nutq va tilni ayni bir narsa deb hisoblash yaramaydi. Nutq odam boshqa kishilar bilan munosabatda bo'lish maqsadida tildan foydalanadigan faoliyatdir. Har bir odam muomalani o'zicha amalga oshiradi. Lekin bu muomala muayyan millat foydalanadigan o'sha bir xil vositalari yordamida yuz beradi. Til esa ana shu vositalar yordamida vujudga keladi. Til tovush va so'z boyligi, shuningdek, grammatik shakldir. Til ijtimoiy ishlab chiqarish taraqqiyoti davomida kishilar o'rtasidagi nutq vositasidagi muomala jarayonida paydo bo'ladi va uni inson tayyor holda o'zlashtirib oladi.

Nutq birgalikda mehnat qilish jarayonida kishilarda bir-biriga nimadir aytish ehtiyoji tug'ilgan vaqtda yuzaga keladi. Kishilar nutq yordamida o'z zamondoshlariga muayyan vaqtda nimalar yuz berayotganini xabar qilibgina qolmaydilar, balki insoniyat to'plagan bilimlarni avloddan avlodga yetkazib beradilar. Bola

nutqni egallab olganidan keyin o'zi tug'ilgan jamiyat hayotida kishilar bilan munosabatda bo'ladi. Agar bola biror sababga ko'ra nutqni eslab qolmasa, uning aqliy kamoloti past darajaga tushib qolishi mumkin.

Fikrlash o'quvchining nutqi va tafakkuri o'sishida muhim vositadir. Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib, yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil, farq tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi, ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Fikrni ifodalash usuliga ko'ra nutq og'zaki va yozma bo'ladi. Og'zaki nutq yozma nutqdan quyidagilar bilan farqlanadi: og'zaki nutq – tovush nutq, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og'zaki nutqda intonatsiya, mimika, imo-ishora jestikulatsiyadan keng foydalanib, eshitish sezgisi asosiy rol o'ynaydi. Yozma nutqda esa ko'rish va motor harakat sezgisi asosiy rol o'ynaydi. Yozma nutq nutqni aniqroq idrok qilishga yordam beradi.

Tafakkur va nutq bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Shaxs o'ylayotganda, odatda, fikrlar so'zlar, jumlar tarzida, ichki nutq deb ataladigan nutq tarzida ifoda etiladi. Biroq shunday hollar ham bo'ladiki, shaxs fikrini so'zlar bilan ifoda eta olmay qoladi. Bu holda odam ichki nutqdan tashqi ifodaga o'tishda o'z fikrini boshqa kishilarga tushunadigan qilib bayon etishda qiynaladi.

Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan oldin u haqida o'ylab oladilar. O'ylagan paytida ovoz chiqarmasdan ichki nutqdan foydalanadilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, o'ylangan va fikrlangan nutqdir. Bu nutq fikrlovchi kishining o'ziga qaratiladi. Ichki intonatsiya, mimikadan foydalanish imkoni bo'lmaydi. Shu munosabat bilan yozma nutq ancha qiyinchilik tug'diradi. Yozma nutq ancha murakkab va mavhumdir. Og'zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o'zaro aloqa vositasi, quroli sifatida xizmat qiladi. Og'zaki nutq monologik va dialogik nutq bo'lishi mumkin. Monologik nutq nomining o'zi aytib turganidek, bitta odamning nutqidir. U ko'pincha boshqa kishilarga, tinglovchilarga (ma'ruza, hikoya) qaratilgan bo'ladi, le-

kin monologik nutq tinglovchilarga qarata aytilayotgan vaqtida ular uchun tushunarli bo'lishi kerak.

Dialogik nutq ikki yoki undan ortiq kishining suhbatidan iborat bo'ladi. Har bir so'zlovchining fikrlari odatda almashinib turadi va odatda u monologik nutq singari davomli bo'lmaydi. Nutqning hamma aytib o'tilgan turlari aktiv nutq tushunchasiga kiradi. Ammo passiv nutq ham bo'ladi, u kishining nutqini idrok etishi va tushunishini o'z ichiga oladi.

Bola nutqining normal rivojlanishi, unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Bolaning atrofidagi katta odamlar qaysi tilda gaplashsalar, bola ham shu tilni o'rganadi. Nutqni egallashdek juda ham qiyin jarayonni bola qisqa muddat davomida uddasidan chiqa oladi.

Bola rivojlanishida psixik jarayonlar bilan birga eshitish qobiliyati juda katta ahamiyatga ega. Bolaning normal rivojlanishida va umuman, barkamol bo'lib o'sishida barcha psixik jarayonlar bilan eshitish qobiliyati chambarchas bog'liq holda, hech qanday nuqsonsiz rivojlangandagina uning nutq boyligi normal darajada rivojlanadi.

Aqli zaif bolaning xususiyati shundaki, uning psixikasi qoidaga bo'ysunmaydigan sharoitlarda, anomal taraqqiy topish jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola sog'lom tengdoshlaridan shu bilan farqlanadiki, uning ilgari tajribasi va rivojlanishida bundan keyingi psixik kamol topish uchun zarur shart-sharoitlarni tashkil etuvchi mexanizmlar hamda psixik jarayonlar shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, aqli zaif bolaning umumiy psixik taraqqiyot darajasi odatdagi sharoitlarda uning maktab bilimlari, ko'nikma va malakalarni ongli sur'atda egallashini ta'minlay olmaydi. Bolaning psixik kamol topishiga uni ommaviy maktabda o'qitib ko'rish zarar yetkazadi. U maktab yoshiga yetarkan, o'qish uchun yetarli tayyorlanmagan holda bo'ladi, o'quv topshiriqlarining maqsadiga diqqatini to'play olmaydi, qiyinchiliklarni yengib o'ta olmaydi. Maktabdagi tartib qoidalarga bo'ysunolmaydi. Bularning hammasi o'zlashtirmaslikka olib keladi. Shuning uchun yordamchi maktabning muhim vazifalaridan biri o'quvchini umumiy taraqqiy topishida ilgari siljitish uchun pedagogik jarayonga korreksion momentlarni singdirishdan

iborat. Yetakchi faoliyat uning psixik jarayonlari va shaxsiy xususiyatlarida eng bosh o'zgarishlarni taqozo etibgina qolmay, balki uning o'sib borishida yaxshi ko'rsatkich hamdir.

B.N. Pinskiy ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlari mustaqil holda yoki o'qituvchining ozgina ko'magi bilan bajara oladigan vazifalarni uddalashlari uchun propedevtik va korreksion tarbiyaviy tadbirlarga muhtojdir.

Nutqini o'z vaqtida to'g'ri egallash bolaga atrofini o'rab turgan odamlar bilan erkin muomala qilish imkonini beradi, o'z nutqini boshqarishiga ko'maklashadi va nihoyat maktabda ta'lim-tarbiya berish jarayonini ancha yengillashtiradi.

Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar. Birinchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshigacha kechikadi. Eng avvalo, bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarni qayd etish kerak. G.A. Kainning tadqiqotlariga ko'ra, yordamchi maktab o'quvchilarining 66 foizi tutilib gapirishning u yoki bu shakliga duchor bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy hol emas. Zotan, bosh miya po'stlog'ining shikastlanishi, fonematik eshituvning buzilishiga, artikulatsion apparat harakatining izdan chiqishiga olib keladi. Aqli zaif bolalar tilning lug'aviy boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladilar. Aqli zaif o'quvchilar qo'llaydigan so'zlar zaxirasi odatdagi me'yorga tenglashtirib bo'lmaydigan darajada tordir. Ular ko'pincha so'zlarning ma'nosini tushunmaydilar: 1) mavhum tushunchani ifodalovchi mashaqqat, qimmatroq, arzonroq; 2) ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlar.

Ko'chma ma'noda qo'llangan so'zlarning mohiyatini tushunmaydilar, «Oltin bosh» degan ibora bolada kulgi uyg'otadi, hamda ularning e'tiroziga duch keladi. «Bunaqasi bo'lmaydi» deyishadi ular. Nari borganda o'quvchilar bu ibora vositasida quyoshda yiltillagan sochlarni tushunishadi. Hatto yordamchi maktabning yuqori sinf o'quvchilari ko'chma ma'nodagi so'z birikmalarini to'g'ri sharhlashda qiynalishadi. Aqli zaif bolalarning nutqini farqlaydigan yana bir xususiyat bu ularning so'zlarni noto'g'ri talaffuz etishlaridir.

Gap shundaki, miya po'stlog'ining analizatorlik faoliyati buzilishi tufayli, atrofdagilar haqida noaniq tasavvurlar o'quvchilarni

kuzatgan narsa va hodisalarni noaniq atashga olib keladi. Natijada predmetlarning o'xshashligini ilg'ab ularning farqini ilg'amasdan bunday predmetlarni bir xil so'z bilan atashadi. Aqli zaif bolaning faol lug'ati uning nafaol lug'atidan kambag'alroq bo'ladi.

M.P.Feofanovning tadqiqotlariga ko'ra aqli zaif bolalarning nutqiga oid qo'shimchalar sog'lom intellektidagi bolalarnikiga nisbatan ikki barobar kam bo'lishi aniqlangan. Yordamchi maktab o'quvchilari, xususan, yuqori sinf o'quvchilari og'ir, baland, past, chuqur va shu singari so'zlarni osongina tushuntirishadi. Ulardan maxsus xarakterdagi mashqlarda to'g'ri foydalanishadi. Biroq o'z vaqtida ular chegaralangan doiradagi sifatlarni xush ko'rishadi. Jumladan, yaxshi, yomon, katta va kichik singari. Shu boisdan ham o'quvchilarning so'zlab berishlari noaniq va bir xil bo'lib qoladi. Jumladan, ular shunday hikoya qilishadi: «Zumradning turmushi yomon edi», «Murodjon hayvonlarga yaxshi munosabatda bo'lar edi». Mazkur holda tormoz jarayonining, xususan, differensiallangan tormozlanishning zaifligi aqli zaif o'quvchilar yoqtiradigan so'zlar, bosh miya po'stlog'ida tormozlanmaydi, ular topshiriqning mohiyatini hisobga olmasdan tez aytib yuborishadi. Aqli zaif bola hikoyalarining yoyiqligi, ko'p jihatdan ular nutqida motivlarning bo'lmasligi bilan izohlanadi. Bunday o'quvchilar gap qurishga ham qiynaladilar. Bu holat so'zlar moslashuvida ko'p uchraydi va ular nutqiga xosdir. Aqli zaif o'quvchilar nutqi sintaktik jihatdan ham o'ziga xos ravishda ajralib turadi. Eng avvalo, gaplarning tuzilishiga ko'ra jo'nligini qayd etish kerak. Yordamchi maktab o'quvchilarining nutqida qo'shma gaplar odatda ibtidoiy ko'rinishda, oddiy bog'lanishda uchraydi. Chunki o'quvchilar bir narsani ikkinchisiga qiyoslashda, hodisalarning sababiy bog'lanishlarini ochib berishda qiynalishadi. Gaplarning tuzilishidagi bu xil jo'nlik aqli zaif bolaning bosh miya po'stlog'ida shakllanuvchi oddiygina aloqalarga mos keladi. Buning ustiga, aloqalarni yetarli aniq anglamasligi, aqli zaif o'quvchilar fikrining noaniq tugalangan bo'lib qolishiga olib keladi. Bolalar o'qiyotgan, eshitayotgan, ko'rayotgan narsalar haqida bir qator xatolarga yo'l qo'yadilar. Aqli zaif bolalar, hatto 1-sinf o'quvchilari hamma vaqt ham o'zgalarning og'zaki ko'rsatmasi bo'yicha faoliyat ko'rsatisha olmaydi. A.R. Luriya, N.P. Paramanova, O.K. Tixomirov (1973) va boshqalar o'tkazgan

tajribalar shuni ko'rsatadiki, aqli zaif bola o'zining harakatlariga qo'llanma bo'la oluvchi umumiy qoidalarni mustaqil ifodalab berishga qodir emas. Aqli zaif bolaning ichki nutqi tashqi nutqiga nisbatan ko'proq shikastlangan bo'ladi. Ichki nutq aqlida shakllangan har qanday fikrning moddiy qobig'idir. Aqli zaif bola nutqidagi bunday nuqsonlar, ularning o'qishini qiyinlashtiradi. O'quvchilar hamma vaqt ham o'qituvchining tushuntirishlarini fahmlashavermaydi, matn mazmunini mustaqil tushunib yetmaydi, o'z harakatlarini o'rganilgan qoida bilan zaif nazorat etishadi. So'z ular uchun narsaning o'zi bilan chatishib ketgan bo'ladi, uning aniq mazmunidan ajratish uchun, ya'ni uni grammatik, fonetik jihatdan o'rgana boshlash uchun katta shijoat talab etiladi. 2-sinf o'quvchisiga Misha va Masha so'zlarining yozilishidagi farq nimada? degan savolga «Misha o'g'il bola, Masha qizcha», deb javob bergan. Bunday bolalar so'zlarining grafik tasviriga e'tibor berishmaydi. Faqat sinchiklab, harfma-harf qilingan tahlilgina ularning to'g'ri xulosa chiqarishlariga yordam beradi. Bu yerda aqli zaif bolalarning xususiyatlarini mutlaqo yengib bo'lmaydigan, o'zgarmas narsa deb hisoblash to'g'ri emas.

Ilg'or pedagog-defektologlarning tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'limning maxsus tashkil etilgan sistemasi yordamida aqli zaiflarning nutqiy faoliyatidagi nuqsonlarni korreksiyalab borish, tafakkurning kechikishidagi nuqsonlarni oshirish mumkin. Aqli zaif bolalar juda ko'p tovushlarni, ya'ni sirg'aluvchi, til orqa, sonor tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Bunday holat bola nutq apparatining yaxshi rivojlanmaganligidan dalolat beradi. Bu guruhga kiruvchi bolalar orasida tovushlarni buzib talaffuz etish, boshqa tovushlarga almashtirish ko'proq foizni tashkil etadi. Shuning uchun ham logopedlarning, o'qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o'stirishdir. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg'unlashib, moslashib ishlashiga bog'liqdir. Shuning uchun ham logopedlarning, o'qituvchilarning asosiy vazifasi aqli zaif bolalar nutqini har tomonlama o'stirishdir. Tovushlarni to'g'ri talaffuz etish bola artikulyatsion apparatining yaxshi uyg'unlashib, moslashib ishlashiga bog'liqdir. Shuning uchun hamma vaqt tovushlar ustida ish olib borilar ekan, albatta artikulyatsion gimnastikalar o'tkaziladi. Ayrim unli va undosh tovushlar asta-sekin egallab bo-

riladi. Bolalarning ko'pchiligi ayrim tovushlarni, ya'ni R, S, K, G, M, SH, CH tovushlarini talaffuz etishda qiynaladilar, so'zlarni buzib talaffuz etadilar. Ba'zi bolalar so'zdagi bo'g'inlar o'rnini o'zgartirib, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qiladilar.

Rus psixologi A.R. Luriya fikricha «Nutq tovushlarini idrok etishda nutqiy oqimdan signalli, fonematik belgilar ajraladi va nutq tovushlarini differenziatsiya qilish ushbu maxsus belgilarni kuchaytirishni hamda muhim bo'lmagan, tasodifiy, fonematik ahamiyatga ega bo'lmaganlardan ajratish asosida amalga oshadi? Shuni aytib o'tish zarurki, aqli zaif bolalarda faqatgina faol nutqning rivojlanishi kechikib qolmaydi. Bolalar ularga qaratib so'zlagan nutqni yaxshi tushunmaydilar. Kattalarning savollari, talablari, tushuntirishlari va ko'rsatmalari ularning hayotida birmuncha boshqa, ahamiyatsiz rol o'ynaydi».

Aqli zaif bolalarning maktabgacha tarbiya davridagi nutqiy aloqa qilish faoliyati bilan bog'liq tajriba kamroq vaqtni 3–4 yilni o'z ichiga oladi. Shunda ham uning rivojlanish sur'ati keskin orqada qolgan, nutq faolligining zaifligi kuzatiladi. Bolaning maishiy so'zlashuv nutqi yaxshi rivojlanmagan bo'ladi. Bu esa oligofren bolaga kattalar bilan nutqiy aloqa qilishni qiyinlashtiradi. Bola suhbatlarda ishtirok etaolmaydi, savollarga bir xil tarzda va doimo ham to'g'ri javob bermaydi. Topshiriq va vazifalarni bajarish unga qiyinchilik tug'diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xos bo'lgan umumiy motor rivojlanmay qolishi ham nutqning rivojlanishining sekinlashishida ma'lum bir rol o'ynaydi. Motorikaning (harakatlarning) rivojlanmay qolishi bolaning atrof-dunyo bilan tanishish jarayonini buzadi va natijada ular haqida tasavvur va ma'lumotlarni to'plashni tormozlaydi. Aqli zaif bolalarda kuzatiladigan motorikaning nuqsonlari ular nutqining talaffuz tomoniga ham ta'sir etadi. Chunki nutq tovushlarining, so'zlarning ixtiyoriy talaffuzi nutq a'zolarining yuqori darajadagi koordinatsiyalashga harakatlarini talab etadi. Aqli zaif bolalar uchun esa nutq a'zolarining koordinatsiyalashgan harakatlari qiyinchilik tug'diradi.

Aqli zaif bolalar uchun xarakterli bo'lgan fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi va nutq harakatidagi kamchiliklar bir-biriga ta'sir etadi va nutqning rivojlanishini tormozlaydi. Ammo shuni nazarda tutish lozimki, nutq a'zolari harakatidagi kamchiliklarni haddan tashqari ko'pirtirib ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'lmaydi,

chunki bu buzilishlar keyinchalik oson bartaraf etilishi mumkin. Asosiy, yetakchi rol fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligiga tegishli bo'lib, u aqli zaif bolalarning umumiy rivojlanish nuqsonlarining oqibatidir.

Nutq nuqsonlarining aqli zaif bola umumiy ruhiy taraqqiyotiga salbiy ta'siri J.I. Shif qo'llanmasida atroflicha, chuqur tahlil qilib berilgan. Muallifning e'tirof etishicha, aqli zaif bolalar bilan sog'lom bola orasidagi farq ularning faol nutqlarida ko'zga tashlanar ekan. Aqli zaif bolalar o'z nutqlarida sifat, fe'l, bog'lovchilardan juda kam foydalanar ekanlar. I.M. Savchenovning ta'biricha, so'z bola uchun ma'lum vaqtgacha narsalarning «taxallusi» sifatida tushunilib kelinadi. Bolalar ulg'aygan sari narsa nomlarining ahamiyati ham o'sib aniqlanib boriladi. Aqli zaif bolalarda «taxallus»lardan tushunchalarga o'tish jarayoni juda uzoq va qiyin shakllanadi. Yordamchi maktab birinchi sinf o'quvchilarining nutqidagi grammatik tuzilishlar takomillashmagan bo'ladi. Ularning jumalari bir so'zdan, sodda so'zlardan iborat bo'ladi. O'z fikrlarini bayon qilishda juda qiynaladilar. Maktab yoshidagi aqli zaif bolalar nutqi sog'lom 3–4 yoshli bolalar nutqini eslatadi, bu bolalar o'z fikrlarini o'ylab tugatmasdan yoza boshlaydilar. Shuning natijasida, gapning boshlanishi bilan tugashi orasida bog'liqlik bo'lmaydi. Yordamchi maktab o'qituvchilari aqli zaif bolalarga yozish, o'qish malakalarini o'rgatishda ko'p qiyinchiliklarga duch keladilar.

Debil darajadagi aqli zaif o'quvchilar nutqidagi grammatik qurilishning buzilishlari masalasi qator olimlar tomonidan (rus tadqiqotchilari M.S. Gnezdilov, M.N. Yefimenkova, I.N. Sadovnikova, O.L. Jilsova, M.P. Fiofanovalar ishlarida) o'rganilgan. Ularning ko'rsatishicha, aqli zaif bolalar nutqda gaplardan ancha kechikib foydalana boshlaydilar. Dastlabki jumalalar aqli zaif bolalarda 5 yoshdan so'ng paydo bo'la boshlaydi va u bir qator kamchiliklarga ega bo'ladi. Aqli zaif bolalarning nutqi asosan sodda gaplardan iborat bo'ladi. Ular maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshida ham sodda gaplar tuzilishini egallab olmagan bo'ladilar. Tuzgan gaplarida grammatik xatolar juda ko'p kuzatiladi, gaplardan boshqaruv va moslashuv bog'lanishlar buzilishlari yuz beradi. Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda quyidagicha gap tuzilishlarini eshitish

mumkin: «U bosh yo'q», «Bola maktab ketdi» va hokazo. Aqli zaif bolalar ko'pincha bir so'zdan iborat gaplar qo'llaydilar. Bu «gap-so'zlarda» bayon etilayotgan fikr ajratilmagan ko'rinishda bo'ladi.

Ko'pincha aqli zaif bolalar grammatik jihatdan to'liq bo'lmagan gaplar tuzadilar. Ularda gapning tuzilishi qoidasi asosiy bo'laklarni tashlab ketish hisobiga qo'pol buziladi. Masalan, «Olmaxon daraxtda o'tiribdi» o'rniga «Olmaxon daraxt», «Bola televizor ko'rdi» o'rniga «Bola ko'r» tarzda gapiradilar.

Aqli zaif bolalarning yozma nutqlari murakkab ruhiy faoliyatdir. Og'zaki nutqdan yozma nutqga o'tish — bolalar nutqining rivojlanishida yangi davrdir. Aqli zaif bolalarning so'zlarini tovush tomonidan tahlil qila olishlari grammatik qonun-qoidalarni muvaffaqiyatli egallashlarida asosiy vositadir. N.S. Rojdestvenskiyning ta'kidlashicha, «So'zdagi tovushlarni farqlamasdan, ularni ajratmasdan, bolalarni o'qish va yozishga, keyinchalik to'g'ri yozishga o'rgatish mumkin emas». Aqli zaif bolalarda o'z kuchiga ishonch hosil qilmasdan turib, yordamchi maktablar o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erisha olmaydi. Buning uchun aqli zaif bola bilan uning kuchi yetadigan elementar ko'nikma va malakalardan boshlash kerak. Bolalarning nutq faoliyatlari ham bundan mustasno emas. Yordamchi maktab o'quvchilarining ayrimlarida uchrab turadigan «Oynali» yozuv ham qator qiyinchiliklar bilan bartaraf etiladi. Qator aqli zaif bolalar yozuv malakalarini to'g'ri egallay olmaydilar.

Maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalarda bog'langan nutq shakllanmagan bo'ladi. Ular dialogda ishtirok eta olmaydilar. Monologik nutq aqli zaif bolalarda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Katta maktabgacha yoshdagi aqli zaif bolalar va boshlang'ich sinf o'quvchilari uzoq vaqtgacha nutq orqali mustaqil, keng bayon etishga o'ta olmaydilar. O'z fikrlarini og'zaki shaklda bayon etish uchun ular doimo kattalarning yordamiga muhtoj bo'ladilar. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda nutqning fonematik tomoni shakllanishi 4–5 yoshda o'tadi. Ona tilini egallash jarayonida u nutq oqimidan so'zlarni ajratishga, ularni tahlil qilish, ularning asosiy, ma'no beruvchi fonematovushlarni eshitishga hamda talaffuz qilishga o'rganadi. Asta-sekin eshitish analiz va sintezini aniqlab, artikulatsiya a'zolari ishining takomillashib borib, nutqning semantik tomonini o'zlashtirgan sari

bolaning talaffuzi ancha to'g'ri bo'lib boradi va maktabga borish vaqtida tilining fonetik normalariga mos keladi.

Aqli zaif bolalar talaffuzidagi nuqsonlar — nutqning to'liq rivojlanmaganligining ko'rinishlaridan biridir. Me'yorida rivojlanayotgan bolalarda kuzatiladigan talaffuz nuqsonlaridan farqli aqli zaif bolalarda uchraydigan talaffuz kamchiliklari boshqa, ancha murakkab, shuning uchun ham bartaraf etish qiyin bo'lgan sabablarga ega bo'ladi. Ularning asosida bola tomonidan ona tilining tovush tomonini o'zlashtirish sekinlashganligi yotadi. Aqli zaif bolaga eshitiishi bo'yicha o'xshash fonemalarni ajratish va so'zning tovush tahlilidagi qiyinchiliklardan namoyon bo'ladigan fonetiko-fonematik buzilishlar xosdir. Bular talaffuz nuqsonlarini keltirib chiqaradi. Haqiqatdan, o'xshash tovushlarni yetarlicha aniq ajrata olmasdan bola ularni to'g'ri talaffuz qilishni o'rgana olmaydi, chunki mustaqil ravishda o'zining talaffuzini nazorat qilib, takomillashtira olmaydi. So'zning tovush tahlili va sintezning nuqsonlari o'z navbatida ularning tuzilishini egallab olishga to'sqinlik qiladi. So'zlarda tovushlarni tashlab ketish, o'rnini almashtirish, shuningdek, so'zni oxirigacha aytmasslikka olib keladi.

Aqli zaif bolalarda fonematik eshitishning yomonligi, turli talaffuz kamchiliklari bolalarning yozish va o'qish faoliyatlariga ta'sir qilmay qolmaydi. Aqli zaif bolalar shaklan o'xshash harflarni bir-birlari bilan almashtirib yozadilar. Ular orasida ma'lum analizatorlari buzilgan bolalar ham uchrab turadi. Bunday mazmundagi kamchiliklar individual-korreksion ishlar bilan bartaraf etib boriladi.

Aqli zaif bolalarda nutqning fonematik nuqsonlari turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi bolalarda ular yaqqol namoyon bo'ladi. Bolalar ba'zi tovushlarni umuman talaffuz etmaydilar (SH, R, K va boshqalar), bir qator tovushlarni noaniq talaffuz etadilar (L, Z, B), artikulyatsiyasi va eshitiishi bo'yicha o'xshash tovushlar almashtiriladi. Aqli zaif bolalarning ba'zilarida tutilib gapirish kuzatilib, bu nuqson tovushlar talaffuzining buzilishlari yoki boshqa nutq nuqsonlari bilan birgalikda kelishi mumkin. Shubhasiz, talaffuz kamchiliklari aqli zaif bolalarda me'yorida rivojlanayotgan bolalarga qaraganda ko'proq uchraydi.

G.A. Kashening ma'lumotiga ko'ra, yordamchi maktab 1-sinf o'quvchilarining 65%, 2-sinf o'quvchilarining 60% da u yoki bu darajadagi talaffuz nuqsonlari kuzatiladi. I.P. Kornevning kuzatishlaricha, yordamchi maktabga o'qishga qabul qilinayotgan vaqtda aqli zaif bolalarning 60% turli talaffuz qiyinchiliklariga ega bo'ladilar.

Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar bartaraf etilganidan so'ng ham aqli zaif bolalar tovushlarni alohida talaffuz eta olsalar ham bu tovushlarni mustaqil so'zlashishda qo'llay olmaydilar. Chunki, alohida tovushlarni talaffuziga qaraganda tovushlardan o'zining faol nutqida foydalanish haqiqatdan murakkab faoliyatdir.

Aqli zaif bolalar bilan aloqa qilishda ular nutqining yetarli-cha ifodali emasligi ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqning fonetik ifodaliligining asosiy vositasi bo'lib jumlani aksentli ajratish va jumlaning intonatsiyasi xizmat qiladi. Aqli zaif bolalarning og'zaki nutqida ifodali vositalar juda zaif bo'ladi. Ularning nutqi monotonligi, intonatsiyasiz keraksiz pauzalar bilan xarakterlanadi. Alohida hollarda patologik sekinlashgan, past yoki tezlashgan, qo'zg'algan bo'ladi.

Aqli zaif bolalarda so'zlar boyligi odatda juda sekinlashgan bo'lishi kuzatiladi. Ular ko'pincha doimo uchraydigan, yaxshi tanish bo'lgan predmetlarning nomlarini ham bilmaydilar. G.L. Vigotskiyning ma'lumoticha, aqli zaif 1-2-sinf o'quvchilari lug'atida asosan ot va fe'llar ustunlik qiladi. G.M. Dulnev aqli zaif bolalar o'z nutqida sifatlardan kam foydalanadilar, deb ko'rsatadi.

Lug'at zaxirasining kamligi aqli zaif bolalarga o'z fikrini, his-tuyg'u va istaklarini aniq ifodalashga to'sqinlik qilibgina qolmasdan, balki bir qator hollarda ularga qaratib so'zlangan nutqni tushunishlariga xalaqit beradi. Ko'p hollarda ular bir so'z bilan bir necha tushunchalarni «umumlashtiradilar». Masalan, qushning tumshug'ini burni, ro'molni shapka va hokazo deydi. Bir qator hollarda aqli zaif bolalar bir so'z bilan bir-biriga yaqin predmetlarnigina emas, balki, ancha yiroq bir-biriga umuman yaqin bo'lmaganlarni ham bir so'z bilan ifodalaydilar. Masalan, qushning patini «soch» deb ko'rsatadilar, bunda aqli zaif o'quvchilar muhim bo'lmagan, faqatgina tashqi ko'rinish, ba'zan esa u yoki bu sababga ko'ra ko'zga tashlangan o'xshashlik asosida predmetlarni nomlaydilar.

Bir tomondan predmetlar ikkinchi tomondan so'zlar o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xosligi aqli zaif bolalarda kuzatiladigan predmetlararo differentsiatsiyasi haqida ma'lumot beradi. Aqli zaif bolalarning ko'pchiligi turli-tuman predmetlarni nisbatan oson tanib nomlaydilar. Ammo obyektlarning xususiyatlari o'rtasida o'xshashlik mavjud hollarda ularni nomlashda aqli zaif bolalar keskin qiyinchilikka uchraydilar.

Aqli zaif bolalar tomonidan predmetlarning sifatlarini nomlashda ham so'zlarni o'rinsiz, keng ma'noda tushunish va qo'llash holatlari kuzatiladi. Masalan, «katta» so'zi orqali obyektning faqatgina katta-kichikligini emas, balki og'irligi, uzunligi, qalinligi, balandligi va hokazolarni ifodalaydilar. Bunday xususiyatlar asosida aqli zaif bolalar tafakkur jarayonlari, xususan analiz va sintezning o'ziga xosligi yotadi. Atrofdagilarning yetarlicha aniq idrok eta olmay, anglay olmasdan aqli zaif bolalar predmetlarni differentsiatsiyalab nomlaydilar va umumlashgan, mavhum nomlar bilan chegaralanib qoladilar.

Aqli zaif bolalar nafaol lug'atining faol lug'atdan ustunligi kuzatiladi (G.M. Dulnev). Aqli zaif bolalarda so'zlarning ko'p qismi ularning nafaol lug'atiga kiradi, nutqda esa ularning juda kam qismi qo'llaniladi. Aqli zaif bolalar nutqi rivojlanishini tormozlaydigan asosiy omillardan biri bu kategoriyadagi bolalarga xos bo'lgan ona tilining semantik tomonini o'zlashtirib olishda yetishmovchilik hisoblanadi. Ma'lumki, bolalar tanish so'zlarni ancha oson talaffuz qiladilar va ajratadilar. Demak, so'zning ahamiyati bolaning fonematik eshitishni yo'naltirish va tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Umumiy rivojlanishdagi nuqsonlar aqli zaif bolalar tomonidan atrofdagilar predmetlarni nomlab yoki harakatlarni bajarayotib talaffuz etayotgan so'zlarni tushunishga to'sqinlik qiladi.

So'zlarning ma'nosini tushunishdagi nuqsonlar o'z navbatida fonematik eshitishning rivojlanishini qiyinlashtiradi, shu bilan bola nutqining shakllanishini tormozlaydi.

Me'yorida rivojlanayotgan maktabgacha yoshdagi bolada nutq hayotiy tajribani bevosita anglatish, atrofdagilar bilan aloqa qilish bilan chambarchas bog'liq shakllanadi. Bolaning faol amaliy va

bilim faoliyati uning tasavvurlari doirasini kengaytiradi, unda yangi ehtiyoj va qiziqishlarning paydo bo'lishiga turtki beradi. Bu esa o'z navbatida bolada kattalar bilan nutqiy aloqa qilish zaruriyatining keskin oshishiga olib keladi. Kattalar bilan aloqa qilish orqali bola o'zining lug'atini boyitadi, so'zlarning yangi ma'nolarini bilib oladi, so'z birikmalarini o'zlashtiradi, so'ngra ulardan o'z istaklari, hislari, boshqa odamlarga munosabatini va hokazolarni ifoda etish uchun foydalanadi. Kichik yoshdagi aqli zaif bolalarda ham nutqning rivojlanishi albatta uning hayotiy tajribasi oshishi va atrofdagilar bilan aloqa qilishiga bog'liq. Ammo psixikaning yoki ruhiyatning rivojlanmay qolganligi ularda tajribaning ortishi sekin va nuqsonli kechadi. Nuqsonli rivojlanayotgan amaliy va bilish faoliyati ko'p hajmdagi turli tasavvurlar tez to'plash uchun yetarlicha asos bo'la olmaydi va bolada yangi ehtiyoj hamda qiziqishlar paydo bo'lishiga imkon yarata olmaydi. Aqli zaif bola me'yorida rivojlanayotgan tengdoshiga qaraganda atrofdagilar bilan aloqa qilishga kamroq ehtiyoj sezadi va yetarlicha muloqotda bo'lmaydi. Kattalar bilan muloqot aqli zaif bolalarda kech va me'yordan chetga chiqishlari bilan shakllanadi.

Aqli zaiflikni keltirib chiqargan gidrotsefaliyada ba'zan nutq yaxshi rivojlangandek tuyulsada, aslida unday bo'lmaydi. Bunday bolalarning nutqida juda murakkab jumlar, so'zlar bo'ladi, ular nutqining grammatik tuzilishi ham juda murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu bolalarning fikr yuritishlari nasihatgo'ydek tuyuladi. Nutqning mohiyatiga o'zlari yaxshi tushunib yetmaydilar. Bu bolalar nutqi yaxshi rivojlangan bo'lsa ham aqli zaif bolalarning fikr yuritish quroli bo'la olmaydi. Aqli zaiflikdagi bunday o'ziga xos nutq juda kam uchraydi. Shizofreniya kasaliga uchragan aqli zaif bolalarning nutqi ham yuqoridagi holatga o'xshab ketadi. Bu bolalarda nutq malakalari, tushunish holatlari, sog'lom bolalardan ham tez shakllanishi mumkin. Ularning so'z boyliklari normal bolalarnikidan kam farq qiladi. Ammo, ular nutqida buzilgan so'zlar uchrashi mumkin. Bosh miya jarohatlarida, revmatizmida aqli zaif bolalarning og'zaki nutqlarida sezilarli muhim o'zgarishlar bo'lmaydi, shu bilan birga, ularning yozma nutqlarida yetarli kamchiliklar uchraydi. Bunday bolalarning yozish malakalari juda sekin

shakllanadi. Tutqanoq kasaliga muhtalo bo'lgan bolalarning nutqi dastlabki ko'rinishda aqli zaif bolalar nutqiga o'xshaydi, bu bolalar bir xil jumla, so'zlarni qaytarishga moyil bo'ladilar. Ular nutqida ortiqcha tutilishlar mavjud.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yordamchi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining 40–60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy qismni tili chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etadi. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatidagi roli barcha tomonlardan zararlangan bo'ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy-iroda, boshqaruvchanlik vazifalari buzilgan bo'ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko'zga tashlanmaydi. Nomuvofiqlik aqli zaif bola nutqi bilan uning xulqi orasida ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarini nazorat qilish uchun ham o'z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R. Luriyaning ta'kidlashicha, sog'lom bolalar bog'cha yoshidayoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Savol va topshiriqlar

1. Aqli zaif bolalarda nutq buzilishi turlarini aytib bering.
2. Aqli zaif bolalar nutqining fonetik va grammatik tomondan buzilishini misollar bilan asoslang.
3. Aqli zaif bolalarda leksika va bog'langan nutqning buzilishi.
4. Aqli zaif bolalarda yozma nutq buzilishlari.

III bob. AQLI ZAIF O'QUVCHILAR SHAXSI

3.1. Aqli zaif o'quvchining shaxsi va shaxslararo munosabat xususiyatlari

Shaxs haqida ta'rif berilganda, rus psixologi S.Y. Rubinshteynning fikrlariga to'xtalmoq kerak. Olimning ta'kidlashicha, odam o'zidagi takrorlanmas xususiyatlarga ko'ra individualdir. Odam o'z atrofida qilargana, borliqqa bo'lgan ongli munosabati, uning biror-bir faoliyat bilan shug'ullanishi esa uning shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shaxs odamning atrofga bo'lgan munosabatlarini va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Odamning atrof-muhitga bo'lgan munosabatlari uning dunyoqarashida, ishonchlarida va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida eng muhimi, uning faoliyatida ifodalanaadi.

Shaxs — bu onnga ega bo'lgan, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada yashaydigan, ma'lum bir faoliyat bilan shug'ullanadigan individdir.

Shaxs tarkib topishi uzoq muddatli, murakkab va tarixiy jarayondir.

Shaxs xususiyatlari ruhiy jarayonlarining kechishiga ta'sir etadi. Shaxsning yo'nalganligi, qiziqishlari va boshqalar barcha ruhiy jarayonlariga tanlanganlik tabiatini kasb etadi. Shaxs xususiyatlari atrof-muhitni aks ettirishda ham ahamiyatga ega. Masalan, ayrim odamlar atrof-muhitni oson va tez idrok etsalar, boshqalar esa atrof-muhitni eshituv, harakat va boshqa analizatorlar yordamida idrok etadilar. Oligofrenopedagogikaning asoschilaridan biri E. Segen ta'kidlab o'tgan aqli zaif bolalardagi «xohishning yo'qligi» shaxs shakllanishida qator qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. L.V. Zankov ham aqli zaif bolalar shaxsidagi qator kamchiliklar haqida batafsil ma'lumotlar beradi. Aqli zaif bolalar shaxsidagi disgarmoniya, nomutanosiblik ular shaxsining rivojlanishidagi yetakchi kamchiliklardandir.

N.L. Kolominskiy tomonidan aqli zaif bolalar shaxsiy sifatlarining shakllanishi yordamchi maktablarda qanday kechishini qator tajriba ishlari bilan tekshiradi. Bunda, aqli zaif bolalarga sinf jamoasining ta'siri masalalari ochib beriladi.

Har bir shaxs ijtimoiy mavjudod bo'lganligi sababli atrofdagi boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatga kirishmay turib mutlaqo yashay olmaydi. Inson shaxsining guruh va jamoadagi munosabatlarini ijtimoiy psixologiya fani o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya ta'limotiga ko'ra, 2 xil guruh farqlanadi. Ulardan birinchisi shartli guruh, ikkinchisi esa haqiqiy, real guruhdir. Odamlarning ma'lum belgilariga, ya'ni yoshiga, jinsiga, millatiga, kasbiga qarab shartli guruhlar tashkil qilish mumkin. Ma'lum jamiyatda ishlab, odamlar bilan haqiqiy munosabatga kirishish yo'li bilan hosil bo'lgan guruhni real guruh deb ataymiz. Masalan, talabalar guruhi, ishchilar guruhi, oila va shu kabilar real guruhlariga misol bo'la oladi. Shaxsning shartli va real guruhidan tashqari referent guruhi ham bo'ladi. Har bir shaxs o'z referent guruhiga ega bo'ladi. Referent guruhdagi odamlar shaxsga har tomonlama yoqadi, shu sababli shaxs ularni hurmat qiladi va aytgan gaplariga quloq soladi. Masalan, o'smir na ota-onasi, na sinf rahbarining gaplariga mutlaqo kirmasligi mumkin. Chunki o'smirning ko'chada o'z referent guruhi bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachi, sinf rahbari va ota-onalar bolalarning ishonchlarini qozonib, ular uchun referent guruh bo'lishga harakat qilishlari zarur. Aqli zaif bolalar ham sog'lom bolalar singari mehnat va o'qish faoliyatlarida muomalaga kirishadilar. Sinfda o'quvchilar faoliyat birligi, qarashlarning o'xshashligi, qiziqishlarining bir-birlariga mos kelishlari bilan muomalaga kirishadilar. Aqli zaif bolalar orasida shunday bolalar ham borki, ularning umuman o'rtoqlari yo'q, sinfdoshlari bilan hech qanday aloqasi bo'lmagan hollar ham uchraydi. Maxsus maktabning har bir o'qituvchi va tarbiyachisi shaxslararo munosabatlarning psixologik xususiyatlarini yaxshi bilishlari kerak. Shaxslararo munosabatlar mazmunini o'rganish asosida har bir aqli zaif bolani to'liq o'rganish mumkin. Bu bilimlar ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishda yordam beradi. Ushbu muamloga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishi G. Berdiyev tomonidan amalga oshirilgan. Muallif o'z tadqiqoti davomida sog'lom va aqli zaif bolalarning shaxsiy munosabatlari, guruhlar, yetakchilar, rasmiy va norasmiy yetakchilar bobida juda qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritgan.

Emotsional rivojlanish xususiyatlari

Ma'lumki, aqli zaif o'quvchilarning asosiy kontingentini otanasiz, to'liq oilaga ega bo'lmagan bolalar tashkil etadi. Bunday bola o'z oilasi bilan to'liq muloqotdan mahrum bo'ladi, bu uning shaxsi shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kech tashxis qo'yish, maxsus bog'chalarning noto'liq tizimi, ichki oilaviy murakkabliklar qator qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Bu aqli zaif bolaning atrofdagi kattalar va tengdoshlari bilan muloqotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Inson shaxsi ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mevasidir. U atrof-muhit bilan aloqadorlikdagi bir qancha munosabatlar jarayonida shakllanadi. Aqli zaif bola shaxsi aqliy to'liqsizlik hisobiga o'ziga xos shart-sharoitni talab etadi.

Shaxsning ko'p qirrali jihatlaridan biri emotsiyalardir, u har qanday insoniy faollikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. L.S. Vigotskiy intellektual va emotsional doiraning o'zaro munosabati va ichki birligini e'tirof etadi va aqli zaiflikda normaga qaraganda intellekt va affekt o'rtaidagi aloqa o'ziga xos bo'ladi, deb ta'kidlaydi.

Aqli zaif bolada emotsiyaning yuzaga kelishi uning yoshi, kamchilikning chuqurligi va o'ziga xosligi ijtimoiy muhitga bog'liq bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar maqtov, ma'qullash, erkalashga moyil bo'ladi. Erkalash va qo'pol intonatsiyani ajratadilar. O'z munosabatini ular insonlarga yaqinlashish, jilmayish bilan bayon etadilar.

Bolalar kattalar bilan qiziqib o'ynaydilar va shunga mos ovoz chiqaradilar. Masalan, bola mashinani o'ynaganda «bi-bi» deb ovoz chiqaradi.

Katta bog'cha yoshidagi bolalar atrofdagi sharoitni adekvat tushunadilar. Ular kichik yoshdagi bolalarga nisbatan nutqga ega bo'ladilar, o'z emotsiyalarini baqiriq yoki xulq-atvori bilan bayon etadilar. Bu bolalar qiziqish bilan sodda matnlarni eshitadilar. Mimika, imo-ishoralar, so'zlar orqali matn qahramonlariga o'zlarining ijobiy yoki salbiy munosabatlarini bayon etadilar. Odatda, bu bolalar o'z yaqinlari va o'rtoqlarini yaxshi ko'radilar.

Nuqsonning klinik xarakteriga ko'ra bog'cha yoshidagi bolalar o'z emotsiyalarini ko'rsatib, o'zlarini turlicha tutadilar. Ularning

harakatlari qat'iy, emotsional, reaksiyalari yuzaki bo'ladi. G'azab, xafagarchilik, g'am impulsiv namoyon bo'ladi va o'zi tomonidan nazorat etilmaydi.

Aqli zaif bog'cha yoshidagi bolalarda emotsiyalarini rivojlantirish, ular hayotini, maxsus pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida amalga oshiriladi. Aqli zaif bolalarda emotsional doirani rivojlantirish tashqi shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Bu maxsus ta'lim va bolalar hayotini to'g'ri rejalashtirishdir. Bunday o'quvchilarga g'am, alam, xafagarchilik va xursandchilikning impulsiv ko'rinishlari xosdir. Bu holatlar ta'lim-tarbiya jarayonida silliqlashadi, bolalarda ijtimoiy adaptatsiya uchun zarur xulq-atvor shakllanadi.

Aqli zaif o'quvchilar asosan kichik yoshdagi o'quvchilar rasmda tasvirlangan personajlarning emotsional holatini tushunmaydilar. Bu o'quvchilar rasm personajlarining harakatlari va imo-ishoralari noto'g'ri qiyoslaydilar, noaniq, ba'zan noto'g'ri tasavvurga ega bo'ladilar (E.A. Yevlaxova). Maxsus maktab o'quvchilari ijtimoiy-ma'naviy xarakterdagi murakkab tuyg'ularni, nozik hislarni tushunmaydilar. Lekin xursandchilik yoki g'am, xafagarchilik tuyg'ularini to'g'ri tushunadilar va nomlaydilar.

Maxsus maktab ta'lim sharoitining birinchi yillarida o'quvchilarda embrional dezoptatsiyaga moyillik kuzatiladi, bu ayni kategoriyadagi bolalarni ta'limga emotsional va shaxsiy tayyor emasligidan dalolat beradi. Yuqori sinflarda ular ijtimoiy moslashuvda muvaffaqiyatlariga erishadilar. Bu ularning oiladagi, maktabdagi xulqida namoyon bo'ladi. Aqli zaif o'smirlar turli jamoalarda muloqotga kirishadilar. Bu maxsus ta'lim jarayonida aqli zaif o'quvchilarning emotsional rivojlanishida ijobiy o'zgarishlar ro'y berishidan dalolat beradi.

Aqli zaif bolalarning hissiy-irodaviy doirasi rivojlanishning boshlang'ich bosqichlari bo'ladi. Uning shakllanishi nutqning paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Lekin xulqni nazorat qilish malakasining shakllanishi aqli zaif bolalarda ma'lum murakkablikka ega. Oligofren maktabgacha yoshidagi bolalar o'z xulqini, xohishini nazorat qila olmaydi. Aqli zaif bolalar uchun xulq-atvorning buzilishi ham xosdir. Ularda o'quv, o'yin, mehnat faoliyatida motivatsiyaning past darajadaliigi, ichki his-tuyg'ularning zaifligi, o'z xatti-harakatlariga javobgarlik hissi yo'qligi namoyon bo'ladi.

Maxsus maktabdagi ta'lim jarayonida aqli zaif o'quvchilarning irodaviy regulatsiyasi rivojlantiriladi; o'z impulsiv reaksiyalarini boshqarish va shart-sharoit talablariga bo'ysunish malakasi shakllanadi (M.G. Sarsidze). Korreksion yo'naltirilgan ta'lim ta'siri ostida shakllanuvchi irodaviy faollik ma'lum darajada bu turdagi bolalarning aqliy, nutqiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Diqqat hajmi, uning qat'iyligi ortadi, xotira doirasi kengayadi, uning samaradorligi oshadi, o'z navbatida tafakkur, nutq, xotirani rivojlantirish oligofren o'quvchilar shaxsining irodaviy xususiyatlari shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik yoshdan yuqori maktab yoshigacha aqli zaif bolalarda ixtiyoriy ruhiy jarayonlarning ixtiyoriy rivojlanishi kuzatiladi.

3.1. Aqli zaif bolalarning o'z-o'zlariga baho berish xususiyatlari

Shaxs shakllanishining asosiy omillaridan biri — aqli zaif bolalarning o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berish xislatlarining shakllangan bo'lishidir. Baholashga kishilar, narsalar, holatlar jalb etilishi mumkin. O'z-o'zini baholashda kishining o'z aloqalarini, harakatlarini, sifatlarini, qilgan ishlarini, yutuqlarini baholash tushuniladi. O'z-o'zini baholashning shakllanishi atrofda gilarining baholashlari, o'z faoliyat natijalarini ko'rishlari natijasida amalga oshib boradi. O'quvchilarda o'z-o'zlarini baholashlari turli topshiriqlarni bajarish jarayonlarida to'planib boradi. Bu jarayon bolalar ish faoliyatining natijalarini baholab boruvchi o'qituvchining roli juda katta. Aqli zaif bolalarda o'zlarini anglashlari birmuncha pasayganligi sababli, ish natijalarini ham birmuncha noto'g'ri baholaydilar. Shuning oqibatida o'z faoliyatlarini to'g'ri tahlil qila olmaydilar. Bularning barchasi aqli zaif bolalarda o'z-o'zlariga baho berishning o'ziga xos shakllanishiga olib keladi. Maxsus tekshirishlar natijasida yordamchi maktablarning turli sinflarida bolalarning o'z-o'zlarini baholashlari haqidagi ma'lumotlar olingan. Kichik sinflarda o'z-o'zlariga baho qo'yish ba'zan past, ba'zan esa yuqori bo'lar ekan. O'rta sinflarda o'z-o'zlariga baho berishlari birmuncha o'z imkoniyatlariga to'g'ri kelar ekan. Yuqori sinflarda esa, o'z-o'zlariga baho berish nisbatan yuqori bo'lar ekan. Kichik sinflardagi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarga to'g'ri baho bermaslikning sababi, birinchidan, shaxsning

shakllanmaganligi, faoliyat maqsadlarini tushunmaslik, mehnat natijalarini to'g'ri tahlil qila olmasliklaridir. Yuqori sinflardagi o'quvchilar o'z imkoniyatlariga yuqori baho berishning asosiy sababi, o'zlaridagi nuqsonni kamaytirish va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslikdir. Nuqsonli bolalarda nuqson mazmuniga ko'ra o'z imkoniyatlariga yuqori va past baho berish xosdir. Bosh miyada qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari birmuncha turg'un bo'lgan oligofrenlarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berish hollarini ko'rish mumkin. Hissiy jihatdan birmuncha «kambag'al» bo'lgan aqli zaif bolalarda har qanday murakkablikdagi topshiriqlar bilan ulardagi noto'g'ri tasavvurlarini to'g'rilash qiyin. Shuning oqibatida aqli zaif bolalar o'z faoliyatlarini to'g'ri rejalashtira olmaydilar, faoliyat natijalarini ko'ra bilmaydilar. Umuman baho va o'z-o'zini baholash aqli zaif bola shaxsining tuzilishida eng asosiy qismni tashkil etadi.

L.I. Bojovich ma'lumotlariga ko'ra, to'g'ri shakllangan o'z-o'ziga baho berish shaxs shakllanishining yetakchi omillaridan biridir. Shu sababli, yordamchi maktab o'qituvchilari bu muammoga oid bolalarning psixologik xususiyatlarini bilishlari talab etiladi. O'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berish kattalar tomonidan amalga oshirilib boriladi. Agarda aqli zaif bolalar o'z faoliyatlarini to'g'ri tahlil qila olmasalar, atrofdan uning faoliyat natijalariga qo'yilgan baholar salbiy yo'nalish kasb etadi. Agarda bola oilada ko'proq ijobiy baholar olib yurgan bo'lsa, bu bolalar maktabga kelgach, biror salbiy baho olishlari ularda qator noto'g'ri xulq xislatlarining shakllanishiga olib keladi. Bu bolalar tez xafa bo'ladigan, yig'loqi, qaysar bo'lib qoladilar. Agarda bunday salbiy xulq shakllari uzoqroq saqlansa, bular shaxsning turg'un sifatlariga aylanib qoladi. Sog'lom bolalarga oid bo'lgan bunday ma'lumotlar aqli zaif bolalarning qator xususiyatlarini tushunishiga yordam beradi. Aqli zaif bolalar hali maktabga bormasdan, oilada o'z imkoniyatlariga nisbatan yuqori baho olganlar. Ota-onalar bolalarining ozgina yutuqlarini ham yuqori baholashib, maqtashgan. Bolalarning bog'cha, maktabga kelishlari bilan qator ko'ngilsiz voqealar boshlangan. Chunki bolaning oilada olgan «yuqori» baholari endi kuzatilmaydi. Bolalar o'z imkoniyatlariga yarasha baho oladilar. Sodda, lekin qimmat-

li metodika bo'lgan De-Greyefe bilan yengil darajadagi oligofren bolalarning o'z-o'zlariga baho berishlari tekshirilgan. Bunda bolalarga uchta aylana ko'rsatilib, doskada shu aylanalardan qarab chiziqcha chizish so'ralgan. Bolalarga birinchi aylana shartli tarzda o'qituvchi, ikkinchi aylana bolaning o'rtog'i, uchinchi aylana bolaning o'zi deb tushuncha berilgan. Tekshirilayotgan bolalar yuqoridagi «aylanalar»ning qaysi birini aqli deb sanasalar o'sha aylanadan pastga qarab uzunroq chiziqcha chizishni, o'rtaroq aqli «aylanaga» o'rtacha uzunlikdagi chiziqcha chizishi va nihoyat aqlsiz «aylanaga» qisqa chiziq chizishni so'ragan. Tabiiyki, aqli zaif bola eng uzun chiziqchani o'zining aylanasiidan pastga qarab chizgan. Bunday aqli zaif bolalarning o'zlariga yuqori baho qo'yishlarini L.S. Vigotskiy muallif nomi bilan atashni taklif etgan. Muallif De-Greyefening quyidagi xulosasi bilan kelishadi. Aqli zaif bolalardagi o'z imkoniyatlariga yuqori baho berishning sababi, ulardagi umumiy aqliy taraqqiyotning buzilganligidir. L.S. Vigotskiy muallif fikrlarini to'ldirib, aqli zaif bolalardagi o'zlariga yuqori baho berishlari faqatgina aqliy yetishmovchilik bo'lib qolmasdan, balki yana bu bolalar uchun baho ularning hissiy kamchiliklarining yorqin ko'rsatkichidir. Balki boshqa yana biror mexanizm bordir deb ta'kidlaydi muallif. Balki, o'zlariga yuqori baho berish hollari ularga atrofdagilarning qo'yayotgan past baholariga javoban ko'rsatayotgan soxta kompensatsiya qilish xarakterologik mahsulidir. De-Greyefening o'ziga xos kamchiligi shundaki, uning fikricha, aqli zaif bolalar o'zlarini kamchiliksiz deb hisoblaydilar va shuning orqasida o'z kamchiliklarini yo'qotishga intilmaydilar. L.S. Vigotskiy bevosita shu kamchilikni aqli zaif bolalarning sezishlari orqasida, bu bolalar shu kamchiliklarning o'rnini to'ldirish maqsadida, o'zlariga yuqori baho beradilar, deb uqtiradi. Tekshirishlarning ko'rsatishicha, yordamchi maktab 2-sinf o'quvchilarining o'z imkoniyatlariga baho berishlari, shu sinf ommaviy maktab o'quvchilarining baholaridan birmuncha ustun ekan, bu farq 4–6-sinflarda birmuncha pasayib borar ekan. 8-sinfga kelib esa, yana aqli zaif bolalarning o'z imkoniyatlariga baho berishlari ortib borar ekan. Bu natijalar L.S. Vigotskiy nazariyasi bo'yicha tushuntirib berilishi mumkin. Boshlang'ich sinf bolalari affekt natijasida o'zlariga yuqori baho bersalar, bu baholar

sekin-asta bolalar ulg'aygan sari kamayib boradi. Yuqori sinflardagi o'zlariga yuqori baho berish esa, soxta kompensatsiya qilish natijasi bo'lsa ajab emas. Ayrim aqli zaif bolalarning baholarga nisbatan turli xil munosabatlari, bu bolalarga baholash jarayonining o'zi, nazorat qilish hollari salbiy ta'sir etadi. Shu masalaga oid B.I. Pinskiyning maxsus tajriba ishlari bor. Muallifning ta'kidlashicha, «baholash holati»dagi bajarilgan ishlarning natijalari birmuncha sifatsiz bo'lar ekan. Hatto, bu kabi kamchiliklar sog'lom bolalarda ham uchraydi. Ma'lum bo'lishicha, aqli zaif bolalar nazorat ostida ishlaganlarida xatoliklar soni ortar ekan. Ammo ish tezligi o'zgarmas ekan. Lekin sog'lom bolalarga nisbatan aqli zaif bolalarda baholash jarayonidan manfaatdorlik hislari birmuncha kam bo'ladi. Shu sababli, aqli zaif bolalar ish natijalarini baholash vaqtlarida differensirlashgan holda yondashish talab etiladi. Aqliy nuqson chuqurlashgan sari, o'zlariga baho berish ortib borish xususiyatiga ega bo'lib borar ekan.

Shaxs yo'nalganligining bir tomoni o'zlariga baho berishdir. Agarda aqliy nuqsonli bolalarga mos bo'lmagan holda yuqori baho qo'yilsa, uning o'ziga xos salbiy oqibatlar bo'lishi mumkin. Me'yordan ortiqcha o'zlariga ishonish, tanqidsizlik, yalqovlik, xudbinlik shular jumlasidandir. Aqli zaif bolalarga bahoning pasaytirib qo'yilishi natijasida ham ba'zi salbiy xislatlar kelib chiqar ekan. Buning oqibatida o'z kuchlariga ishonchsizlik, tashabbussizlik, o'zi bilan o'zi o'ralashib qolish hollari ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, noto'g'ri baho aqli zaif bolalar shaxsiga salbiy ta'sir etadi. Buning oqibatida kuyinish, atrofdagilar muomalasidan qoniqmaslik holatlari yuz beradi.

A. Shtroymayyor ta'kidlashicha, aqli zaif bolalar o'zlariga yuqori baho berishib, ba'zan sog'lom bolalar bajarishga ikkilangan narsalarni bajarishga urinib ko'radilar. L.V. Zankovning (1963) va B.V. Zeygarnikning (1971) o'tkazgan tajriba ishlarining isbot etishicha, aqli zaif bolalarda o'zlariga baho berish sekin shakllanar ekan. Oligofren bolalarga xos bo'lgan o'zlariga yuqori baho berish S.Y. Rubinshteynning ishlarida ham ko'rsatib o'tilgan. O'zlariga baho berishning shaxsiy sifatlar bilan bog'liqligini psixologlardan Y.A. Serebryakova (1956), B.V. Zeygarnik (1969), N.G. Kalita (1971), J.M. Gluzman (1983), J.I. Namazbayevalar ko'rsatib o'tishgan.

Aqli zaif bolalar shaxsi va shaxslararo munosabatlarini «Sotsiometriya», «Dembo-Rubinshteyn S.Y.», «De-Greyefe», «Rene Jilya» metodikalari yordamida tekshirish mumkin.

3.2. Aqli zaif bolalar faoliyati

Aqli zaif bolalarga barcha faoliyat turlarining kech va to'liqsiz shakllanishi xarakterlidir.

Bu tafakkur va nutqning ma'lum darajadagi rivoji, qobiliyat, diqqat va o'zining irodaviy xatti-harakatlarini maqsadga yo'naltirish malakasiga bog'liq bo'ladi. Amaliy harakatlarni talab etuvchi faoliyat turi harakat doirasi rivojlanishidagi nuqsonlarning mavjudligi sababli qiyinchilik bilan amalga oshadi. O'z-o'ziga xizmat, ovqat yeyish kabi oddiy predmet-amaliy faoliyat turi ham aqli zaif o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Ma'lum malaka va ko'nikmalarni bu bolalarda tarbiyalash uchun uzoq muddatli maqsadga yo'naltirilgan ta'lim talab etiladi. Ular harakatlar ketma-ketligini tez unutadilar, ularning ahamiyatini tushunmaydilar. Shuning uchun barcha egalagan bilimi kattalar yordamida so'zlar vositasida o'zaro faoliyatda takrorlanib turishi talab etiladi.

Bog'cha yoshidagi bolalarda to'g'ri xulq-atvorni shakllantirish qiyinchilik tug'diradi. Ularga xos aqliy kamchilik va zerikarli hayotiy tajriba shart-sharoitni to'g'ri tushunish va adekvat baholashni qiyinlashtiradi. Masalan, bolalar notanish odam bo'lganda yugurish, baqirish, shovqin qilish mumkin emasligini tushunmaydilar. Ayrim aqli zaif bolalar jim o'tiradilar, ota-onasi orqasiga berkinadilar, muloqotdan qochadilar. Bu xususiyatlar kichik yoshli bolalarda kuzatiladi. Sog'lom rivojlanuvchi bola uchun bog'cha yoshida asosiy faoliyat turi o'yindir. Aqli zaif bola rivojlanishida o'yin katta o'ringa ega bo'lmaydi. Bu bog'cha yoshidagi aqli zaif bolalar o'yin o'ynashdan yiroq bo'lishi bilan asoslanadi. Bola rivojlanishi uchun ahamiyatli, lekin murakkab bo'lgan sujetli-rolli o'yin ham aqli zaif bolalar uchun murakkablik qiladi.

Odatda, aqli zaif bolalarda ma'noga ega bo'lmagan o'yin harakatlarini kuzatish mumkin. Masalan, bola xonaning bir tomonidan ikkinchi tomoniga mashinani sudrab ovoz chiqarib o'ynaydi. Uning harakati va ovoz tovushli harakatlari o'zaro mos kelmaydi.

Qizcha qo'g'irchoqni ovqatlantirib, uni yuziga uradi yoki qo'liga nima tushsa og'ziga tiqadi. Ayrim hollarda 2–3 bolalar birlashib o'ynaydilar. Masalan, bir bola mashina itarib o'ynaydi. Ikkinchi bola uni orqasidan yuradi. Bunday birga o'ynash qisqa muddatli bo'lib, tez orada o'rtada kelishmovchilik yuzaga keladi va ular birbiridan o'yinchoqni tortib oladi.

Rasm chizish. Barcha normal rivojlanib borgan bolalar bog'cha yoshidan boshlab chizishni yoqtiradilar, avval ular qog'ozga turli shakllarni tushiradilar. Keyinchalik ularda tanish predmetlar bilan o'xshashlik kuzatiladi, bolalar keyinchalik alohida obyektlarni chizishga harakat qiladilar.

Aqli zaif bolalarning tasviriy faoliyati sekin va o'ziga xos shakllanadi. Ularning rasmlarida diagnostik xarakterga ega harakatlar kuzatiladi. Maxsus ta'limdan mahrum bolalar qobiliyati oddiy shakllarni chizishdan nariga o'tmaydi, faqat maktabgacha yoshidan o'tgan bolalar rasmlarida predmetli sujetli rasmlar kuzatiladi. Ular nomukammal qo'pol xatolar bilan chizilgan bo'ladi.

Bolalar odamlar va qushlarni to'rt oyoqli qilib chizadi. Bog'cha yoshidagi bolalarda maxsus rasm chizishga o'rgatilayotganda boshqa holat kuzatiladi. Ularning ko'pchiligida potensial imkoniyatlarni ko'rsatuvchi muvaffaqiyatlar kuzatiladi.

Aqli zaif bolalar maktabida asosiy faoliyat turi o'qishdan tashqari, mehnat faoliyatidir. Topshiriqlar ruhiy rivojlanish nuqsonlarini koreksiyalash uchun shart-sharoit yaratadi. Oligofren o'quvchilar asosan kichik maktab yoshida o'quvchilar qo'yilgan maqsad asosida o'z xatti-harakatlarini boshqara olmaydilar. Ular mehnat faoliyatiga uni tahlil qilmagan holda kirishadilar. O'quvchilar vazifani maqsadiga tushunmay, harakat rejasini tuzmay bajaradilar. Vazifani bajarishda aqli zaif bolalar murakkab faoliyatdan oson faoliyatga o'tib ketadilar, ishga qiziqish bilan yondashmaydilar, ishni nomigagina bajaradilar.

Aqli zaif bolalar o'z imkoniyatlarini adekvat baholay olmaydi. Ular odatda har qanday ishni bajarishda faoliyat usuli – operatsion tartibni bilmasdan urinadilar. Aqli zaif o'quvchilar o'z faoliyat natijalariga tanqidiy yondashmaydilar.

Savol va topshiriqlar

1. Aqli zaif bolalarda shaxsiy sifatlarning noto'g'ri shakllanish sabablarini aytib bering.
2. Shaxslararo munosabat deganda nimani tushunasiz?
3. Shartli, real va referent guruhlarni tushuntirib bering.
4. Aqli zaif bolalarning shaxslararo munosabatlari xususiyatlari nimalardan iborat?
5. Aqli zaif bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlarini ochib bering.
6. Aqli zaif bolalardagi o'zlariga baho berish xususiyatlarini aytib bering.
7. Shaxs va shaxslararo munosabatlarni qaysi metodikalar bilan o'rganish mumkin?
8. Aqli zaif bolalarning o'qish, mehnat faoliyatlarini aytib bering.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Shaxs** – jamiyatda ma'lum o'ringa, o'z fikriga ega bo'lish.
2. **Shaxslararo munosabat** – kishilar orasidagi turli darajadagi, turli shakldagi muloqotlar tizimi.
3. **Jamoa** – bir necha kishining maqsad birligi asosida jiplashuvi.
4. **Rasmiy guruh** – jamiyat tomonidan tan olingan bolalar, o'quvchilar, talabalar guruhlaridir.
5. **O'z-o'ziga baho berish** – shaxsning o'z imkoniyatlariga baho bera bilishi.
6. **De-Greyefe uslubi** – o'z-o'ziga baho berish uslubi.

II bo'lim. SURDOPSIXOLOGIYA

IV bob. SURDOPSIXOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI

4.1. Surdopsixologiya fani hamda uning metodlari mohiyati

Surdopsixologiya psixologiyaning maxsus bo'limi bo'lib, eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatining shakllanish xususiyatlarini tahlil qilishni ko'zda tutadi.

Surdopsixologiya predmeti eshitishida nuqsoni mavjud shaxslar ruhiyatining o'ziga xosligini o'rganish va turli murakkablikdagi nuqsonlar yo'llarini aniqlashni qamrab oladi.

Surdopsixologiya vazifalari rus surdopsixologi T.G. Bogdanova tomonidan quyidagicha belgilanadi:

- eshitishida nuqsoni mavjud shakllarning ruhiy rivojlanishning umumiy va maxsus qonun-qoidalarini aniqlash;
- eshitishida nuqsoni mavjud shaxslar bilish faoliyatining rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;
- ular shaxsining rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish;
- eshitishida nuqsoni mavjud shaxslar ruhiy rivojlanish xususiyatlarining psixologik korreksiyasi va diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish;
- eshitishida nuqsoni mavjud shaxslarga pedagogik ta'sir usullarni psixologik asoslash.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar ruhiy xususiyatlari XIX asr o'rtalaridanoq pedagog va shifokor-psixologlar e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. V.I. Fleri, F.A. Ostrogradskiy, I.M. Logovskiy, F.A. Rau kabi olimlarning pedagogik faoliyati va tadqiqotlari surdopsixologiyaning rivojiga katta hissa qo'shgan. Ularning ilmiy ishlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy xususiyatlarini kuzatish va aniqlashga doir fikrlar beriladi. Xususan, V.I. Fleri eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar harakat ko'nikmalar xususiyatlarini ta'riflab, noto'g'ri koordinatsiya, harakatlarning ishonchsizligi kuzatilishini ta'kidlaydi.

L.S. Vigotskiy genetik tamoyillar tahlili asosida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiyatining xususiyatlarini yoritib be-

radi. Kar bolaning rivojlanishi ijtimoiy sharoiti psixologik yangi holatlar kuzatilishini asoslashini e'tirof etadi. L. Vigotskiyning fikr-mulohazalari maxsus pedagogikaning rivojiga katta hissa qo'shdi, rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalarni tabaqalab o'qitish muammolariga o'zgacha qarash imkonini beradi. Uning nazariy ta'limoti eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni kompensator imkoniyatlarini tadqiq etuvchi eksperimental psixologik tadqiqotlarga stimus sharoitida ta'sir etgan. L.S. Vigotskiy safdoshlari L.K. Zankov va Sh.M. Solovyov rivojlanishida nuqsoni mavjud xususan eshitishida nuqsoni bor bolalar idrokining xotirasi va nutqi rivojlanish xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik tadqiqotlar o'tkazdilar. Xususan, K.I. Veresotskaya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni predmetlarni idrok etish, L.V. Zankov va D.R. Mayns ko'rgazmali materialni eslab qolish malakasini, M.M. Nudelman kar o'quvchilar tasavvurlarini, Z.S. Beyn ko'ruv idrokining konstantligini, N.I. Shif eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni ranglarni idrok etish xususiyatlari, M.Y. Votsev kar o'quvchilarning yozma nutqi va o'qish malakalarini tadqiq etganlar. Olimlat tomonidan olib borilgan tadqiqotlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi yoki aqli zaif bolalar bilan o'zaro qiyoslashib tekshirilar edi. Bunday yondashuv barcha kategoriyadagi bolalar bilan samarali ishlash imkonini beruvchi tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berar edi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ruhiyatini o'rganishda psixologiyaning asosiy va yordamchi metodlari qo'llaniladi. Asosiy metodlari turkumi kuzatish va psixologik eksperiment metodlarini qamrab oladi. Yordamchi metodlar faoliyat natijalarini tahlil qilish, test metodi, anketa metodlarini o'zida namoyon qiladi. Surdopsixologiyada kuzatish metodi hodisalarning keng doirasi muqosabatiga ko'ra qo'llaniladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus psixologiyasida bu metod katta ahamiyatga egaligini ta'kidlash joizdir. Kuzatish predmeti faoliyatning tashqi komponentlari – harakat, nutqiy akt, pantomima va mimikaning o'ziga xosligi, vegetiv reaksiyalarning yuzaga kelishi bo'lishi mumkin. Bunda bolalar xulqiga kuzatuvchi mavjudligi salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning tabiiyligi buzilishi mum-

kin. Yuqorida ta'kidlangan holat amalga oshmasligi uchun (kino, video syomka) qayd etuvchi apparatni qo'llash yaxshi natija beradi. Xulosa va umumlashmalarga zaruriy material olish uchun bolalarning turli faoliyatda o'yin, o'qish, uy vazifalarini bajarish, takrorlanuvchi, o'zgaruvchi sharoitlarda kuzatish maqsadga muvofiqdir. Bola nutqiy rivojlanishining umumiy sharoitida kuzatilayotgan hodisalarning xususiy tomonlarini aniqlash imkoni yuzaga keladi. Eshituvchi ona va kar bola muloqotini o'rganishda kuzatish metodini qo'llashga doir Amerika psixologlarining tadqiqotini keltirish mumkin. Kuzatish metodining amaliy ahamiyatini amerikalik olimlardan D.Plapinger va R.Kretchmerlar o'z ilmiy ishlarida yoritib, eshitishida muammosi bo'lgan bolalar bilan onalarning muloqot shakli, muloqot uchun shart-sharoitlar (bolaning tashabbusi bilan, yoki onaning tashabbusi bilan yuzaga kelganligi) o'rganiladi. Ular 13 oy mobaynida turli sharoitda ona va bola o'zaro munosabatini video registratsiya yordamida kuzatganlar. Registratsiya turli holatlarda va kunlarda olib borilgan. Olimlar quyidagi ko'rsatkichlar bilan qiziqqanlar: kimning tashabbusi bo'yicha muloqotga kirishildi, nutqiy muloqot doirasi va xususiyatlari qay tarzda amalga oshdi (gap turi: so'rov, undov, buyruq, his-hayajon). Olimlar ba'zi sharoitlardagi muloqotda ona tashabbuskor bo'lganini (kitob o'qish, kesma alifbo bilan ishlash) kuzatishgan. Bola tashabbuskor bo'lgan holatlarni ham (o'yinchoq o'ynash) kuzatganlar. Turli sharoitlarda muloqot miqdor va sifat jihatdan farqlangan holatlari namoyon bo'ldi. Psixologik ekspert ham psixologiyada ahamiyatga molik metodlaridan biri sanaladi. Surdopsixologiyada psixologik eksperiment metodi muhim o'rin tutadi. Bu metod tekshiruvchining ijodiy yondashuvini ko'zda tutadi va inson xulqidagi o'zgarishlarni qayd etadi. Eksperimental tadqiqot bir qancha bosqichlardan tashkil topadi: maqsadni belgilash, bu tadqiqot gipotezasini ko'zda tutadi; rejalashtirish; tadqiqotni o'tkazish; statistik gipotezalarni tekshirishni ko'zlovchi natijalar tahlili; xulosa chiqarish eshitishida nuqsoni bor bolalar bilan psixologik tadqiqotlarni o'tkazishda muhim holatlarni hisobga olish darkor. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola berilgan topshiriqni tushunganligini nazorat qilish talab etiladi. Bu jarayonni yengil-

lashtirish uchun imo-ishora nutqidan foydalanish yaxshi samara beradi. Shuningdek, surdopsixologiyaning bu metodini qo'llashda ko'rgazmali namoyish etish, so'zlashuv metodlaridan birgalikda foydalanish kar bolaning unga berilgan topshiriqni to'liq tushunishiga sabab bo'ladi. Kar bola birinchi topshiriqni tushunib bajargach, ikkinchi topshiriqqa o'tish mumkin. Tadqiqotchi tadqiqotni o'tkazish jarayonida kar bolaning xulqiga ta'sir o'tkazadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlashda bu imkoniyatni hisobga olish darkor, tekshiriluvchilar guruhini tanlashga ham katta e'tibor berish darkor. Bolaning ta'lim-tarbiya sharoiti, eshitishning buzilish vaqti va darajasi eshitishning buzilish sababi unda mavjud nutq shakllari (og'zaki, yozma, daktil, imo-ishora), o'zlashtirish darajasi, oila tipi hisobga olinadi. Sog'lom va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni qiyosiy o'rganish uchun yosh tamoyiliga ko'ra olinadi, tekshiriluvchilar bir yoshda bo'lishi kerak. Bu ularning ruhiy rivojlanishini qiyosiy o'rganishga yordam beradi.

Kar o'quvchilar psixologik xususiyatlarini o'rganishda psixologik eksperimentning barcha turlaridan foydalaniladi. Bu laborator eksperiment va tabiiy eksperiment turlarini o'ziga jamlaydi. Laborator eksperimentda o'rganilayotgan hodisa qat'iy nazorat qilinadi. Tabiiy eksperimental kuzatishning ijobiy qirralari va eksperiment qirralari jiplashadi va namoyon bo'ladi. Kuzatuv metodi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'rganishda ijobiy samara bermoqda. Bu metod yordamida tekshiriluvchining nafaqat bilimi, malakasi, balki uning shakllanish holati ham o'rganiladi. Shuningdek, kombinatsiyalangan nuqsonlar (eshitish buzilishi, ruhiy rivojlanishi orqada qolgan va aqli zaiflik) o'rganish va aniqlashda ham muhim samara beradi. Ta'limiy eksperiment maxsus psixologiyada keng o'rinda qo'llaniladi. T.V. Rozonova va L.I. Tignonova shu metodni qo'llagan holda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan sog'lom bolalarning ruhiy xususiyatlarini tekshirganlar. Yordamchi topshiriqlar vositasida faoliyat natijalari tahlili muhim o'rin tutadi. Ruhiy rivojlanish bosqichida bolalar faoliyati natijalari tahlili muhim o'rin tutadi.

Surdopsixologiya va surdopedagogikaning o'zaro aloqadorligi

Surdopsixologiya va surdopedagogika uzviy o'zaro aloqadorlikka ega. Surdopsixologiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi, qaysi bolalarda rivojlanishning qaysi bosqichida u yoki bu o'ziga xoslik aniqlanishini o'rganadi. Surdopsixologiya psixologik-pedagogik tadqiqotlar yordamida kar va zaif eshituvchi bolalarga kompensator rivojlanishni ta'minlash uchun ularni qaysi yo'l va vositalar bilan tarbiyalash va o'qitish kerakligini aniqlab beradi va ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga oid psixologik-pedagogik tavsiyalar beradi. Surdopedagogikaning vazifalari bu tavsiyalarni o'rganish va ularni amaliyotga yanada samarali tatbiq etish yo'llarini topishdan iborat. Shu bilan birga kar va zaif eshituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayoni ijodiy izlanishlar xarakteriga ega bo'lib, bu surdopedagogika fanida o'z aksini topadi. Fan, o'z navbatida, amaliyotni takomillashtirishning yangi usullarini izlaydi: eshitishida kamchiligi bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning yangicha nazariyalari ishlab chiqilmoqda, ular ta'lim va tarbiya amaliyotiga tatbiq qilinmoqda. Surdopsixologiyaning vazifalari esa o'qitish va tarbiyalashning yangicha sistemalaridan foydalanilganda bolalarning psixik rivojlanish xarakterini aniqlash, bu sistemalarni baholash, kerak bo'lsa, yangi sistemaning u yoki bu bo'g'inlarini korreksiyalash usullarini izlashdan iborat.

Savol va topshiriqlar

1. Surdopsixologiya fanining predmetini ko'rsating.
2. Surdopsixologiya fanining kelib chiqish tarixi xususida gapiring.
3. Surdopsixologiya fanining vazifalarini izohlang.
4. Fanning boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntiring.

4.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi

Eshitish buzilishlari bolalarda turli infeksiyon kasalliklar oqibatida yuzaga keladi. Meningit, skarlatina, otit, gripp kasalliklarini infeksiyon-yuqumli kasalliklar qatoriga kiritish mumkin. Eshitish

buzilishlari ichki, o'rta, tashqi quloqlarning shikastlanishi natijasida yuzaga keladi. Ichki quloq va quloq nervi shikastlangan bo'lsa, ko'p holatlarda karlik, agar o'rta quloq shikastlangan bo'lsa eshitish pasayishi kuzatiladi. Maktab davrida ovoz taassurotlarining yuqori chastotasi ham, eshitishning yuqori chastotasi ham eshitish qobiliyati pasayishiga olib kelishi mumkin.

Bolada eshitish nuqsoni yuzaga kelishiga homiladorlikning noqulay davom etishi, onaning virusli kasalliklari ham muhim rol o'ynaydi (qizamiq, gripp). Eshitish buzilishi sabablari eshitish sezgi-larini tug'ma deformatsiyasi, eshitish nervining atrofi, ximik zaharlanish, tug'ish davridagi travmalar, mexanik travmalar, kuchli ovoz ta'sirlarining akustik ta'siri bo'lishi mumkin. Eshitishning buzilishi o'rta quloqning o'tkir shamollashi oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Eshitishning qat'iy buzilishi burun va halqum (adenoid, xronik shamollash) kasalliklari natijasida ham kuzatiladi. Bu kasalliklar chaqaloqlik chog'ida jiddiy xavf soladi. Eshitish pasayishiga ta'sir qiluvchi omillar orasida ototopsik preparatlar asosan antibiotiklar muhim o'ringa egadir. Eshitish buzilishlari yuzaga kelishida kasbiy omillar ham katta ahamiyatga ega. Karlar oilasida eshituvchilar oilasiga qaraganda ko'p miqdorda kar bola tug'iladi. Shuningdek, yaqin qarindoshlar nikohida va er-xotin yoshi o'rtasida katta farq ham eshitish buzilishlariga sabab bo'lishi mumkin. Aroqxo'r ot-onalar, kensok kasalligi, turli xromasomali kasalligi mavjud oilalar (uchuvchi va suvga sho'ng'uvchilar)da ham eshitishida nuqsoni mavjud bolalar tug'ilishi kuzatiladi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ruhiy rivojlanish xususiyatlarini to'g'ri tushunish uchun ularga o'z vaqtida tashxis qo'yish, ta'lim-tarbiya muassasasini tanlash, bu jarayonni tashkil etishda bu bolalarning tasnifi muhim o'rin tutadi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlarini ruhiy rivojlanishdan orqada qolgan bolalar psixik rivojlanishi qonuniyatlariga xos bo'ladi. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar atrof-muhit bilan muloqotda qiyinchiliklarga duch keladilar, ularda shaxs va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi xususiyatlari namoyon bo'la boshlaydi. Turli buzilish, nuqsonlarga ega bolalarning ruhiy rivojlanishi tahlili, L.V. Vigotskiy ta'rifi bilan aytganda

nuqson strukturasi tuzilgan tahlildan kelib chiqadi. Birlamchi nuqson bu o'rinda – eshitishning buzilishi ikkilamchi, uchlamchi nuqsonlarga olib keladi. Ikkilamchi buzilishlar turli sabablarga ko'ra chaqaloqlik, maktabgacha bo'lgan davrda o'xshash holatda namoyon bo'ladi. Ikkilamchi nuqsonlar tizimli xarakterga ega bo'ladi, funksional o'zaro munosabatlar strukturasi o'zgartiradi. Ikkilamchi nuqson qanchalik birinchiya yaqin bo'lsa, uni korreksiyalash shunchalik murakkabdir. Masalan, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuz nuqsoni eshitish buzilishi bilan bog'liq bo'lib, uni korreksiyalash mushkul vazifadir, nutqning boshqa jihatlari rivojlantirish hali eshitish buzilishi bilan u qadar yaqin aloqada emas, shu sababli ularni korreksiyalash birmuncha yengil kechadi. Ikkilamchi nuqsonlar eshitish buzilishidagi psixologopedagogik korreksiyaning asosiy obyekti hisoblanadi. Bola ruhiy rivojlanishi o'ziga xosligi ikkilamchi nuqsonlarni erta korreksiyalash lozimligi dalillandi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy tuzilishlarini bar-taraf etish, uning birlamchi nuqsoni ikkilamchi va uchlamchi nuqsonni yuzaga keltirilganligi maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshadi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitish buzilishlarining omillari deganda nimani tushunasiz?
2. Biologik omillarga misol keltiring.
3. Kar va zaif eshituvchi bolalarning ruhiy rivojlanishi qay tarzda kechadi?

4.3. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tasniflash tarixi bir necha asrlarga teng. Jumladan, birinchi tasniflash XVI asrlarga to'g'ri keladi. Undan Italiya olimi D. Kardano 3 guruh karlarni ajratgan, karlikni vujudga kelish vaqtiga bog'liqligi va nutqiy rivojlanish darajasiga asoslangan:

- 1) tug'ma karlar;

- 2) erta kar bo'lgan (nutqi rivojlangunga qadar);
- 3) kech kar bo'lganlar (nutqi saqlanib qolganlar).

XVIII asr fransuz pedagogi R.A. Sikar eshitish nuqsoni har xil bo'lgan bolalarni guruhlarga bo'lishni va ularni bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. XIX asrning birinchi yarmida rus surdopedagogi V.I. Fleri kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni, kech kar bo'lib qolganlarni va zaif eshituvchini bo'lak holda o'qitishni taklif qilgan. Parijdagi kar va zaif eshituvchi o'quvchilar instituti vrachi J. Itar besh guruh karlarni, ularning tovushlari va nutqlarning eshitishiga qarab ajratgan:

- 1) yuqori nutq va tovushlarni qulog'ining yaqinida eshituvchilar;
- 2) unli va undoshlilarni ajratuvchilar;
- 3) ayrim unli va undoshlarni ajratuvchilar;
- 4) nutqlarni eshitmaydigan, lekin baland tovushlarni eshitadiganlar;
- 5) umuman eshitishida nuqsoni bo'lganlar.

Karlik – eshitishning mutlaqo yo'qligi (mutlaqo eshitmaslik) yoki pasayishining shunday shakli, unda og'zaki nutq faqat qisman, eshitish apparatlari (moslamalari) yordamida idrok etiladi.

Zaif eshitish – har ikkala quloq bilan eshitishning pasayishi, unda nutqni idrok etishda qiyinchiliklar yuzaga keladi, biroq ovoz kuchaytirilganda uni idrok etish mumkin bo'ladi. Eshitishning buzilishi sabablarini ta'riflashda turlicha qarashlar mavjud. Ko'pincha eshitish patologiyasini keltirib chiqaradigan sabab va omillarning 3-guruhi farqlanadi (D.I. Tarasov va boshq.). Sabab va omillarning 1-guruhi nasliy xarakterga ega. Bu kabi sabablar eshitish analizatori strukturasi buzilishlarga va nasliy karlikning rivojlanishiga olib keladi. Bolalarda karlikning nasliy omillari hissasiga barcha holatlarning 30% dan 50% igacha to'g'ri keladi. Nasliy karlik yoki zaif eshitish organizmdagi boshqa a'zolar va tizimlardagi anomaliyalar (ko'rish a'zolarining kasallanishi, suyak-mushak, asab tizimi, endokrin tizim patologiyasi va sh.k.) bilan birga kechishi mumkin. Nasliy karlik masalalari bilan shug'ullanadigan genetiklar ta'kidlashicha, odam gametalarida eshitish o'tkirligiga ta'sir etadigan 50 tagacha turli genlar bo'lishi mumkin. Ota-onalardan biri

nasliy karlik bilan og‘riqanida kar yoki zaif eshituvchi bola tug‘ilish ehtimoli keskin ortib ketadi. Ota-onalarning har ikkisida nasliy karlik kuzatilsa, eshitishida nuqsoni bo‘lgan bola tug‘ilishi ehtimoli 50% dan ortadi. Sabab va omillarning 2-guruhiga homilaning eshitish a‘zolariga tug‘ma karlikka olib keladigan (nasliy murakkablashishsiz) endogen va ekdogen ta’sirlar kiritiladi. Homiladorlik paytida onaning kechirgan kasalliklari katta ahamiyat kasb etadi. Bu kabi kasalliklarga qizilcha, gripp, parotit kiradi. Homiladorlik paytida homila va bo‘lg‘usi ona rezusiga mos kelmaydigan ototoksik dorilar iste‘mol qilish ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bolaning eshitishi rivojlanishida patologiyaning paydo bo‘lishiga homilador ayolning alkogol, giyohvand vositalarni iste‘mol qilishi, shuningdek, chang ko‘p bo‘lgan va boshqa kasbiy zararlarni mavjud korxonalarda ishlashi ham ta’sir o‘tkazadi.

3-guruh omillari rivojlanishning turli bosqichlarida sog‘lom bolaning eshitish a‘zosiga ta’sir etadi va orttirilgan zaif eshituvchilikning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Eshitishning buzilishi etiologiyasida yuqumli (infektsion) kasalliklarning roli katta. Bu kabi kasalliklarning eng xavflilari epidemik meningit, sil (tuberkuloz) meningiti, skarlatina va boshqalar. Eshitish ototoksik dori vositalari (kanamitsin, stireptomitsin, neomitsin va boshqa) ta’sirida zararlanadi. Bolalarda orttirilgan zaif eshituvchilikning qariyb 50% ototoksik antibiotiklar iste‘molidan keyin kuzatiladi (D.I. Tarasov). Bu preparatlar bilan davolashda xavflilik omili chala tug‘ilish, bolaning umumiy somatik zaifligi sanaladi. Eshitishning buzilishiga olib keladigan sabablarga tug‘ilish paytidagi jarohatlar, tug‘ilayotgan bolaning boshiga qisqichlar qo‘yilishi, o‘rta quloqqa operativ teginishlar (operatsiyadan keyingi asoratlar), jarohat chog‘ida eshitish suyakchalari zanjirining uzilishi, adenoid vegetatsiyalar va boshqalar kiradi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar tasnifi

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarning bir necha tasnifi mavjud. Eshitish buzilishi quyidagicha tasniflanadi:

- L.V.Neyman tasnifi.
- Xalqaro tasnif.
- R.M.Boskisning pedagogik tasnifi.

Eshitish funksiyasi buzilganlik darajasini aniqlash uchun L.V.Neyman kar va zaif eshituvchi bolalarni tonal audiometriya va nutq yordamida tekshirgan.

1. L.V.Neyman tasnifi (1961)

Eshitishning o'rta buzilishi (yo'qolishi)ga ko'ra zaif eshituvchi bolalar darajasi
1-darajada – 50dB gacha
2-daraja – 50dB dan 700 dB gacha
3-daraja – 70 dB dan yuqori

Idrok etadigan chastotalar hajmiga bog'liq ravishda kar bolalar guruhi
I – 125–225 G
II – 125–500 G
III – 125–1000 G
IV – 125–2000 G va undan yuqori

Zaif eshituvchilik va karlik chegarasi
85 dB ni tashkil etadi

2. Xalqaro tasnif (1988)

I daraja – 26–40dB Karlik (90dB0)

II daraja – 41–55dB

III daraja – 56–70dB

IV daraja – 71–90dB

R.M. Boskisning eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi (XX asrning 50-yillari)

Bu tasnif eshitish va nutqning o'zaro ta'sirini psixologik o'rganish asosiga qurilgan. Tasnifning nazariy asosini eshitish analizatorida buzilishlar bo'lgan bola rivojlanishining o'ziga xosligini belgilaydigan qoidalar sanaladi.

1. Bolaning eshitish analizatori buzilishini kattalardagi shu kabi nuqsondan keskin tafovutlari bilan baholash zarur.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishini to'g'ri tushunish uchun nutqni mustaqil egallash imkoniyatini hisobga olish muhim.

3. R.M. Boskis bolada eshitishning yetarli emasligini eshitishning shu kabi buzilishida nutqning rivojlanganlik darajasi nuqtayi nazaridan baholaydi.

R.M.Boskis tomonidan ishlab chiqilgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi eshitish analizatori funksiyasida og'ishlar bo'lgan bolalar rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga oladigan mezonlar asosiga qurilgan. R.M.Boskis eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 2 asosiy guruhini ajratadi: karlar va zaif eshituvchilar.

Karlar guruhiga tug'ma yoki orttirilgan karlik natijasida og'zaki nutqni mustaqil egallay olmaydigan bolalar kiradi. Zaif eshituvchi bolalar toifasida eshitishning pasayishi kuzatiladigan, biroq nutqining (loaqaq minimal) rivojlanishi mumkin bo'lgan bolalarni kiritishadi. Nutqiy rivojlanishga bog'liq ravishda zaif eshituvchi bolalarning 2 guruhi farqlanadi:

– kichik nuqsonlarga (tovush talaffuzi buzilishlari, nutqning grammatik qurilishida buzilishlar) ega bo'lgan, nisbatan rivojlangan nutqni egallaydigan bolalar;

– nutqiy funksiya rivojlanishida jiddiy kamchiliklar (jumlar qisqa, noto'g'ri qurilgan, ayrim so'zlar juda qo'pol tarzda buzilgan va sh.k.) bo'lgan bolalar.

Kar bolalarni ham nuqsonning yuzaga kelish vaqtiga nisbatan 2 guruhga bo'lishadi:

– eshitishni hayotining 1- va 2-yilida yo'qotgan yoki kar tug'ilgan bolalar;

– keyin kar bo'lib qolgan bolalar, ya'ni eshitishni 3–4 yoshida yoki undan keyin yo'qotgan, karlik ancha keyin yuzaga kelgani sababli nutqni saqlab qolgan bolalar. «Keyin kar bo'lib qolganlar» termini shartli xarakterga ega, chunki bolalarning bu guruhini karlik yuzaga kelgan vaqt emas, balki eshitish yo'qligi holatida nutqning saqlanib qolgani tavsiflaydi. Keyin kar bo'lib qolganlar eshitishi pasaygan bolalarning alohida toifasini tashkil etadi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitish nuqsonlarining tasnifi va tarixi xususida so'zlang.
2. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ta'rif bering.
3. Xalqaro tasnifga ta'rif bering.

V bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILISH FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

5.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sezgi va idrokining o'ziga xos xususiyatlari

Sezgi inson sezgi organlariga ta'sir qiluvchi predmet va hodisalarning eng sodda ruhiy jarayonidir. Inson sezgisi tovush, rang, shakl dunyosi haqida ma'lumot beradi. Sezgidan farqli o'laroq idrok predmet va hodisalar yaxlit obrazini o'zida namoyon qiladi. Har qanday anglash jarayoni idrok etish va sezishdan boshlanadi. Bu uning dastlabki sezgi bosqichidir. Lekin idrok atrofdagi olam haqida to'liq tasavvur berolmaydi. Materiyaning biz bevosita idrok etolmaydigan xossalari mavjud. Tashqi olamni anglash va aks etishning eng yuqori formasi tafakkurdir. Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar sezgisi atrof-muhitni obyektiv aks ettiradi va predmet hamda hodisalarni anglashning muhim bosqichi sanaladi. Kar bola idrok va sezgi asosida atrofdagi predmetlar rangi, mazasi, hidi, shakli haqida ma'lumot oladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sezgisi va idroki shakllanishining umumiy qonuniyatlari bilan birga spetsifik xususiyatlarga ega bo'ladi. Avvalambor, bu bolalarda asosiy sezgi turlaridan biri eshituv sezgisi mavjud bo'lmaydi. Bizning organizmimizga doimo tovush ta'sirotlari ta'sir ko'rsatadi. Rivojlanayotgan bola asosiy bilim manbayini eshituv sezgisi, idroki orqali qabul qiladi. U atrofdagilar bilan muloqotga kirishib, radio, musiqa eshitib, kino, teatrlarni tomosha qilib, ko'p ma'lumotga ega bo'ladi. Kar bola bunday imkoniyatlardan chegaralangan bo'ladi. Bu atrofni anglash jarayonini qiyinlashtiradi va kompensatsiyani talab etadi. O'z navbatida bu ko'ruv, harakat, hidlash sezgisi va idroki rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv sezgisi mavjud emas, degan fikr noto'g'ridir. Yangi okustik apparatlar yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari ko'rsatishicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning 40 %da eshituv sezgisi qoldiqlari mavjudligini ko'rsatdi. Ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish mumkin. XIX asrda I.I. Fleri, so'ng N.M. Lagovskiy

va boshqa tadqiqotchilar ham karlar eshituv qoldig'i mavjudligini e'tirof etadilar. N.M. Lagovskiy ta'kidlashicha, bu eshituv qoldig'ini faollashtirish, rivojlantirish mumkin. Gartmaning tadqiqotlariga tayanib, N.M. Lagovskiy eshituv idroki darajasiga ko'ra bir necha guruhlarni tasniflaydi. Bu guruhlardan biriga kiruvchi bolalarda eshituv idroki ma'lum darajada mavjud bo'lib, u nonutqiy tovushlarni farqlash imkonini beradi. Boshqa bolalarda eshituv idrokining darajasi balandroq bo'lib, u unli tovush, bo'g'in, so'zlarni farqlash imkonini beradi.

Davomiy mashg'ulotlar mashqlar jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituv idroki faollashtiriladi. Bunda eshituv idrokining rivojlanishi anatomo-fiziologik mexanizmining tiklanishi evaziga emas, balki eshituv idrokini faollash yo'li bilan amalga oshadi. Kar bolada eshituv sezgisi va idrokining yo'qolishi sababli ko'ruv sezgisi va idroki asosiy o'rin tuta boshlaydi. Kar bolaning ko'ruv analizatori atrofdagi olamni anglashda asosiy ahamiyatga ega bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi ko'ruv sezgi va idroki eshituvchi bolalar darajasida bo'lish L.V. Zankov, I.M. Solovyov, K.I. Veresotskoy tadqiqotlarida dalillangan. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola ahamiyat bermaydigan tashqi olam xususiyatlari va nozikliklariga ahamiyat beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eshituv sezgisiga qaraganda ko'ruv sezgisining ustunligi, harakat sezgisining, teritaktitl sezgilarning faolligi kuzatiladi. Eshituvchi bolalar karlarga nisbatan yashil, siyohrang, qizil, sabzi ranglarni ko'p almashtiradilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ranglarni nozik farqlaydilar. L.V. Zankov va I.M. Solovyov ta'kidlashicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar chizgan rasmlarda, eshituvchi bolalar chizgan rasmlarga nisbatan ko'p detal va qismlar qamrab olingan bo'ladi. Kar va eshituvchi bolalar rasmlari taqqoslanganda eshituvchi bolalar rasmlarida predmetlarning muhim qismlarini tasvirlarda mavjud emasligi ko'rinadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rasmlarida bunday kamchiliklar kam bo'ladi, lekin ular fazoviy munosabatlarni ifodalangan rasmlarni qiyinchilik bilan chizadilar. L.V. Zankov va I.M. Solovyov ta'kidlashicha, ko'ruv idroki jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchilarga nisbatan predmetning

qo'shimcha detallariga ko'p ahamiyat beradilar. Shu sababli, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda idrokning analitik tipi sintetik tipidan ustun turadi, deb ko'rsatish mumkin. I.M. Solovyov bu holat eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvchi bolalarga nisbatan ko'ruv sezgisi ustun degan xulosaga olib kelmaydi, deb e'tirof etadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqi shakllanishida ko'ruv idroki katta ahamiyatga egadir. Eshituvchi bola eshituv va ko'ruv sezgisi va idrokiga tayanib, gapirishni o'rganadi.

Nutqi mavjud bo'lmagan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'limning boshlang'ich bosqichlarida idrok etilganini umumlash-tirish va sintezlashda, tasniflashda qiyinchilik sezadilar (masalan: boshlang'ich sinfdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolaga qizil qalamni ko'rsatib, bu nima deb savol berilganda, u qizil deb javob beradi). Bu rang va predmet tushunchasi bola idrokida yetarli dara-jada taqsimlanmaganligidan dalolat beradi. Bunday differensial va taqsimlash eshitishida nuqsoni bo'lgan bola nutq egallaganida, uning nutqida predmet va sezgi ma'nosini ifodalovchi so'zlar uning lug'atida shakllanganida imkon tug'iladi.

Eshituv sezgisini yo'qotish bilan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv sezgisi faollashadi, o'tkirlanadi. Ko'ruv idrokidan tashqari, anglash jarayonida hidlash va harakat sezgilari ham muhim o'ringa egadir. Harakat sezgilari inson badani, qismlari, nutqiy or-ganlar harakati haqida signal beradi. Eshituv analizatori funktsiya-sining buzilishida nutqiy harakatlar aniqligi, differensiallanganligi buziladi. I.M. Solovyov va boshqa olimlar ta'kidlashicha, eshituvning yo'qolishini nafaqat artikul apparat sezgisi, balki nafas olish appa-ratining harakat sezgisiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, mimika, daktilologiya kabi nutq shakllari harakat va ko'ruv sezgi-lari asosida shakllanadi. Teri sezgilari taktil va temperatura sezgi-larini qamrab oladi. Ular birligi predmet, uning shakli, kattaligini ifodalovchi materialni anglash imkonini beradi. Bu sezgilar retsep-torlari barmoq uchlarida, til uchida joylashgan bo'ladi. Sezgilar faol faoliyatni talab etadi va retseptorlarni ta'sirlovchilar bilan kontakti davomida yuzaga keladi. Teri sezgilari, idrok boshqalar bilan birga predmetni to'liq idrok etishga yordam beradi. Teri sezgilari pred-metni ko'rish orqali idrok etishni to'ldiradi. Asosan predmetlarning

hajmi va fazoviy joylashuvida idrok etishda, predmetlarning tashqi qatlamini sezishda teri sezgilarining ahamiyati kattadir. U materialni ko'rish orqali anglashga, ko'rish esa o'z navbatida sezishga yordam beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'ruv idroki, teri-taktil hamda harakat sezgilariga tayangan holda atrof-olamni idrok eta olish imkoniyati yuqoriligi rus psixologi T.G. Tigranova tomonidan o'rganilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Idrok va sezgi jarayonlariga umumiy tavsif bering.
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sezgi va idrokining o'ziga xos xususiyatlarini yoriting.
3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirishda ko'ruv sezgisining o'rni qanday?
4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni fan asoslariga o'qitish jarayonida taktil-vibratsion sezgilarni qo'llash mumkinmi?

5.2. Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarning diqqat xususiyatlari

«Diqqat – ongimizning muayyan obyektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat. Diqqat ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan keyingi turlarga ajratiladi»¹ – deb bayon etilgan izohli lug'atda. Diqqat mohiyati inson tomonidan biror narsalarni aniq aks ettirishda ko'zga tashlanadi. Bir vaqtning o'zida boshqa narsalardan biror predmetni ajratib idrok etishga yordam beradi. Diqqatning fiziologik asosini bosh miya ayrim qismlaridagi qo'zg'alishlarning ayrim markazlarda to'planishi tashkil etadi.

Inson tomonidan sezgilar orqali qabul qilinayotgan barcha narsalarni idrok etish diqqatsiz amalga oshmaydi. Idrok, demak diqqatsiz yuz bersa yuzaki, fragmentar sodda tarzda amalga oshadi. Shu bois, o'quvchilarning o'quv fanlarini to'la, keng o'zlashtirishlarida, ma'lumotlarni tushunishlarida diqqat jarayoni o'ta muhimdir. Shu bilan birga diqqat xususiyatlari: turg'unlik, bo'linuvchanlik, taqsimlanish, ko'chish kabilar ham tez sur'atlar bilan takomillashib boradi. Diqqatni biror joyga to'play olish, uni shu nuqtada ma'lum

¹ Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – T.: 1998. 15-b.

muddat ushlab turish diqqatning sifatlaridandir. Diqqatni bo'la olish har bir shaxsning qo'lidan kelavermaydi. Bu narsa asab to'lalari hujayralarining harakatchanligiga bog'liq. Diqqat asosan o'quv faoliyat asosida amalga oshib boradi. Normal eshituvchi shaxslarda ham, eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarda ham ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi diqqatni tarbiyalashdir. Nuqsonli bolalar diqqati qator bolalarda, bolalar diqqatini o'qituvchi, tarbiyachining og'zaki nutqi boshqarib borsa, eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatida ko'rish taassurotlari yetakchilik qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bir vatqning o'zida ham ko'rgazma materiallarni idrok qilish, ham o'qituvchining labidan uqib olishi amalda mumkin emas. Shu bois, bu bolalarga dastlab narsalar namoyish etiladi. Undan keyin ular tushuntiriladi. Bu toifa bolalarda I va II signal tizimlari orasida munosabatlar tez shakllanmaydi. Sinflar yuqorilashgan sari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bosh miyalaridagi qo'zg'alish markazlari izchillashib boradi. Asta-sekin bu holat normal bolalar xususiyatlariga yaqinlashib boradi. Bu ishlar surdopedagogning ishini birmuncha murakkablashtiradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'qituvchi, tarbiyachilar og'zaki ko'rsatmalar bilan bolalar diqqatini boshqara olmaydi. Bu toifa bolalar diqqatini ko'rish va tebranish qo'zg'atkichlari orqali boshqarib borish imkoniyati mavjud.

Bu bolalar diqqatini to'plash, yig'ish, tarbiyalashda turli-tuman ko'rgazmali qurollardan keng foydalanish ijobiy samaralar beradi. Og'zaki nutq umuman nutq orqali karlar bilan muloqot qilish surdopedagoglarning bolalar bilan bo'ladigan faoliyatlarida asosiy vositadir. Bu bolalarda nutqni o'stirish orqali ular diqqatini boshqarib, tarbiyalab borish mumkin. Shu narsa juda muhimki, gapirayotgan kishining lablariga butun diqqatni qaratish oson vaziyat, ish emas. «Labdan o'qish, — degan edi F.F. Rau, — bu nutq a'zolaridan chiqayotgan og'zaki nutqni ko'rish idrokidir». Bu narsa gapirishga oson. Ammo, uni bu yerda qanchalik diqqat zarurligini anglamoq uchun boshdan kechirmoq kerak. Shu bois, bu toifa bolalar normal eshituvchi bolalardan ko'ra tezroq, ko'proq charchaydilar. Bu bolalarga yordam tarzida daktil nutqdan foydalanish tavsiya etiladiki, bu usul orqali bolalar idroki yengillashib, o'quv

materiallarini egallashlari osonlashadi. Daktil nutqi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasining dastlabki yillarida keng qo'llanilishi tavsiya etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini ushlab turishning uchinchi xususiyati, sharti surdopedagogning sinfdagi o'zini to'g'ri tutishidir. Surdopedagog quyidagi qoidalarga amal qilmog'i zarur. Butun sinfga yuzi bilan qaragan holda darsni olib borishi. Mumkin qadar sinfda bilim berganda yurmasligi, to'g'ri kelgan holda tushuntirmasligi lozim. Ko'rgazma qurollar namoyish qila turib, bir vaqtning o'zida uni tushuntirishga harakat qilmasligi kerak. Kar va zaif eshituvchi bolalarning diqqatlarini to'plashning to'rtinchi sharti shuki, darsda mumkin qadar ko'proq ko'rgazma qurollardan foydalanish lozim. Beshinchi sharti shundan iboratki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati ovozli qo'zg'atkichlarga bog'liq emas. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalar diqqatini to'plash, bir maromda ma'lum muddat ushlab turishning asosiy omillaridan biri mimikalardir. Bu narsa juda katta ta'sirga, jalb etuvchi kuchga ega. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqat maxsus ta'lim-tarbiyaning asosiy ta'lablaridan hisoblanadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini tekshirish va korreksiyalash metodikasi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqatini tekshirishda bolalarning yosh hamda nutqi rivojlanganlik holatiga muvofiq metodikalar tanlab olinadi. Maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning turg'un diqqatini tekshirishda Landolt namunalaridan (shaklli, raqamli, harfli jadval) foydalaniladi.

Savol va topshiriqlar

1. Diqqatga ta'rif bering.
2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqat turlari, ularning xususiyatlari haqida gapiring.
3. Kar va zaif eshituvchi bolalarda diqqatni tarbiyalash masalalarini yoriting.

5.3. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari

Xotira oldin idrok etilganni ifodalash, saqlash va tasvirlash bilan belgilanuvchi ongli ruhiy jarayondir. Xotirada insonning oldingi tajribasi, uning faoliyati, idroki, qayg'urishi ifodalanadi. U inson faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, me'yorda eshitadigan bolalar ma'lum hajmdagi bilimlarni eshitish orqali egallaydilar. Kar va zaif eshituvchi bolalarda esa mazkur holat maxsus korreksion pedagogik ta'limsiz amalga oshirilishi murakkabdir. Bu bolalarda o'quv materiallarini ko'rish orqali olganligi bois, ko'rish xotirasining ustunlik qilishidan darak beradi. Tashqi olam bilan aloqa natijalarini saqlash va ifodalash xotira asosini tashkil etuvchi tasavvur shaklida amalga oshadi. Xotira tasavvuri – bu predmet va hodisalarning hissiy ko'rgazmali umumlashgan obrazlaridir. Xotira faoliyati natijasi sifatida ular o'tmishida inson tomonidan idrok etilgan predmet, hodisalarni ifodalaydi, bevosita faoliyat natijasida sezgi obrazlari idrok yuzaga keladi. Shunday qilib, agar idrok obrazlari bo'lmasa, xotira taassuroti mavjud bo'lmaydi (masalan, tug'ma karlarda tovush, shovqin, taqillatish haqida tasavvurlar mavjud bo'lmaydi). Idrok va tasavvur o'xshashligi ularda predmet va hodisalar xususiyatlari va qirralari namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Tasavvur idrokka nisbatan kambag'alroqdir. Unda predmetlarning faqat ma'lum tomonlari namoyon bo'ladi, lekin ba'zi tomonlari tushib qoladi. Idrokdan farqli ular qat'iy va turg'undir.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira funksiyasi va xususiyatlari

Xotira o'tmishning ifodasi sifatida quyidagi asosiy funksiyalari yordamida amalga oshadi: ilk idrok etilgan materialni eslash, saqlash, tanish va bayon etish. Esrab qolish ixtiyoriy va ixtiyorsiz bo'ladi. Agar inson o'z oldiga materialni eslab qolish maqsadini qo'ymasa, material irodaviy harakatlarsiz, istaksiz esda saqlansa, bu ixtiyorsiz eslab qolish sanaladi. Agar inson oldida materialni eslab qolish, uni egallash maqsadi tursa, bu ixtiyoriy eslab qolishdir. T.V. Razonova tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar

predmetni joylashuv o'rnini bilan aloqasini ixtiyorsiz ravishda eslab qolishi kuzatilgan. Amaliyotda tekshiruvchilarga tanish predmetlar tasvirlangan 16 ta rasm berilgan. Rasmlar berkitilgan holda bo'lgan. Tadqiqotni ketma-ketlikda rasmlarni ochib ko'rsatgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ochilayotgan rasmda nima tasvirlanganini bayon etishgan. Keyin rasmlar planiyotdan olinib, qayta ko'rsatilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola bu rasmning jo'yini ko'rsatishi lozim bo'lgan. Tekshiruvchi sifatida bog'cha yoshidagi va II, IV va VI sinfdagi o'qiydigan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tanlangan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar topshiriqni yaxshi bajarganlar, ixtiyorsiz predmetlar joylashgan joyni eslab qolganlar. Faqat bog'cha yoshidagi kar va sog'lom bolalar o'rtasida farq sezilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom tengdoshlari kabi rasmlarning joylashuv o'rnini yaxshi eslab qolganlar. Shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan bola eslab qolgan materialni so'z orqali bayon etish (so'zli ifoda) holati T.V. Razonova tomonidan tadqiq etilgan. Tadqiqotda eslab qolish obyekti sifatida 6 ta o'xshash sxematik figuradan foydalanilgan. Ayrim figuralar uchburchak, ba'zilar doira shaklida bo'lgan. Figuralar ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Tekshiriluvchilarga III va IX sinf eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom o'quvchilariga diqqat bilan har bir figurani ko'rib chiqish va eslab chiqish taklif etilgan. Tekshiriluvchilarga ko'rgan figuralarini aniq bayon etishlari tushuntirilgan. Tadqiqot natijasida, ko'rsatilgan figuralarni so'zli ifodalash asosida esda qolgani, figuralarga xos individual belgilar aniq saqlangani kuzatilgan. So'zli ifodalanmagan figuralar boshqa figuralar bilan almashtirib yuborilgan holda esda qolgan. Yuqori sinfdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar III sinfdagi o'quvchilarga nisbatan so'zli ifodalarni ko'p qo'llaydilar. Lekin eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar eshituvchilarga nisbatan figuralar kam so'zli ifodani bayon etganlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar imo-ishoralarni ham qo'llaganlar, bu ham eslab qolish jarayonini samarali bo'lishgacha olib kelgan. Bu tadqiqot natijasiga ko'ra, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar murakkab materialni eshituvchilarga nisbatan yomon eslab qoladilar. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bola eslab qolish lozim bo'lgan figurani so'zli bayon etsa, bu eslab qolish jarayoniga ijobiy ta'sir

ko'rsatgan. Materialni eslab qolish berish usuliga bog'liqligi yuqorida ta'kidlangan tadqiqotda tekshiriluvchiga figuralar ikki xil usul bilan beriladi. Birinchi usulda figura ekranda butunligiga, ikkinchi usulda ketma-ketlikda asta-sekin namoyon bo'lgan. Tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, barcha figurani bir vaqtda ko'rsatilganda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarni obyektini eslab qolishida farqlar kuzatilmadi. Ketma-ketlikda predmetlarni ko'rsatilganda eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar sog'lom o'quvchilarga nisbatan yomon eslab qolganlar. Ketma-ketlikda figuralarni ko'rsatish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning eslab qolishini qiyinlashtirgan. Bunda figuralarning ayrim qismlari idrok etilib, asosiy mohiyatiga e'tibor kam qaratilgan. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar idrok etilganni bir butunga fikriy integratsiya qilishda qiyinalishi dalillandi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda so'zlarni egallash maxsus ta'lim jarayonida amalga oshadi va sog'lom bolalardan shu xususiyati bilan orqada qoladi. Tadqiqotlarning birida eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarning 3 turdagi so'zlarni idrok etish tadqiq etilgan.

1. Ko'rish orqali idrok etilayotgan predmet va hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

2. Taktil analizatori yordamida idrok etiluvchi predmet belgisini ifodalovchi so'zlar.

3. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlar.

Tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha, ko'ruv orqali qabul qiluvchi so'zlarni, ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalarda farq kuzatilmaydi. Ovozli hodisalarni ifodalovchi so'zlarni eslab qolishda eshitishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom bolalar o'rtasida farq mavjud. Bu turdosh so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalardan qoladi. Lekin teri analizatori orqali idrok etilayotgan so'zlarni eslashida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ustunligi kuzatildi. Tadqiqotda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar asosan ovoz chiqaruvchi hayvonlar va ovoz chiqarib ishlaydigan mexanizmlarni ifodalovchi so'zlarni yaxshi eslab qolishi namoyon bo'ldi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola-

larda obyektning ovozi haqidagi tasavvur saqlangan analizatorlar faoliyati asosida amalga oshadi. Eshituv tasavvurlari doirasidagi fe'llar ko'ruv vibratsiyasi, taktil doirasidagi fe'llar bilan almashtirilishi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'p kuzatiladi. Ayrim eshitishida nuqsoni bo'lgan V sinf o'quvchilari so'zlarni, fe'llarni quyidagicha almashtirib qo'llaydilar: qor – yaltiraydi, daryo – to'lqinlanadi, muz – sinadi, bo'laklanadi, shamol – esadi, bo'ron – u yoqdan bu yoqqa boradi. Maxsus tadqiqotlarda hikoyalarni eslab qolish va bayon etish xususiyatlari ham o'rganilgan. Bunda eshituvchi bolalar hikoya mazmunini o'z so'zlari bilan gapirib beradilar, kar o'quvchilar esa bu matnning mazmunini gapirib bera olmaydilar. Bu holatni D.M. Mayans va L.K. Zankov eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar qo'llaydigan so'zlar «inert», so'z birikmalarida qotib qolgan so'zlardan foydalanishida deb asoslaydilar. Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv xotirasining o'ziga xosligi ular so'zlashuv nutqining sekin tempda rivojlanishiga bog'liqdir.

Shuningdek, o'quvchilarni ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotirani qo'llashga o'rgatish muhimdir. O'rganilayotgan materialni o'tilgani bilan qiyoslashga o'rgatish ham xotiraning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. ENB o'quvchilarda uzoq muddatli xotirada eslab qolishga o'rgatish savol-javob orqali amalga oshiriladi. Savol-javob faqat o'tilayotgan mavzu bo'yicha emas, balki o'tilgan mavzu bo'yicha bo'lishi kerak. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar xotirasini rivojlantirishda yaxshi samara beradi. Bu takror turi o'quvchilarda qiyoslash operatsiyasini faollashtiradi, fikr operatsiyasini rivojlantiradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchini vaqtlar bo'yicha ajratilgan takrorlashga o'rgatish muhimdir. Agar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga eslab qolish uchun berilgan material hajmiga ko'ra katta va oson bo'lsa, uni hammasini yodlash talab etiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni so'zlarni ma'nodosh so'zlar bilan almashtirish o'qilgan matn mazmunini o'z so'zlari bilan bayon qilishga o'rgatish muhimdir. Bu eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning fikrlash xotirasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning obrazli xotirasini tekshirishda T.Y.Ribakov (1911) tomonidan tavsiya etilgan «Shaklni top», D. Vekslarning subtest shkalasi metodikalaridan foydalaniladi.

Savol va topshiriqlar

1. Xotira tushunchasi mohiyatini ochib bering.

2. Xotira obrazi va idrok obrazini qiyoslang.

3. Vaqt o'tishi davomida xotira qanday o'zgarishlarga uchraydi? Xotira o'zgarishlarini tavsiflang.

4. Qaysi davrda kar va sog'lom bolalarni maqsadli eslab qolish jarayonida farqlar kuzatiladi?

5. Kar va sog'lom bolalarning ixtiyoriy eslab qolish jarayoni o'zaro qanday farqlanadi?

5.4. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning tasavvuri va uning xususiyatlari

Tasavvur – yuqori ongli jarayon bo'lib, taassurotning yangilanishi va mavjud obrazlar asosida yangilarini yaratishni ko'zda tutadi. Tasavvur shaxs ehtiyojlari asosida motivlanadi. Inson o'z tasavvurida yorqin obrazlar yordamida o'z ehtiyojini qondiradi. Bu holatlarda tasavvur haqiqat aksini tezlashgan holda namoyon qiladi. Faoliyat so'ngida bu jarayon natijalarini tugallangan holda fikriy tasavvur qilishimiz mumkin. Tasavvur yordamida yaqin, uzoq kelajak hodisalarni oldindan tahlil qilish imkoni tug'iladi. Predmet, hodisa, shaxslarni idrok etish jarayonida insonda ayni shu paytda analizatorlarga ta'sir etuvchi obrazlar dunyosi yuzaga keladi. Idrok etish natijasida yuzaga kelgan obrazlar xotirada saqlanib qolishi tasavvur yoki xotira obrazlari deb nomlanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasavvurining o'ziga xosligi so'zlashuv nutqining kech shakllanishi va mavhum tafakkurning o'ziga xosligi bilan asoslanadi. Kar o'quvchilarning ko'ruv obrazlari yorqinligi, jonliligi bilan xarakterlanadi, lekin tafakkurning kech shakllanishi so'zning harfiy ma'nosini tushunishda murakkablik tug'diradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni so'zlarning ko'chma ma'nosini tushunishdagi qiyinchiliklar tasavvurning

yetarli darajada emasligi bilan xarakterlanadi. Tasavvurni quyidagi turlarga tasniflash lozim:

- 1) passiv tasavvur;
- 2) faol tasavvur. U ijodiy va yaratuvchanlik xarakteriga ega bo'ladi.

Passiv tasavvur oldindan o'ylangan va oldindan o'ylanmagan bo'lishi mumkin.

Yaratuvchan tasavvur. Yaratuvchan tasavvur predmet, hodisa, voqeani so'z orqali tavsiflash asosida uning ko'rgazmali obrazi, taassuroti asosida yuzaga keladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy faoliyatining bu turi o'ziga xos bo'ladi. Yaratuvchan tasavvurga ko'ra bola ongida atrof-olam keng, ko'p qirrali bo'lib namoyon bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar aqliy dunyoqarashi shaxsiy tajriba doirasidan tashqarisiga chiqadi. Lekin so'zlashuv nutqi va mavhum tafakkurning rivojlanishdan orqada qolishi kar bolani insonlarning ijtimoiy tajribasini to'liq egallashiga to'sqinlik qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bilish faoliyatida yaratuvchan tasavvur muhim o'ringa ega, u turli turdosh mehnat faoliyatining zarur komponenti sanaladi. Tarix, geografiya, fizika, adabiyot bo'yicha bilimlarni egallashda oldin idrok etilmagan obrazlar, taassurotlardan foydalanadilar. Yaratuvchi tasavvur o'quvchilarni badiiy asarlarni mustaqil o'qishda katta o'ringa egadir. Bola ongida asar muallifi tomonidan yaratilgan obrazlar, hodisalar haqida tasavvur yuzaga keladi. Bu o'quvchiga turli davrlardagi hodisalar va inson his-tuyg'ularini tushunish imkonini beradi. O'qituvchilar kuzatishi-cha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda o'qish jarayonida shakllanuvchi obrazlar har doim ham to'g'ri tavsiflanmaydi. Ko'pincha bu o'qilgan asar mazmunini tushunmaslikka olib keladi.

Kar o'quvchilar ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida

Ijodiy tasavvur tasavvurning oldindan namoyon bo'lishi va mustaqil ravishda yangi obrazlar, taassurotlar yaratish bilan belgilanadi. Ijodiy tasavvur va tafakkurning o'zaro munosabatini tadqiq etib, A.V. Petrovskiy va M.B. Verbenskiy bu ikki ruhiy jarayonda intellektual faoliyatning turli aspektlarini ko'radilar. Ular tasavvur va tafak-

kurning bir necha shakli mavjud deb e'tirof etadilar. Ijodiy tasavvur jarayoni xotira asosida yangi obrazlarni yaratish bilan belgilanadi. Tasavvurning qurilish materiali – bizning o'tmish tajribamiz, tasavvur natijalari Yangi obrazlar – tasavvur taassurotlari sanaladi. O'quv faoliyati geometrik masalani yechishi, grammatik qoidalarni yodlash, insho yozish, chizish va yasash kabi turlari o'quvchilardan taassuroti, bilimni operatsiyalash va faoliyat natijalarini tahlil etishni talab etadi. Ijodiy tasavvur uning samaradorligi tajriba boyligi, ma'lumot doirasi darajasiga bog'liq bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ijodiy tasavvuri sog'lom bolalar va kattalar bilan muloqotining chegaralanganligi sababli o'ziga xos bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bolalardan ovoz chiqaruvchi predmetlar haqida bilib oladilar. Kichik yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun predmetlarning ovoz chiqarish hodisasi mavhumdir. Ta'lim jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ham ovoz chiqaruvchi predmetlarga farqsiz bo'lmasdan, ularga ahamiyat bera boshlaydilar. Tasavvurni nutqni rivojlantirish bilan birga olib bormoq maqsadga muvofiqdir. Uni egallab, kar bola tasavvurga tayanib, suhbatdosh hikoyasi yoki o'qilgan hikoya mazmunini aniq aytib bora oladi. So'zlashuv nutqini rivojlantirish tasavvurini boyitishga, ijodiy obrazlarning shakllanishiga olib keladi. Bu o'z navbatida o'qilganni to'g'ri va tez tushunish imkonini beradi.

Nutqni rivojlantirish darsida o'qituvchi ijodiy tasavvurni rivojlantirishga katta ahamiyat berishi kerak. Buning uchun o'qilganni rollarga bo'lib o'qish, o'qilgan matn asosida rasmini chizish muhimdir. Shuningdek, rasm yoki rasmlar seriali asosida insho yozish ham yaxshi samara beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Tasavvur tushunchasi mohiyatini izohlang.
2. Kar o'quvchilarning ijodiy tasavvuri xususiyatlarini tavsiflang.
3. Kar o'quvchilarning ijodiy tasavvurini o'rganish natijalari haqida gapirib bering.
4. Kar o'quvchi shaxsini tarbiyalashda tasavvur qanday o'ringa ega?

5.5. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning xayol xususiyatlari

«Xayol – mavjud tasavvurlar asosida yangi obrazlarning yaratilishidan iboratdir, psixik aks ettirish jarayonlaridan biri. U ixtiyorsiz va ixtiyoriy, ijodiy xayol turlariga ajratiladi»¹. «Xayol yoki fantaziya, tafakkur kabi, yuksak bilish jarayonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos ijobiy harakatlariga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini xayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Fantaziya yordamida kutilayotgan natijani tasavvur qilish inson mehnatining hayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir»² – deb ta'kidlangan darslikda. Xayolning psixik jarayon sifatida birinchi va muhim vazifasi shundan iboratki, u mehnatni boshlashdan oldin uning natijasini tasavvur qilish imkonini beradi. Xayol faol va passiv bo'lishi mumkin. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz tarzda amalga oshishi, yuzaga kelishi mumkin. Qayta tiklovchi, ijodiy xayollar ham bor. Xayolni yuksak, xohlagan turi orzudir. Nuqsonli bolalarda xayol, ayniqsa, yosh bolalarda o'ziga xos xususiyat, ko'rinishga ega. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalardagi xayolning o'ziga xosligi ulardagi og'zaki nutq va mantiqiy tafakkurining kechikib shakllanishi bilan uzviy bog'liq. Ko'rish tasavvurlari har doim ham kerakli darajada tahlil etilmaydi. Shu sabab ular tomonidan yangi predmetlar tahlili qiyosiy amalga oshadi. Demak, nuqson: ko'rishmi, eshitishmi, aqliymi, nutqmi baribir xayol jarayonlarining kechishiga, shakllanishiga, rivojiga o'z salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmas ekan. Bu deyarli isbot, tushuntirish talab etilmaydigan haqiqatdir. Lekin, bu taassurotlarni qancha erta, muvaffaqiyatli korreksiyalasak o'quvchilarda xayol jarayonlari shunchalik tez va to'liq rivojlanishi mumkin. Bu jarayonning tafakkur bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga olsak, masalaning mohiyati yanada tezroq ravshanlashadi. Bu mavzuda albat-ta, O.I. Skorohodovaning «Как я воспринимаю, представляю и понимаю окружающих мир» (– М.: 1972) kitobini tahlil etish darkor. Ayniqsa, kitobning ko'r, kar kishi tomonidan «dunyoni»

¹ Психология кискача изохли луғат. – Т.: 1998 йил. 40-бет.

² А.В.Петровский. Умумий психология. – Т.: 1992 йил, 381-бет.

qanday tasavvur etish to'g'risidagi qismlar chuqur o'rganilmog'i darkor.

Xayol shaxsning intilishi, talablari bilan ham belgilanadi. Ko'rgan, eshitgan, bilgan narsalar obrazlari xotiramizda saqlanadi. Kerak vaqtda ularni tiklashimiz mumkin. Bu jarayon xotira obrazlari sifatida jonlanadi. Yoki, tasavvurlar shaklida ko'z oldimizga keladi. Xayol obrazlari tasavvur obrazlaridan o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi. Tafakkur va xayol oraliq'ida uzviy, mantiqiy birlik, bog'liqlik bor. Ammo, o'ziga xos farqlari ham bor. Bularni ajrata olish darkor. Inson biror murakkab muammoni yechishi talab etilganda tafakkurga murojaat etadi. Bunday natijalarga erishish yo'llari mavjud bo'lsa, tafakkur orqali biz tafakkurdan ko'ra xayol kuchiga tayanamiz. Xayolning rivojlanishi konkret ko'rgazma obrazlardan mavhum tushunchalar orqali yangi xayol obrazlari ijod qilish tarzida amalga oshirib boriladi.

Ma'lumki, nutq mavhum tafakkur rivojida alohida, muhim o'rin egallaydi. A.S. Vigotskiy ma'lumotlariga ko'ra, nutqi zararlangan bolalarda xayol jarayonlari ham izdan chiqar ekan. Bu toifa bolalar ko'chma ma'nodagi so'zlarni ham qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar, kamchiliklar bilan egallashlari suhbatda, ular xayollari ham me'yoriy shakllanishdan chetga chiqar ekan. Ixtiyorsiz xayolga ma'lumki, tush ko'rish va turli gallutsinatsiyalar misol bo'la oladi. Ta'kidlab o'tish o'rinliki, normal eshitadigan bolalar bilan eshitish qobiliyati buzilgan bolalar chizgan suratlar orasida ham ma'lum farqlar mavjud. Ajablanarli joyi shundaki, tasvirlangan suratlardagi predmetlar soni jihatidan normal eshituvchi bolalar orqada ekanlar. Ranglarni berishda karlar orqada qolganlar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar suratlari sinflar yuqorilashgan sari normal bolalar suratlariga yaqinlashib borar ekan. Mualliflar eshitish qobiliyatlari buzilgan bolalardagi ijodiy xayol xususiyatlari borasida turli xil fikr bildirganlar. Ayrimlari hatto ijodiy xayolni tasavvur bilan almashtirganlar. Eshitish analizatorining zararlanishi oqibatida bu bolalarning tashqi dunyoni aks ettirish faoliyati, ijtimoiy muhit ham bu toifa bolalar shaxsining mukammal shakllanishiga salbiy ta'sir etar ekan. Bu bolalar aka-ukalaridan, opa-singillaridan, yaqin-qarindoshlaridan o'ziga nisbatan achinish hislarini sezishlari natijasida o'zlarida egosentrik

xislatlarni shakllantirishga harakat qilar ekan. Ularda atrofdagilar uchun o'zining ortiqcha kishi sifatida tasavvur paydo bo'lib boradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar xayol xususiyatlarini rivojlantirishda ta'lim jarayonida rolli o'yinlarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning xayol xususiyatlari qanday?

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning xayolini rivojlantirish yo'llarini izohlang.

5.6. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish

Tafakkur haqiqatni bevosita va umumlashgan holda aks ettiruvchi bilish jarayonidir. Hozirgi kunda bolalar tafakkurining rivojlanishining uch bosqichi – ko'rgazmali-harakat, ko'rgazmali-obrazli, so'zli-mantiq tavsiflanadi. So'nggi bosqichda umumlashish, tushunchaning shakllanganligi darajasi, ishlatiladigan material xarakteriga ko'ra konkret tushunchali va abstrakt tushunchali tafakkur o'zaro tasniflanadi. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri predmet bilan tashqi harakatni o'zida jamlaydi, bunda bola maqsadga erishish vositasi sifatida turli predmetlardan foydalanadi. Amaliy vazifalarni amalga oshirishda muammoni hal etishni bir sharoitdan ikkinchisiga o'tkazish zaruriyati yuzaga keladi. Bu ko'rgazmali-harakat umumlashmalarining shakllanishiga olib keladi. Ko'rgazmali-harakat tafakkurining o'ziga xosligi, bir sharoitdan boshqasiga o'tishda bola harakati va predmet aloqasi, munosabati tamoyili to'liq namoyon bo'lmasligi bilan belgilanadi. Shunday qilib, nutqiy rivojlanishgacha tafakkurning inert, harakatchan emasligi kuzatiladi. Ma'lum nuqtayi nazardan bola narsani anglab, undan qiyinchilik bilan ajraladi. Nonutqiy muloqot imo-ishora yoki so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun asosiy omil sanaladi. Kar bola nutqini rivojlantirish uning tafakkurini rivojlantirishda muhim o'ringa ega. A.V. Zapo-

rojets fikricha, bolaning amaliy tajribaga va sensor tarbiyaga ega bo'lishi asosidagina bu jarayon amalga oshishi mumkinligini e'tirof etiladi. Ko'rgazmali-harakat tafakkuri rivojlanishidan orqada qolish nutqi mavjud bo'lmagan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda ham uchraydi. N.V. Yashkova tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sog'lom bolalarga nisbatan katta yoshlarda ko'rgazmali-harakat vazifalarini yaxshiroq hal eta olishi aniqlangan. 9-10 yoshlardagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun kattalar **harakatiga** taqlid qilish xosdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar **harakatni** umumlashtirish usuliga ega bo'lmaydilar, shu sababli bu vazifani o'rgatish uchun to'rt marotaba ko'p vaqt va uch marotaba ko'p ko'rgazma kerak bo'ladi.

A.R. Luriya va F.L. Yudovich nutqiy rivojlanishi orqada qolgan sog'lom egizak bolalar tafakkurining o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etgan. Bolalar harakatni so'zdan ajratish, rejalashtirish, elementar tasniflash malakasiga ega bo'lmaganlar. Predmet ifodasi, belgi, munosabatlarini anglab bola predmet obrazlari bilan tafakkur **harakatlarini** amalga oshiradilar.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uzoq muddat davomida ko'rgazmali-obrazli tafakkur bosqichida qoladilar. Xususan, T.V. Rozonova tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'rgazmali-obrazli tafakkurining rivojlanishidagi farq maktab ta'limining boshida kuzatilishini isbotlaydi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkurni rivojlantirish model tasavvurlarni umumlashtirish imkonini yuzaga keltiradi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkurni shakllantirish so'zlash nutqining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, ko'rgazmali-obrazli tafakkurni so'zli-mantiq tafakkuri bosqichiga o'tishi **sog'lom** bolalarga nisbatan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uzoq muddat davomida amalga oshadi. Bu fikrlash operatsiyalarining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Fikrlash operatsiyalari tizimga tashkillashtirilgan umumiy harakatlardir. Bu fikrlash operatsiyalari asta-sekinlik bilan amalga oshadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda fikrlash operatsiyalari eshituvchi bolalarga nisbatan kech shakllanadi. Analiz va sintez jarayonining rivojlanishida ham orqada qolish kuzatiladi. Bu jarayonlar yanada uzoq muddatli va sistematik tarzda amalga oshadi. Taqqoslash

jarayonida farqlarni topish va o'xshatish munosabatlari amalga oshadi. I.M.Salovyov ta'kidlashicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda taqqoslashning quyidagi jihatlari namoyon bo'ladi: ikki predmetni taqqoslashdan birining analiziga o'tib ketish, vazifani soddalashtirish, predmetlarni taqqoslashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'smirlik chog'ida taqqoslash texnikasini egallashda yutuqlar kuzatiladi, taqqoslash sifati oshadi.

Abstraksiyalash jarayoni sujetli-rasm o'yin va o'quv faoliyati jarayonida amalga oshadi. Sujetli-rasm o'tinning xarakterli xususiyati o'rindosh predmetlarni qo'llash hisoblanadi. Almashtiriluvchi predmetlar xususiyatini ajratish va taqqoslash abstraksiyaga asoslanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar almashtirilgan predmetlarni qo'llashda qiyinchiliklarga uchraydilar. Hatto almashtirish uchun funksional mumkin bo'lgan predmetlar ular tomonidan har doim qo'llanilmaydi, ularni real funksional ahamiyatida ajratish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun qiyin tarzda kechadi. N.I.Shif ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi, maktab yoshidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun almashtiruvchi vosita sifatida tanishga nisbatan, notanish predmetlarni qo'llash qulaylik tug'diradi. Abstraksiya jarayonida orqada qolish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatida ham orqada qolishiga sabab bo'ladi.

Fikrlash operatsiyalarini amalga oshirish eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nisbatan kechroq amalga oshishini bir qator psixolog olimlar o'z ishlarida ko'rsatib o'tadilar.

So'zli-mantiq yoki tushunchali tafakkur rivojlanishida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda sog'lom bolalarga nisbatan o'ziga xoslik kuzatiladi. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarda tafakkur va nutqning rivojlanish yo'nalishi, eshituvchilarga nisbatan kech amalga oshadi. Kundalik qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun, intensivikasiya qilish yetarli emas, chunki har qanday so'z yoki fraza tafakkur rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar kattaliklarni taqqoslash, kattaliklar o'zaro munosabatini tushunish, masala mazmunidan uni ko'rgazmali ifodalash, berilgan munosabatlarda ko'rgazmali

sharoitda ajratishni ifodalovchi bir qator masalalarni hal etishda qiyinchiliklarga uchraydi. Asosiy qiyinchiliklar matn mazmuni bo'yicha xulosa chiqarish, ma'lumotlarni analiz va sintez qilishda yuzaga keladi. Bunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar mazmunan to'liq bo'lmagan, lekin nutqiy vositalar bilan ifodalangan javoblarni bayon etadi.

Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar ta'lim jarayonida ularning tafakkur xususiyatlarini hisobga olish darkor. T.V. Rozonova o'zgacha yondashuvni talab etuvchi bolalarning 3 guruhini tasniflaydi:

Birinchi guruhga ko'rgazmali va tushunchali tafakkur rivojlanishi yuqori darajada bo'lgan bolalar kiradi. Ular eshituvchi bolalar bilan ko'rgazmali-obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bir xil bo'ladi, lekin tushunchali tafakkurli rivojlanishi bo'yicha uch yil orqada qoladi. Bu bolalar yuqori o'zlashtirishga ega bo'ladi, maktab dasturini ijobiy egallaydi, masalalarni mustaqil yozadilar.

Ikkinchi guruhga eshituvchi bolalardan ko'rgazmali tafakkur, tushunchali tafakkuri darajasiga ko'ra orqada qoluvchi, bu tafakkur turlari o'rta darajasini namoyon qiluvchi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tasviflanadi. Ta'lim jarayonida ular surdopedagogning yordamiga muhtoj bo'ladilar.

Uchinchi guruhga ko'rgazmali tafakkurning yuqori darajasi, tushunchali tafakkurning past darajasi namoyon bo'lgan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni jamlaydi. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur darajasiga ko'ra bu bolalar eshituvchi bolalar bilan bir xil bo'ladi, lekin so'zlashuv nutqini egallashga qiynaladilar. Shu sababli ular maktab dasturini egallashda qiyinchilikka uchraydilar, fikrlash operatsiyalari to'liq bo'lmaydi, yetarli darajada umumlashmagan bo'ladi.

To'rtinchi guruhga tushunchali tafakkur darajasining yuqori ko'rsatkichi, ko'rgazmali-obrazli tafakkurning past darajadali kuzatilgan bolalar jamlanadi. Bunday disproporsiya nutqiy vositalarni yetarli tabaqalamay o'qitish, sujetli-rolli o'yin, tasviriy faoliyatning ommaviy turlariga ahamiyat bermaslik asosida kelib chiqadi. Disproporsiya oqibatida bu bolalarda matematika fanidan orqada qolish, maktab dasturini egallashda qiynalish yuzaga keladi. G.V. Rozonova tomonidan eshitishida nuqsoni mavjud bo-

lalar tafakkuri rivojlanishidagi munosabatlar tipini tasniflashning amalga oshirilishi o'z vaqtida tashxis qo'yish, disproporsiyaning sababini aniqlash, ularga nisbatan korreksion dastur tuzilishi lozimligini ko'rsatdi.

T.V. Rozonova tafakkur turlarining biridan boshqasiga o'tish xususiyatlarini tahlil etib, kar o'quvchilarda so'zli-mantiq tafakkurining shakllanish sharoitlarini ko'rsatib beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Kar va zaif eshituvchi bolalarning tafakkur xususiyatlarini izohlang.

2. Maktab yoshidagi kar bolalarning so'z mantiq tafakkuri xususiyatlarini yoriting.

3. Tafakkur haqida tushuncha bering.

4. Tafakkurning qanday turlari mavjud?

5. Qaysi olimlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkuri haqida ilmiy izlanishlar olib borishgan?

6. Tafakkurning qanday operatsiyalari mavjud?

7. Tafakkur va nutqning bog'liqligi haqida tushuncha bering.

8. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish yo'llari.

VI bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

6.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqining psixologik asosi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqini shakllantirish muammolari I.M.Solovyova, F.F.Rau, N.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozonova, N.G.Morozov, R.M.Boskislar ilmiy ishlarida tadqiq etilgan. Og'zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli sifatida namoyon bo'lgan. Dastlabki so'zlar tovush komplekslar shaklida bo'lib, tarixiy rivojlanish davrida ma'lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Lekin dastlab imo-ishora nutqi mavjud bo'lgan degan fikr ham mavjud. Bu ma'lumotga ko'ra, og'zaki nutq keyinroq paydo bo'lgan. Imo-ishora va mimikalar orqali o'z fikrini ifodalashda tovush taqlid so'zlarni ham qo'llaganlar. Psixologik nuqtayi nazardan og'zaki nutq sodda sanaladi. Uni faoliyatga kirishish vositasi tovush fonemadir. Yozma nutqning fonemaga kirishish vositasi grafik belgi harfidir. Og'zaki nutqni idrok etish eshituv analizatori asosida, yozma nutqni idrok etish ko'ruv analizatori asosida amalga oshadi. Ularning ifoda vositalari ham turlichadir. Og'zaki nutqda bu mimika, imo-ishora, urg'u, yozma nutqda — bu uslub, so'zlarni alohida tanlash usullari hisoblanadi. Og'zaki nutq, yozma nutq ham monologik va dialogik shaklda bo'ladi. Dialogik nutq psixologik nuqtayi nazardan murakkab savol-javob tarzida bo'ladi va auditoriyaning tayyorgarligini hisobga olishini talab qiladi. Monologik nutq yengilroq bo'ladi. Uning tuzilishiga, u davom etayotgan sharoit va muhit yordam beradi. Bolada og'zaki nutq atrofdagilar bilan muloqotda rivojlanadi. Eshituv idroki yordamida bola atrofdagilar og'zaki nutqini idrok etadi, 5–6 yoshlarda eshituvchilar tovushlarning to'g'ri talaffuzini, lug'at boyligi va gap grammatik qoidalarini amaliy egallaydi. Kar bola bu yo'l bilan nutqni egallay olmaydi, chunki u atrofdagilar nutqini eshitmaydi. Agar eshituvchi bola bog'chaga, maktabga shakllangan

nutq bilan borsa, kar bola ogʻzaki nutqi mavjud boʻlmagan holda boradi. Unda nutqni boshidan boshlab shakllantirish kerak. Buning uchun kar bolaning artikulyatsion nafas olish va ovoz apparatini tayyorlash kerak. Tadqiqotlar koʻrsatishicha, kar bolada eshituvchi bolaga nisbatan nutqiy nafas olish bir qator xususiyatlari bilan farq qiladi. Maxsus mashqlar davomida eshitishida nuqsoni boʻlgan bolalarda nutqiy nafas olish shakllanadi. Ularning ovozi ustida ham ish olib boriladi. Koʻp miqdordagi karlarda ovoz boʻgʻiq, modullashmagan boʻladi. Maxsus mashqlar jarayonida oʻqituvchi kar oʻquvchi ovozi eshituvchi bola ovozi-ga yaqinlashtirishga harakat qiladi, lekin bu har doim ham kerakli natijalarga olib kelmaydi. Kar bola nutqi, ovozi butun hayoti davomida oʻziga xos ottenkaga ega boʻladi. Kar oʻquvchilarni ogʻzaki nutqqa oʻrgatishning muhim qismi ularda turli talaffuzni shakllantirishdir. Oʻzbek tilidagi har bir fonema kar bolada maxsus usullar bilan qoʻyiladi. Saqlangan analizatorlari koʻruv, sezgi, harakat analizator faoliyatini qoʻllab, oʻqituvchi oyna oldida tovush talaffuzini koʻrsatadi va taqlid asosida talaffuz qilishni boladan soʻraydi. Avvalambor oson talaffuz etiluvchi tovushlar «p», «b», «m» qoʻyiladi, soʻng boʻgʻin, soʻz birikmalariga oʻtiladi. Shu tartibda boshqa nutqiy tovushlar talaffuziga oʻtiladi.

Bu jarayonni amalga oshirishda eshituv qoldigʻiga tayaniladi. Kar bolada ogʻzaki nutqni shakllantirishda koʻruv, harakat va sezgi analizatorlari yordami bilan maydonga chiqadi. Eshituvchi bola oʻz talaffuzini eshitish orqali nazorat qiladi, xato qilsa bu xatoni eshitib soʻng toʻgʻrilaydi. Kar bola talaffuzini dastlab oyna oldida, soʻng koʻruv va harakat sezgilari orqali nazorat qiladi. Tovush artikulyatsiyasi qanchalik aniq va yaxshi boʻlsa kinestetik sezgilar shunchalik differensiyalashgan boʻladi. Bu sezgi turi kar bola talaffuzini shakllantirishda muhim oʻrin hisoblanadi. Shunday qilib, kar bolada ogʻzaki nutqni shakllantirish faqat oʻqituvchi rahbarligida maxsus tashkil etilgan sharoitlarda amalga oshadi. Bu jarayon quyidagi vazifalarni koʻzda tutadi: nutqiy nafasni shakllantirishni, modullashtirilgan ovoz qoʻyish ustida ishlashni; talaffuzga oʻrgatishni; labdan oʻqishni; lugʻat ishini; grammatik tizimni shakllantirishni oʻz ichiga qamrab oladi.

6.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni shakllantirishning psixologik asoslari

Yozma nutq insonga egallangan tajribani belgilash va uni avlodlarga berish imkonini beradi. Yozma nutq psixologik nuqtayi nazardan og'zaki nutqqa nisbatan murakkabroq va nutqning qi-yin shakli sanaladi. U mavhum bo'lib, bola uni sekin egallaydi. Odatda, bola bu nutq shakli bilan maktabda tanishadi. Kar bola uchun og'zaki nutqqa nisbatan yozma nutq yengilroq sanaladi. Uni idrok etish uchun eshitish kerak emas, ko'ruv idrok esa ularda sog'lom bo'ladi. Yozma nutq shakllanishida nafaqat eshituv anali-zatorlari, balki kar bolada sog'lom bo'lgan ko'ruv, harakat anali-zatorlari ham katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari bu nutqning shaklini kar bola ruhiy energiyani ishlatasa, og'zaki nutqni shakl-lantirishda ko'proq ruhiy energiya sarflanadi. Shu sababli eshi-tishida nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallash bilan parallel yoki undan oldinroq davom etadi. Yozma nutqni qo'llash vositasi harf sanaladi. Yozma nutqni egal-lash savodga o'rgatish, harf yozish va tovush analiz va sintezini amalga oshirishni ko'zda tutadi. Lekin yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi va rivojlanadi. Og'zaki nutqni, tilning tovush tarkibini egallagan bola nutqiy oqimni aniqlashi mumkin. Boshqa tomondan yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallashga olib keladi. Yozuv so'zning tovush tarkibini aniqlash, fikrlarning aniq ifodalanishiga olib keladi. Ta'lim amaliyotida yozuv va o'qishning turli buzilishlari uchraydi (xususan, yozma nutq va o'qish jara-yonlari buzilishlari, disgrafiya, disleksiya, agrofiya). Disgrafiyada bola yozuvda ayrim harflarni tushirib qoldiradi yoki almashtiradi hamda yozuvda so'zlar o'rtasiga boshqa harflarni qo'shib yozadi. Disleksiyada harflarni ommalashtirib, tushirib qoldirib o'qiydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqida qanday nuq-sonlar kuzatiladi?

Eshituvchi va gapiruvchi bola yozma nutqsiz egallash jarayo-nida ma'lum darajadagi lug'at boyligi va gap tuzish malakasiga ega bo'ladi. Kar bolada bu nutq shakli bilan puxta asosga ega bo'lmay shakllanadi. Unda eshituvchi tayanadigan akustik va ki-

nestik obrazlar mavjud bo'lmaydi. Bu yozuvni egallash jarayonini tormozlaydi. Kar bola uchun gapning grammatik tizimi, so'z birikmasi, qoidasi, so'zlarning grammatik aloqasini egallash qiyinchilik tug'diradi. J.I. Shif, T.V. Rozonova, A.M. Potilskiy va boshqalar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqning keng tarqalgan va tipik xatosi agrammatizm tizimlardir, ya'ni grammatik shakllarning shaxs-son, egalik, kelishik qo'shimchalarini qo'llashda xatolar yuzaga keladi. A.M. Komdber, A.F. Nogilskaya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z yozma nutqlarida so'zlarni noto'g'ri qo'llash, gap bo'laklarini tashlab ketish hollari ko'p uchraydi, deb ko'rsatadilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar mustaqil yozma nutqlarida hodisalarni bayon qilishda mantiqiylik va ketma-ketlik yetarli darajada bo'lmaydi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar bayon etilayotgan materialni rejalashtirishda qiynaladi. Ba'zan ular bosh asosiy ma'nosini tushirib, ikkilamchi qismlarni tavsiflashga o'tib ketadilar. M. Kolberg eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqni tavsiflab, uning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlab o'tadi: so'zlarni noto'g'ri tanlash; so'zning tovush tarkibini buzish; gapdagi so'zlarni bog'lashda xatoliklarga uchrashi.

Sog'lom va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqini qiyoslab, olim sog'lom bolalar hodisalarni to'liq bayon etishlari, to'g'ri rejalashtirishi, o'zidan kam narsa qo'shishini aytib o'tadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar voqea-hodisalarni mazmunining to'liq tavsiflashga qiynaladilar. N.G. Morozova, A.F. Pongilskaya va boshqalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar yozma nutqni tushunishda ham xatoliklar uchrashini ko'rsatib o'tadilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sodda matnni tushunish va o'qishda qiynaladilar. O'qish murakkab analitik, sintetik jarayon bo'ladi. A.I. Sokolova eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning o'qish jarayonini tekshirib, unga ta'sir qiluvchi omillarni (gap tuzilishining grammatik xarakteri, o'quvchining hayotiy tajribasi va bilimi) tavsiflab beradi. N.G. Morozova kar o'quvchilar matnni tushunish holatini tadqiq etib, o'qishni tushunishning bir necha bosqichini ochib beradi. Birinchi bosqich analiz, ikkinchi bosqich sintez, uchinchi bosqich analiz-sintez.

6.3. Daktilologiya va imo-ishora nutqi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi sifatida

Daktilologiya kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Kar bolalarga daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:






























- 1) chizuvchi harflar (z, b, d);
- 2) harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
- 3) shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrida kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan keng qo'llaniladigan imo-ishora nutqi muloqotga ehtiyoj yuzaga kelish natijasida namoyon bo'ladi. Kar bola qo'llaydigan tabiiy dastlabki imo-ishoralar juda sodda bo'ladi. Masalan, u biror narsani xohlasa, uni qo'li bilan ko'rsatadi. Asta-sekin bu jarayon murakkablashib boradi, shartli xarakterga ega bo'lib, muloqot funksiyasini bajara boshlaydi. So'zlashuv nutqidan farqli, imo-ishora nutqi ko'ruv va harakat sezgilari asosida namoyon bo'ladi. So'zning realizatsiya vositasi tovush yoki grafik qobiq bo'lsa, imo-ishora nutqining vositasi qo'l harakatlari va unga mos yuzning mimik ifodalari. Bizning nutqimiz ikki funksiyani bajaradi: muloqot vositasi va tafakkur quroli. Bu funktsiya imo-ishora nutqi orqali ham bajariladimi?

Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamni tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasini bajarishini ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Lekin

u chegaralangan davrada, faqat kar shaxslar o'rtasida muloqot quroli sifatida namoyon bo'ladi. Nutq tafakkur quroli sifatida namoyon bo'ladi. U o'zining birinchi vazifasini bajara olmaydi, tafakkur quroli sifatida faoliyat ko'rsata olmaydi. Imo-ishora nutqining qurish materiali mimik belgilar foizidir. So'zdan farqli, imo-ishora belgilari bir qator o'ziga xosliklarga egadir. Ayrim mimik belgilar so'z kabi muloqot elementiga egadir. So'z qat'iy va universal ahamiyatga ega. Mimik belgilar esa qat'iy bo'lmaydi. Ko'p tushunchalar kar shaxslar o'rtasida bir xil ishora bilan ifodalanadi. Ularning xarakteri ta'lim jarayonida so'zlashuv nutqi vositasida o'zgarishi mumkin. So'z tarkibida tovush kompleksi va ma'nosi bo'yicha mustahkamlash aloqasi mavjud bo'lib, uni ixtiyoriy buzib bo'lmaydi. So'zning tovush tarkibi buzilsa, u o'zining funksiyasini bajarmay qoladi. Tovush kompleksi uning ma'nosi bilan umumiy bog'liq emas. Ayrim mimik belgilarda bu aloqa yaqqol namoyon bo'ladi. Ko'p olimlar mimik belgilarni tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M. Boskis, L.V. Zankov, G.L. Zayseva, N.F. Slezina). Ularning ilmiy ishlari natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

 A	 B	 D	 E	 F	 G
 H	 I	 J	 K	 L	 M
 N	 O	 P	 Q	 R	 S
 T	 U	 V	 X	 Y	 Z
 O'	 G'	 Sh	 Ch	 Ng	

1. Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:
 - a) ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u);
 - b) predmet konturi yoki uning xarakterli xususiyatlarini ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g'oz, ona);
 - d) to'liq yoki qisman immitatsiya qiluvchi xarakterlar.
2. Sezgilarga asoslangan belgilar.
3. Hid sezgilariga asoslangan belgilar.
4. Teri sezgilariga asoslangan belgilar.
5. Maza-ta'm sezgilariga asoslangan belgilar.
6. Organik sezgilarga asoslangan belgilar.
7. Emotsional sezgilarga asoslangan belgilar.
8. Mimiko-daktil sezgilar.
9. Tabiiy sezgilar.
10. Shartli sezgilar.
11. Sonni ifodalovchi sezgilar.
12. O'tkazuvchan mimik sezgilar.

Mimik belgilar tarkibi qat'iy va bir turga ega bo'lmaydi. Karlar Yangi tushunchalarni egallashi va nutqda yangi so'z paydo bo'lishi bilan mimik belgilar yuzaga kela boshlaydi (televizor, bomba). Ayrim mimik belgilar bir tomondan konkret va ko'rgazmaliligi, ikki tomondan diffuzligi va differensiallashmaganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun, uy belgisi ko'p qavatli uy, hovli-joy ma'nosida ishlatilishi mumkin. Shu sababli, mimik belgilarda umumlashtirishlar ko'p uchraydi.

Shunday qilib, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning imo-ishora nutqi so'zlashuv nutqidan juda katta farq qiladi. Bu farq uning vazifasi, tarkibiy qismlari va mimikasiga ham xosdir. U asosan so'z va mimik belgini solishtirganda, gapdagi so'z bo'laklarini bu ikki turda nutq shaklida namoyon bo'lishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Og'zaki nutqqa nisbatan chegaralanganligi, takomillashmaganligiga qaramay imo-ishora nutqi kar shaxslar uchun asosiy muloqot qurolidir. Pedagogik jarayonda imo-ishora nutqidan foydalanish ilk bosqichlarda yaxshi samara beradi. Lekin eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabi ta'lim jarayonining bosh maqsadi ularning og'zaki nutqini shakllantirishdir. Quyida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora nutqi namunalari keltiriladi.

Televizor — kaftlarning ko'rsatkich barmoqlari va jimjiloqlari oldi birlashadi, qolgan barmoqlar bukilgan holatda bo'lib, kaftlar ikki tomonga yo'naltiriladi.

6.4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqni idrok etishi

Eshituvchi bola atrofdagilar nutqini eshituv analizatori orqali qabul qiladi, yuzning ifoda harakatlari va mimikasi, imo-ishoralarni anglash imkonini beruvchi ko'rish analizatori yordamida ma'lumotini to'ldiradi.

So'zlarni, gaplarni bir necha marta takrorlash ta'sirida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda fonematik eshituvga tovush analiz va sintezning yuqori shakli rivojlanadi. Bola ona tilining fonemalarini farqlash, ayrim so'zlar, gaplarni tushunish, farqlashga o'rganadi. Bola ilk yoshida eshituvni yo'qotsa, og'zaki nutqni idrok etishda ko'ruv analizatori muhim o'rin tutadi. Bunda taktil vibratsion, harakat, eshitish qoldig'i kabi sezgilar yordamchi rolga ega bo'ladi. F.F.Rau, V.I. Belyukov tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili ko'rsatishicha, kar bola unga qaratilgan nutqni ko'rish yordamida qabul qilishi, labdan o'qishga o'rgatish mumkin. Labdan o'qish murakkab ruhiy jarayon bo'lib, nutqiy apparat harakatlari ko'rish analizatori yordamida idrok etish asosiga qurilgan bo'ladi. F.F.Rau e'tirof etishicha, labdan o'qish jarayonini 3 bosqichda tasniflash mumkin:

- 1) so'zni artikulator tasniflash;
- 2) taqlidiy artikulator obrazini ko'rish orqali idrok etish;
- 3) anglangan idrok.

Bulardan tashqari eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar labdan o'qishining uch turi tasniflanadi:

- harakatli;
- ko'ruv;
- aralash.

Labdan o'qishning harakatli tipi og'zaki nutqi mavjud eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda uchraydi. Tovushning artikulator harakatini yuzaga keltirish uchun uning talaffuzini egallash kerak. Ta'limning boshlang'ich bosqichida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar umuman gapirmaydilar yoki kam gapiradilar. Bu bosqichda

bola so'zni talaffuz qilolmasa ham so'zning umumiy obrazini ko'ruv orqali qabul qiladi. Og'zaki nutqni egallash darajasiga ko'ra eshiti-shida nuqsoni bo'lgan bolalar talaffuzni yaxshi egallaydilar. Labdan o'qish jarayonida bolalarda nutqiy kinesteziya yuzaga keladi. Aralash tipda labdan o'qish ko'ruv va harakat tiplari bilan birgalikda amalga oshadi. Labdan o'qish jarayoni murakkabligi bizning nutqimiz fonemalari talaffuzda bir xil namoyon bo'ladi. Ayrim tovushlarni labdan o'qish oson bo'ladi. Nutqimizdagi har bir tovush o'ziga xos bo'lishi usuli, o'rni, ovoz va shovqin ishtiroki jarangli va jarangsizligiga ko'ra o'zaro farq qiladi. Labdan muvaffaqiyatli o'qish uchun gapiruvchi-ning holati, yorug'lik, temp va hokazolar bola nutqi rivojlanishining quyidagi asosiy xususiyatlarini ko'rsatish mumkin:

1. Eshitishni yo'qotish kar bola nutqiy rivojlanishi o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omildir.

2. Eshitishni butunlay yo'qotgan holatida kar bola nutqi nutqiy amaliyotida rivojlanmaydi. U faqat surdopedagog rahbarligida maxsus tashkil etilgan ta'lim jarayonida rivojlanadi.

3. Kar bola nutqi rivojlanishining asosi ko'ruv harakat va taktil vibratsion sezgilardir.

4. Kar bolada nutqiy amaliyoti eshituvchi bolaga nisbatan kambag'al va cheklangandir. Shuning uchun kar bolada nutqiy muloqot tamoyiliga ko'ra nutqini rivojlantirish maxsus maktabning bosh vazifasidir.

5. Eshituvchi bola eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga nisbatan nutqni erta egallaydi. Unda 5–6 oyligidan keyin faol nutq rivojlanadi. Kar bolada bu jarayon maktabga yoki bog'chaga borgandan so'ng amalga oshadi.

6. Kar bolada eshituvchi bolada mavjud bo'lmagan nutq shakllari imo-ishora nutqi, daktilologiya, labdan o'qish kabilar asosida shakllanadi va rivojlanib boradi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqi qanday ko'rinishga ega?

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning rivojlanishida imo-ishora nutqining vazifalari nimalardan iborat?

VII bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

7.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini o'rganishning umumiy masalalari

Shaxs atrofdagi olamni, undagi hodisalarni faol anglovchi va qayta ishlovchi insondir. Shaxs jamiyatda o'z-o'ziga va boshqalarga nisbatan ma'lum pozitsiyada turuvchi, ma'lum qarashlar, fikrlar, ideallar tizimiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloq ijtimoiy mavjudod bo'lsa ham, uni shaxs deb bo'lmaydi. Bola shaxsi kattalar bilan muloqotda insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallash jarayonida shakllanadi.

Kar bola shaxsining shakllanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Birinchidan, kar bola eshituvchi odamlar bilan muloqotda cheklangan bo'ladi, bu ma'lumotni egallash jarayonini sekinlashtiradi. Ikkinchidan, eshitish analizatori faoliyatining buzilishi emotsional rivojlanishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan akustik olam (inson ovozi, qushlar sayrashi, musiqiy ovozlari) anglash imkonidan mahrum qiladi. Uchinchidan, eshituvchi bolalardan farqli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar insonlarning ijtimoiy tajribasini egallashdan mahrumdir. Maxsus bog'cha va maktablarga qadar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishi sekin tempda amalga oshadi. Muloqot qiyinchiligi va eshituvchilar bilan muloqotining cheklanishi ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xarakterning ayrim xususiyatlari, shaxs qirralari kabi maxsus tashkil etilgan ijtimoiy sharoitlarda amalga oshadi. Sog'lom odamlar ichida yashab kar bola eshituvchi tengdoshlariga nisbatan o'zgacha munosabatni sezadi, bu unda shaxs qirralari shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

K. Obunovskiy tadqiqotlarida 80–130 sm dagi past bo'lyi odamlarning shaxs qirralarining shakllanish jarayoni o'rganiladi. Olim ularning shaxs qirralari shakllanishida ma'lum darajadagi bir xillikni aniqladi, o'ziga xos bo'lmagan optimizmli, bevositalik, sharoitlarga chidamlilikni aniqlagan. Shuning uchun, tekshiruvchi

atrofdagilar pakanaga boshqacha munosabatda bo'lganligi uchun unda shaxsning o'ziga xos qirralari shakllanadi deb xulosaga kelgan. Eshituvchi kattalar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktab-internatidagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar quvnoqligi, hayotga chanqoqligini ko'rib hayratga tushganlar. Ularning fikricha, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z nuqsonidan uyalib, doimo xomush yurishlari kerak. Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'z nuqsoni haqida kech biladilar, maxsus maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida ularda kelajakka ishonch, faollik shakllanadi. Katta va o'rta sinf o'quvchilari eshituvchilar bilan o'zlari o'rtasidagi farqni yo'qotish uchun so'zlashuv nutqini egalashga juda intiladilar. Kar bola shaxsining rivojlanish muammolari surdopsixologiyada to'liq tadqiq etilmagan, quyidagi bo'lim ushbu masala tadqiqiga qaratilgan. Surdopsixologiyada V.G. Petrova, V.L. Belinskiy, E.A. Viytar, M.M. Nudelmanlarning ilmiy izlanishlarida sog'lom va kar, zaif eshituvchi bolalar va o'smirlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat xususiyatlari o'rganilgan. Ular sotsiometrik testlar hamda insholardan foydalanilgan holda suhbat, kuzatuvlar tashkil etgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, sog'lom bolalar o'rtasida «sinfdagi sardorlik» xususiyatlariga – muloqotga kirishuvchanlik, do'stga sadoqatlilik, birodariga ko'mak berish, mustaqillik, fantaziya boy jihatlari hamda ko'rkam tashqi ko'rinishning o'zi yetarli ekanligini ta'kidlashgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar esa mazkur holatni sinfdagi o'quvchilarning og'zaki nutqini egallaganlik holati va darslarni o'zlashtirish darajasiga ko'ra belgilashgan.

7.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar hissiy emotsional iroda sferasining tavsifi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola tarbiyalanayotgan ijtimoiy sharoit uning shaxs sifatleri shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda, ijtimoiy tajriba jarayonida bola shaxsi rivojlanadi. Atrofdagi ijtimoiy muhit bola ijobiy munosabatlar tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi. Bu o'rinda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolani o'z holatiga, shaxsig munosabati katta ahamiyat kasb etadi. Kar bolalarning emotsional doirasi rivojlanishiga ma'lum noxush omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi.

So'zlashuv muloqotining buzilishi kar bolani atrofdagilardan uzoqlashtiradi, ijtimoiy tajribani egallashda qiyinchiliklarni tug'diradi. Nutqning rivojlanishida orqada qolish bolani o'zini, boshqalarni emotsional holatini tushunishga to'sqinlik qiladi, o'zaro munosabatlar shakllanishini sekinlashtiradi. Badiiy adabiyotlar bilan kech tanish kar bolaning emotsional dunyoqarashini chegaralaydi, badiiy asar qahramonlari va o'zgarlar ruhiy holatini tushunishga to'sqinlik qiladi. Mahalliy va chet el olimlari tadqiqotlarida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional rivojlanishining o'ziga xos muammolari o'rganilgan. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar hayotining birinchi kunlaridanoq atrofdagilar bilan to'liqsiz emotsional va nutqiy muloqot mavjudligi sababli ularning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiylashuvida qiyinchilik tug'diradi. Xususan, V. Petshak kar bolaning emotsional rivojlanish holatini tadqiq etgan. Unda quyidagi o'zaro bog'liq muammolar o'rganilgan: I muammo – ijtimoiy sharoit – ota-onalar eshitish qobiliyatining saqlanish darajasiga ko'ra maktabgacha va maktab yoshidagi kar bolalarning emotsional rivojlanish va munosabatlarini aniqlash. II muammo – kar o'quvchilarning boshqa odam emotsional holatini tushunishi. Boshqalar ruhiy holatini tushunish darajasi bolaning emotsional holatini belgilaydi. O'zganing emotsional holatini tushunish uning yuz mimikasi, ovoz reaksiyalar, nutqiy intonatsiyalar, imo-ishoralarni idrok etishga olib keladi. Kar bolada o'zga odamga simpatiya-yani rivojlantirish darajasiga ko'ra, emotsional holatini tushunishi malakasi yuzaga keladi. Simpatiya – yoqtirish, boshqa odamning emotsional holatini tushunish va uning hayotiy sharoitiga kirishda asosiy omildir. Nutq rivojlanishining o'ziga xosligi ma'lum emotsional holatni ifodalovchi so'zlarni egallashga to'sqinlik qiladi. Yaqin qarindoshlari bilan emotsional-ijtimoiy muloqotda kar bolalarda muloqotga kirishuvchi odamlar imo-ishorasi, mimikasiga diqqat bilan qarash shakllanadi. Asta-sekin ular boshqa odamlar bilan mimik, imo-ishorali muloqotining tabiiy vositalarini egallaydilar. Bu atrofdagilar bilan so'zli muloqotni imo-ishoralar bilan to'ldiradi. V. Petshak eksperimental psixologik tadqiqotlarda kar bolalarning kattalar bilan muloqoti xarakterini o'rganadi. Kar o'quvchilar emotsional holatining kambag'alligi ularning kattalar bilan emot-

sional va nutqiy muloqoti xarakteriga bog'liq bo'ladi. Xususan, kar onalarning kar bolalarida turli tipdagi emotsional holatlar, intellektual emotsiyalari sog'lom bolalar darajasida bo'ladi. Sog'lom ota-onalarning kar bolalarida turli hayotiy sharoitlarda kam miqdordagi emotsiya kuzatilgan. Bu eshituvchi ota-onalarni kar farzandlarida emotsional muloqotni shakllantira olmagan bilan belgilandi. Eshittuvchi onadan farqli kar ona o'z farzandi bilan emotsional muloqotni o'rnata oladi. Shu sababli kar ota-onalar uyida tarbiyalanuvchi bola internatda tarbiyalanuvchi bolaga nisbatan emotsiyalari, his-tuyg'ulari sog'lom bolalar his-tuyg'ulariga teng keladi. Kar bolalar emotsional rivojlanishida bolaning yaqin qarindoshlari, ota-onasi bilan munosabatida ularning oiladan ajralganligi ham muhim omil sanaladi. Maktabgacha davrda motivatsion ahamiyatga ega bo'lgan emotsiya, his-tuyg'u turi insonning atrofdagi predmet, hodisalarga munosabatidir. His-tuyg'uning shakllanishi murakkab va o'ziga xos yo'l sanaladi. Maktabgacha davrda his-tuyg'ular sujetli-rolli o'yinlar faoliyatida shakllanadi. D.B. Elkonin odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllanishida sujetli-rolli o'yinning roli kattaligini alohida ta'kidlaydi. Inson munosabati asosini tashkil etuvchi normalar bolaning ma'naviy va ijtimoiy tuyg'ulari manbayi sanaladi. Emotsiya va tuyg'u bevosita o'yin cheklanishlariga bo'ysunishda ishtirok etadi, bunda bola o'yin qoidalariga muvofiq o'z tuyg'ularini boshqarishga o'rganadi. Bola o'z tuyg'ularini jilmayish, kulish, mimika, imoishora, intonatsiya, harakatlar vositasida namoyon etishni o'rganadi. Tuyg'ular tilini o'rganib, ular anglangan holda, o'z emotsiyalarini bayon qiladi.

Kichik yoshdagi kar bolalarda o'yin va nutqiy faoliyatning chegaralanganligi sababli ular o'rtog'larini tushunmaydilar. Lekin o'zaro muhabbatni, tushunishni kutadilar, uydan ajralganlari uchun ulardan himoya, qayg'urishni kutadilar. Bog'chaga kelgan kunlarida bolalar o'rtog'iga yordamga kelmaydilar, birbiriga muhabbat, mehr bilan qaramaydilar. Yil boshida kichik guruhdagi bolalarda uyda tarbiyalanish asosida shakllangan egoistik yo'nalish kuzatiladi (yangi yaxshi o'yinchoqni tortib olish, o'yinchog'ini o'rtog'iga bermaslik). O'rta va yuqori guruhlarda o'ртоqlik va axloqiy tuyg'ularning rivojlanishida ijobiy ta'sirlar

ko'rinadi. Sujetli-rolli o'yin, bayram, tug'ilgan kunlar o'tkazish ijobiy emotsional tuyg'uni shakllantirishga sabab bo'ladi. Bu o'rtog'ini qayg'urishlarini tushunishi, uning emotsiyalari, qiyinchiliklari ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxslararo munosabatini shakllantirishda, emotsiya va tuyg'ularni rivojlantirishda boshqa odamlarning emotsiyalarini tushunish muhim rol o'ynaydi. V. Petshak kar maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning boshqalar emotsiyasini tushunish xususiyatlarini o'rgangan. Tadqiqot jarayonida ma'lum emotsional holatlarda, xursandchilik, g'am-anduh, qo'rquv, nafrat, befarqlik, hayrat emotsiyalari tasvirlangan edi. Tasvirlarni uch xil variantda tasniflash mumkin:

- shartli-sxematik;
- realistik;
- hayotiy sharoit (sujetli rasm).

Tekshiriluvchining vazifasi yuz tuzilishiga ko'ra insonning emotsional holatini anglash va uni imo-ishora nutqi bilan bayon etishni ko'zda tutishi. Emotsional holatni tushunish kar va sog'lom bolalar uchun qiyinchilik tug'diradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar orasida faqat ba'zilar tasvirlash sxematik va hayotiy variantni to'g'ri angladilar. Rasm personajlarining imo-ishorasi holatini to'g'ri tushunganlar. Ba'zan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional holatga mimik va imo-ishorali tasnif berganlar. So'zli bayon ba'zan amalga oshirilgan.

Shunday qilib, tashqi ko'rinishlar (mimika, imo-ishora) kar bolalarning emotsiyalarni tushunishida muhim ahamiyatga egadir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishida emotsional doira rivojlanishi davom etadi. V. Petshak tadqiqotlari natijalariga ko'ra, IV sinf o'quvchilari xursandchilik, shodlik, g'am, hayrat, qo'rquv, nafrat tuyg'ulari ifodalangan personajlarning emotsional holatini qisman tushunganlar. Bu bilimlarni bolalar asta-sekin, o'rta va yuqori sinflardagi ta'lim davomida egallaydilar. Analogik bilimni eshituvchi bolalar kichik yosh davrida egallaydilar.

Emotsiyalarni kech anglash bir qator noxush oqibatlarga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, adabiy qahramonlarni, ularning faoliyatlarini, qiliqlari, oqibat va sababini tushunish eshitishida nuqsoni

bo'lgan bolaning shaxs sifatleri shakllanishi va ijtimoiy-emotsional sferasi tarkib topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va sog'lom bolalarning emotsional doirasi rivojlanishida qanday o'ziga xos xususiyatlari mavjud?

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar emotsional doirasiga ta'sir etuvchi omillarni tavsiflang.

3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiy va axloqiy tuyg'ularini shakllantirishda qanday xususiyatlar kuzatiladi?

7.3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyat jarayonining o'ziga xosligi

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyatida uning atrof-dagi-larga faol munosabati namoyon bo'ladi. Faoliyat ixtiyoriy harakatlarda vositasida amalga oshuvchi holatlardan tarkib topadi. Inson o'z harakatlarini sezgi va idrok asosida nazorat qiladi. Shu sababli normal rivojlanuvchi bolada harakat nazoratida katta rol eshitishga beriladi. Tovushlar, ovozlarni qabul qilib bola harakatlarini bir ritmliligi, yaxlitligini nazorat qiladi. Bunday jarayonda eshituv va ko'ruv sezgisidan tashqari kinestetik sezgi-idrok muhim ahamiyat kasb etadi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bola o'z faoliyati, harakatlari eshituv nazorati yo'qligi sababli aniq bo'lmaydi. Kar bola hayotida eshituvchi ma'lum darajada bosuvchi taktil-vibratsion sezgi rivojlanib boradi. Bola vibratsiyalarga ko'ra atrof-olam haqidagi dunyo haqida bilimga ega bo'la boshlaydi. Shunday qilib, taktil-vibratsion nazoratga ko'ruv nazorat qo'shiladi. Bu kar bolaga o'z kinestetik sezgilarini to'liq anglashga yordam beradi. Kar o'quvchilar oldiga qo'yilgan maqsad va uni amalga oshirish yo'llarini moslashtirishga qiynaladilar. Ular maqsadga yetishish sharoit va talablari mos tahlil qilishga qiynaladilar, faoliyatni amalga oshirish rejasiga ega bo'lmaydilar. To'siq va qiyinchilikka duch kelganda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ularni bartaraf etishga harakat qilmaydilar. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ayrim faoliyat turlarini faqat

o'qituvchi ko'rsatmasi yoki taqlid asosida amalga oshiradilar, chunki ular mustaqil harakatlarning ketma-ketligini aniqlay olmaydilar. Xususan, amaliy ishlarda master faoliyatini kuzatib, kar bola uning harakatlarini ketma-ketlikda bajara olmaydi. Faoliyatning to'liq maqsadga qaratilmaganligi tanqidiy yondashuvning yuzaga kelmasligiga olib keladi. Kar o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida ularda ko'ruv, taktil-vibratsion va kinestetik nazoratni shakllantirish talab etiladi. Bunday nazorat jismoniy tarbiya, mehnat va rasm darslarida shakllantiriladi. Kar o'quvchilar faoliyatini nazorat etib, o'qituvchi bolalarga o'z faoliyatini anglashni, ishning har bosqichida maqsad va usullarni moslashtirishni o'rgatadi. Kar o'quvchilarni o'z faoliyatini rejalashtirish va o'zini nazorat etishga o'rgatish muhimdir.

Kar bolaning predmet faoliyati. Inson faoliyatining asosiy turi mehnatdir. Mehnat faoliyatning individual rivojlanishida boshqa faoliyat turlari tasniflanadi: predmetli, o'yin va o'quv faoliyati. Ishdan uch yilgacha bolaning asosiy faoliyati predmet faoliyat sanaladi. Hayotining 1-yilida bola qo'l harakatlarini anglaydi, predmetlar bilan takroriy harakat bajaradi. Eshituvchi bolaning ruhiy jarayonlarini shakllantirish, uning shaxsini rivojlantirish predmetli faoliyat asosida amalga oshadi, bunda nutqni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Predmetlar bilan harakat kattalar boshchiligida, ular nazorati bilan amalga oshadi. Bu dastlabki kichik miqdordagi harakatlar bo'ladi.

Kar bolalarning o'yin faoliyati. Maktabgacha yoshdagi kar bolalarning asosiy faoliyati (3–7 yosh) o'yin faoliyati sanaladi. O'yinning harakatli, didaktik va sujetli-rolli turlari tasniflanadi. Sujetli-rolli o'yin jarayonida eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'zlariga berilgan rollar asosida katta odamlar hayoti, ularning faoliyati va o'zaro munosabatini ifodalaydi. O'yin davomida atrof-olam haqidagi tasavvur aniqlanadi, chuqurlashadi, ularning bilimi kengayadi, qiziqishlari shakllanadi (hayvonlar, kitob, mehnat faoliyatiga qiziqish). O'yin jarayonida bolalar ijtimoiy xulq qoidalarini egallaydilar. Sujetli-rolli o'yin jarayonida bola Dunyo va ijtimoiy tajribani anglaydi. Sujetli-rolli o'yin bolaning o'rganish vositasi sanaladi, xususan uyida bola o'z xususiyatlari imkoniyatini

ochib beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshituvchi bola singari barcha o'yin turlarini sevib o'ynaydi. Sujetli-rolli o'yinlar eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va sog'lom bolalarda o'xshash xususiyatlarga ega bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sujetli-rolli o'yinda kattalar faoliyati va o'zaro munosabati aks etadi. Bu jarayonda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'ynaydi. Dunyoqarashni, dunyoni idrok etishni nutqiy muloqot chegaralanganligi sababli o'ziga xos bo'lgani uchun ularning sujetli-rolli o'yin faoliyati eshituvchi bolalarning o'yin faoliyatidan farq qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinlari eshituvchi bolalarga nisbatan predmet protsessual darajada to'xtab turadi hamda juda sodda ko'rinishda bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinida haddan ortiq detalizatsiya, predmet harakatlarini pedaktimi kuzatiladi. Oila o'yinida «Bolani cho'miltirish»da sovuq suvni iliq suv bilan almashtirishni, «Kir yuvish»da tog'oraga suv olishni esdan chiqaradilar. Ba'zan butun o'yin jarayoni biror harakatni amalga oshirishga qaratiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar butun o'yin jarayonida ma'lum sharoitning ayrim xususiyatlarini ko'rsatadilar. Ijodiy o'yinga kirishmasdan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar kattalar harakatiga taqlid qiladilar. Masalan, «Bog'cha» yoki «Shifoxona» o'yinida bog'cha opa yoki doktorning rolini o'ynovchi bolani bog'cha opasi yoki doktor opasi ismi bilan nomlaydi (bog'cha opa rolini o'g'il bola o'ynasa ham uni Zilola opa deb chaqiradilar). Bunda bola o'zi o'ynayotgan rolining tashqi xususiyatlarini namoyon qilishga harakat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'yinida harakatlar stereotipligi tendensiyasini kuzatish mumkin. Bolalar mexanik tarzda bir xil harakatlarni takrorlaydilar. Bitta bola qandaydir harakatni bajarsa, boshqalar aynan shuni takrorlaydi. Boshqa bolaga taqlid qilib, kar bola o'zidan hech qanday harakat qo'shmaydi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar ham taqlid elementidan xoli bo'lmaydilar. O'yinning xarakterli xususiyatlaridan biri hayotda qo'llaniladigan predmetni boshqa maqsadda qo'llashdir. Masalan, qalam – termometr, kubik – dazmol o'rnida ishlatilishi mumkin. Predmetlarni o'yin jarayonida qo'llashda sog'lom bolalar uning yangi nomini qo'llashadi. Harakatlarni o'yinda almashtirish bo-

lalar nutqining rivojlanishi va shakllanishi bilan bog'liqdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi rivojlanmasligi sababli o'yin o'ziga xos ko'rinishga ega bo'ladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar predmetlarni almashtirishda qiyinchiliklarga uchraydilar. Kattalar qalamni qoshiq yoki kubikni dazmol o'rnida qo'llashni aytсалar va bola buni amalga oshirsa, bu uni qalam bilan ovqat yeyishi va kubik bilan dazmol qilishni boshlaydi degani emas. Kar bola ko'p holatlarda kattalar tomonidan aytilgan predmet nomini nomlamaydilar, predmetning xususiyatlarini bevosita idrok etadilar.

Dunyoni idrok etishning chegaralanganligi eshituvchi idroki va izchilligi yo'qligi, nutqiy muloqotning chegaralanganligi sababli kambag'al bo'ladi. Eshituv tasavvurlari yo'qligi ko'ruv idroki bilan to'ldirilmaydi, ko'ruv idroki atrof-olam haqida to'liq bilim bermaydi. Nutqni kech egallash tafakkur va tasavurning rivojlanishida orqada qolishga sabab bo'ladi. Nutqiy rivojlanishdan orqada qolish tasavvur qilinayotgan o'yin sharoitini idrok etishni sekinlashtiradi. Sujetli-rolli o'yin jarayonida umumiy va nutqiy rivojlanish darajasiga ko'ra murakkablashadi. Ular oddiy predmet harakati-dan inson o'zaro munosabat va sezgilarini tasvirlashga o'tadilar. Uning faoliyati pedagogik rahbarlikga bog'liq bo'ladi. Maxsus ta'lim jarayonida o'yin faoliyati o'zgaradi, turli mazmunga ega sujetli-rolli o'yinlar yuzaga keladi. Sujetli-rolli o'yinlar maktab yoshida ham saqlanib qoladi. O'quvchilarda turli qoidalarga ega intellektual o'yinlar katta o'ringa ega. Ba'zi o'yin usullari o'quvchilar o'quv faoliyatining asosiy qismi sanaladi.

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyati. O'qish, o'quv faoliyati o'sib kelayotgan insonni mustaqil amaliy faoliyatga tayyorlaydi. Ta'lim ikki tomonlama jarayonni ko'zda tutadi: bilim berish va egallash. Bilim egallash o'qituvchi rahbarligida amalga oshadi va o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi. Kar bolalarni o'qitishda o'quv faoliyati va o'quv qiziqishlarini tarbiyalash katta kuch-quvvat talab qiladi, xususan kar bolada ta'lim olishning tor, chegaralangan motivlari bo'ladi. Bolalar faqat ota-onasini xafa qilmaslik uchun sinfda obro'ga ega bo'lish, o'qituvchidan maqto'v eshitish uchun ta'lim oladilar. Asta-sekin

eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyati mazmun va maqsadga muvofiqlik aksini oladi. Bu jarayonda bilim asosida nimalarga erishish mumkinligini namuna asosida ko'rsatish yaxshi natija beradi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatining asosiy nuqsonlaridan biri – ular o'z oldiga qo'yilgan maqsadni anglay olmaydilar, mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lmaydilar. Ta'lim o'quvchilarni mustaqil ta'limga tayyorlaydi. Maktab yoshida kar o'quvchilar xilma-xil faoliyat turiga ega bo'ladilar, ular navbatchilik qiladilar, to'garaklarga qatnashadilar, bog'larda ishlaydilar. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, kar bola yuqori maktab yoshigacha yagona tajriba, bilim va ommaviy malaka shakllanishida katta qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Savol va topshiriqlar

1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning faoliyat jarayonini tavsiflang.

2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar eshitish idrokining pastligi va nutqiy rivojlanishning o'ziga xosligi faoliyat jarayoniga ta'sirini yoriting.

3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyat jarayonining o'ziga xos jihatlarini bayon eting.

4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning mehnat va o'quv faoliyatiga umumiy tavsif bering.

III bo‘lim. LOGOPSIXOLOGIYA

VIII bob. LOGOPSIXOLOGIYANING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy hayotida yuz berayotgan tub islohotlar jamiyatimiz oldiga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan bo‘lgan ta‘limni yangilash va yosh avlodni zamon talablariga javob bera oladigan barkamol inson etib tarbiyalash, uning ongiga mustaqillik g‘oyalarini singdirishdek muhim vazifalarni qo‘ymoqda. Bulardan eng muhimlari ta‘limning yangi tizimiga qo‘yilayotgan hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda maxsus pedagogika, shu jumladan, logopsixologiya fanini yanada taraqqiy ettirish, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni jamiyatning faol a‘zolari qatoriga qo‘shish hamda maxsus ta‘lim sohasida yetuk mutaxassislar tayyorlashdan iborat.

Ta‘lim-tarbiya sohasida Respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va jahon ta‘limi andozalari talablariga mos keluvchi «Davlat ta‘lim standartlari»da davr bilan hamnafas, ya‘ni «Intellektual asr»ning faol ishtirokchilarini tayyorlash ko‘zda tutilgan. XXI asrning faol ishtirokchisi esa keng ma‘noda ta‘lim-tarbiya va ularning rivojlanishi haqidagi ma‘lumotlar bilan bog‘langan holda barkamol shaxsni voyaga yetkazishdek innovatsion jarayonni o‘zida mujassamlashtiradi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ta‘lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni yaratish va ulardan amaliyotda keng foydalanishga erishish, «Ta‘lim – fan – amaliyot» integratsiyasining ta‘lim tizimidagi samarasiga alohida e‘tibor qaratilgan. Qabul qilingan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning milliy modelidagi bosh muddao ham barkamol avlod tarbiyasi, mustaqil va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng ijodkor shaxsni tarbiyalash masalasidir. Bu vazifani esa maxsus pedagogika fani asoslaridan xabarsiz kishi me‘yoriga yetkaza olmasligi hech kimga sir emas.

Ushbu ma‘noda bo‘lajak o‘qituvchilar zimmasiga qo‘yiladigan yangi pedagogik tafakkurni shakllantirish vazifasi zamonaviy peda-

gogika fanining mazmun-mohiyatini tashkil etadi, shuningdek, jamiyat oldida milliy maktab modelini yaratish, milliy ta'lim tizimini, uning mazmunini jahon tajribasi mezonlariga mos davlat standartlari asosida yaratish vazifasini hal etish ham milliy pedagogikamizning zimmasiga yuklatiladi.

L.S. Vigotskiy, R.A. Luriya, Elkonin, Y.M. Mastyukova va boshqa bir qator olimlarning bolalarda uchraydigan nuqsonlar etimologiyasi, tavsifi, tasnifiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlari, rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni tashxislash, ular bilan korreksion-logopedik ish olib borish metodikalari, Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya haqidagi fikrlari logopsixologiyaning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari sifatida xizmat qiladi. Xorijiy va mamlakatimiz defektologlarining rivojlanishida nuqsoni bor bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ularni ijtimoiy moslashtirish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ilgari surilgan g'oyalar respublikamizda logopsixologiya fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, Sharq mutafakkirlarining pedagogik qarashlarida ta'lim masalasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning bola tarbiyasi haqidagi fikrlari, g'oyalari, bolani jismonan va aqlan sog'lom o'stirish borasidagi o'g'itlari, o'zlari amal qilgan didaktik metodlar hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning nomi matematika fanining amaliy ahamiyatini yuksak cho'qqilarga ko'tara olgan mutafakkir sifatida tarixda abadiy qoldi. Uning buyuk ixtirolaridan biri — «0» (nol) sonini yaratishi va bu orqali uning fanga kiritgan buyuk kashfiyoti o'nli pozitsion sanoq sistemasining iste'molga kiritilishidir. Uning «Al-Jabr val-muqobola», «Hind arifmetikasi haqida kitob», «Sinus Zijlari», «Kitob suratard», «Yer sathini o'lchash», «Quyosh soati to'g'risida», «Yahudiylar tarixi va ularning bayramlarini belgilash», «Vasiyatlar kitobi» kabi asarlari jahon matematika fanini va amaliy matematikani boyitdi.

Al-Xorazmiy o'z davri ilmining turli sohalari rivojiga ulkan hissa qo'shgan qomusiy olim bo'lish bilan birga, o'z bilimlarini o'quvchilariga qunt bilan o'rgatgan, ularni, nafaqat o'z sohasini yaxshi egallagan olim, balki chin insonlar qilib tarbiyalashga intilgan

va bu yo'lda turli usul va vositalardan foydalangan murabbiy hamdir. Barcha mutafakkirlar kabi, u ham ilm o'rgatishda ko'rgazma-tajriba metodlari, savol-javob metodlari, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan keng foydalangan.

Bundan tashqari, Al-Xorazmiy olimlarning ilmga qo'shgan hissalarini, ilmdagi o'rni, tutgan yo'lga ko'ra ularni uchta yo'nalishga ajratadi.

Birinchi yo'nalish. O'zlarigacha bo'lgan ilmiy natijalarni o'rganuvchi va ular orasidagi mavjud uzilishlarni ulab, ularni kelajak avlodga yetkazuvchi olimlar.

Ikkinchi yo'nalish. O'zlarigacha bo'lgan ilmiy yo'nalishlarni o'rganish va muayyan yo'nalishni asl holiga nisbatan anchagina oldinga yuksaltirish bo'yicha faoliyat ko'rsatgan olimlar.

Uchinchi yo'nalish. Fanga butunlay yangi yo'nalishlarni kirituvchi, kashfiyotlar qiluvchi, ta'limotlar yaratuvchi olimlar.

Abu Nasr Forobiy matematika, mantiq, tibbiyot, ilmi nujum, musiqqa, huquq, tilshunoslik, poetika kabi sohalar bilan shug'ullangan qomusiy olim. Manbalarda yozilishicha, u 70 dan ortiq tilni bilgan. Forobiyning bizgacha «Fozil odamlar shahri», «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida», «Ijo al-ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma'nolari to'g'risida», «Falsafa manbalari», «Substansiya haqida», «Logikaga kirish», «Masalalar manbayi», «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerak» kabi qator asarlari yetib kelgan. Buyuk mutafakkirning inson kamolotiga oid asarlarida jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni tinchlik hamda farovonlikda saqlab turishga xizmat qiladigan barkamol shaxsni tarbiyalash xususida fikr yuritiladi. Ta'limda barcha fanlarning nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy-axloqiy qoidalar, odob me'yorlari o'rganiladi, kasb-hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi. Forobiy ta'lim-tarbiya ishlarini nazariy yo'l bilan amalga oshirishga ko'proq e'tibor beradi. Shuning bilan birga u ta'lim-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish va vaqti kelganda majbur etish metodlaridan foydalanish tarafdori bo'lgan. Bugungi kundagi barkamol avlod tarbiyasida olim ijodidan keng ko'lamda foydalanish lozim.

Abu Nasr Forobiy o'zining «Aql ma'nolari to'g'risidagi» risolasida shunday fikrlarni keltirib o'tgan:

– odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan barcha ishlarini osonlik bilan amalga oshira olsin;

– barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi va aytilgan fikrining chinligini tezda payqay oladigan bo'lsin;

– xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan-eshitgan, sezgan narsalarining birortasini ham esidan chiqarmay, yodida saqlab qoladigan bo'lsin;

– so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini ravon va ravshan bayon eta olsin.

Abu Rayhon Beruniy ham Sharqning buyuk qomusiy olimlaridandir. Uning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Mineralogiya», «Tibbiyotda dorishunoslik», «Yulduzshunoslikda boshlang'ich ma'lumotlarni anglash», «Qonuni Ma'sudiy» va boshqa ko'plab asarlari o'z davri ilm-fanini yangi kashfiyotlar va g'oyalar bilan boyitdi. Olim tomonidan 152 ta kitob yozilgani haqidagi ma'lumotlar bor. Shundan bizgacha 31 tasi yetib kelgan.

Barcha Sharq mutafakkirlari kabi, Beruniy asarlarida ijtimoiy hayotning, kishilik jamiyatining barcha jabhalari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shu jumladan, olim ta'lim-tarbiya masalalariga ham katta e'tibor bergan. Beruniyning ilmiy bilimlarni yosh avlodga berish yo'llari, usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning fikricha, ta'lim oluvchilarga ta'lim berishda quyidagi tamoyillarga amal qilish ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: ta'lim oluvchilarni zeriktirmaslik; bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik; ta'limda uzviylik va izchillik; tahlil qilish va taqqoslash; takrorlash; materialni ko'rgazmali bayon etish va b. Beruniy ta'lim berishda o'quvchilarning diqqati, o'qishga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'limda soddadan-murakkabga, ketma-ketlik tamoyillariga amal qilish kerak deb hisoblaydi va o'zining bu fikrini obrazli tilda quyidagicha izohlaydi: ta'lim oluvchilar bir fandan ik-

kinchisiga o'tishda bir bog'dan ikkinchi bir yangi bog'ga o'tganday bo'lsin. Shunda ta'lim samarali olib boriladi.

Abu Ali ibn Sino nafaqat Sharq mamlakatlarida, balki G'arbda ham avvalambor jahon tibbiyot fanini beqiyos darajada boyitgan shifokor-olim sifatida shuhrat qozondi. Olimning «Tib qonunlari», «Ash-shifo», «Al-Qonun», «Urjuza» kabi tibbiyotga oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon», «Risolat at-tayr», «Risolat fil-ishq», «An-Najot», «Donishnoma», «Kitob al-ishorat», «Risolat al-qadr», «Nomozning mohiyati haqida risola», «Ziyorat qilishning ma'nosi haqida» kabi falsafiy va badiiy asarlari ma'lum bo'lib, ularning ko'plari hozirga qadar o'zbek tilida nashr qilingan va keng kitobxonlar ommasining diqqatini qozongan. Olimning tibbiyotga oid asarlari Ispaniya, Fransiya, Germaniya va boshqa G'arb mamlakatlari universitetlarida XVIII asrga qadar asosiy darslik vazifasini o'tab keldi.

Ibn Sino o'z davrining nafaqat buyuk tabibi va olimi, balki sinchkov murabbiy sifatida ham mashhurdir. Uning bu qarashlari va g'oyalarida bolaga ta'lim-tarbiya berishda uning jismoniy rivojlanishini ta'lim-tarbiya ishlari bilan uyg'unlashtirish talabi bosh o'ringa qo'yiladi. Shuningdek, olimning fikricha olib boriladigan o'quv mashg'ulotlarning mazmun-mohiyati ta'lim oluvchilarning yosh xususiyatlariga ham mos kelishi kerak va unda turli xil ta'lim metodlari va shakllaridan foydalanish zarur. Bu o'quvchilarda o'qishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytiradi, ta'lim sifatini oshiradi.

Ibn Sinoning pedagogik-didaktik ta'limoti bo'yicha bilishda qaysi metodlardan foydalanilmasin – u og'zaki ifodalash, bilimlarni tushuntirish, turli ko'rinisdagi suhbatni tashkil etish, tajribalarni uyushtirish bo'ladimi, ulardan ko'zlanadigan asosiy maqsad ta'lim oluvchida haqiqiy bilim hosil qilish, mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish bo'lmog'i lozim.

Olim inson psixologiyasi, xulq-atvoridagi o'zgarishlar uning fiziologiyasi bilan bog'liq deb biladi. Masalan, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi, kuchli g'azab qizdiradi, qayg'u ozdiradi, xulqning mo'tadilligi natijasida ham nafs, ham badan sog'lom bo'ladi, deb uqtiradi.

Buyuk adib Yusuf Xos Hojib odob-axloq, ta'lim-tarbiya hamda ma'naviy kamolotning yo'l-yo'riqlarini qomusiy asari «Qutadg'u bilig»da bilim zakovat sohibi bo'lishning asosiy kaliti tilda deb biladi. Allomaning fikricha, til tufayli kishi fikrini bayon etadi, o'z ilmi, aql-idroki, zakovatiga jilo beradi.

Nutq rivojlanishida ta'lim-tarbiya ijtimoiy hamda biologik omillarning ham ta'siri kattadir. Bu haqiqatni buyuk siymolarimizdan Amir Temur juda teran anglagan, o'z nasl-nasabi, o'zidan keyin qoladigan avlodning sog'lom, benuqson bo'lishiga juda katta ahamiyat bergan, bu ishni davlat ahamiyatiga molik vazifa deb bilgan. O'zining «Amir Temur o'g'itlari» risolasida «O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamogga e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'lik-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob-axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta tomosha berib, kelin tushirdim.

O'g'illarim, nabiralarim va yaqinlarimga biron tomchi sharob ichib, xotinlariga yaqinlashishni man etdim. Zero, sharobning ta'sirida bunyodga kelgan farzand nasl-nasabning buzilishiga ta'sir etgay, debon shu pokiza yo'lni tutdim».

O'zbek adabiyotining asoschisi Alisher Navoiy asarlarida ta'lim-tarbiya masalalariga alohida o'rin berilgan. Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimi va ilmiy bilimlarni yuksak qadrlagan. U: «Bilim va donishmandlik insonning bezagidir»,— deb yozadi. Navoiy bola tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, bolani hayot «chirog'i» deb ta'riflaydi. Bola oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Navoiy bolalarga kichik yoshligidanoq, bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni olti yoshdan tarbiyachi, muallimga berish lozimligini aytadi. Ular ilk yoshdayoq, fanlarni va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi.

Logopsixologiyaning ilmiy-nazariy va metodologik asoslarini ishlab chiqishda L.S. Vigotskiyning xizmatlari katta. L.S. Vigotskiyning oliy psixik funksiyalarning miya mexanizmlarini o'rganish

konsepsiyasi oliy psixik funksiyalarning xronogen lokalizatsiya qonunlarini aniqlash imkonini beradi. Oliy psixik funksiyalarning shakllanishi jarayonida Vigotskiyning «funksiyalararo aloqalar va munosabatlarning o'zgaruvchanligi» haqidagi umumiy psixologik qoidasi nuqsonli rivojlanishning xarakteri, nuqsonlarning, patogen omillarning ta'sir etish vaqti, joylashish o'rni va kechish xususiyatlariga bog'liqligini psixik tashxis qilishga zamin yaratdi. Shuningdek, hali rivojlanmagan funksiyalarda rivojlanishni «tepaga», shakllangan funksiyalarda «pastga» yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Bu xulosalar ma'lum ma'noda alohida ehtiyojlarga ega bolalarga ta'lim-tarbiya berishning ilmiy asoslari bo'lib xizmat qiladi.

Olimning analizatorlarning faoliyati haqidagi fikrlariga ko'ra «nuqson biron analizatorning biron-bir funksiyasinigina emas, balki butun faoliyatining buzilishiga olib keladi». Birlamchi nuqson, agar o'z vaqtida maxsus korreksion-logopedik yordam ko'rsatilmasa, ikkilamchi va uchlamchi buzilishlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bular: nutqning barcha tomonining rivojlanmasligi; sensor, fazoviy va boshqa tasavvurlarning yetishmovchiligi; xotiraning chegaralanganligi; diqqat konsentratsiyasi va maqsadga muvofiqligining yetarli emasligi; umumlashtirish darajasining pastligi; aqliy xulosa chiqarish darajalarining pastligi; sabab-oqibat aloqalarining yetarli darajada bo'lmasligi. Bu holatlar bolaning kommunikativ malakasining rivojlanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va muloqotga kirishishini qiyinlashtiradi va atrof-muhitni o'zlashtira olmaslikka olib keladi.

Logopsixologiyaning kommunikativ konsepsiyasidan kelib chiqib nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarda nutqiy faoliyatning paralingvistik vositalari (intonatsiya, temp, modulatsiya, fonatsiya), muloqot komponentlari (mimika, imo-ishora, to'g'ridan to'g'ri sensor va jismoniy kontaktlar), kommunikatsiya jarayonining turli xususiyatlari o'rganiladi.

Logopsixologiya fani maxsus psixologiyaning yangi tarmog'i hisoblanadi. Hozirda nutq nuqsoniga ega bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi bir qator ma'lumotlar to'plandi va tahlil etildi. Nutq nuqsonlarini o'rganib kelayotgan olimlar L.R. Mo'minova, M.Y. Ayupova, X.M. Po'latova, D.A. Nurkeldi-

yeva, M.P.Xamidova, Z.Axmedova, Y.Y.Chicherina va boshqalar o'z tadqiqotlarida nutq nuqsonlarining mexanizmlari, sabablari, alomatlari va bartaraf etish usullarining ilmiy-metodik asoslarini yaratdilar.

Shunday qilib, bolalarda nutq buzilishlari va ular bilan bog'liq psixik xususiyatlarni tadqiq etish va korreksiyalashga oid muhim muammolarni hal qilish maqsadida milliy logopsixologiyaning va logopediyaning metodologik asoslari yuqorida keltirilgan nazariyalar va g'oyalarga tayanadi. Nutq buzilishini o'rganishda va tuzatishda logopediya bolaning rivojlanishidagi umumiy va maxsus qonuniyatlarning o'zaro munosabatlari to'g'risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamkorlikda rivojlanishi haqidagi, ruhiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi.

Logopsixologiya fani predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari

«Logopsixologiya» kursi defektolog bakalavrlarni tayyorlash tizimida asosiy o'rinlardan birini egallaydi, chunki talabalar o'zlarining keyingi ish faoliyatlari davomida maxsus ta'lim-tarbiya tizimida rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklarni aniqlash, nutq kamchiliklarini bartaraf etish, ularning oldini olish bilan shug'ullanadilar. Ma'lumki, nutq nuqsonlariga ega bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlarning samaradorligini oshirishda defektolog maxsus psixologik bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik rivojlanish qonuniyatlari, ularning shaxsini shakllantirish omillari haqida bilimlarga ega bo'lishi va ana shu bilimlarga tayangan holda faol psixokorreksion (tuzatish) ishlarini olib borishi zarur. Shuningdek, mazkur kurs davomida talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini egallab boradilar, har bir nutq kamchiligida bola hissiy-irodaviy doirada, psixik jarayonda o'ziga xos, alohida xususiyatlarga ega ekanligi haqida to'liq ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Kursning asosiy vazifasi talabalarga logopsixologiya fanining barcha bo'limlarini, logopsixologiya fani bilan uzviy bog'liq bo'lgan (maxsus pedagogika, logopediya, psixologiya, maxsus psixologiya, psixolingvistika va h.k.) fanlarning yangi ilmiy yutuqlarini hisobga olgan holda umumiy va maxsus bilimlarni berishdan iborat.

Logopsixologiya fanining o'rganish obyekti tug'ma yoki orttirilgan nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalardir.

Logopsixologiya fanining predmeti doirasiga nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning psixik xususiyatlarini o'rganish va psixokorreksion ishlarni tashkil etish jarayoni kiradi.

Logopsixologiya fanining vazifalari:

– turli nutq nuqsoniga ega bo'lgan shaxslarning psixik rivojlantirish xususiyatlarini o'rganish;

– nutq nuqsonlarining differensial diagnostika metodlarini ishlab chiqish;

– nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarini o'rganish va bartaraf etish;

– nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda hissiy-irodaviy sohani va shaxslararo munosabatlardagi kamchiliklarni bartaraf etish metodlarini ishlab chiqish;

– nutq nuqsoniga ega bolalarning bilish faoliyatidagi va hissiy-irodaviy sohasidagi kamchiliklarning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.

Logopsixologiya fanining tamoyillari va metodlari

Determinizm tamoyili. Bu tamoyil psixik holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarni o'rganishni nazarda tutadi.

Determinizm narsa va hodisalarning sababiy bog'lanishlari haqidagi ta'limot. Real hayotda yuzaga kelgan sabablardan keyin oqibatlar darhol yuzaga kelmadi, balki ma'lum vaqt o'tganidan keyin namoyon bo'ladi. Ma'lum bir holatlarni keltirib chiqaruvchi sabablar natijasida, ma'lum hodisa va omillar ta'sirida aniq oqibatlar, asoratlar kelib chiqadi. Masalan, asfiksiya bilan tug'ilgan bolada nutq kech rivojlanadi, ya'ni asfiksiyaning oqibati nutqning o'z vaqtida rivojlanmaganida ma'lum bo'ladi.

Birgina sabab, ma'lum bir sharoitda bir xil oqibat-natijalarga olib kelsa, boshqa sharoitda umuman boshqacha natijalar keltirib chiqarishi mumkin. Patologik rivojlanishni ta'riflovchi barcha holatlarning sababiy bog'lanishi turli patologik omillar bilan bog'liq. Ushbu omillarni aniqlash bolaning rivojlanishi va ta'lim-tarbiya jarayonidagi qiyinchiliklarni tashxis qilishning asosiy vazifalaridan biri.

Diagnostika va korreksiyaning birligi tamoyili. Korreksion ishning vazifalari bola rivojlanishining to'liq psixologik diagnostikasiga asoslanganidagina to'g'ri belgilanishi mumkin. Psixologik diagnostika va korreksiya bir-birini to'ldiradigan jarayonlardir. Shuning uchun bolaga psixologik korreksiya kerakmi yoki yo'q degan savolga javob berishdan oldin, bolaning psixologik rivojlanish xususiyatlarini, muayyan yangi psixologik hosilalarning shakllanganlik darajasini, malakalar, bilimlar, ko'nikmalar, shaxsiy va shaxslararo aloqalarning rivojlanganlik darajasining bola yoshi bosqichlariga muvofiqligini aniqlab olish zarur.

Alohida individuumning barcha psixik xarakteristikalarini bir butun (yaxlit) o'rganish tamoyili determinizm va tizimlilikning umummetodologik tamoyillarini yanada aniqlashtiradi. Bu tamoyil L.S. Vigotskiyning biron buzilishning tizimli tahlilini amalga oshirish imkonini beradigan nuqson tuzilishi haqidagi konsepsiyasining asosini tashkil qiladi. Bu tamoyilning mohiyatini faoliyatli psixologiya doirasida ko'proq ochib berish mumkin. Unga ko'ra inson o'zini predmetli-manipulyativ, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatida imkon darajada to'liq namoyon etadi. Bunday yondashuv sinalayotgan shaxs psixikasining barcha sohalarini – shaxsi, intellekti, xulq-atvorini ochish imkonini beradi.

Insonga shaxs sifatida yondashish tamoyili nutq kamchiligiga ega shaxslarni tekshirishda g'oyat muhimdir. Bolaning emotsional-irodaviy holatini belgilab beradigan xulq-atvor yo'nalishini hisobga olmasdan turib, psixologik yordam samarali bo'la olmaydi. Psixolog har bir bolani va uning ota-onasini nodir, avtonom individlar sifatida qabul qilishi hamda ularning erkin tanlash, o'zini-o'zi belgilash huquqini, o'z hayoti bilan yashash huquqini tan olishi va hurmat qilishi lozim.

Faoliyat orqali yondashuv tamoyili. Tekshiruv bolaning yetakchi faoliyati hisobga olingan holda amalga oshirilishi lozim. Agar bu maktabgacha yoshdagi bola bo'lsa, o'yin faoliyati kontekstida, maktab bolasi bo'lsa, o'quv faoliyatida. Ayrim hollarda, agar rivojlanishda, shu jumladan nutq rivojlanishida orqada qolish kuzatilsa, o'yin metodikalari maktab yoshida ham o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Bundan tashqari bola va o'smir

uchun shaxsan tanish bo'lgan faoliyat turlarini tanlash tavsiya etiladi.

Bolani dinamikada o'rganish tamoyili. U bolalarning mavjud imkoniyatlarinigina emas, balki ularning kelgusida bilimlari va ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishga yo'naltirilgan. L.S. Vigotskiyning ta'lim va rivojlanish nisbatlari haqidagi konsepsiyasi shu tamoyilga asoslanadi. Unga ko'ra bola o'zi mustaqil hal qiladigan masalalar bilan belgilanadigan aktual rivojlanish zonasi va bola kattalar yordamida hal qiladigan masalalar belgilab beradigan eng yaqin rivojlanish zonasi farqlanadi.

Individual va kollegial tekshirish shakllarini birga qo'shib olib borish tamoyili kam kuch sarflab, eng yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Tekshirishning kollegial shaklida bir mutaxassis ikkinchisining yordamchisi sifatida ish olib borishi va o'z o'rnida sinovdan o'tuvchining xatti-harakatlarini tashkil qilishi, ijobiy emotsional fon yaratishi va, ayniqsa, olingan diagnostika natijalarini tahlil qilishda faol qatnashishi mumkin. Bunda bir xil faktlarga har xil nuqtayi nazar bilan qarash va optimal xulosaga kelish imkoni bo'ladi.

Rivojlanish tamoyili. Ushbu tamoyilga ko'ra, nuqsonning yuzaga kelish jarayonini (sababini) tahlil qilish bilan birga, aynan shu nuqsonni bolaning rivojlanishiga qanday ta'sir etishini o'rganish nazarda tutiladi. Ruhiy holatlarning to'g'ri tavsifnomasi nuqsonning kelib chiqish sabablari, aynan hozirgi vaqtdagi holati va kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni inobatga olgan holda tuziladi. Masalan, noaniq artikulatsiya so'zni, tovushni tahlil – sintez qilish malakasini egallashda qiyinchiliklar, yozma nutqda agramatizmlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuningdek, noaniq talaffuz nutqiy faollikning susayishiga, muloqotga kirishishda ehtiyojning kamayishiga olib keladi. Bola atrofdagilarning masxaralashlaridan uyalib muloqotga kirishmaydi, natijada esa, bolaning faol va passiv lug'ati kamayadi.

Rivojlanish tamoyiliga ko'ra, nuqsonni statistik jihatdan ta'riflashga emas, balki uning rivojlanish dinamikasini aniqlashga alohida urg'u beriladi.

Ong va faoliyat birligi tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, ong inson xulq-atvori va xatti-harakatining boshqaruvchisidir.

Ma'lumki, biologik nasldan naslga o'tuvchi xususiyatlar psixik funksiyalar shakllanishining shartlaridan birinigina tashkil etadi. Insonga insoniyat tomonidan yaratilgan predmetlar dunyosi va hodisalarni egallashga bo'lgan intilishlar xos. Faoliyat esa inson ongining shakllanish omilini yuzaga keltiruvchi shartlaridan biri sanaladi. Faoliyat doimo organizm bilan muhitning ifodasidir. Inson o'zining faoliyatini ilk yoshidanoq butun insoniyat tajribasi va jamiyat talablariga yo'naltirib boradi. Inson faoliyatiga xos bo'lgan xususiyatlardan yana biri shundaki, uning bilish jarayonlari iroda bilan bog'liq bo'ladi, ularga tayanadi, ya'ni faoliyat bilish va iroda jarayonlarisiz yuz berishi mumkin emas. Nuqsonli bolalarni o'rganishda ushbu tamoyil nuqsonli bolalar faoliyati ana shu bolalarning rivojlanish darajasini aniqlovchi asosiy parametr ekanligini nazarda tutadi.

Psixik rivojlanishning nutq bilan bog'liqligi tamoyili. Nutqiy faoliyat bola psixikasi, turli ruhiy jarayonlar (sensor, intellektual, hissiy iroda sohasi) bilan bog'liq holda shakllanadi. Bolada kechayotgan ruhiy jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini individual o'rganish natijasida bola nutqining nuqsonli rivojlanishini aniqlash mumkin.

Olingan ma'lumotlarning tahlilida sifat-son jihatdan yondashish tamoyili, bir tomondan, son ko'rsatkichlari asosida sifat birliklari yotishi lozimligiga asoslansa, ikkinchi tomondan, tekshirish natijalari mana shu rasmiy ko'rsatkichlardan iborat bo'lmay, vazifalarning bajarilish jarayoni (operatsiyalarning mantiqiy ketma-ketligi, maqsadga erishishda sobitlik va h.k.) ham tahlil qilinishini talab etadi.

Logopsixologiyaning metodlari

Kuzatish metodi. Bu metodga ko'ra kuzatish aniq reja asosida olib borilishi va natijalar qayd varag'iga yozib borilishi kerak. Bola kuzatilayotganini bilmasligi lozim. Agar bola bu holatdan xabardor bo'lsa, bu metod tabiiyligini, haqqoniyligini yo'qotadi. Kuzatish jarayonida tekshiruvchi faqat bolaning tashqi holatlarini ko'rishi mumkin: bolaning amaliy faoliyati, ma'noga ega xarakterlari va h.k. Biroq psixolog tashqi holatlarni kuzatish bilan cheklanmay, mana

shu tashqi holatlar zamirida yashiringan psixik jarayonlar sifat va holatlarini to'g'ri aniqlay bilishi lozim. Kuzatish metodida asosiy urg'u tashqi holatlarni ta'riflashga emas, ulardan to'g'ri xulosalar chiqarishga qaratiladi.

Produktiv faoliyatni tahlil qilish metodi. Bola faoliyati mahsuliga bolalar chizgan rasmlar, applikatsiya, qurish-yasash, turli o'yinchoqlar, yasagan narsalari, ular tomonidan yozilgan she'r va ertaklar kiradi. Bunda bolalarning o'z ixtiyorlariga ko'ra mustaqil bajargan faoliyat mahsuli alohida ahamiyatga ega. Masalan: bola rasmda aks ettirgan predmet bilan bolaning tasavvuri o'rtasidagi aloqani aniqlash mumkin.

Laborator va tabiiy eksperiment metodi. Laborator eksperiment laboratoriya sharoitida, maxsus qo'llanma va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda tekshiriluvchi o'zining tekshirila-yotganligini biladi. Notanish sharoit, ayniqsa, apparaturalardan foydalanish bolaga o'zgacha ta'sir etib, uning xulq-atvorida, o'zini tutishida o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bola hatto topshiriqlarni bajarishdan bosh tortishi mumkin. Shuning uchun eksperiment jarayonida qiziqarli o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Tabiiy eksperiment kundalik tabiiy sharoitda (dars, muloqot, o'yin) olib boriladi. Bunda bolalar ularga tavsiya etilayotgan o'yinlar, topshiriqlar ma'lum bir maqsadda berilayotganini bilmaydilar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga nisbatan qo'llaniladigan tabiiy va laborator eksperiment metodlarida keskin farqlar kuzatilmaydi, chunki har ikkalasida ham bolalar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan faoliyat turi bilan mashg'ul bo'ladilar.

Psixologik-pedagogik tadqiqot vazifalarini bajaruvchi eksperiment psixologik-pedagogik eksperiment deb nomlanadi.

Suhbat metodi. Bu metoddan bolaning atrof-muhit haqidagi bilimlarini, xulq-atvori, oila va ta'lim muassasasiga munosabatini aniqlash uchun foydalaniladi. Bolalarga beriladigan savollar tushunarli va qiziqarli bo'lishi kerak. Suhbatga alohida tayyorgarlik ko'riladi, ya'ni mavzu, savollar oldindan o'ylangan bo'ladi. Ko'p hollarda bolalarning javobi savollarning mazmuni bilan bir qatorda, bolalarning tekshiruvchiga nisbatan munosabatiga ham bog'liq. Bolalarning javob-

lari yozib boriladi. Ushbu metod natijalari bilan boshqa tekshiruv metodlari orqali olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi.

Test metodi. Test inglizcha so'z bo'lib, tekshirish, sinash ma'nolarini anglatadi. Bu usulning afzalligi shundaki, qisqa vaqt ichida, ommaviy tarzda ko'p tekshiruvchilarni tekshiruvdan o'tkazish mumkin. Testlar mazmuniga, tuzilish shakliga ko'ra: individual, guruhli, harakat, intellektual, psixologik va boshqa tur-larga ajratiladi. Test – bu bolalarga qat'iy aniq sharoitda tavsiya etiladigan, maxsus tanlangan vazifalar tizimi. Bolaning har bir to'g'ri javobi uchun baho qo'yiladi. Test javoblari bir necha variantlarda beriladi. Vazifa bir xil yoshdagi bolalar guruhiga beriladi va ularning o'rtacha o'zlashtirish ballari hisoblab chiqiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga tavsiya etiladigan testlar birlamchi faoliyat (o'yin, qurish-yasash) tarzida tavsiya etiladi. Testlar yordamida bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorgarlik darajasini aniqlash mumkin. Shuningdek, testlardan foydalanib, rivojlanishida orqada qolishlar kuzatiladigan bolalarni aniqlash mumkin. Lekin testlar bolalarning rivojlanishidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash imkonini bermaydi. Shuning uchun test metodini boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llash tavsiya etiladi.

Sotsiometriya metodi. Bu metod shaxslararo munosabatlarni, shuningdek, bolalarning guruhdagi o'rnini o'rganish imkonini beradi. Bunda asosan quyidagicha savollardan iborat anketalar tarqatiladi: «Sen kim bilan sayrga borishni xohlaysan?», «Sayrda kim bilan o'ynashni xohlaysan?», «Tug'ilgan kuningga kimni taklif etasan?», «Kim bilan bir partada o'tirishni xohlaysan?» va h.k.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga bunday savollar berish tavsiya etilmaydi. Bunda bolaga o'ziga yoqqan 3 ta o'yinchoqni tanlab olish taklif etiladi. So'ng bolaga «maxfiy tarzda» shu o'yinchoqlarni o'ziga yoqqan bolalar shkafchasiga solib qo'yish tavsiya etiladi. Olingan natijalar sotsiogramma jadvalida aks ettiriladi. Jadvalda aks etgan natijalar yordamida guruh «yulduzlari», lider bolalar guruhi aniqlanadi. Shuningdek, bu metod yordamida bolalarning kimlar bilan do'stligi yoki do'stlashishga intilishlari haqida ma'lumot olinadi.

Sotsiometriya metodi xuddi test metodi kabi bolalarni shaxslararo munosabati haqida tashqi ko'rinishdagi ma'lumotlarni beradi. Shuning uchun, to'laqonli ma'lumotga ega bo'lish uchun sotsiometriya metodi boshqa psixologik metodlar bilan birgalikda qo'llanilishi tavsiya etiladi.

Logopsixologiyaning rivojlanish tarixi

Qadimgi Rim pedagogi M.F.Kventilian o'zini «notiq tarbiyalovchi» ustoz deb hisoblaganligi uchun ham bolalar nutqining o'zgarishiga, nutqda uchraydigan nuqsonlarga katta e'tibor bergan. U bolalarning nutqi yoshlik chog'idanoq sof bo'lishi uchun kurashgan va bolalarni uyda tarbiyalash uchun olinadigan enaga va murabbiylarning talaffuzi yaxshi bo'lishi kerak, deb uqtirgan. Shuningdek, Kventilian musiqiy ta'lim berish masalasiga ham bolaning nutqini yaxshilash nuqtayi nazaridan qaradi. Tilni o'rganishda musiqadan foydalanish talaffuzning yaxshilanishiga yordam beradi, nutqning uslubini yaxshilaydi, uni ifodali nutqqa aylantiradi, deb hisoblagan. Bu ishlarda nutqning talaffuz tomoni, lug'at boyligi, grammatik tuzilishi, mantiqiy va tovush tomonlarini o'zgartirish masalalariga ham alohida e'tibor bergan.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda intellektual rivojlanish sur'ati orqada qolishi mumkin. U atrofdegilar bilan kam muloqotga kiradi, shunga bog'liq holda tasavvur doirasi chegaralanadi, tafakkurning rivojlanish tempi orqada qoladi. Shunday qilib, nutqiy buzilish tahlili psixik rivojlanishning turli tomonlari bilan bog'liqligi asosida nutqiy patologiyalar mavjud bolalarni o'rganishga kompleks yondashuv bo'lishni talab etadi. Uni maxsus psixologiyaning tarkibi bo'lgan logopsixologiya fani o'rganadi. Logopsixologiya fani rivojlanishining bir necha bosqichlari mavjud:

Klinik bosqich. Nutqiy buzilishlar logopediya fanining tadqiqot obyekti bo'lgan. Nutqiy patologiyali bolalarni o'rganish XIX–XX asrga to'g'ri keladi. Nutq nuqsoni mavjud bolalarni o'rganish terminologiyasi turli bosqichlarda turlicha bo'lgan. 1920-yillarda Rossiyada og'ir nutqiy buzilishlar «alaliya» atamasi bilan ifodalangan. Chet elda bu buzilish «rivojlanish afaziyasi», «konstitutsional nutqning to'xtashi», «tug'ma afaziya» (A.L. Kenton, F. Jilr, F. Koxar) deb nomlangan.

Nutq buzilishlarining dastlabki tasnifi A. Kussmaul (1877) tipologiyasidir. Bu tasnif XX asrning birinchi choragida chet el va rus tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida keng qo'llanilgan (G. Gutsman, E. Freshels, S.M. Debragayev). Ular ilgari surgan tasniflarda umumiy jihatlar ko'p edi (Klinik yondashuvda nutq kamchiliklarining nomlari lotin va yunon so'z yasovchi elementlaridan tashkil topgan so'zlardan iborat bo'lgan).

Pedagogik bosqich. Rus olimlari M.Y. Xvatsev, F.A. Rau, O.V. Pravdina, S.S. Lyapidevskiy va boshqa olimlar klinik tasnifga o'zgartirishlar kiritadi. Natijada bir shaklga kiruvchi nutqiy buzilishlar haqidagi tasavvurlar sezilarli darajada o'zgaradi. Lekin o'zgarishlar klinik terminologik apparatining o'zgarishiga olib kelmaydi. Tushuncha va terminlar tibbiyotda, logopediyada qo'llanilgandek bir xilligicha qolaveradi.

Psixologik bosqich. Nutqiy va ruhiy rivojlanish o'zaro bog'liq bo'lib, korreksion-pedagogik yordam berishda katta ahamiyatga egadir. A. Kussmaul, P. Mori, M.V. Bogdanov-Berezovskiy, R.A. Belova-David kabi olimlar intellektual rivojlanishga nutq nuqsonlari katta ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlab o'tadilar. Ular nutqiy doiradagi birlamchi buzilishlar intellektual darajaga, psixik rivojlanishning orqada qolishiga ta'sir ko'rsatadi, degan fikrni bildirganlar.

Nutq rivojlanishida nuqsoni bor maktabgacha yoshdagi bolalarda kuzatiladigan nutqiy va psixologik buzilishlar R.Y. Levina tomonidan tadqiq etilgan.

R.Y. Levina nutq buzilishlarida bilish faoliyati buzilishini ko'rsatadi. Bu nuqtayi nazar bir qator olimlarning ishlarida ham o'z aksini topgan (T.A. Vlasova, V.I. Lubovskiy, L.S. Svetkova, I.T. Vlasenko).

Ma'lumki, nutq murakkab funksional tizimni o'z ichiga oluvchi jarayondir. Bu tizimning har bir tarkibiy qismi boshqa qismlar bilan bog'langan. R.Y. Levina va uning shogirdlari nutqni uch tarkibiy qismga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi: fonetik-fonematik, leksik va grammatik. Olima, shuningdek, gapirmaydigan (alalik) bolalarni to'rt guruhga ajratadi: nutq kamchiliklari fonematik idrok buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan bolalar; nutq kamchiliklari bilan fazoviy tasavvurlari buzilgan bolalar; nutq kamchiliklari motivatsiya – ehti-

yoj doirasi buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan bolalar; nutq kamchiliklari ko'ruv idrok buzilishlari bilan bog'liq bo'lgan bolalar.

Nutq buzilishlari jarayonida nutqiy buzilishlar va bilish faoliyatining o'zaro munosabatlarini Y.M. Mastyukova ham tadqiq etgan. Bolalardagi nutq kamchiliklari polimorf bo'ladi. Y.M. Mastyukova bunday buzilishlar markaziy nerv tizimining buzilgan joyiga qarab organik va funksional bo'ladi va differensial yondashuvni talab etadi, degan fikrni olg'a surgan.

O.N. Usanova, Y.F. Garkusha, N.T. Sinyakova kabi olimlar nutqiy patologiyasi mavjud bolalar diqqati xususiyatini tadqiq etganlar. Ularning fikricha, bolalar diqqatining beqarorligi o'z harakatlarini rejalashtirishda o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar tafakkurining muammolari I. Peresleni, T.A. Fotekova, I.T. Vlasenko va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar shaxsiy xususiyatlari O.S. Orlova, L.Y. Goncharuk, L.M. Shipitsina, L.S. Volkova va boshqalarning ishlarida o'rganilgan. Logopsixologiyaning taraqqiyotiga B.M. Grinshpun, O.N. Usanova, I.T. Vlasenko, T.B. Filicheva, L.G. Solovyova va N.S. Jukovalar ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Logopsixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Logopsixologiya boshqa fanlar bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy buzilishlarni korreksiyalash va oldini olish bilan shug'ullanishda nutq buzilishlari simptomatikasini bilish, nutqiy faoliyat tizimida nutqiy bo'lmagan belgilar aloqasini o'rganish uchun logopsixologiya boshqa fanlar bilan o'zaro aloqada faoliyat ko'rsatadi.

Bolalarning rivojlanish bosqichlarini psixik tomondan o'rganishda bolalar psixologiyasi, pedagogik psixologiya va logopediya fanlari o'zaro hamkorlikda ish olib borishi kerak. Bolalar psixologiyasi bolalarda kechadigan ruhiy jarayonlarni o'rganadi. Bolalar psixologiyasi bolani boshqa shaxslar bilan muloqotga kirisha oladigan, mehnat qila oladigan shaxsga qay tarzda aylanishini ko'rsatib beradi. Pedagog bolalar psixik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashda va farqlashda yuqorida bayon etilgan bilimlarga tayinishi lozim.

Logopsixologiya – maxsus psixologiyaning bir bo‘limi, maxsus psixologiya esa umumiy psixologiyaning bir yo‘nalishidir. Umumiy psixologiya psixikaning tarkib topishi va rivojlanishi qonuniyatlarini me‘yorida o‘rgansa, logopsixologiya ana shu qonuniyatlarni nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda o‘rganadi. Shuningdek, umumiy psixologiyada qo‘llanadigan tadqiqot metodlari, tamoyillar, o‘rganilayotgan holatlarning tushunchalari, atamalari logopsixologiyada ham qo‘llanadi.

1970-yilda A.R. Luriya tashabbusi bilan bolalar neyropsixologiyasi rivojlana boshladi. Logopsixologiya logopediya bilan bog‘liq. Ma‘lumki, logopediya nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalarning ta‘lim-tarbiya tizimini tashkil etishda logopsixologiya tomonidan o‘rganiladigan bolalarning guruhli, yosh va individual psixologik xususiyatlari haqidagi bilimlarga tayanadi.

Logopsixologiya tibbiy fanlar bilan aloqada rivojlanadi. Bu fanlar bir xil o‘rganish obyektiga ega. Lekin bu fanlar o‘rganish predmetiga ko‘ra farqlanadi. Logopsixologiya nevrologiya, psixiatriya, fiziologiya fanlari bilan bog‘liq. Logopsixologiya nevrologiya, fiziologiya fanlarini integratsiyalash natijasida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning psixik rivojlanish holatini yangi sifat nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. Funktsional tizimlar nazariyasining yaratilishi, bosh miya qobig‘i funksiyalarining joylashishi (lokalizatsiyasi) haqidagi nazariyaning ishlab chiqilishi, alohida ehtiyojlarga ega bolalarda oliy psixik funksiyalarning shakllanishi va rivojlanishi nutq kamchiliklarini tahlil etishning yangicha usullarini keltirib chiqardi.

Logopsixologiya – otoloringologiya, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya fanlari bilan ham bog‘liqdir. Bu fanlarning ma‘lumotlari ovoz buzilishlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Bu holatda ovoz buzilishlari halqum nuqsonlari asosida yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin.

Ko‘p buzilishlar markaziy asab tizimi buzilishlari bilan bog‘liq bo‘lib, uning tashxisi logoped va vrach-nevropatologning o‘zaro faoliyati asosida amalga oshiriladi.

Nutq buzilishlarida ruhiy rivojlanishning turli holatlari – emosional-irodaviy, diqqat, xotira, aqliy mehnat faoliyati hamda shaxs-

ning psixik rivojlanishi orqada qoladi. Bu ma'lumotlar nutq buzilishini aniqlash va unga kerakli yordam ko'rsatishda muhimdir. Nutqiy buzilishlar miya faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liqdir. Bunday holatlarda logopedik ish bilan bir qatorda markaziy asab tizimi faoliyatini faollashtiruvchi dori-darmon orqali ham davolash olib boriladi.

Logopsixologiya lingvistika va psixolingvistika bilan o'zaro bog'liqdir. Logoped lingvistika fanida berilgan til birliklari va qoidalarini yaxshi bilsa, bu unga aniq tashxis qo'yishi, to'g'ri korrektsiyalashga yordam beradi va logopedik ish samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Logopsixologiya umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika fanlari bilan bog'liqdir. Logoped bolaning psixik rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, psixologik-pedagogik tekshiruv metodlarini qo'llay olishi lozim.

Shunday qilib, logoped nutq buzilishlarining turli shakllarini farqlashi, intellektual, emotsional va xulqiy buzilishlar bilan bog'liq nutqiy buzilishlarga tashxis qo'yish malakasiga ega bo'lishi kerak.

Psixologiyaga oid bilimlarni bilish logopedga faqat nutqiy buzilishni emas, balki nutqiy buzilishni ruhiy buzilishlar bilan bog'liqligini to'g'ri tushunish imkoniyatini beradi. Bunday bilim turli yoshdagi nutq nuqsoni mavjud bolalar bilan muloqotga kirishishga imkon beradi.

Shunday qilib, maxsus psixologiyaning bir bo'limi bo'lgan logopsixologiya maxsus psixologiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida logopediya va psixologiyaning zamonaviy yutuqlari asosida takomillashib bormoqda.

8.1. Normal va nuqsonli rivojlanishning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlari

Rivojlanish — falsafiy kategoriya sifatida. Prezidentimiz I.A. Karimov: «Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz» deb ta'kidlagan edilar. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim

to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bugungi kunda shaxs tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Bolalar maktab yoshiga yetgach, shaxs shakllanishining yangi mazmuni boshlanadi. Kichik maktab yoshi, o'smirlik yoshi va katta maktab yoshi davrlarida shaxs shakllanishining yuqori bosqichi namoyon bo'ladi. Inson shaxsini o'rganish masalasi bilan falsafa, psixologiya, pedagogika kabi fanlar shug'ullanadi. Hozirgi davrda inson muammosi aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlarning umumiy tadqiqot obyektiga aylanib bormoqda. Shunga qaramasdan, bir tomondan, insonni o'rganishda differentsiatsiya hodisasi yuz bermoqda, ikkinchi tomondan, inson taraqqiyotining sintetik tavsifi bo'yicha integratsiya holati ko'zga tashlanmoqda. Bir qator fanlarning tadqiqot obyekti bo'lib turgan insonni bir butun, yaxlit tarzda tasavvur etish uchun uni biosotsial va sotsiobiologik jihatdan o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, inson hayoti va faoliyatining operatsional (o'qish, operatsiya, harakat, malaka) mexanizmi uning ontogenezida funksional mexanizmga o'sib o'tadi, binobarin, unda komillik belgisi shakllanadi, natijada u kamolot cho'qqisining muayyan darajasiga erishadi.

Inson – jamiyat – tabiat – turmush munosabatlarini tekshirgan rus olimlari S.L.Rubinshteyn, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.G.Ananov odam va ular o'rtasida har xil turdagi va ko'rinisdagi strukturaviy, funksional, fazoviy va makoniy aloqalar tizimi mavjudligini ta'kidlab o'tganlar. Birinchidan, inson u yoki bu aloqalar tizimiga binoan biologik mahsul – Homo Sapiens sifatida o'rganiladi. Ikkinchidan, tarixiy jarayonning ham obyekti, ham subyekti tariqasida tadqiq etiladi. Uchinchidan, taraqqiyotning genetik dasturiga asoslanuvchi, muayyan ko'lamda o'zgaruvchan alohida xususiyatlarga ega (individ) jonzor tarzida ilmiy jihatdan o'rganiladi. Insonning jamiyat ishlab chiqarishining yetakchi tarkibi, bilish, kommunikatsiya va boshqaruv subyekti, tarbiya predmeti sifatida tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega.

Odamga individ sifatida tavsif berishda uning yosh jihatdan rivojlanish bosqichlari va individual-tipologik xususiyatlariga asoslanadi. Har bir rivojlanish davri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ontogenetik evolutsiya bosqichlarida izchil ravishda namoyon bo'ladi

va takomillashuv jarayonida o'z ifodasini topadi. Shaxsning individual xususiyatiga konstitutsion (tana tuzilishi, bioximik individuallik) holatlar, simmetriya va asimmetriya juft retseptorlari, effektorlarining funksiyalari kiradi. Bu xususiyatlar va xossalar birlamchi hisoblanib, hujayra va molekular tuzilishning barcha darajalarida ishtirok etadi.

Ma'lumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. O'zini anglash shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi subyektdir. Barcha idrok etiladigan, tasavvur qilinadigan narsalar uning uchun obyektidir. Ana shu nuqtayi nazardan olganda, odamning o'zini anglashi subyektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi.

Odam ijtimoiy zot bo'lganligidan unga o'zligini anglash qobiliyati xosdir. Faqat ijtimoiy hayotda, o'zga kishilar bilan qiladigan turlicha munosabatlarda odamning o'zini anglashi, o'zini «men» deb bilishi vujudga keladi va taraqqiy etadi. Odam o'zini alohida shaxs sifatida kim deb bilishi, o'zining o'tmishi va kelajagini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi va, nihoyat o'zining fazilat hamda kamchiliklarini anglashi o'zini anglashiga kiradi.

Insonning rivojlanishida, uning shaxs sifatida tarkib topishida biologik va ijtimoiy omillar muhim o'rin tutadi. Inson shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil uning o'zi orttirgan tajribalarni ta'lim-tarbiya orqali bolalarga berilishidir. Shunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi.

Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida biologik hamda ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Shaxsning ruhiy rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillarning o'rni. Ilmiy manbalarda inson shaxsi ikkita omil ta'sirida rivojlanishi ko'rsatib o'tiladi. Ulardan birinchisi biologik omillarning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi, odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siridir. Bu o'rinda odamga uzoq muddat davomida sistemali be-

riladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'sirini ham alohida ko'rsatib o'tish lozim.

Bola organizmi o'sib, kamolga yetib boradi. Organizmning ayrim a'zolari o'sadi va rivojlanib boradi. Shu a'zolarning sifati o'zgaradi. Nerv sistemasi taraqqiy etib, chiniqib boradi. Masalan, bola bir yoshga to'lguncha bosh miyasining og'irligi ikki marta oshadi. To'rt-besh yoshlarga yetganda bosh miya og'irligi uch marta oshadi. Miyaning o'sishi yigirma yoshgacha, ba'zan undan keyin ham davom etadi. Bola shartsiz reflekslar bilan tug'iladi, ammo hayotining birinchi oyidayoq shartli reflekslar asosida tashqi ta'sirlar tufayli shartli reflekslar ham vujudga kela boshlaydi. Bola bir yoshga to'lib, ikkinchi yoshga qadam qo'yganda, bosh miya po'stlog'ining faqat odamga xos bo'lgan yuksak funksiyasi tarkib topadi. I.P. Pavlov bu funktsiyani «ikkinchi signal sistemasi» deb atagan edi. I.P. Pavlovning ta'limotiga ko'ra ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari — tafakkur hamda og'zaki va yozma nutqning nerv-fiziologik negizi hisoblanadi.

Bolaning rivojlanib va takomillashib borayotgan nerv sistemasi, jumladan, bosh miyasi taraqqiy etayotgan odam psixikasining moddiy substrati (asosi)dir. Ammo organizm o'sishining o'zi hali odam shaxsini, undagi psixik hayot mazmuni va formalarini belgilab bermaydi. Bola tayyor bilim va mahorat, tasavvur va qobiliyat, tayyor havas va xarakter bilan tug'ilmaydi. Organizmning o'sishiga bog'liq bo'lgan psixik hayot imkoniyatlari haqiqatan yuzaga chiqishi uchun bola fiziologik jihatdan o'sibgina qolmay, ijtimoiy muhitda, odamlar orasida yashashi va kamolga yetishi kerak.

Organizm o'sishi bilan, jumladan, nerv sistemasi o'sishi bilan psixik hayot mazmuni va formalarining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi, xolos. Bu imkoniyat esa odamning ijtimoiy muhitda yashashi va rivojlanishi jarayonida amalga oshadi. Odam nafaqat biologik zot sifatida, balki avvalambor ijtimoiy zot sifatida kamolga yetadi. Zero har bir odamning ongi faqat muayyan ijtimoiy muhitda kamol topadi. Bola tug'ilgan paytidanoq muayyan ijtimoiy hayot sharoitida tarkib topgan ijtimoiy munosabatlar sharoitida, ijtimoiy ong formalari qaror topgan bir sharoitda bo'ladi, bola mehnat sharoitining ta'sirida va atrofdagi kishilar bilan aloqada bo'ladi.

Go'dak va kichik yoshdagi bolaning o'zi mehnat jarayonida ishtirok etmaydi, albatta. Ammo u mehnat sharoitida yashaydi va o'sadi. Bolaning atrofini ijtimoiy ishlab chiqarish mahsuli bo'lgan narsalar o'rab turadi, u kattalarning mehnat samaralaridan foydalanadi, katta yoshdagi kishilar bola uchun mehnat qiladilar, so'ngra bola voyaga yetib, o'zi ham mehnatning biron turiga kirishadi, mehnatga biron munosabatda bo'ladi.

Xuddi shuningdek, bola tug'ilgan kuniyoq tilga kirmaydi. Ammo boshqa kishilar bolaning oldida unga murojaat qilib so'zlaydilar. Bola so'zlashuvchilar orasida o'sadi, so'ngra bola ma'lum yoshga yetgach, tilga kirib, so'zlashadigan bo'ladi. O'sayotgan bola tilni bilib oladi, tilning yordami bilan ajdodlarning to'plagan moddiy va ma'naviy tajribasini bilib oladi, ayni vaqtda o'zining psixik kuchlari ham kamolga yetadi.

Har bir bolaning ongi o'zgaruvchi muhit ta'sirida kamol topadi. Shu sababli konkret muhitga qarab, o'sayotgan odam ongi ham har xil tarkib topadi va rivojlanadi.

Yosh va individual xususiyatlar sensor, mnemik, verbal va mantiq-psixofiziologik funksiyalarning dinamikasi hamda organik ehtiyojlar tuzilishini belgilaydi. Yuqoridagi sifatlar rivojining muhim shakli ontogenetik evolutsiyadan iborat bo'lib, ular filogenetik dasturga asoslanib faoliyat ko'rsatadi. Yosh va individual o'zgaruvchanlik insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti ta'siri ostida har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Individning dinamik xususiyatlariga shaxsning ijtimoiy sifatleri ta'sir etib, uning individual o'zgaruvchanligi omilini kuchaytiradi.

Insonni shaxs sifatida tavsiflashning muhim jihati uning dinamik xususiyatlari bo'lib, jamiyatdagi maqomi (iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ya'ni uning jamiyatda egallagan o'rni) orqali ifodalanadi. Maqom negizida doimiy o'zaro aloqalar tizimi yotadi. Shaxsning ta'rifi xulq motivatsiyasi xususiyati va ijtimoiy fe'l-atvor tuzilishini belgilab, uning tarkibidan ikkilamchi alomatlar sifatida joy egallaydi. Shaxsning birlamchi va ikkilamchi sifatlarining o'zaro ta'sirini birlashtiruvchi yuksak samara tarzida inson xarakteri va mayllari yuzaga keladi. Insonning jamiyatdagi hayot yo'li va ijtimoiy tarjimai holi uning shaxs sifatida rivojlanishining asosiy shaklidir.

Individ, shaxs va subyektning rivojlanishini o'rganishda quyidagi holatlarga e'tibor qilish zarur:

– inson rivojining asosi hisoblangan omillar va shart-sharoitlar (ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, pedagogik va yashash muhiti omillari);

– insonning o'ziga taalluqli asosiy tavsiflar, uning ichki qonuniyatlari, mexanizmlari, evolutsiya bosqichi, barqarorlashuvi va involutsiyasi;

– inson bur butun yaxlit tizimning asosiy tarkibiy qismi ekanligi, ushbu tarkibiy qismlarning o'zaro aloqalari, shaxsning tashqi ta'sirlarga javobi va munosabati, taraqqiyot jarayonida ularning ta-komillashuvi va h.k.

Odamning muayyan maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy foydali faoliyati jarayonida hayotiy zarur mexanizmlar va ongli faoliyatning funksional tizim jarayonlari yuzaga keladi. Ana shular tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining idroki, tafakkuri, xayoli, hissiyotlari va irodasini, bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va xulq-atvorining motivlarini tarkib toptiradi. Mana shu jarayonda ta'lim va tarbiya yetakchi o'rin egallaydi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya inson ongini shakllantiradi, uning dunyoqarashi, e'tiqodi, hayotga bo'lgan munosabatini tarkib top-tiradi. Shuni aytib o'tish kerakki, bola shaxsining tarkib topishiga ta'lim-tarbiyaning ta'siri deganda albatta birinchi navbatda tarbiya muassasalarida, ya'ni bog'cha, maktab, internat, litsey va kollejlarda beriladigan ta'lim-tarbiya tushuniladi.

Shunday qilib, psixologiya tarixida shaxs rivojlanishi va takomillashuvini harakatlantiradigan kuchlar va manba masalasini hal etishning ikkita yo'nalishi mavjud bo'lgan. Ular biologik va ijtimoiy konsepsiyalari nomini olgan.

Biologik konsepsiya inson shaxsining rivojlanishi biologik omillar bilan belgilanishiga asoslanadi. Shuning uchun ham shaxsning rivojlanishi ichki sabab natijasida (o'z-o'zidan) sodir bo'lish xususiyatiga egadir. Ijtimoiy konsepsiyaga ko'ra shaxs tevarak-atrofdagi ijtimoiy muhitning bevosita ta'sirida rivojlanib boradi.

Shunday qilib, biologik va ijtimoiy konsepsiyalar shaxs rivojlanishining qonuniyatlarini tushunib yetishga asos bo'ladi. Unisi ham, bunisi ham psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini aniqlab beradi.

Yuqorida biz shaxsning me'yorda rivojlanish qonuniyatlariga to'xtaldik. Quyida rivojlanishda turli chekinishlar, nuqsonlar, buzilishlar kuzatilgan holatlarni ko'rib chiqamiz. Bunday holatlar «dizontogenez» nomi bilan ataladi.

Nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlari. Birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar. Logopedlar uchun mo'ljallangan izohli lug'atda «dizontogenez» (ontogenez — rivojlanish, diz — buzilish, kamchilik) atamasiga nihoyatda qisqa va lo'nda ta'rif berilgan: bu organizmning individual rivojlanishdagi buzilishlari.

Birinchi bo'lib «dizontogeniya» atamasi 1927-yili Shvalbe tomonidan organizmning bachadon ichida shakllanishida kuzatilgan chekinishlarni belgilash uchun qo'llandi. Keyinchalik bu atamadan yanada kengroq ma'noda — ontogenez buzilishining turli shakllarini, shu jumladan, postnatal davrdagi buzilishlarni belgilash uchun foydalana boshladilar. «Dizontogenez» atamasining sinonimi — «buzilgan rivojlanish»dir. Ta'kidlab o'tilganidek, psixolog yoki logopedning vazifalaridan biri asosiy buzilishlarni aniqlash, nuqson strukturasi va og'irlik darajasini tahlil etish va keyin korreksiya qilishdan iborat.

Rivojlanishida muammolar kuzatilayotgan bola psixikasini o'rganishda bolaning yosh jihatdan rivojlanish bosqichlarini ontogenetik yondashuv doirasida tahlil etish muhim ahamiyatga ega. Ontogenez — bu tashqi muhitning muayyan sharoitlarida organizmning me'yorda rivojlanishi. Har bir organizm izchil rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Ikkita asosiy bosqich farqlanadi: prenatal (tug'ruqdan oldin) va postnatal (tug'ruqdan keyin). Tuxum hujayrasiga joylashtirilgan genetik axborot hajmi butun murakkab rivojlanish jarayonini belgilab beradi.

Rivojlanish murakkab jarayon sifatida olib qaraladi. Unda har bitta bosqich avvalgi bosqichni o'zida qamraydi va o'zgarib boradi.

Psixik rivojlanishda, shu jumladan nutq rivojlanishida biologik omillar (gen mutatsiyalari natijasida yuzaga kelgan miya rivojla-

nishidagi nuqsonlar, bachadon ichidagi rivojlanish nuqsonlari, tugʻruq patologiyasi va h.k.) tufayli kelib chiqqan buzilishlarda nuqsonning yuzaga kelish vaqti muhim ahamiyatga ega. Bitta sababning oʻzi bola rivojlanishining turli davrida taʼsir koʻrsatar ekan, u buzilishlarning har xil turini keltirib chiqarishi mumkin.

V.V. Lebedinskiy psixologlar, defektologlar va psixiatrlar tadqiqotlarining natijalarini umumlashtirib, psixik rivojlanishdagi buzilishlarning quyidagi turlarini farqlashni taklif etadi: rivojlanmay qolganlik; toʻxtab qolgan rivojlanish; disgarmonik rivojlanish; buzilgan rivojlanish; shikastlangan rivojlanish; defitsitar rivojlanish (rivojlanishning yetishmasligi).

Maxsus psixologiya va pedagogikaning hal qiluvchi asosini L.S. Vigotskiyning rivojlanish konsepsiyasi tashkil etadi. Unga koʻra normal rivojlangan bolalar va normal rivojlanmagan bolalar oʻrtasida mohiyat eʼtibori bilan hech qanday farq yoʻq. Ular ham, bular ham – bolalar. Ular ham, bular ham bir xil qonunlar asosida rivojlanadilar. Farq faqatgina rivojlanish usullaridadir. Maxsus psixologiya uchun psixik rivojlanish jarayonida biologik va ijtimoiy omillarning oʻzaro nisbati haqidagi qoida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq buzilishlariga ega bolalarning psixik rivojlanishida umumiy va oʻziga xos qonuniyatlar mavjud.

1. Umumiy qonuniyatlar – normal rivojlanayotgan bolalar va rivojlanishida chekinishlar boʻlgan bolalar uchun birdek xos boʻlgan qonuniyatlar. Bular: rivojlanishning bosqichma-bosqich kechishi; psixik rivojlanishning sakrash yoʻli bilan borishi; sentiziv davrlarning mavjudligi; biologik va ijtimoiy omillarning oʻzaro munosabati; shaxs rivojlanishining muntazamligi.

2. Dizontogenez sharoitida rivojlanishning oʻziga xos qonuniyatlariga quyidagilar kiradi (bunda faqat nutq buzilishlariga ega bolalar guruhlarini nazarda tutiladi): axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanishdagi buzilishlar; nutq aloqalarining buzilishi; atrof-muhit haqidagi tasavvurlar va tushunchalarning shakllanish muddatlarining uzayganligi; ijtimoiy-psixologik moslashmaslik holatlarining yuzaga kelish xavfi; psixologik tizimning shakllanishidagi oʻziga xoslik (oʻzidan qoniqmaslik hissi, oʻziga baho berishning buzilishi, stresslarga qarshilikning pasayishi va

h.k.); kompensatorlik jarayonlarining olib boriladigan korreksion ishning vaqti va sifatiga bog'liqligi.

Homilaning rivojlanish davrida, tug'ruq paytida, hamda bola hayotining birinchi yillarida miyaga turli xil zararli ta'sirlar nutq patologiyasiga olib kelishi mumkin.

Nutq kamchiligining tuzilishi va darajasi ko'pincha miya shikastlanishining og'irlik darajasiga va uning oldini olishga bog'liq bo'ladi, bu omillar esa o'z navbatida miyaga vaqtning patogen ta'siriga bog'liq. Embriogenezning ilk davrida asab hujayralari jadallik bilan ajralishi paytida homilaning 3–4 oyligida og'ir miya shikastlanishi paydo bo'ladi (N.S.Jukova, Y.M.Mastyukova, T.B.Filicheva, 1990).

Miyaning rivojlanmaganligi va nutqning og'ir buzilishlariga olib keluvchi tez-tez kuzatiladigan sabablar orasida quyidagilarni ko'rsatib o'tish lozim: infeksiyalar va homiladorlik davrida onaning zaharlaniishi; toksikozlar; tug'ish davridagi shikastlanish; asfiksiya; ona va homila qonining rezus-faktor bo'yicha zidligi (rezus-konflikt) yoki qonning guruhga aloqadorligi; markaziy asab tizimining kasalligi (neyroinfeksiyalar – meningitlar, ensefalitlar, meningoensefalitlar); bola hayotining birinchi yillarida miyaning jarohatlanishi.

Tadqiqotchilar (G.V.Gurovets, S.I.Mayevskaya) motor alaliyaning kelib chiqishini yangi tug'ilgan chaqaloqlar asfiksiyasi va tug'ilish paytida miya bosh suyagining jarohatlanishi bilan izohlaydilar.

Y.M.Mastyukova o'z ishlarida ta'kidlaganidek, onaning homiladorlik davrida nikotin va alkogolni iste'mol qilishi bolaning asabruhiy va jismoniy rivojlanishining buzilishiga olib kelishi, buning natijasi o'laroq nutq to'liq rivojlanmaganligining yana bir ko'rinishi yuzaga kelishi mumkin. Homilaga alkogolning ta'siri oqibatida jismoniy va psixik rivojlanish orqada qoladi, vazni kam bolalar tug'iladi. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi bu bolalarda harakatning tormozlanishi, jazavaning kuchayishi va aqliy mehnatga layoqatlilikning pastligi bilan qo'shilib ketadi. Shu o'rinda, bola miyasining nutq zonalariga zarar keltiruvchi ta'sirlar nutq shakllanib bo'lganidan keyingi davrda ro'y bersa, nutq buzilishining afaziya turi yuzaga kelish ehtimoli bor.

Nutq rivojlanishining buzilishiga tarbiya va atrof-muhitning nomaʼqul shart-sharoitlarining taʼsiri ham katta taʼsir koʻrsatadi. Nutq jadal shakllanib borayotgan davrda psixik deprivatsiya uning rivojlanishini orqaga suradi. Agar bu omillarning taʼsiri genetik moyillikka yoki qoʻpol boʻlmagan serebral-organik kamchiliklarga mos kelsa, unda nutq rivojlanishining buzilishi turgʻun xarakterga ega boʻladi va nutqning toʻliq rivojlanmaganligi koʻrinishida namoyon boʻladi.

Nutqning toʻliq rivojlanmaganligi odatda miyaning rezidual-organik shikastlanishi natijasida ham sodir boʻlishi mumkin. Nutq rivojlanishining buzilishini asab-psixik kasalliklardan (epilepsiya, shizofreniya va boshqalar) farqlash lozim. Intellektual kamchiliklari bor bolalar nutqida patologiya ifodalangan bolalar bilan solishtirganda asosan markaziy asab tizimining organik shikastlanishi koʻrinishlari kuzatiladi. Bu «minimal miya disfunktsiyasi» (MMD) deb ataladi.

Nutq buzilishining etiologiyasida alohida oʻrinni perinatal ensefalopatiya – bola tugʻilishi davrida paydo boʻlgan miyaning shikastlanishi egallaydi.

Shunday qilib, shaxsning rivojlanishi va kamolga yetishida asosan biologik va ijtimoiy omillar taʼsir koʻrsatadi. Bunda ontogenetik (meʼyorda) va dizontogenetik (meʼyordan chetga chiqish) omillarning oʻrni va darajasini hisobga olish lozim. Buning uchun ushbu omillarni yuzaga keltiradigan sabablar, ularning amal qilish mexanizmlari, bartaraf etish yoʻllarini bilish kerak.

8.2. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Nutq nuqsoniga ega bolalar ijtimoiy moslashuvi masalalari

«Taʼlim toʻgʻrisida»gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 22-, 23- va 24-moddalarida, jumladan, jismoniy yoki psixik rivojlanishida kamchiliklari boʻlgan, shuningdek, uzoq muddat davolanishga ehtiyoj sezgan bolalar va oʻsmirlarga taʼlim-tarbiya berish, ularni davolash uchun maxsus taʼlim muassasalari tashkil etiladi, deb belgilab qoʻyilgan.

Bu nutq nuqsoniga ega boʻlgan bolalar uchun ham taalluqlidir. Bunday bolalar tibbiy-ijtimoiy yordam olish huquqiga ega boʻlib, bu

profilaktika, davolash-tashxis qo'yish, abilitatsiya va rehabilitatsiya, sanatoriya-kurort, protez-ortopediya yordamini, harakatlanish vositalari bilan imtiyozli shartlarda ta'minlanishni va boshqa yordam turlarini o'z ichiga oladi.

Bu masalaga o'tishdan oldin, nutq nuqsonlarining yuzaga kelish sabablariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablarga tashqi (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shuningdek, atrof-muhitning tashqi sharoitlari kiradi. Nutq nuqsonlarining turli sabablarini aniqlashga evolutsiyon-dinamik yondashiladi. Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayonini tahlil qilishdan, nuqsonli rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini hisobga olishni talab qiladi (Abu Ali ibn Sino, I.M. Sechenov, L.V. Vigotskiy).

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy sabablarini uch guruhga ajratish mumkin.

1. Ekologik sabablar: ichki va tashqi radiatsiya; qishloq xo'jaligida qo'llanadigan pestitsidlar va gerbitsidlar; avtotransportdan chiqadigan gazlar; harbiy poligonning zararli ta'sirlari; oziq-ovqat va suv ta'minotining sifatsizligi.

2. Tibbiy-ijtimoiy sabablar: er-xotin qarindoshchiligi; ota-onaning rivojlanishidagi orqada qolishlar; jarohatlar (jismoniy va ruhiy); ota-onalarning surunkali kasalliklari; zararli odatlar (ichkilikbozlik, nashavandlik, toksomoniya, kashandalik); onaning surunkali og'ir anamnezi; oilani noto'g'ri rejalashtirish, abortlar, onaning ginekologik kasalliklari, erta va kech tug'ruqlar (birinchi homilaning 16 yoshdan oldin va 40 yoshdan keyin bo'lishi); tug'ruqdan oldingi jarohatlar; bolalarda somatik kasalliklar; bakterial-virusli infeksiyalar; ona va bolaning to'liq oziqlanmasligi; oilaga tibbiy tashxis va korreksion yordamning o'z vaqtida berilmasligi.

3. Psixik-ijtimoiy sabablar: ommaviy va majmualiy deprivatsiya; ota-onalar tomonidan diqqat-e'tiborning sustligi; bolalarga nisbatan qattiqqo'llik; oila va aholi intellektual saviyasining pastligi; oilaning to'liqsizligi; fojiali vaziyat (ekologik, ijtimoiy, iqtisodiy); ruhiy-pedagogik tashxis va korreksiyaning sifati, hajmi va hozirgi zamon talablariga javob bermasligi.

Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar:

– homiladorlik vaqtidagi toksikozlar, virusli va endokrin kasalliklar, jarohatlar, onaning rezus-faktorga mos kelmasligi;

– tugʻruq vaqtidagi shikastlanish va asfiksiya;

– bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (meningit, ensofalit);

– miyaning chayqalishi bilan birga sodir boʻladigan bosh miya jarohatlari;

– nasliy omillar. Bunday hollarda nutq buzilishlari umumiy nerv tizim buzilishlarining bir qismini tashkil etib, intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi;

– ijtimoiy sharoitning yomonligi. Bu holat pedagogik qarovsizlikka, vegetativ disfunksiyaga, emotsional-irodaviy muhitning buzilishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab boʻladi.

Barcha nutq buzilishlari kelib chiqishiga koʻra ikki guruhga boʻlinadi:

1. Organik xarakterdagi nutq buzilishlari.

2. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Organik nutq buzilishlari oʻz navbatida maʼlum nutq organi joʻyining zararlanishiga koʻra markaziy va periferik xarakterda boʻladi.

Markaziy buzilishlar: markaziy nerv tizimidagi u yoki bu qismlarning buzilishi, zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: alaliya, afaziya, dizartriya kabi nutq kamchiliklari kiradi.

Periferik buzilishlar: artikulatsion apparatning notoʻgʻri tuzilishi yoki buzilishi va periferik nerv artikulatsion organlar inervatsiyasining buzilishidan kelib chiqadi. Periferik xarakterdagi organik nutq buzilishlariga: rinolaliya, prognatiya, progeniya kiradi.

Funksional buzilishlar. Bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan aʼzolar tuzilishida hech qanday oʻzgarishlar boʻlmaydi. Funksional xarakterdagi nutq buzilishlariga — dislaliya, duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi.

Rivojlanishida kamchiliklar boʻlgan bolalarni erta aniqlash va logopedik yordam berish nutq kamchiliklarining oldini olish va maktabga nutqiy jihatdan tayyorlashdir. Nutqiy rivojlanishdagi nuqsonlarning oldini olishda tugʻilish vaqtida shikastlangan bolalarning dispanserizatsiyasi muhim rol oʻynaydi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarda nutq kamchiliklarini barvaqt aniqlash, ularni maxsus ta'limga jalb etish, har tomonlama rivojlantirish, insonparvarlik, fidoyilik ruhida tarbiyalash, o'qitish, kasbga yo'naltirish, sog'lomlashtirish, hayotga tayyorlash va normal rivojlangan insonlar jamiyatiga moslashtirish amaliy logopediyaning vazifalariga kiradi.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq buzilishlarining yuzaga kelishida ekzogen-organik omilning rolini baholashda jarohatning vaqti, xarakteri va joylashishini, bola nerv tizimining moslashuvchanligini, shuningdek, miya jarohatlangan paytda nutq funksiyasining shakllanganlik darajasini hisobga olish zarur.

Nutq nuqsoniga ega bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalalari

Nutq buzilganda, ayniqsa, nutqning to'liq rivojlanmasligi kamchiligida bolalarni maxsus o'qitmay turib butun til sistemalarining shakllanishi juda qiyin va umuman mumkin emas.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar guruhlarida o'qitishdan maqsad nutqdagi kamchilikni va rivojlanmaslik natijasida kelib chiqqan ikkilamchi alomatlarini yo'qotishdan iborat.

Nutqni tuzatish, bolalarni tarbiyalash va o'qitish ishlarini logoped, psixolog, tarbiyachi, musiqa rahbari bolaning ota-onasi bilan uzviy muloqotda amalga oshiradi.

Maxsus maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari quyidagi vazifalarni hal qilishlari lozim:

- maxsus izchil ta'lim va tarbiyaga jalb qilingan bolalarni chuqur o'rganish jarayonida ularga birlamchi diagnoz qo'yish;

- pedagogik shart-sharoit yaratib berish va tarbiyaga kompleks yondashish tufayli bolalarga bir xil imkoniyat yaratish hisobiga ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash;

- nutqning buzilishi xarakteri va kamchilikning qandayligini hisobga olib tuzatish – pedagogik, tarbiya ishlarini izchil amalga oshirish, bolalarni maktabda o'qitishga tayyorlash;

- maktabgacha yoshdagi bolalarning ruhiy-jismoniy imkoniyatlarini va ruhiy funksiyalarining shakllanishidagi sezgirlik davrlarini hisobga olish;

– kamchilikning qandayligini, qachon paydo bo‘lganligini, bolalarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olib, umumiy rivojlanish ishlarini tuzatish, tarbiyalash ishlari bilan uyg‘unlashtirish;

– bolalarning o‘shini muttasil o‘rganish va maqsadli pedagogik ta‘sir natijasida paydo bo‘ladigan yangi ruhiy o‘zgarishlarini aniqlash va korreksiyalash;

– har qaysi yosh guruhida ta‘limni bir xillashtirish uchun sharoit yaratish;

– didaktik qoidalarga rioya qilishda maktab bilan izchil aloqani ta‘minlash: har bir navbatdagi yosh bosqichda talablarni kuchaytirib yubormaslik;

– maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashga faollik bilan yondashish, bu esa bolalar faoliyatidagi yetakchi omillar maromidagi tarbiya-ta‘lim va (o‘yinlar, rasmlar va chizmalar chizish, mehnat, o‘quv faoliyatining oddiy xillari) tuzatish-tiklash ishlarining barcha turlarini o‘tkazishni taqozo qiladi;

– nutqni rivojlantirishga nutq faoliyatining turli xillarini shakllantiradigan omil deb qarash lozim.

Nutqni tuzatishga qaratilgan ta‘lim-tarbiya ishlarining samaradorligi bolalarning bog‘chada bo‘lish vaqtlarini aniq rejalashtirish, kun mobaynida o‘tkaziladigan tadbirlarni to‘g‘ri taqsimlash, mutaxassislarning ishlarini bir-biriga to‘g‘ri muvofiqlashtirish bilan belgilanadi.

Bolaning ijtimoiy moslashuvi yuqoridagi ishlarining to‘g‘ri tashkil etilishi va samaradorligiga bog‘liq.

8.3. Nutq kamchiligi bo‘lgan bolalarning umumiy psixologik tavsifnomasi

Nutq turlari va nuqsonlarining tasnifi (klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik). Nutq ko‘plab fanlarning tadqiqot predmeti bo‘lib xizmat qiladi va shu fanlar nuqtayi nazaridan murakkab va o‘zaro moslashgan fiziologik mexanizm, akustik o‘zgarishlar majmuyi, lingvistik konstruksiyalar tizimi, axborotni qabul qilish, saqlash, uzatish va ishlab chiqish jarayoni ko‘rinishlarida namoyon bo‘ladi.

Nutq oliy psixik funksiyalar tizimida yetakchi o‘rin egallaydi hamda kishilarning yaratuvchanlik faoliyatida til vositasida o‘zaro

muloqotning asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. L.S.Vigotskiy bola nutqining uning atrofidagi katta kishilar ta'siri ostida shakllanish mexanizmlarini ko'rsatib berdi. Avval kattalar unga nutqiy ko'rsatmalar beradilar («qoshiqni ol», «o'yinchog'ingni menga ber» va h.k.), bunga javoban bola nomi aytilgan predmetni ko'zi bilan topadi va ko'rsatmani bajaradi. Bola faqat o'zi nutqni egallagandagina, o'ziga-o'zi buyruqlar, nutqiy ko'rsatmalar bera boshlaydi (avval ovoz chiqarib, keyin ichida) va o'z xatti-harakatlarini ularga bo'ysundiradi, ya'ni bola va katta odam o'rtasida taqsimlangan funksiya endi shaxsning psixik faoliyatining oliy shakllarini tashkil etish usuliga aylanadi. Oliy psixik funksiyalarning rivojlanish qonuni ham aynan mana shunda.

Nutq kishilar o'rtasida o'zaro aloqa jarayoni va tafakkur faoliyatining mexanizmi sifatida olib qaralar ekan, psixologlar uning o'zaro uzviy aloqada bo'lgan ikkita funksiyasini ajratib ko'rsatadilar: aloqa (kommunikativ funksiya) va tafakkur (nutqiy tafakkur funksiyasi). Kommunikativ nutqda, o'z navbatida, xabar berish va harakatga da'vat etish funksiyalari farqlanadi. Nutq u yoki bu predmetlar, hodisalar, xatti-harakatlar, sifatlar, belgilar va h.k.ni bildirgani tufayli, fikrlarni ifodalash vositasi, shakli sifatida xizmat qiladi. Demak, bu bilan bog'liq holda u semantik funksiyani bajaradi. Biroq nutqning ahamiyati tafakkur jarayonida bu bilan cheklanib qolmaydi. Tilni ijtimoiy-belgili tizim sifatida o'zlashtirar ekan, odam til bilan uzviy aloqada bo'lgan tafakkurning mantiqiy shakllari va operatsiyalarini ham egallab boradi. Nutq atrof voqelikdagi predmetlar va hodisalarni analiz va sintez qilish, solishtirish va umumlashtirish vositasiga aylanadi. Shunga ko'ra avvalambor ekspressiv va impresiv nutq farqlanadi.

Ekspressiv nutq (eslash) – bu til yordamida o'z fikrini bayon qilish maqsadida tashqariga yo'naltirilgan nutq. U bir qancha bosqichlardan o'tadi: g'oya – ichki nutq – tashqi nutq.

Impressiv nutq (idrok qilish) – bu atrofdagilar nutqini idrok qilish, tushunishga asoslangan nutq turi. U og'zaki yoki yozma shakllarga ega. Bir qancha bosqichlardan o'tadi: nutqiy xabarni idrok qilish – axborot lahzalarini ajratish – idrok qilingan umumiy ma'nodagi sxemada ichki nutqni shakllantirish.

Nutq turlarining yanada kengroq tasnifi mavjud bo'lib, unga ko'ra og'zaki, yozma, ichki, avtonom, egosentrik, daktil, imo-ishorali nutq turlari farqlanadi.

Eshitib idrok etiladigan nutqiy vositalar yordamida amalga oshiriladigan verbal (so'zli) aloqani **og'zaki nutq** deb atash odat tusiga kirgan. Uning o'ziga xos jihati shundaki, nutqiy xabarning alohida komponentlari muayyan ketma-ketlikda yuzaga keladi va idrok etiladi. Og'zaki nutq murakkab, ko'p qirrali jarayon bo'lib, u tilning fonetik, leksik-grammatik tuzilishi va ovoznning (intonatsiya, temp, ritm va h.k.) o'zaro birlashuvini talab qiladi.

Og'zaki nutqning monologik va dialogik shakllari mavjud bo'lib, dialogik nutq monologik nutqqa nisbatan birlamchidir.

Yozma nutq deb yozma matnlar yordamida amalga oshiriladigan verbal (so'zli) aloqaga aytiladi. U keyinga qoldirilgan (masalan, xat) va to'g'ridan to'g'ri bo'lishi (dars, majlis paytida o'zaro almashinadigan xatchalar) mumkin. Yozma nutq og'zakidan faqat grafikadan foydalanishi bilangina emas, balki o'zining grammatik (avvalambor sintaktik) va stilistik tuzilishi bilan ham, ya'ni bu nutq uchun xos bo'lgan sintaktik konstruksiyalar, funksional uslublari bilan ham farqlanadi. U g'oyat murakkab kompozitsion tuzilishga ega bo'lib, bu tuzilish maxsus o'zlashtirib olishni talab qiladiki, bu maktab ta'limining asosiy vazifalaridandir.

Ichki nutq deganda til vositalarining har xil turlaridan boshqa kishilar bilan bevosita aloqaga kirishmay turib foydalanishga aytiladi. Uning uchta asosiy turini ajratib ko'rsatish mumkin: a) ichida gapirib olish (tashqi nutq tuzilishini saqlasa-da, fonatsiyasiz, ya'ni ovoz ishtirokisiz sodir bo'ladigan nutq); b) asl ichki nutq (tafakkur vositasi sifatida xizmat qiladi, o'ziga xos birliklardan foydalanadi va tashqi nutq tuzilishidan farq qiladigan o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi); d) ichki dasturlash (biron fikr, butun bir matn yoki uning qismlarini miyada shakllantirish va mustahkamlash). Ontogenezda ichki nutq tashqi nutqni interiorizatsiyalash jarayonida shakllanadi.

Bolalar nutqi rivojlanishining ilk bosqichlaridan biri bolalarning **avtonom nutqi** deb ataladi. Uni kattalar nutqini egallashga o'tish davri deb atasa bo'ladi. Shakliga ko'ra bolalar nutqi kattalarga taqli-

dan ularning nutqini yoki nutq qismlarini buzib talaffuz etish natijasidir. Uning o'ziga xos xususiyatlari: 1) so'z ma'nolarining turg'un emasligi, noaniqligi va ko'p ma'noliligi; 2) o'ziga xos umumlashtirish usuli (u predmetlarning obyektiv belgilari va funksiyalariga emas, bolaning subyektiv hissiy taassurotlariga asoslanadi. Masalan, bola ko'rayotgan adyol, paxmoq o'yinchoq, paxmoq kiyim kabi hamma yumshoq, tukli narsalar bola tilida bitta so'z bilan ataladi); 3) flek-siyalar va so'zlar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarning yo'qligi. Bolalarning bunday nutqi uzoq vaqt saqlanib turishi hamda nafaqat bola nutqining rivojlanishini, balki aqliy rivojlanishini ham orqaga tortishi mumkin. Bunday holatni profilaktika va korreksiya qilish uchun bolalar bilan maxsus ish olib boriladi. Shuningdek, bunday hollarda kattalardan bolalarga murojaat qilganda, ularning gapiga taqlid qilmay, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish talab etiladi.

Egosentrik nutq odamning o'ziga qaratilgan bo'lib, uning amaliy faoliyatini boshqaradi va nazorat qilib boradi. L.S.Vigotskiyning fikricha, u genetik jihatdan tashqi (kommunikativ) nutqqa borib taqaladi hamda uning qisman interiorizatsiyasidan yuzaga keladi. Egosentrik nutqni tashqi nutqdan ichki nutqqa o'ziga xos o'tish bosqichi deb hisoblash mumkin.

Daktil yoki **imo-ishorali nutq** surdopedagogikada kar bolalarni nutqqa o'rgatishda qo'shimcha nutqiy vosita sifatida, shuningdek, karlarning hamda karlar bilan eshitadigan kishilarning o'zaro aloqaga kirishish vositasi sifatida qo'llanadi.

Nutq buzilishlari deganda turli kasalliklar oqibatida tarkib topgan nutqning buzilishi (kattalarda) yoki bolalar nutqining normal rivojlanishidagi buzilishlar tushuniladi. Nutq faoliyati normal rivojlanishi uchun miyaning barcha qismlari va tuzilmalari saqlangan va sog' bo'lishi lozim. Eshitish, ko'rish va motor analizatorlaridagi periferik va markaziy bo'limlarining shikastlanishi esa nutqning u yoki bu buzilishlarini keltirib chiqaradi (A.Mitrinovich-Modjiyevska; K.P.Bekker, M.Sovak; N.M.Asatiani, L.I.Yuelyakova, N.A.Vlasova va b.; L.S.Volkova, R.I.Lalayeva, Y.M.Mastyukova).

Logopediyada nutq normalari va uning buzilishi tushunchasini farqlash muhimdir. Nutq normasi deganda, nutq faoliyati jarayonidagi til ishlatilishining umumiy qabul qilingan variantlari tushuni-

ladi. Nutqning normal faoliyati holatida uning psixofiziologik mexanizmlari saqlangan bo'ladi. Nutq buzilishlari gapiruvchi shaxsning ma'lum til muhitida qabul qilingan, nutq faoliyati normal holda ishlayotgan psixofiziologik mexanizmlarining zaiflashuvi bilan bog'liq holda til normalaridan chetlashuvi bilan belgilanadi. Kommunikativ nazariya nuqtayi nazaridan qaraganda, nutq buzilishlari bu aloqa vositasining buzilishidir.

Nutq buzilishlarining murakkab strukturasi anglash, ularning birlamchi va ikkilamchi ko'rinishlarini, keyin esa korreksion va terapevtik yordam usullarini aniqlash ishlarini faqatgina nutq buzilishlarining tasnifi asosida amalga oshirish mumkin.

Uzoq vaqt davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar asosida hozirda nutq buzilishlarining ikkita asosiy tasnifi ishlab chiqildi: klinik-pedagogik va psixologik-pedagogik.

Nutqning klinik-pedagogik tasnifida klinik sindromlar logopedik korreksiyalash yo'li bilan tuzatilishi lozim bo'lgan buzilishlar bilan o'zaro aloqada ko'rib chiqiladi. Bu tasnifda nutq buzilishlarining quyidagi turlari farqlanadi: dislaliya, rinolaliya, rinofoniya, disfoniya, dizartriya, alaliya, afaziya, disgrafiya va disleksiya, duduqlanish.

Dislaliya deb tovushlarning buzilgan talaffuziga aytiladi. Dislaliyaning ikki xil turi mavjud: mexanik dislaliya va funksional dislaliya. Periferik nutq apparatida yuz beradigan anatomik o'zgarishlar natijasida yuzaga keladigan talaffuz kamchiliklari mexanik dislaliya deyiladi. Oilada ikki tillilik, somatik holatlar, nutqiy faoliyatning noto'g'ri yo'lga qo'yilganligi natijasida funksional dislaliya vujudga keladi. Dislaliya logopedlar tomonidan tovushlar ustida ishlash jarayonida bartaraf etiladi.

Rinolaliya yoki **manqalik** – periferik xarakterdagi organik nutq kamchiligi; mexanik dislaliyaning bir turi. Burun bo'shlig'i normal ishtirokining buzilishi natijasida tovushni noto'g'ri talaffuz qilish. Rinolaliyaning ikki ko'rinishi mavjud: ochiq rinolaliya va yopiq rinolaliya. Ochiq rinolaliyada nutq tovushlarini talaffuz qilish vaqtida havo oqimi faqat og'iz bo'shlig'idan emas, balki burun bo'shlig'idan ham chiqib ketadi. Yopiq rinolaliyada esa havo oqimi faqat og'iz bo'shlig'idan chiqib ketadi. Burun bo'shlig'ida

polip, o'simtalar, adenoidlar mavjudligi yopiq rinolaliyaga olib keladi. Yopiq rinolaliyada M, N, NG burun tovushlari buzib talaffuz qilinadi, ya'ni M tovushi B tovushiga, N tovushi esa D tovushiga o'xshash talaffuz etiladi. Yopiq rinolaliyada burun bo'shlig'idagi to'siqni yo'qotishga qaratilgan davolash ishlari olib boriladi. Kar bolalarda eshitish orqali talaffuzni boshqara olmaslik natijasida funksional yopiq rinolaliya kuzatiladi. Bunda burun bo'shlig'ida hech qanday to'siq bo'lmaydi. Nutq tovushlarini (burun tovushlaridan boshqa tovushlarni) normal holda talaffuz qilganda, yumshoq tanglay odatda tomoqning orqa qismi bilan jipslashib, havo oqimi burun bo'shlig'iga o'tmasdan og'iz bo'shlig'idan chiqadi, buning natijasida nutq tovushlari o'zining normal tembriga ega bo'ladi. Qattiq tanglaydagi yoriqliklar, yumshoq tanglay falaji va parezlari natijasida esa yumshoq tanglay tomoqning orqa qismi bilan yetarli darajada jipslashmaydi va havo oqimi burun bo'shlig'iga o'tib ketadi hamda tovushlar manqalanib talaffuz etiladi. Bunday paytda ochiq rinolaliya ro'y beradi. Ochiq rinolaliya yopiq rinolaliyaga nisbatan ko'proq uchraydi. Ochiq rinolaliyani davolash kompleks usulda olib boriladi. Qattiq va yumshoq tanglaydagi yoriqliklar operatsiya yo'li bilan tuzatiladi yoki maxsus plastinalar (obturatorlar) tayyorlanib, yoriqliklar shu plastinalar bilan yopiladi. Shu bilan bir qatorda logopedik mashg'ulotlar operatsiyadan oldin va operatsiyadan keyin ham olib boriladi.

Rinofoniya — nutq tovushlarining me'yoriy artikulatsiyasida ovoz tembrining buzilishi, fonatsiya jarayonida og'iz va burun bo'shlig'i ishtirokining muvofiqlashmasligining hisobga olinishi.

Disfoniya — ovoz apparatining patologik o'zgarishlari oqibatida fonatsiyaning ishdan chiqishi, yoki fonatsiyaning yo'qligi (afoniya), yo bo'lmasa ovoz kuchining (disfoniyaning) yo'qligi, ovoz tembrining buzilishida namoyon bo'ladi. Ovoz paychalaridagi tugunchalar, hiqildoq va ovoz paychalarida papillamatoz, hiqildoq stenozi (hiqildoqning torayishi) periferik xarakterdagi organik disfoniya olib keladi. Funksional disfoniyaning paydo bo'lishiga psixik travmalar sabab bo'ladi. Kuchli emotsional holat nafas olishga, ovoz hosil qilishga ta'sir ko'rsatadi. Hosil bo'lgan patologik mexanizmlar nevrotiklarda, ayniqsa tez mustahkamlanib qoladi. Disfoniyaning

oliy formasi — isterik mutizmdir (ovozning to'satdan va butunlay yo'qolishi). Isterik mutizm qattiq qo'rqish natijasida sodir bo'ladi. Isterik mutizm (soqovlik) keyinchalik tutilib gapirishga o'tishi mumkin. Disfoniyaning afoniyadan farqi shundaki, unda ovoz saqlanadi, ammo jarangsiz, sust, xirillagan bo'ladi. Ovozni tiklash uchun davolash ishlari bilan bir qatorda logopedik mashg'ulotlar ham olib boriladi.

Dizartriya — markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida til tovush tizimining buzilishi (tovush chiqarish, prosodiya, ovozlar). Nutq organlarining (yumshoq tanglay, til, lablarning) kam harakatlanishi natijasida nutq tovushlari artikulyatsiyasi qiyinlashadi. Dizartriya, ko'pincha talaffuz qilishning buzilishi bilan chegaralanmaydi, nutqni tushunish va leksik-grammatik tomonlariga tegishli bo'ladi. Dizartriyaning og'ir formalarida nutq butunlay tushunarsiz bo'ladi, bunday holat anartriya deb ataladi. Dizartriyaning davolashda maxsus logopedik mashg'ulotlar olib boriladi, shuningdek, vrach-nevropatolog tavsiyasiga ko'ra tibbiy tadbirlar ko'riladi.

Alaliya bola rivojlanishining homila yoki ilk davrida bosh miya po'stlog'ining nutq zonasida organik shikastlanish oqibatida nutqning yo'qligi (nutq shakllanishiga qadar) yoki rivojlanmaganligini anglatadi. Alaliyaning ikki turi ma'lum: motor va sensor alaliya. Motor alaliya nutq harakat analizatori po'stloq uchining (Broka markazining jarohatlanishi natijasida sodir bo'lib, bunday holatda bola o'zgalarning nutqini tushuna olsa-da, lekin gapira olmaydi. Sensor alaliya eshitish analizatori po'stloq uchi (Vernike markazi)ning jarohatlanishi natijasida ro'y beradi. Sensor alaliyada bola o'zgalarning nutqini tushuna olmaydi va gapirmaydi. Alaliyani bartaraf etishda bilish faoliyatini rivojlantirish, tovush va morfologik tahlillarni hosil qilish, nutqning ma'no tomonlarini shakllantirishga qaratilgan maxsus metodikalar qo'llaniladi.

Afaziya — bosh miyaning lokal jarohatlanishi natijasida ro'y beradigan nutqning to'la yoki qisman yo'qolishi. A.R. Luriyaning tasnifiga ko'ra afaziyaning yetti xil formasi mavjud: motor, sensor, mnestik, semantik, dinamik, amnestik, total afaziyalar. Motor afaziyada harakatlantiruvchi motor nutq markazi (Broka markazi) shikastlanadi. Motor afaziyada nutqning ekspressivligi buziladi, be-

mor butunlay gapira olmaydi yoki faqat ayrim soʻzlarni, qisqa-qisqa jummalarnigina ayta oladi. Bunda soʻzlarning tovush va boʻgʻinlar strukturasi buzilgan boʻladi. Motor afaziyada bemorlar oʻzgalar nutqini koʻpincha tushuna oladilar. Sensor afaziyada Vernike nutq markazi zararlanadi. Bunda bemorlar soʻzlar va nutq tovushlarini idrok etolmaydilar va boshqalar nutqini tushunmaydilar. Afaziya alaliyadan farq qiladi. Alaliyada nutq rivojlanishi buzilsa, afaziyada aslida rivojlangan nutq yoʻqoladi. Total afaziyada bemor ham gapira olmaydi, ham oʻzgalarning nutqini tushunolmaydi. Amnestik afaziyada bemorlar soʻzlar va ularning maʼnosini esdan chiqaradilar. Ular bilan logopedik mashgʻulotlar oʻtkazish bilan bir qatorda tibbiy tadbirlar ham olib boriladi.

Duduqlanish — periferik nutq apparatining pay tortishi natijasida nutq surʼati va ravonligining buzilishi. Bunda ayrim tovush va boʻgʻinlar, soʻzlar qayta-qayta takrorlanadi yoki toʻxtalib talaffuz etiladi. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati qonuniyatlari haqidagi taʼlimotiga koʻra, duduqlanish nevrozning bir turi hisoblanadi. Oliy nerv faoliyatining buzilishi va nutq mexanizmlarini boshqarishda ishtirok etadigan oliy nerv jarayonlarining buzilishi duduqlanishning asosi hisoblanadi. Ovoz boʻlimida pay tortishganda, tovush (un) paychalari bir-biriga mahkam jipslashib, oʻz vaqtida bir-biridan ajralolmaydi, natijada tovushlar, boʻgʻinlar toʻxtalib-toʻxtalib talaffuz qilinadi. Artikulatsiya boʻlimida pay tortishishi koʻproq til va lab mushaklariga tarqaladi. Nafas boʻlimida pay tortishishi natijasida nafas chiqarish jarayoni nafas olishdan ustun kelib, chiqayotgan havo oqimi talaffuz etish uchun yetishmaydi. Duduqlanib gapirishning ogʻir formasida pay tortishishi yuz va tana muskullariga ham tarqaladi. Bunda beixtiyor koʻz olaytirish, boshni orqaga tashlash holatlari ham kuzatiladi. Aslida pay tortishishi ikki xil boʻladi: klonik va tonik. Klonik pay tortishish vaqtida soʻzning birinchi tovushi yoki boʻgʻini bir necha marta takrorlanadi (pa-pa-pa-parta). Tonik pay tortishish vaqtida esa soʻz boshida toʻxtalish roʻy beradi va tutilib gapiruvchi bir tovushdan ikkinchi tovushga oʻtolmaydi, uzoq tutilib, toʻxtalib qoladi (p... parta). Odatda, tutilib gapirish 2–3 yoshdan boshlanadi. Duduqlanishga qattiq qoʻrqish, turli yuqumli kasalliklar, notoʻgʻri nutq tarbiyasi va psixik zaif-

lik, irsiyat moyilligi sabab bo'ladi. Duduqlanish hayajonlanganda, uyalganda, kutilmagan vaziyatlarda ko'proq sodir bo'ladi. Bola o'z vaqtida to'g'ri davolanmasa, maktabga chiqqanda duduqlanish yanada kuchayadi. Duduqlanish, ayniqsa o'smirlik davrida kuchayishi mumkin. Duduqlanish nevroz (asab) kasalligining alohida formasi bo'lganligi uchun, tibbiyot, psixoterapevtik vositalar va tadbirlar kompleksi yordamida bartaraf etiladi. Vrach-psixiatr tutilib gapiruvchiga dori-darmon va psixoterapevtik davo tadbirlarini belgilaydi. Pedagogik-logopedik tadbirlarning vazifasi muntazam o'tkaziladigan mashg'ulotlar paytida tutilib gapiruvchi nutqining to'g'ri, tekis, ravon ifodali chiqishiga erishishdan iborat.

Disgrafiya yoki **agrafiya**. Yozuvning buzilishi yoki butunlay bo'lmasligi, og'zaki nutqning rivojlanmaganligi disgrafiyaning asosiy belgilaridir. Yozuv jarayonida ishtirok etuvchi analizatorlardan birining jarohatlanishiga qarab, disgrafiyaning akustik, motor, optik, ideomotor turlari farqlanadi. Akustik disgrafiya eshitish analizatorining buzilishi natijasida eshitish diqqati, eshitish idroki, tovush analizi va sintezining rivojlanmay qolganligi natijasida yuzaga keladi. Bolalar talaffuz jihatdan o'xshash tovushlarni, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajrata olmaydilar, harflarni tashlab ketadilar, o'rnini almashtiradilar yoki qo'shib yozadilar. Optik disgrafiyada ko'rish analizatorining jarohatlanishi natijasida ko'rish idroki, ko'rish analizi va sintezi, fazoviy tasavvurlar shakllanmagan bo'ladi. Optik disgrafiyada yozilishi jihatdan o'xshash harflar bir-biri bilan almashtiriladi (m — l, n — i, t — p, s — o, b—d, l — d, k — i va h.k.). Optik disgrafiyaning bir ko'rinishi oynavon xatdir. Motor disgrafiyada nutqni harakatlantiruvchi analizatorning buzilishi talaffuz kamchiliklariga olib keladi. Ideomotor disgrafiya shakllangan yozuv malakalarining bosh miya travmalari natijasida yo'qolishidir. Disgrafiyaning bartaraf etishda og'zaki nutqdagi kamchiliklarni tuzatish, o'qish va yozishni rivojlantirishga oid maxsus mashqlar olib boriladi.

Disleksiya (aleksiya) — bosh miya yarim sharlari qobig'idagi ba'zi nerv markazlarining zararlanishi yoki yetarli rivojlanmaganligi natijasida o'qish jarayonining buzilishi. Disleksiyaning quyidagi turlari farqlanadi: fonematik, optik, semantik, agrammatik, taktil,

mnestik. Fonematik disgrafiya eshitish qobiliyatining rivojlanmay qolganligi sababli vujudga keladi. Disgrafiyaning bu shaklida bolalar bir necha yil davomida to'g'ri o'qishni o'zlashtira olmaydilar. Ayrim harflarni qiyinchilik bilan o'zlashtirsalar-da, bo'g'inlab o'qiy olmaydilar yoki o'qish paytida qo'pol xatolarga yo'l qo'yadilar. Optik disgrafiya ko'rish analizi, sintezi va fazoviy tasavvurlarning shakllanmaganligida namoyon bo'ladi. Optik disgrafiyada harf va tovush o'rtasidagi bog'lanish buzilgan bo'ladi, o'xshash harflar yozuvda almashtiriladi (m — n; yozma — m — l, i — sh, t — p, b — d, hamda bosma P — N, N — I, S — O va h.k.). Semantik disgrafiya nutqning leksik-grammatik tomoni rivojlanmaganligi tufayli yuzaga keladi va o'qilgan matnни idrok qila olmaslik va gapirib berolmaslikda namoyon bo'ladi. Agrammatik disgrafiya nutqning grammatik buzilishi natijasida sodir bo'ladi. Taktil disgrafiya ko'r bolalarda kuzatiladi. Mnestik disgrafiya mnestik jarayonlarning buzilishi tufayli kelib chiqadi. Ish usullari disgrafiyaning turiga qarab tanlanadi va logopedik mashg'ulotlar jarayonida tuzatib boriladi.

Psixologik-pedagogik tasnif logoped ishining amaliy ehtiyojlari hisobga olingan holda tuziladi. Bu tasnif avvalambor psixologik-lingvistik mezonlar asosida nutq simptomatikasini aniqlashga qaratilgan bo'ladi. Bu tasnifda nutqning qaysi komponentlari va qay darajada buzilganligi hisobga olinadi, bu esa nutq buzilishlarining quyidagi guruhlarini farqlashga imkon beradi:

1) nutqning fonetik buzilishlari — bitta tovush yoki bir nechta tovushlarning talaffuzda buzilishi;

2) nutqning fonetik-fonematik buzilishlari — bu yerda nutqning fonetik jihatlari bilan birga fonematik jarayonlarning ham rivojlanmay qolganligi kuzatiladi;

3) nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I, II, III, IV darajalari) — bunda til tizimining barcha komponentlari (leksika, grammatika, fonetika va fonematika) buzilgan bo'ladi;

4) duduqlanish. Bunda nutqning kommunikativ (aloqa o'rnatish) funksiyasi buziladi.

Psixologik-pedagogik diagnostika o'tkazilganidan keyin, nutq kamchiliklarining xulosalari ikkala tasnif asosida quyidagi tartibda keltiriladi.

1. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I daraja). Motor alaliya.
2. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I daraja). Sensor alaliya.
3. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I daraja). Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.
4. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I daraja). Motor alaliya, duduqlanish.
5. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (I daraja). Sensomotor alaliya.
6. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi. Bolalar afaziyasi.
7. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (II daraja). Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.
8. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (II daraja). Motor alaliya.
9. Nutqning to'liq rivojlanmaganligi (II daraja). Motor alaliya, duduqlanish.
10. Nutqning leksik-grammatik rivojlanmaganligi. Motor alaliyadan chiqish.
11. Nutqning fonetik-fonematik buzilishi. Aniq ifodalanmagan soxta bulbar dizartriya.
12. Nutqning fonetik-fonematik buzilishi. Ochiq organik rinolaliya.
13. Nutqning fonetik buzilishi. Funktsional motor dislaliya.
14. Nutqning fonetik buzilishi. Ochiq organik rinolaliya.

Savol va topshiriqlar

1. Logopsixologiyaning nazariy va metodologik asoslarini yoritib bering.
2. Logopsixologiya fani predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari nimalardan iborat.
3. Normal va nuqsonli rivojlanishning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlarini ochib bering.
5. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalarning umumiy psixologik tavsifnomasini tuzing.

IX bob. NUTQ KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATI

9.1. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalar idroki

Idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarni ongda bevosita aks ettirishdir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, ayrim xossalarni esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz. Idrok qilish his qilish bilan birgalikda bilish jarayonida teng ishtirok etadi.

Bilish jarayonining sharti sifatida, idrok qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga keladi. Idrok qilishning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular muayyan shakllari bo'yicha farqlanadi: analizatorlarning ishtirokiga ko'ra (ko'ruv idroki, eshituv idroki, sezish idroki, hid bilish idroki, kinestetik idrok va h.k.); materiyaning mavjudligi shakliga ko'ra: atrof-borliqni idrok etish, vaqtni idrok etish, harakatlarni idrok etish; psixik faolligiga ko'ra: oldindan o'ylangan, oldindan o'ylanmagan idrok etish.

Ulug' qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy «Minerologiya» asarida sezgi va idrok haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tgan: «Sezgilar beshta bo'lib, ... ular quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan tatib ko'rish va teri bilan tegib bilishdan iboratdir... ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi».

«Sezgilar o'z qo'zg'atuvchilari orqali qo'zg'aladi. Agar ular me'yorida bo'lsa, yoqimli va zararsiz bo'ladi, me'yoridan ortiq bo'lsa, dardli va halokatli bo'ladi.

Ko'rish sezgisini nur qo'zg'atadi, eshitishni havo orqali keluvchi ovozlilar qo'zg'atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo'ladi, ta'm ozuqaning mazasi bilan vujudga keladi. Ammo namlik bunda shartdir. Bu to'rt sezgini his etuvchi maxsus organlar mavjuddir. Beshinchi sezgi – sezish esa butun badanda voqedir, ammo dastavval uni teri sezadi».

Sezgilar bilganlaridan bir bo'lagini fikrga yetkazsa, fikr uni yangilishlardan tozalab aqlga topshiradi. Aql uni umumiy ishga aylantiradi. Faqatgina sezgi organlari yordamida o'zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqa-

rish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar orqali idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishmog'i mumkin.

Shunday qilib, Abu Rayhon Beruniy o'sha davridayoq sezgi va idrokning faoliyat ko'rsatish mexanizmlarini, bunda analizatorlarning rolini, sezgi va idrokning xususiyatlari va o'zaro bog'liq jihatlarni aniq ko'rsatib berdi.

Idrokning o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha tasniflanadi:

- 1) aralash va umumlashtirish: predmet va hodisalarni idrok etar ekan, inson nimalarni idrok etayotganini tushunadi va anglaydi;
- 2) predmetlilik: predmetlarning obrazlarini real predmetlar sifatida anglaydi;
- 3) yaxlitlilik: borliqdagi predmet va hodisalarning alohida sifatleri va belgilari doimiy mustahkam bog'liqlikda bo'ladi;
- 4) tizimlilik: kishi turli predmetlar yoki hodisalarning belgilarini yaxlit va mustahkam tizim sifatida anglaydi;
- 5) tanlash: bir necha predmetlar va ko'rinishlar orasidan inson faqat bir nechtasinigina ajratib oladi, bu uning qanday faoliyat bilan shug'ullanayotganiga, muayyan vaqtda unga qanday narsalar kerak ekaniga va qiziqishlariga bog'liq bo'ladi;
- 6) o'zgarmaslik: xuddi o'sha predmetlar inson tomonidan o'zgargan sharoitlarda ham bir xil qabul qilinadi (turli xil yoritilishida, turli xil qarashlarda, turli masofalarda). Lekin predmetlarning obyektiv xususiyatlari o'zgarmagan holda qabul qilinadi.

Sezgilar odatda sodda, elementar jarayonlar bo'lib hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga avvalo turli buyumlar (binolar, daraxtlar, mashinalar, uy jihozlari va h.k.) kiradi. Biz san'at asarlari, musiqa, rasmlarni idrok qilamiz. Og'zaki va yozma nutqni idrok qilamiz. Bu narsalar va hodisalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki boshqa ko'plab narsalar bilan makon va vaqt jihatdan bir-biri bilan bog'langan holda idrok qilinadi.

Bola dunyoga kelganda sezgilari shakllanib bo'lgan bo'ladi. Lekin ushbu sezgilarning me'yordagi funksiyasi atrof-borliqni idrok etishlarini ta'minlaydi.

Idrok etish jarayoni to'g'ri shakllanishi uchun, maqsadga yo'naltirilgan pissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko'rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, obyektlarni eshitishni o'rgatish kerak, ya'ni unda idrok qilish harakatlarini shakllantirish kerak.

Idrok qilish jarayonida bolada asta-sekinlik bilan ko'rish, eshitish, harakat, bilish obrazlarini orttirib boradi. Lekin bunda bola predmetlarning munosabatlari va belgilarini idrok qilishi jarayonida, bu munosabatlar va belgilar so'zlar bilan izohlangan bo'lishi kerak. Bu esa predmetning obrazlari haqida tasavvurlarni mustahkamlaydi, ularni yana ham aniqlashtiradi. Agar idrok qilingan obrazlar so'zlar bilan mustahkamlangan bo'lsa, bir qancha vaqt o'tganidan keyin ham bu obrazlar bola tasavvurida tiklanishi mumkin.

Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog'liqlik bo'lmasligi kuzatiladi. Ma'lumki, dizartriya va rinolaliyada uchraydigan nutq harakat analizatori funksiyasining buzilishi tovushlarni eshitish orqali idrok qilishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (G.F.Sergeyeva).

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonining rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulyatsiya apparatidagi kamchiliklar asosida tovush talaffuz qilishdagi o'zgarishlar, ko'pgina almashtirishlar, artikulyatsiya apparati o'z funksiyasini to'liq bajar-masligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o'rinda ta'sir qilib, uning shakllanishiga yo'l qo'ymaydi.

Ba'zida nutq nuqsoniga ega bolalar ba'zi bir tovushlarni eshitib, ajratishlari mumkin, bu tovushlarni talaffuz etishda ham to'sqinliklar bo'lmaydi. Boshqa hollarda esa oson talaffuz etiladigan xuddi shunday tovushlar talaffuzida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday hollarda ayrim xususiyatlar kuzatiladi. Ya'ni agar bolaning talaffuzida tovushlar qanchalik shakllangan bo'lsa, bola tovushlarni shunchalik idrok etadi va farqlaydi. Fonematik eshitishning shakllanishi bolalar nutqining hamma tomoniga ta'sir etadi, bolaning umumiy rivojlanishiga bog'liq bo'ladi.

Y.M. Mastuykova ko'rish orqali idrok qilishni tekshirish natijasida nutq nuqsoniga ega bo'lgan maktab o'quvchilarida bu funktsiya o'z normasida qoladi va ular obrazlarni yaxlitligicha idrok etadi va me'yordagi bolalardan farq qilmaydi, degan xulosaga keladi.

Biroq nutq nuqsonlariga ega bolalarga berilgan vazifalar murakkablashtirilganida qiyinchiliklar paydo bo'ladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar predmet obrazlarini belgilangan sharoitlarda ancha qiyinchilik bilan idrok qiladilar: qarorni qabul qilish vaqti cho'ziladi, bolalar o'z javoblariga ishonmay ikkilanadilar, predmet-hodisalarni tanishda xatoliklar kuzatiladi, axborot ortgani sari predmetning belgilarini ajratish ham qiyinlashadi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi sog'lom bolalarnikidan ajralib turadi: ular idrok etish uchun osonroq, oddiy tushunchalarni tanlashadi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar geometrik shakllarni ko'rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar.

Kichik maktab yoshidagi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning ko'rib idrok etishini tekshirish jarayonida dizartriya, alaliya kabi nutq kamchiliklarida idrokning quyidagi buzilishlari kuzatildi: optik, atrof-muhit, tasavvurlar, yuzaga tegishli bo'lgan belgilar, barmoqlar va artikulatsiya a'zolari harakati, taktil-harakat a'zolari yordamida idrok etish (L.S. Svetkova, T.M. Pirxalayshvili).

Atrof-muhitni optik idrok etishning buzilishi bosh miyasi organik jarohatlangan bolalarda ko'proq uchraydi. L.N. Benderning amaliy kuzatishlari natijasida nutqida kamchiligi bor bolalarda kichik maktab yoshidagi bolalar faoliyatida, xususan rasm chizish, konstruksiyalar yasash, grammatikani o'rganish jarayonida sog'lom rivojlanayotgan tengdoshlariga nisbatan bu faoliyatlarning sustligi kuzatildi. Optik-fazoviy gnozisning buzilish darajasi idrokning boshqa jarayonlarini ayniqsa fazoviy tasavvurlarning yetishmasligiga bog'liq.

Nutq nuqsoniga ega bolalarda optik atrof-muhitni idrok etish jarayonining buzilgani, shuningdek, boshqa idrok jarayonlari to'liq emasligi natijasida atrof-muhitni tasavvur qilishning shakllanishida o'ziga xos jihatlarni kuzatiladi.

Alalik bolalarda idrokning buzilganligi ayniqsa rasmlarni chizishda kuchli namoyon bo'ladi: rasm va tasvirlar detallar miqdorining kamligi, oddiyligi, soddaligi, murakkab emasligi bilan ajralib turadi, shuningdek, optik atrof-muhitni idrok etishdagi buzilishlarning miqdori bilan xarakterlanadi.

Disleksik va disgrafik bolalarda atrof-muhitni idrok etishning buzilishi ayrim hollarda yozuv nuqsonlarida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, predmetlar orasidagi aloqalar, ular orasidagi faoliyat impressiv nutqning saqlanganligini bildiradi. Lekin ekspressiv nutqda, agar bolalar og'ir nutq nuqsonlariga ega bo'lsa, nutqiy muloqot vositalarini bu munosabatlarda noto'g'ri ifodalaydilar. Bu ularning nutqida semantik tartibning saqlanmaganligi bilan bog'liq.

Artikulatsion organlarni tekshirish jarayonida (Tara metodikasi bo'yicha) idrok buzilishi ushbu organlar harakatlanishi bilan bog'liq. Bu hol ayniqsa dizartriya va motor alaliyada kuzatiladi.

Taktil-harakat a'zolari orqali idrok etish xususiyatlari R.L. Ringel metodikasi yordamida tekshiriladi. Bunda bolaga «sehrli quticha»ga joylashtirilgan predmetlar orasidan kerakli predmetni paypaslab aniqlash topshiriladi. Nutqida kamchiligi bor bolalarda, ayniqsa dizartriklar va alaliklarda mayda qo'l motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli taktil-harakat orqali idrok etish xususiyati ham buzilgan bo'ladi.

Nutqi buzilgan hamma bolalarda fonematik idrokning buzilishi, shubhasiz nutq-eshitish va nutq-harakat qilish analizatorlari faoliyatining buzilishi bilan bog'liq bo'ladi. G.F. Sergeyevaning fikricha, dizartriya va rinolaliyada nutq-harakat qilish funksiyalarining buzilishi fonematik idrok jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Bunda tovushlarni talaffuz qilishning buzilishi va idrokning buzilishi orasida to'g'ridan to'g'ri aloqa kuzatiladi.

Agar nutqida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarda shu psixik funksiya o'z rivojlanish me'yoridan orqada qolgan bo'lsa, ularda predmetning yaxlit obrazini yetarlicha idrok etish shakllanmagan bo'ladi.

Idrok qilinayotgan predmetning dastlabki obrazi sezgilarning jami (yig'indisi)dan iborat bo'lmay, balki yaxlit, bir butun bo'ladi.

Bu idrokning perseptiv tomonini tashkil qiladi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda esa predmetni yaxlit idrok etish qobiliyati ham buzilgan bo'ladi. Ular predmetning ayrim belgilarini idrok etmaydilar (L.I. Belyakova, Y.F. Garkusha, O.N. Usanova, E.L. Figeredo).

Bolalar savodini chiqarishda optik-fazoviy idrok rivojlangan bo'lishi kerak. Miyaning organik shikastlanishi optik-fazoviy idrokning buzilishiga sabab bo'ladi.

A.P. Voronovanning nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarining tadqiqi shuni ko'rsatadiki, bu toifadagi bolalarda harf idroki past rivojlangan bo'ladi: ular harflarni bir tekisda yoza olmaydilar, harflarni chaplashtirib yuboradilar, to'g'ri chiziqdan tepaga yoki pastga tushib ketadilar. Bosma harflarni yozishda ham xuddi shunday qiyinchiliklarga uchraydilar. Shu sababli nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar savodni egallashda qiynaladilar. Ma'lum bo'lishicha, nutqi rivojlanmagan bolalar «o'ng tomon» va «chap tomon» tushunchalarini ajratib olishda qiynaladilar, shuning uchun o'z tana a'zolarining joylashish o'rnini odatda to'g'ri aniqlay olmaydilar.

Alalik bolalarda fazoviy buzilishlar, ayniqsa, odam suratini chizishda yaqqol ko'rinadi: tasvirlashning qashshoqligi bilan, detallar sonining kamligi va oddiyliigi, hamda o'ziga xos optik-fazoviy buzilishlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Biroq, nutqi buzilgan bolalarda fazoviy buzilishlarning o'rne rasmda ifodalangan hissiy jo'shqinlik evaziga kompensatsiya qilinadi.

Demak, idrok va nutq o'zaro chambarchas bog'liq. Har bir idrok nutqda ifodalanadi. Masalan, «bu kitob», «bu odam» va h.k. Odamning idroki sezgi organlariga ta'sir ko'rsatayotgan biron narsaning oddiygina obrazi emas, balki odamning tajribasi zaminida anglab, tushunib oladigan obrazdir. Idrokning mazmuni asosan odam hosil qilgan tajribaning boyligi, unda tafakkur va xayolning nechog'li taraqqiy qilganligi bilan belgilanadi. Bunda nutq yetakchi o'rin egallaydi. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda esa idrokning barcha turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishda nutq kamchiliklarini to'g'rilash bilan birga idrokni rivojlantirish ham talab qilinadi.

9.2. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning diqqati

Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar diqqatining o'ziga xosligi. Diqqat deb ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obyektga aktiv qaratilishiga aytiladi.

Nutq kamchiligiga ega bo'lgan bolalar uchun diqqat-e'tiborning o'zgaruvchanligi, ixtiyoriy diqqatning pastligi, o'z harakatlarini rejalashtirishdagi qiyinchiliklar kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

Diqqat ta'sir etuvchi analizatorlarning (ko'rish yoki eshitish) ishtirokiga ko'ra farqlanadi: nutqida kamchiligi bor bolalarda diqqatni to'plash ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda rang, shakl, figuralarning fazoviy joylashishini farqlashda xatolar ko'p uchraydi. Bunday bolalar diqqatining tarqoqligi tufayli biron-bir ishni oxiriga yetkaza olmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqatni nutq va amaliy harakat o'rtasida bo'lish amalda bajarib bo'lmaydigan qiyin vazifa hisoblanadi. Bolalar diqqatidagi kamchiliklar butun ish jarayoni davomida kuzatiladi. Ularda diqqatning ko'chishi, ya'ni bir narsadan ikkinchi boshqa narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishi qiyinchiliklar bilan kechadi. Buning sabablaridan biri ketma-ket qilinadigan ish mazmunlari o'rtasida bog'liqlikning borligi yoki yo'qligida. Agar bunday bog'liqlik bo'lsa, diqqat tez va oson ko'chadi. Diqqat ko'chishining yengillik yoki qiyinlik sabablaridan yana biri diqqat qaratilgan narsalarga va bajarilayotgan ishlarga nisbatan bolalarning munosabatlaridadir. Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda diqqat ko'chishining qiyinligi ularning o'z nuqsonlariga nisbatan munosabatlari bilan ham belgilanadi. Ba'zi bolalar o'z nuqsonlarini anglab, undan uyaldilar, ba'zilar nuqsonlariga parvo ham qilmaydilar va to'g'rilashga intilmaydilar. Mana shu omillar diqqatni to'plashga va nutq kamchiliklarini yengishga to'sqinlik qiladi.

Motor alalik bolalar bilan o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

– motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning miqdor ko'rsatkichlari darajasi nutqi me'yorda rivojlangan bolalarga nisbatan ancha past;

– motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqatning xarakteri ko'rish va eshitish qo'zg'atuvchilarining ta'siriga bog'liq bo'ladi: bunda nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar uchun berilgan vazifalarni bajarishda so'z bilan ifodalangan og'zaki ko'rsatmalardan ko'ra ko'rish orqali berilgan ko'rsatmalarga o'z diqqatini jamlash osonroq kechadi;

– motor-alalik bolalar uchun faoliyatning reproduktiv turi (normada – produktiv) ko'proq xos bo'ladi, ularda biron vazifani bajarishda mustaqil izlanish, har xil variantlarni sinab ko'rish qobiliyati sust bo'ladi;

– o'yin faoliyatida esa motor alalik bolalar vazifani bajarishda normal bolalar bilan bir qatorda faoliyat ko'rsatishlari mumkin, bu ularning aynan o'yin sharoitida ko'nikmalarni yuqoriroq darajada qo'llay olishlaridan, ya'ni faolroq faoliyat ko'rsata olishlaridan darak beradi, demak alalik bolalar faoliyatining sifati logoped ularning diqqatini qay darajada jamlay olishiga bog'liq;

– motor-alalik bolalarda ixtiyoriy diqqat past darajada rivojlangan bo'ladi va bu ularda ruhiy jarayonlarning shakllanishiga to'sqinlik qiladi yoki faoliyat tuzilishining buzilishiga olib keladi. Bunda: a) yo'l-yo'riqlarni bolalar aniq emas, balki uzuq-yuluq idrok etadilar; ular berilayotgan vazifa shartlariga diqqatlarini jamlashga, uni bajarish usullari va vositalarini izlashga qiynaladilar; yo'l-yo'riqlarni aniqlashtirib olish maqsadida odatda nutqdan foydalanmaydilar; b) motor alalik bolalar berilgan vazifalarni xatolar bilan bajaradilar, bunda xatolar xarakteri va vazifaning bajarilish vaqti me'yordagi bolalarnikidan sifat jihatdan ancha farq qiladi; d) vazifalarni bajarishda barcha o'z-o'zini nazorat qilish turlari (oldingi, joriy va keyingi) shakllanmagan yoki ancha buzilgan bo'ladi (O.N. Usanova, Y.F. Garkusha, 1985).

Diqqatning salbiy jihatlaridan biri parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning osongina va tez-tez bo'linib turishida namoyon bo'lishi mumkin. Parishonxotirlikning bu ko'rinishi

ko'pincha ish qobiliyati susayib ketishining va xulq-atvordagi uyushmaganlikning sabablaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, har qanday nutq buzilishlariga ega bo'lgan bolalarning ixtiyoriy diqqatini shakllantirish uchun uni faoliyat jarayonida muntazam va tizimli rivojlantirib borish kerak. Bunda diqqat buzilishining har bir nutq kamchiligida (alaliya, dizartriya, rinolaliya, duduqlanish va h.k.) o'ziga xos namoyon bo'lish xususiyatlari hisobga olinishi va bu ish boshqa oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi bilan yaqin aloqada olib borilishi shart.

9.3. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning xotirasi

Individning o'z tajribasini esda olib qolishi, esda saqlashi va keyinchalik uni yana esga tushirishi xotira deb ataladi. Xotirada esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutish kabi asosiy jarayonlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Bu jarayonlarning har biri alohida mustaqil psixik xususiyat hisoblanmaydi. Ular faoliyat davomida shakllanadi va o'sha faoliyat bilan belgilanadi. Muayyan bir materialni esda olib qolish hayot faoliyati jarayonida individual tajriba orttirilishiga bog'liqdir. Esda olib qolingan narsani keyinchalik kechadigan faoliyatda qo'llash uchun uni esga tushirish kerak. Ulug' muallim va shifokor Ibn Sino nutq va xotiraning o'zaro bog'liqligiga e'tibor bergan va shunday degan edi: «Bolalar birga bo'lganda doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar».

Xotiraning bir necha turlari mavjud: ko'rgazmali-tasavvurli, so'zli-mavhum va oraliq. Bu turlar inson yuqori asab faoliyati birinchi va ikkinchi signal tizimlarining o'zaro nisbatiga bog'liq bo'ladi. Xotira u yoki bu turining ustunligi, xususan, inson hayoti va faoliyatining turlari va shart-sharoitlariga bog'liq. Masalan: ko'rgazmali-tasavvurli xotira turi ko'pincha rassomlarda uchraydi.

Ko'rgazmali-tasavvurli xotira turli xil taassurotlarni eslab qolishda qanday analizator unumdor bo'lishiga qarab farqlanadi. Shunga muvofiq harakatlantiruvchi, ko'rish va eshitish xotirasini farqlaydilar. Bu turlar alohida juda kam uchraydi. Ko'p hollar-

da aralash turini uchratish mumkin: ko'rish-harakatlantiruvchi, ko'rish-eshitish, eshitish-harakatlantiruvchi.

Xotira hajmining buzilishi bosh miya yarim sharining disfunktsiyasiga, taqdim etilgan ma'lumotlarni tiklash tartibidagi qiyinchiliklar esa — o'ng yarim sharining disfunktsiyasi bilan bog'liq.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar xotirasi bilan bog'liq muammolar bilan G.S.Gumennaya, M.I.Belyajova, Y.F.Garkusha, O.N.Usanova va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Bunday bolalarning ko'rish xotirasi ko'lamida deyarli me'yordagidan farqlanmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda xotira funksiyalarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, ularning ko'rish xotirasi me'yordan hech qanday farq qilmas ekan.

Dizartrik bolalarda geometrik figuralarni eslab qolish ehtimoli juda kam. Bunday bolalarda bu sohadagi past natijalar idrokning buzilish shakllari, fazoviy tasavvurning bo'shligi bilan bog'liq (I.T.Vlasenko). Bu bilan birga eshitish xotirasi kamchiliklarining darajasi nutq rivojlanishining pasayishiga olib keladi. A.R.Luriya va boshqalarning «10 ta so'z» metodikasi yordamida bolalar xotirasi tekshirilganda, nutqida og'ir buzilishlar bo'lgan bolalarda qator xususiyatlar aniqlandi: ular vazifalarni bajarish jarayonida sekinroq mo'ljal olishadi va ularning natijalari me'yordan pastroq bo'ladi.

Motor alalik bolalar xuddi shu metodika asosida tekshirilganda, birinchi aytilgandan keyin (eshitib turib) faqatgina 3–4 ta so'zni qaytara olishi ma'lum bo'ldi, bunda ular bir so'zni bir necha marta qaytarishi mumkin yoki yangi so'zlar bilan almashtiradi. Nutqida kamchiligi bor bolalar yo'l qo'yilgan xatolarini e'tiborga olmaydilar va tuzatmaydilar. Hamma bolalarda xatolarni to'g'rilash bir xil past darajada bo'lar ekan. Ular 10 daqiqadan so'ng 5 ta so'zni, ertasi kuni — 1–3 ta so'zni eslaydilar. Motor alaliyali bolalar uchun o'nta so'zning o'rtadagi qismlarini eslash ayniqsa qiyin kechadi.

Motor alalik bolalarning nutqi me'yorda rivojlangan bolalar bilan solishtirilganda, eshitish xotirasi va eslab qolish unumdorligi motor alaliklarda ancha past ekani ma'lum bo'ldi. Motor alalik bolalar tez-tez murakkab yo'l-yo'riqlarni eslaridan chiqarib qo'yadilar (uchta, to'rtta pog'onali), berilgan vazifalarning ketma-ketligini almashtiradilar va ba'zi belgilarni tushirib qoldiradilar. Bolalar yo'l-yo'riqni

aniqlash maqsadida nutq muloqotiga tayanmaydilar (L.I. Belyakova, Y.F. Garkusha, O.N. Usanova, E.L. Figeredo, 1991).

Faoliyat tuzilishining buzilishi yo‘l-yo‘riqni noaniq va uzuq-yuluq idrok qilish faqatgina eshitish xotirasining pasayishi bilan emas, balki diqqat xususiyatlari bilan ham bog‘liq.

Qayta eslashdagi yo‘lga qo‘yilgan xatolarni nutq buzilishiga ega bolalar odatda sezmaydi va tuzatmaydi. Kechiktirilgan qayta eslash barcha nutq nuqsoniga ega bolalar toifasida bir xilda quyi (past) bo‘lib chiqadi. Masalan: ular 10 daqiqadan keyin beshta so‘zni, keyingi kunda bir-uchta so‘zni qayta eslaydi.

Shunday qilib, nutqida kamchiliklarga ega bolalarda quyidagi xotira xususiyatlari kuzatiladi: ko‘rish xotirasi ko‘lami deyarli me‘yorga to‘g‘ri keladi, geometrik figuralarning esda qolishi bundan mustasno; eshitish xotirasining umumiy pasayishi; kechiktirilgan qayta tiklashning quyi darajasi; mazmunli, mantiqiy eslab qolishning nisbatan saqlanishi.

Ammo bu turdagi bolalarda, mavjud qiyinchiliklarga qaramasdan fikrlash, mantiqiy eslab qolish imkoniyatlari nisbatan saqlangan bo‘ladi.

Xotirani o‘rganish uslubiyati. Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarning xotirasini tekshirish uchun bir qancha metodikalar ishlab chiqilgan. Ular bolalarda qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, mantiqiy va mexanik xotiraning rivojlanish darajasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan. Qisqa muddatli xotirani tekshirishda bolaga shunday ko‘rsatma beriladi: «Men har bir qatorda uchtdan (to‘rttdan, beshtadan) son bo‘lgan to‘rt qator sonlarni o‘qiyman. Sening vazifang – bu sonlarni o‘qilgan tartibda eslab qolish, keyin bo‘lsa xayolda birinchi sonni ikkinchisi, ikkinchisini uchinchi bilan, uchinchini to‘rtinchi bilan va h.k. qo‘shish va olingan to‘rtta yig‘indini kerakli qatorga yozishdan iborat. Metodikada qo‘llanadigan qatorlardagi raqamlar va qatorlar soni bolaning yosh xususiyatlariga qarab tanlanadi. Qatorlarni o‘qish orasidagi vaqt yoshga ko‘ra 15–25 sekund bo‘lishi kerak.

Uzoq muddatli xotiraning rivojlanganlik darajasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan metodikada bolaga shunday ko‘rsatma beriladi: «Hozir men bir qator so‘zlarni o‘qiyman, sen esa, ularni eslab qo-

lishga harakat qil. Tayyorlan, diqqat bilan eshit: stol, sovun, odat, vilka, kitob, palto, bolta, daftar, sut, shim». Soʻzlar qatori bir necha bor oʻqiladi. Tekshiruv 10 daqiqadan keyin va uch kun oʻtib amalga oshiriladi.

Juftlikni eslab qol metodikasi mantiqiy va mexanik xotira rivojlanishi darajasini oʻrganish uchun moʻljallangan. Bunda bolalarga ikki qator soʻz beriladi. Birinchi qatordagi soʻzlar orasida maʼnaviy bogʻlanishlar mavjud, ikkinchi qatorda esa bunday bogʻlanish yoʻq.

Tadqiqotchi oʻrganilayotgan qatordagi juft soʻzlarni oʻqiydi (juftliklar orasidagi vaqt – 5 soniya). 10 soniyalik tanaffusdan soʻng qatorning chap tomonidagi soʻzlar oʻqiladi, sinalayotgan bola esa eslab qolingan oʻng qatordagi soʻzlarni yozadi.

• Bolalar xotirasi psixologik jihatdan diagnostika qilinganda, uning eng muhim xususiyatlaridan biri soʻz, mantiq, xotirasi va maʼnosiga qarab tushunish, eslab qolish salmogʻining ortishi alohida koʻrsatilgan. Logopedik mashgʻulotlarda nutq kamchiligiga ega boʻlgan bolalarning oʻz xotirasini ongli boshqarish, eslab qolish va esga tushirish jarayonlarini muvofiqlashtirishga erishish mumkin.

9.4. Nutqida kamchiligi boʻlgan bolalar tasavvuri

Inson ongida ilgari eshitish, koʻrish, sezish orqali idrok qilingan obyektlar toʻgʻrisidagina emas, balki idrok qilinmagan obyektlar (narsalar, voqealar, shaxslar, joylar va sh.k.) toʻgʻrisida ham tasavvurlar bor. Xayol (tasavvur) boshqa psixik jarayonlarning faoliyatini boyitadi.

Tasavvur qilishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: borliqni tasavvurlarda koʻrish va turli hayotiy muammolarni yechishda ulardan foydalanish imkoniyatini taʼminlaydi; hissiy munosabatlarni boshqaradi; bilish jarayonlari va inson holatini ixtiyoriy boshqaradi; insonni ichki jihatdan shakllantiradi; faoliyatni rejalashtiradi va dasturlashtiradi.

Hozirgi kunda korreksion-logopedik ishni bolalarda bilish jarayonlarining rivojlanishidagi kamchiliklarni hisobga olgan holda tashkil etish zarurligi defektologiya fanining dolzarb masalalaridan boʻlib qolmoqda. Bu esa nutq kamchiliklariga ega boʻlgan bolalarda turli psixik jarayonlarning oʻziga xos xususiyatlarini maqsadga

yo'naltirilgan holda chuqur o'rganish masalasining muhimligini belgilab beradi. Hozirgacha bunday bolalarda idrok, xotira, tafakkur bilan bir qatorda tasavvurning rivojlanishiga tegishli ancha-muncha ilmiy va eksperimental material to'plandi.

Me'yorda rivojlangan bolalar tasavvurini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda tasavvur va nutq o'rtasida yaqin aloqa borligi ta'kidlanadi. «Tasavvurning rivojlanishi ustida olib borilgan kuzatishlar, — deb yozgan edi L.S.Vigotskiy, — bu funksiyaning nutq rivojlanishiga bog'liqligini ko'rsatdi. Nutq rivojlanishidagi kamchiliklar tasavvur rivojlanishiga ham to'sqinlik qiladi».

Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalarda tasavvur xususiyatlari bir qator metodikalar asosida olib borilgan eksperimental kuzatuvlar natijasida tekshirildi va tadqiq etildi. Tadqiqotlarda bolalarning ijodiy tasavvurini o'rganishda ko'proq «Berilgan geometrik shakl bo'yicha rasm yaratish», Rorshax testi, «Boshi bor rasmni tugallash» metodlari qo'llanadi. Bunda eksperiment individual va guruhiiy shaklda olib borilishi mumkin. Eksperimentning borishida bolalarning berilgan vazifani bajargan vaqti, ular faoliyatining sifat jihatdan tahlili o'tkazildi.

Nazorat va eksperimental guruhlar birinchi metodika bo'yicha tekshirilganda shu narsa ayon bo'ldiki, bajarilgan rasmlarning soni bo'yicha nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar guruhi bilan me'yordagi bolalar guruhi o'rtasida uncha sezilarli tafovut kuzatilmadi. Biroq me'yordagi bolalar rasmlarida yaratilgan obrazlar soni eksperimental guruh bolalarinikidan o'rta hisobda beshtaga ko'proq ekani ma'lum bo'ldi. Nutqi me'yorda rivojlangan bolalar figuralarni fazoda joylashtirishda ham nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarga qaraganda ancha erkin ish tutishi ma'lum bo'ldi.

Shunday qilib, nutqida kamchiligi bor bolalar chizgan rasmlar obrazlarning qashshoqligi, fazoviy tasavvurlarning noaniqligi bilan ajralib turadi.

Ma'lumki, o'yin — bolalarning tabiiy holati. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar turmush mavzusiga oid o'yinlarni ko'proq yaxshi ko'radilar, chunki ular uncha keng tasavvurni talab etmaydi va har kuni kuzatiladigan tanish sahnalardan iborat bo'ladi. Biroq ko'p holda ularning o'yinlari o'zining bir xilligi, mazmuni deyarli

boyitilmasligi bilan xarakterlanadi. O'ylab qo'yilgan fikr mustahkam bo'lmaydi va o'yin ayrim hollarda tugallanmay to'xtatib qo'yiladi. Nutqiy nuqsonga ko'ra o'zaro muloqot imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarda o'yin faoliyati me'yorda nutq rivojlanishiga ega tengdoshlariga nisbatan ancha sust bo'ladi, o'yin yangi detallar bilan boyitilmaydi.

Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun ijodiy topshiriqlarni bajarish qiyinchilik tug'diradi: masalan, pedagog hikoyasini qayta gapirib berish, shaxsiy tajribadan olingan hodisalarni gapirib berish. Ular so'zning ko'chma ma'nosini metaforalarni yaxshi tushunmaydi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun rivojlantiruvchi ta'lim dasturini ishlab chiqish va mashg'ulotlarda bolalar bilan tasavvurni takomillashtirish va bola ijodiy qobiliyatlarini faollashtirishga qaratilgan maxsus topshiriq va mashqlardan muntazam foydalanish kerak.

Bu ishni bir qancha yo'nalishlarda tashkil qilish mumkin. Nutqiy rivojlanishda orqada qolayotgan bolaga xayolidagi fikrni o'yinda yaratish va tatbiq qilish qiyin. Shuning uchun ishning birinchi bosqichida pedagog bolalar o'yinining faol ishtirokchisi bo'lishi kerak. Katta odamning o'yinga qiziqqanligi, o'zini tabiiy tutishi, samimiyligi muhimdir.

Bola ijodi yorqin hissiy kechinmalar bilan organik ravishda bog'liq. Biroq nutqi to'la rivojlanmagan bolalar, masalan, g'amgin yoki quvnoq ertak, she'r, nafis kuyning mazmunini to'liq idrok etmaydilar, shuning uchun undan yetarli darajada hissiy ta'sirlanmaydilar. Ularning nutqi uncha ifodali emasligi, harakatlari erkin emasligi bilan ajralib turadi, bolalar o'ziga yetarli darajada ishonmasligi ko'rinib turadi. Mana shu xususiyatlarni e'tiborga olib, tuzatish ishida artterapiya, teatrlashtirishdan foydalanish, ko'proq musiqa va logoritmikaga murojaat qilish kerak.

Shunday qilib, nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan tasavvur darajasining yetishmasligi bilan farqlanadilar; nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar uchun birmuncha faoliyatsizlik, harakatlarda sustkashlik, xayolot olamining torligi, obrazlarni fazoda joylashtirish malakasining

yetishmasligi kabi belgilar xos. Shularni e'tiborga olib, bolalar ijodiy qobiliyatlari shakllanishiga ko'ra ishning birinchi yo'nalishi — tasavvurni rivojlantirish va mazmunli-rolli o'yinlar vositasida hissiyot olamini boyitishdan iborat.

Ishning ikkinchi yo'nalishi maxsus topshiriqlardan foydalanishni ko'zda tutadi, ularni bajarish jarayonida tayyor tasavvurlarni qayta hosil qilish va shu asosda yangilarini yaratish qobiliyati rivojlantiriladi.

Uchinchi yo'nalish bolaning faol nutqini rivojlantirishdan iborat. Bolalarda ijod qilish, yangilik yaratishga intilish, fikrlash va tasavvur qilish kabi yuqori psixik jarayonlari ilk bolalikdan rivojlana boshlaydi. Aynan ularning rivojlanishiga 5–12 yoshgacha bo'lgan bolalarni tarbiyalashda katta e'tibor berish zarur. Bu davrni olimlar senzitiv, ya'ni tasavvurni fikrlash va tasavvur qilishni rivojlantirish uchun eng ma'qul davr deb hisoblaydilar.

9.5. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkuri

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, insonga atrof borliqni bilish quroli sifatida xizmat qiladi. Tafakkur inson amaliy faoliyati vujudga kelishining asosiy shartidir. Tafakkur nutq bilan chambarchas bog'liq. Nutq bo'lmasa, til vositalari bo'lmasa, inson fikr qilolmaydi. Tafakkur bo'lmasa, nutq, tilning ham bo'lishi mumkin emas. Bular o'zaro bog'liq kategoriyalardir. Tafakkur bu bilish jarayonidir. Bosh miyaning bilish jarayonlarini ta'minlaydigan markazlarining shikastlanishi tafakkur jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, nutqqa ta'sir ko'rsatmay qolmaydi.

Nutq buzilishlarini o'rganishda va tuzatishda logopediya va logopsixologiya fanlari nutq va fikrning o'zaro bog'liqligi konsepsiyasiga, bolaning rivojlanishidagi umumiy va maxsus qonuniyatlarining o'zaro munosabatlari to'g'risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamkorlikda rivojlanishi haqidagi, ichki hamda tashqi omillarning o'zaro ta'siri haqidagi, ruhiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyalarga tayanadi.

XX asrning boshlaridayoq bosh miyada «alohida nutq markazlari» mavjud va nutq funksiyasi mana shu markazlarda lokallashgan

degan nuqtayi nazar keng tarqalgan edi. Rus olimi I.P.Pavlov bu qarashga yangi yo'nalish berdi. U bosh miya qobig'ining nutq funksiyalari lokalizatsiyasi murakkab bo'lib qolmay, balki o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligini ham isbotlab berdi va uni «dinamik lokalizatsiya» deb atadi.

I.P.Pavlov ta'limotiga muvofiq nutq bosh miyaning murakkab psixofiziologik funksiyasini, uning ikkinchi signal sistemasini o'zida namoyon etadi. Bu esa signallarning signali sanaladi. Birinchi va ikkinchi signal tizimlari bir-biri bilan uzviy bog'langandir. Ikkinchi signal tizimi birinchi tizim asosida shakllanadi. Ammo keyinchalik 2-signal tizimining 1-signal tizimini tartibga soluvchi ta'siri namoyon bo'ladi. So'z alohida xususiyatning signali, umumlashtirish, mavhumlashtirish qurolidir. 1- va 2-signal tizimlari orasidagi o'zaro murakkab aloqalarni hisobga olish nutq buzilishini tuzatish, buzilgan nutq va nutqsiz funksiyalarning o'rnini bosish ustida samarali logopedik ish olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

Hozirgi vaqtda P.K.Anoxin, A.N.Leontev, A.R.Luriya va boshqa rus olimlarining olib borgan tadqiqotlariga ko'ra, har qanday psixik funksiyalarning asosi alohida markazlarda bo'lmay, balki markaziy asab sistemasining turli joylarida joylashgan murakkab funksiyalar tizimi hisoblanadi.

Nutq rivojlanishi jarayonida bilish faoliyatining oliy shakllari, tafakkur qobiliyatlari shakllanadi. So'zning ahamiyati o'z-o'zidan umumlashtiruvchi hisoblanadi va shu munosabat bilan o'zida na-faqat nutq birligini, balki tafakkur birligini ham namoyon qiladi. Ular aynan o'xshash emas va ma'lum darajada bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda paydo bo'ladi. Lekin bolaning ruhiy rivojlanishi jarayonida murakkab, sifat jihatdan yangi birlik, nutqiy tafakkur, nutqiy fikrlash faoliyati paydo bo'ladi. Nutqiy muomala qobiliyatini o'zlashtirish o'ziga xos insoniy ijtimoiy aloqalar uchun zamin hozir-laydi. U tufayli bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlari shaklla-nadi va oydinlashadi, uni aks ettirish shakllari takomillashadi.

Shuning uchun nutq buzilishiga ega bo'lgan shaxslarning tafak-kur xususiyatlari muammosi logopsixologiya va neyropsixologiya fanlarining muhim muammolaridan biridir. Nutq va tafakkurning chambarchas o'zaro bog'liqligini tushunish uchun bolalar psixik

funksiyalarining rivojlanishi va buzilishining ichki qonuniyatlarini e'tiborga olish kerak.

Rus olimlari (L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev va b.) tomonidan tafakkurning psixik strukturasi masalasi har tomonlama ishlab chiqilgan. Umum qabul qilingan tasnifga ko'ra bilish faoliyatining uchta asosiy shakli mavjud: ko'rgazmali-amaliy, ko'rgazmali-obrazli va verbal-mantiqiy (nutqiy) tafakkur.

Tafakkur sensor alaliya va afaziyaning barcha turlarida miyaning organik buzilishlari natijasida tafakkur qo'pol buzilgan bo'ladi. Boshqa nutq nuqsonlarida esa (rinolaliya, dizartriya, duduqlanish) tafakkur buzilishi logopsixologiyada chuqur o'rganilmagan va taxminimizga ko'ra bu nuqsonlarda tafakkurning qo'pol buzilishlari kuzatilmaydi, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Afaziyaning turli shakllarida bemorlarning nutq-tafakkur faoliyatida umuman olganda buzilishlar kuzatilmaydi, balki bu faoliyatning ayrim bo'yinlari buzilgan bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, miya katta yarim sharlaridagi turli bo'limlarning shikastlanishi so'zlar ma'nolarini farqlashda muammolar keltirib chiqaradi. Bunda so'zlarning analitik-sintetik tahlili buzilgan bo'ladi. Sensor alalik va sensor afazik bolada tovushlarning sintetik-analitik tahlili buzilgani sababli u o'zgalarning nutqini tushunmaydi. U ko'p bo'g'inli so'zlarni idrok eta olmaydi, fonetik jihatdan yaqin so'zlarning ma'nolarini farqlamaydi (masalan, sim-shim, uka-ukki).

V.A.Kovshikov, Y.A.Elkin motor alalik bolalarning tafakkurini tadqiq qilar ekanlar, bir nechta tushunchalarni ajratib ko'rsatdilar: bilim – borliqni bilishda o'tgan zamon tajribasi natijalarida shakllangan va fikrlash operatsiyalari uchun manba bo'lib xizmat qiladigan obrazlar, tasavvurlar, tushunchalar majmuyi; psixik faoliyatning o'z-o'zini tashkil qilishi – bilish faoliyatini va uni boshqarishni faollashtirishga qaratilgan yaxlitlik bo'lib, tafakkur jarayonining kechishi va muammoli vaziyatlarni hal qilib berishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi; shaxsiy tafakkur – muammoli vaziyatlarni hal qilishga yo'naltirilgan jarayon.

Nutq kamchiliklariga (duduqlanish, dizartriya, rinolaliya, alaliya, afaziya va h.k.) ega bolalarda bilish jarayonining kamchiliklari tafakkur jarayoni va natijalariga va o'z-o'zini boshqarishning buzi-

lishiga ko'proq ta'sir qiladi. Ularda atrofdagilar to'g'risida yetarli hajmda ma'lumotlar bo'lmaydi, borliqdagi predmetlarning xususiyatlari va funksiyalari haqida noto'g'ri tasavvurlar, hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini o'rnatishda qiyinchiliklar tug'iladi. O'z-o'zini boshqarishning buzilishiga hissiyot-iroda doirasidagi kamchiliklar sabab bo'ladi. Bolalar, odatda, o'zlariga taklif qilingan muammoli vaziyatga uzoq vaqt kirisholmaydilar, yoki, aksincha, vazifani bajarishga juda tez kirishib ketadilar, lekin bunda vazifaning hamma jihatlarini hisobga olmasliklari tufayli, uni to'g'ri baholay olmaydilar va to'liq bajarishga qiynaladilar. Ayrim bolalar esa vazifani bajarishga tez kirishadilar, lekin unga qiziqishlari xuddi shunday tez yo'qoladi, hatto vazifa to'g'ri bajarilayotgan bo'lsa ham, ishni tugatmasdan uni bajarishdan bosh tortadilar. Bunda nutqi rivojlanmagan bolalar fikrlash operatsiyalarini to'g'ri bajara oladilar, lekin ularda psixik jarayonlarning (xotira, diqqat, tasavvur, tafakkur) rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgani sababli fikrlash operatsiyalari to'liq amalga oshmay qoladi (V.A. Kovshikov, Y.A. Elkin).

Nutqi rivojlanmagan bolalarda aniq obrazli fikrlashning kamchiliklari faqat ikkilamchi emas, balki birlamchi xarakterga ega bo'lishi mumkin. Bu holat bosh miya po'stlog'i tepa qismining jarohatlanganligi bilan bog'liq. Og'ir nutq nuqsoniga ega bolalarda ko'pchilik hollarda nutqning rivojlanmaganligi aniq-obrazli fikrlashning shakllanmaganligi bilan bog'liq bo'ladi (T.A. Fotekova, 1993). Nutqi to'liq rivojlanmagan ko'pchilik bolalar uchun fikrlashning sustligi xos bo'ladi (L.I. Belyakova, Y.F. Gargusha, O.N. Usanova, E.L. Figeredo).

Muammoli bolalar tafakkur rivojlanishi orqada qolish bilan tasniflanadi. A.R. Luriya, L.S. Svetkova, I.T. Vlasenko o'z tadqiqotlarida so'z-mantiq tafakkur buzilishi mexanizmlari muammolarini yoritib berdilar.

So'z-mantiq tafakkur nutq vositasida amalga oshiriladi. A.N. Leontev ta'kidlashicha, so'z ma'nolarida predmet dunyosi, xossalari, aloqalari, munosabatlari o'zining moddiy ifodasini topgan. L.S. Vygotskiy bu bog'liqlikni tafakkur va nutq birligi deb atagan. Tushuncha tafakkur jarayonida vujudga keladi.

Tafakkur qanchalik to'liq rivojlangan bo'lsa, so'z ma'nosi shunchalik to'liq bo'ladi, ya'ni tafakkur jarayonlari, so'z ma'nosi ortida turib, shaxsiy fikrlash darajasida kechadigan analiz va sintez bilan bog'langan.

Nutq bilan tafakkurning birligini I.P. Pavlovning ikkinchi signal sistemasi to'g'risidagi ta'limoti ham isbotlab beradi, ikkinchi signal sistemasi birinchi signal sistemasi bilan bir-biriga ta'sir qilgan holda nutqning ham, tafakkurning ham nerv-fiziologik negizini tashkil qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalar idrok xususiyatlarini yoriting.
2. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning diqqat xususiyatlarini ochib bering.
3. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning xotira xususiyatlarini yoriting.
4. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tasavvur xususiyatlarini ochib bering.
5. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkur xususiyatlarini yoriting.

X bob. NUTQ KAMCHILIGI BO‘LGAN BOLALARNING SHAXSI VA SHAXSLARARO MUNOSABAT XUSUSIYATLARI

Nutq nuqsoniga ega guruh bolalarida hissiy-iroda sohalarida ham kamchiliklar kuzatiladi. Ayrim bolalarda hissiy-iroda sohasi-dagi kamchiliklar ruhiyatini yemirishi, tormozlanganlik, qo‘rquv, kayfiyatining tez-tez o‘zgarishi kabi holatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lsa, ayrim bolalarda qo‘zg‘aluvchanlikning ortishi, asabiylashganlik, yig‘loqilik, atrofdagi odamlarga va muhitga nisbatan norozilik xislatlarida aks etishiga sabab bo‘lsa, yana boshqa bolalarda atrofdagi voqea-hodisalarga va odamlarga befarqlik, irodasizlik kabi xislatlar keltirib chiqaradi.

O‘qish va yozuv kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari

Ko‘pchilik tadqiqot ishlari o‘qish va yozuv kamchiliklarini xulq-atvor me‘yorlari bilan bog‘liqligini alohida qayd etadi. Bu bog‘liqlik bola maktabga borgandan so‘ng, ya‘ni o‘zi bajara olmaydigan vazifalarga duch kelgandan so‘ng ko‘zga tashlanadi.

Ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalarning ish qobiliyatining sustligi, diqqatining tarqoqligi, darsda o‘tira olmasligidan shikoyat qiladilar.

Bir necha farzandlari bor ota-onalar o‘qish va yozuv kamchiliklariga ega farzandlarini boshqalari bilan solishtirib, ularga nisbatan qo‘pol munosabatlarda bo‘ladilar, bu esa bolalarning xarakteriga, shaxs sifatlarining shakllanish jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, ko‘p ota-onalar farzandlarining bunday kamchiliklarida o‘qituvchilarni ayblaydilar. O‘qituvchilar esa o‘z navbatida bunday kamchiliklarni ota-onalarning bolalar o‘qishlariga nisbatan befarqligi, deb qaraydilar. Natijada bola sekin-asta maktab talablarini bajarmaydi, darslarni qoldiradi va unda salbiy xulq-atvor shakllanadi. Agar o‘qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalar maktabni tashlab ketsalar, ular o‘z xohishlari bilan hech qachon kitob mutolaa qilmaydilar va bu holat salbiy oqibatlar keltirib chiqaradi. Agar o‘quvchi kitob kam o‘qisa, uning rivojlanishi, lug‘atining boyishi va mustaqil ta‘lim olish imkoniyatlari cheklanadi.

O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bolalarning ichki nutqi sust rivojlanadi, bu esa tafakkurning zaiflashuviga olib keladi.

Dizartriyada shaxs xususiyatlari

Nuqsonli bolalar o'z nuqsonini qay darajada ekanligini anglash va uning oqibatlarini ko'ra bilish darajasiga ko'ra intellekti va motorikasi qo'pol buzilgan bo'lib, ular ko'proq o'z nuqsonlaridan iztirob chekadilar.

Bolani o'z kuchiga ishonchsizlik tuyg'usi va xulqidagi o'zgarishlar ko'proq darajada bolaning nuqsoniga nisbatan ota-onalar va yaqin qarindoshlarining munosabatlariga bog'liq. Ayrim oilalarda ota-onalar bolaning o'rniga barcha ishlarni bajarishga harakat qiladilar va buning oqibatida bolalarda tobelik, boqimandalik hislari uyg'onadi va ular o'zgaralar yordamisiz biror-bir faoliyatni bajara olmaydilar. Bolalar serebral falaji asoratidagi dizartrik bola o'z faoliyatiga ehtiyoj sezmaydi, atrofdagilarga nisbatan negativ munosabatlarda bo'ladilar.

Bolalar serebral falajida nutq nuqsonlarining darajalariga ko'ra sog'lom tengdoshlari bilan muloqotga kirishishlari mumkin. Bunday bolalarni sog'lom aka-ukalari bilan muloqoti ularga ijobiy ta'sir etadi. Bolalar serebral falaji nuqsoniga ega bolalar kamsitish, masxara qilishlarga juda ta'sirchan bo'ladilar va bularning barchasi ularning xulqlarida salbiy aks etishi mumkin.

Nutqning temp-ritm buzilishlarida shaxs xususiyatlari

Odatda, kichik yoshdagi bolalar, agar duduqlanish juda kuchli bo'lmasa o'z nuqsonlarini anglab yetmaydilar. Agar duduqlanish biror-bir hodisadan so'ng to'satdan yuz bersa, bunda bola bu holat va nutq muloqotining chegaralanishida qattiq ta'sirlanadi, tushkunlikka tushadi. Ayrim hollarda bola umuman gapirmay qo'yadi, bu holatni biz mutizm deb ataymiz.

Duduqlanuvchi bola o'z nuqsonini anglagach, odamlardan uzoqlashishga va nutqiy muloqotdan qochishga harakat qiladi.

Duduqlanishni davolashda va ikkilamchi nuqsonni oldini olishda atrofdagilarning munosabati katta rol o'ynaydi. Ota-onalar o'z farzandlariga duduqlanishi paydo bo'lish davrida yordam berishlari

va uning nutqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etish hollari kamdan kam kuzatiladi. Ko'p hollarda ota-onalar duduqlanuvchi farzandlariga haddan ziyot e'tiborli bo'ladilar. Ayrim ota-onalar duduqlanishga katta ahamiyat bermay, boladagi nutq nuqsonini o'zlari bartaraf etishga harakat qiladilar, masalan: bolaning nutqdagi xatolarini bolaga ko'rsatadilar va to'g'ri nutqqa taqlid qilishni talab etadilar. Buning oqibatida bola o'z nuqsonini yanada chuqurroq anglab yetadi. Bola to'g'ri gapirishga harakat qiladi. Bola qanchalik qiynalsa duduqlanish shuncha kuchayadi, ya'ni duduqlanuvchi bola o'zining diqqatini nutqiy nuqsonga qanchalik qaratsa, uning nutqi shunchalik yomonlashib boraveradi.

Ayrim ota-onalar duduqlanuvchi farzandlari bilan xuddi bemorlarga bo'lgandek munosabatda bo'ladilar. Ular bolalarning ko'ngillariga qaraydilar, hamdardlik bildiradilar. Bunda bolalarda nevroz rivojlanishi mumkin. Bola duduqlanish unga turli imtiyozliklar yaratganini tushunadi va bundan «unumli» foydalanishga harakat qiladi. Ayrim bolalar o'z nuqsonlarini turli harakatlar bilan berkitishga harakat qiladilar, lekin bu usul bilan duduqlanishni bartaraf etish mumkin emas. Hatto nutqiy nuqson belgilari juda kam darajada namoyon bo'lsa ham, ikkilamchi ruhiy buzilishlar ortib boradi.

Duduqlanishni keltirib chiqaruvchi asosiy asab buzilishi — bu logofobiya.

Logofobiya — nutqdan, muloqotdan qo'rqish ma'nosini bildiradi.

Logofobiya duduqlanuvchining barcha shaxs xususiyatlariga ta'sir etadi va uning xulqida salbiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Logofobiya bola ruhiyatiga shu darajada qattiq ta'sir etadiki, hatto duduqlanish bartaraf etilgandan keyin ham o'z asoratlarini qoldiradi.

Bolalar jamoasida duduqlanuvchi bola tengdoshlari tomonidan masxara qilinadi, hatto ular bunday bolalarni o'z jamoalaridan chetga chiqarib qo'yadilar. Duduqlanuvchi bolalar maktabga kelgach, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar va majburiyatlarining ortib borishiga moslasha olmaydilar. Ayrim hollarda maktab ma'muriyati, o'qituvchilarning qattiqqo'lligi tufayli duduqlanishi kuchayishi yoki «yashirincha» duduqlanish yaqqol namoyon bo'lishi mumkin.

Duduqlanuvchi bolani o'qituvchilar har doim ham tushunmaydi va ularni bir-biriga bo'lgan munosabatlari duduqlanuvchi

va sinfdoshlari o'rtasidagi munosabatga ham salbiy ta'sir etadi. Duduqlanuvchi bunday vaziyatlarga turlicha munosabatda bo'ladi. Ko'p hollarda bolalar bilimlari nuqsonlari hisobiga noto'g'ri baholanishi va shunga o'xshash sabablarga ko'ra o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yo'qotadilar. Ular maktabni yomon ko'rib qoladilar, darslardan qochadilar, sinf jamoa hayotidan chetda qoladilar, xulqida qo'shimcha kamchiliklar kuzatiladi.

Ayrim duduqlanuvchi o'quvchilar darsni bilmasliklarini nutqiy nuqsondan foydalanib berkitishga harakat qiladilar. Agar o'qituvchi bolaning nutqiy nuqsoni haqida tushunchaga ega bo'lsa, unda bolaning javobini shoshirmasdan kutib turadi, duduqlanish holati o'tib ketgandan so'ng u o'z fikrini bayon etishga va bilimlarini namoyon etishga imkon yaratadi. Agar o'qituvchi bola nuqsoni haqida tushunchaga ega bo'lmasa, uning jim turishini darsni tayyorlamaganlik deb tushunib, uni noto'g'ri baholashi mumkin. Duduqlanuvchi bolalarda kek saqlash, xafsirash, gumonsirash, o'zgarishlarga ishonchsizlik kabi shaxs xususiyatlarining kamchiliklari va psixomotorikasida buzilishlar kuzatiladi. Duduqlanishning giperstenik shaklidagi bolalarda asabiylashishning kuchayishi, qo'zg'aluvchanlik, xulqida giperfaollik kuzatiladi.

Nevrosteniyaning gipostenik shakliga ega duduqlanuvchi bolalar umumiy holsizlik, ish qobiliyatining sustlashganligi va logofobiyalar bilan ta'riflanadi.

Taxilaliyali bolalar odatda o'z nuqsonlarini anglab yetadilar, shuningdek, ularning nutqiy muloqotga kirishish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bunday bolalarga atrofdagilarning munosabatlari turlichadir. Ko'p hollarda taxilaliyali bolalar o'z tengdoshlari tomonidan kamsitiladilar. Ota-onalarning haddan tashqari qayg'urishlari va nutqiga nisbatan talablari taxilaliyali bolalarning xulqidagi salbiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin.

Sistemali nutq buzilishlarida shaxs xususiyatlari

Alaliya – homiladorlik yoki bola nutqining ilk rivojlanish davrida bosh miya po'stlog'idagi nutq zonalarining organik jarohatlanishi natijasida nutqning rivojlanmay qolishi. Ko'p hollarda alalik bolalarni og'ir ko'rinishlarida aqli zaiflik, zaif eshituvchi va ruhiy rivojla-

nishi orqada qolgan bolalar bilan almashtiriladi, bunda nutq bilan birgalikda idrok etish, diqqat, xotira bilan bir qatorda shaxslararo munosabatlar ham buziladi. Agar alalik bola o'zgalarning nutqini tushuna olsa, atrofdagilar esa bolaning nima demoqchi bo'lganini tushunmaydilar va bola asabiylashadi. Alalik bolada nutqiy muloqotga ehtiyoj kuchli bo'ladi. Motor alalik bolalar xulq-atvori o'ziga xos xususiyatlarga ega: atrofdagilar bilan muloqotga kirishishda yaqqol namoyon bo'lgan qiyinchiliklar, notanish vaziyatlarda tez-tez tormozlanishlar, yangiliklarga salbiy munosabatda bo'lishi; shuningdek, bola xarakterida patologik sifatlar, asabiylik, tez xafa bo'lishi; nutqiy faollikning yetarli darajada emasligi kuzatiladi.

Bunday bolalar ko'pchilik hollarda qiziquvchan, o'quvli, ishchan bo'ladilar. Biroq kichik yoshdagi bolalarda va yangi sharoitga (bolalar bog'chasi, maktab) moslashishning dastlabki bosqichlarida xulq-atvori va hissiy-iroda sohalarida qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin (bir joyda o'tira olmaslik, qo'zg'aluvchanlik yoki uyatchanlik, tez tormozlanish, qaysarlik).

Sensor alalik bolalar bilan muloqotga kirishish qiyin bo'ladi. Xulq-atvori o'ziga xos xususiyatga ega (qo'zg'aluvchan, xarakterlari impulsiv, o'z nutqiga tanqidiy qaramaydilar, bilish darajasi past bo'ladi). Sensor alalik bolalar hikoyani uzoq vaqt tinglay olmaydilar, mazmunini tushunmaganliklari uchun qiziqishlar tez yo'qoladi va tinglamay qo'yadilar. Bunday bolalarda o'zgalarning nutqini tushunishning yo'qligi natijasida o'zlarining nutqlari ham buziladi. Sensor alalik bolalarda uzoq xavotirlanish, baqirish, sakrash, o'ynash, taqillatish hollari kuzatiladi. Ayrim vaqtlarda bunday bolalar muloyim, uyatchan, o'z kamchiliklarini ma'lum darajada angelaydilar. Sensor alalik bolalar muloqot uchun imo-ishoralar, jestlar, mimikalardan foydalanadilar. Bunday bolalar musiqa tinglashni yoqtiradilar, musiqa ularni tinchlantiradi, baland ohangda gapirishlar, baqiriqlar bolaga salbiy ta'sir qiladi.

Sensor alalik bolalarning ayrimlari maxsus og'ir nutq kamchiliklariga ega bolalar uchun mo'ljallangan ta'lim muassasalarida ta'lim oladilar.

Afaziya — markaziy, organik turga oid og'ir nutq buzilishlari qatoriga kiradi. Bu ko'proq katta yoshdagi kishilardagi bosh miya qon aylanishining buzilishi oqibatida paydo bo'ladi.

Afaziya (grekcha a – inkor etish, prasis – nutq) bosh miyaning jarohatlanishi natijasida ro‘y beradigan nutqning to‘la yoki qisman yo‘qolishi. Afaziyaning kelib chiqish sabablari yana bosh miyada qon quyulishi, travmalar, shishlar, bosh miya infeksiyon kasalliklari bo‘lishi mumkin.

Bolalarda afaziya kamdan kam uchraydi. U ham bo‘lsa, bosh miya travmalari, shishlar yoki infeksiyon kasalliklar asoratida paydo bo‘ladi.

A.A. Luriya ko‘rsatishicha, bunday bemorlarda psixik faoliyat va bilish jarayonlari buzilgan bo‘ladi. O‘zgaralar nutqini tushunish, og‘zaki va yozma nutq kamchiliklari, hisob malakalari buzilishi kuzatiladi. Insult yoki travmadan so‘ng boshlang‘ich davrda bemorlarning nutqi umuman tushunarsiz bo‘ladi, chunki ularning nutqi ayrim tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘z birikmalaridan iborat bo‘ladi. Bu kamchiliklar asosan ikki yo‘nalish, tibbiy yoki logopedik yo‘nalishlar asosida bartaraf etiladi. Lekin shu bilan birga bu davrda psixologning faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Chunki bu bemor o‘z nutqidan uyaladi, tushkunlikka tushadi, diqqat, xotira, mantiqiy tafakkur, idrok, hissiy iroda sohalarida kamchiliklar kuzatiladi. Psixolog bunday bemorlar bilan ko‘proq suhbatlar o‘tkazishi, treninglar, rag‘batlantirish ishlari olib borishi kerak.

Savol va topshiriqlar

1. O‘qish va yozuv kamchiliklariga ega bo‘lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari.
2. Dizartriyada shaxs xususiyatlari.
3. Nutqning temp-ritm buzilishlarida shaxs xususiyatlari.
4. Sistemali nutq buzilishlarida shaxs xususiyatlari.

Tayanch so‘zlar

Gipersteniya – asabiylashuvning ortishi, qo‘zg‘aluvchanlik, xulqning giperfaolligi.

Giposteniya – umumiy holsizlik tashabbuskorlikning pasayishi, uyatchanlik, ish qobiliyatining sustligi.

Logofobiya – nutqdan, muloqotdan qo‘rqish.

XI bob. NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR MOTORIKASI

Olimlarning fikricha, nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning lokomotor funksiyalarining rivojlanishini me'yorga qiyoslaganda ilk rivojlanishning kechikishi bilan ham belgilanadi: bolalar me'yordan kechroq yoshda yurishni boshlaydilar, mayda qo'l motorikasi, artikulatsion motorika uzoq vaqt yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bolalar nutqining rivojlanish darajasi to'g'ridan to'g'ri qo'lning mayda motorikasiga bog'liq (M.M. Kolsova). Ko'pchilik bolalar nutqi ustida o'tkazilgan tajriba va tadqiqotlar asosida quyidagi qonuniyat aniqlandi: agar barmoqlar harakatining rivojlanishi yoshga mos kelsa, unda nutq rivojlanishi me'yor darajasida bo'ladi, agar barmoqlar harakati oqsasa, unda nutq rivojlanishi ham sust rivojlanadi (L.F. Fomina). Y.I. Isenina tadqiqotlari nutq kamchiligiga ega bolalar nutqi qo'lning nozik harakatlari ta'sirida rivojlanishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Elektr-fiziologik tadqiqotlar natijalari ham qo'l va nutq funksiyalarining bevosita aloqada ekanini tasdiqlaydi. M.M. Kolsovaning xulosasiga ko'ra «nutq doiralari morfoloqik va funksional shakllanishi qo'l harakatidan keluvchi kinestetik impulslarning ta'sirida paydo bo'ladi». Uning alohida ta'kidlashicha, nutq faqat bolalik yoshidagina qo'l muskullarining impulsi vositasida rivojlanadi. Shundan kelib chiqib, nutqni rivojlantirishda mana shu holga katta ahamiyat berish kerak. Mayda qo'l motorikasi yordamida bolalar nutqini rivojlantirish metodikalari M.M. Kolsova, L.V. Antakova-Fomina va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi.

M.M. Kolsovaning fikricha, «bosh miya po'stlog'ining ish qobiliyatini oshirish vositalari»dan biri tizimli mashqlar asosida barmoqlar harakati mashg'ulotlarini o'tkazish nutqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu fikrni juda ko'p eksperimental tadqiqotlarning natijalari ham tasdiqlaydi.

Logopedik amaliyot nutqning rivojlanishiga harakatning samarali ta'sirini ko'rsatadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida korreksion-tarbiyaviy ishlar tizimida nutq buzilgan bolalar uchun ko'proq

e'tibor qo'lning nozik barmoqlari harakatini shakllantirishga qaratiladi. Ma'lumki, barmoqlarning harakatini takomillashtirish bo'yicha maqsadli yo'naltirilgan ishlar qo'lni xat yozishga tayyorlashda ham juda foydali. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning mayda motorikasini rivojlantirishni tizimli o'tkazib, har kuni 3—5 daqiqa vaqt sarflash kerak. Shu maqsadda turli xil o'yin va mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunday mashqlar maxsus mashg'ulotlardagina emas, balki sayrga chiqqanda, o'yinlar o'ynash paytida o'tkazilishi mumkin.

Agar bola harakatlarni mustaqil bajarishga qiynalsa, unda alohida darslarga mashqlar kiritish tavsiya etiladi, bola faol harakatlanmaydigan barmoqlar harakatini kattalar yordamida bajaradi. Kelgusida mashg'ulotlar natijasida barmoqlar harakati takomillashib boradi va bola ularni faol bajaradi.

Qo'l barmoqlarining nozik harakatlanishini takomillashtirish uchun kichik folklordan foydalanish katta samara beradi. Bu o'yinlar qulay jo'shqin sharoit yaratadi, barmoqlar mashqini yaxshi ta'minlaydi, eshitish qobiliyatini rivojlantirishga va she'rlar mazmunini tushunishga yordam beradi, nutq ritmini ilib olishga o'rgatadi. Bundan tashqari, hajviy xalq she'rlari dialog asosida qurilgani uchun so'zlashuv nutqini o'rgatuvchi ajoyib manba hisoblanadi. Bu namunalar maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha rivojlanish bosqichlari uchun qo'l keladi. Masalan, havzak-havzaklar, ovutmacholqlar va erkalamalardan bolaning go'daklik davridan to 3—4 yoshigacha foydalanish mumkin. Xalq og'zaki ijodida o'z ifodasini topgan xalq pedagogikasi bolaning mayda va yirik motorikasini rivojlantirishda, uning ham jismoniy, ham hissiy-irodaviy rivojlanishini ta'minlaydigan ajoyib she'riy namunalarni yaratgan. Bola o'tiradigan bo'lganda, uni tizzaga o'tqazib, barmoq sanash mashqi bajarilgan. Bunda bolaning qo'lchasini ushlab turib, «Boshmaldoq, Qoramaldoq, O'rta terak, Hojimirak, Kichkina bo'bak», deb, bosh barmoqdan boshlab barmoqlar bir-bir bukiladi. Sanoq tugaganini bildirish uchun, oxirgi so'z yuqoriroq ohangda shaxdam aytiladi va bolaning mushtchasi bilan ko'kraklari ohista qitiqlanadi. Bu mashqni rivojlantiruvchi desa ham bo'ladi. Chunki bola mashq bir necha marta takrorlangani-

dan keyin, u nima bilan tugashini va ko'kraklari qitiqlanishini biladi va oldindan qiqirlab kuladi. Oldindan sezib zavqlanish hissi go'dakning intellektual rivoji uchun juda muhimdir. Shu yo'l bilan u o'z xotirasini mashq qiladi va voqealar rivojini bashorat qilishga o'rganadi. Bolaning barmoqchalarini alohida-alohida o'ynab turish (ohista silash, tortib qo'yish, uqalash va h.k.) kerak. Barmoqlarini boshqara olish malakasi bolaning intellektual rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Oddiygina barmoqlarni bukish va to'g'rilash mashqi bolada shu malakani shakllantirish imkonini beradi.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda turli psixik funksiyalarni o'rganish jarayonida olingan ma'lumotlarning tahlili ularning o'ziga xosligini ko'rsatadi (L.I. Belyakova, Y.F. Garkusha, O.N. Usanova, E.L. Figeredo, T.B. Filicheva, G.V. Chirkina).

Savol va topshiriqlar

1. M.M. Kolsova, Y.I. Isenina, L.F. Fomina olib borgan ilmiy-tadqiqotlarini tavsiflab bering.
2. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalarning mayda qo'l motorikasi xususiyatlarini ochib bering.
3. Qo'l barmoqlarining nozik harakatlanishini takomillashtirish yo'llari.

IV bo'lim. TIFLOPSIXOLOGIYA

XII bob. TIFLOPSIXOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI

12.1. Tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxsni, uning faolligi, ishchanlik qobiliyatini shakllantirish juda murakkab jarayon bo'lib, hosil bo'ladigan individual psixologik tizim turi, shakli va sifatini belgilaydigan ham ichki, ham tashqi xarakterdagi katta miqdordagi turlicha ta'sirlar, ularning murakkab hamkorligiga bog'liq. Uning shakllanishiga ta'sir etish uchun ko'rish buzilganda yuzaga keladigan psixik tuzilmalarning xususiyatlarini hisobga olish zarur. Psixik jarayonlar qanchalik ko'p va nozik farqlansa (differentsiatsiyalansa) va ularning kechish tushunarli bo'lsa, bola ma'naviyati va psixik rivojlanishi, shuningdek, uning xulqi darajasi shuncha yuqori bo'ladi, qolaversa, shaxsning shakllanishi tashqi olam ta'siri bolaning ichki holatiga adekvatligiga bog'liq. Agar bu o'rab turgan olam psixik rivojlanish va qobiliyatlarni kengaytirish shartlariga muvofiq kelmasa, bolaning genetik strukturasi berilgan xossalari rivojlana, namoyon bo'la va kengaya olmaydi.

Hech shubha yo'qki, keyingi yillarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining, bolaning bilish sohasi va shaxsi shakllanishiga ta'sir o'tkazadigan, ichki biologik, tug'ma va nasliy sharoitlari o'zgardi. Biroq ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda aksele ratsiya va ko'rish analizatorining konstitutsional xususiyatlar fonida psixik rivojlanish xususiyatlarining yuzaga kelishi ko'p jihatdan mamlakatdagi tarixiy va ijtimoiy vaziyat hamda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ta'lim-tarbiyasi, rehabilitatsiya tizimi bilan belgilanadi.

Bola psixikasi va u yashayotgan olamni, uning ko'p qirrali va rang-barang bog'liqliklari va ta'sirlari bilan tushunish, tanib olish va to'la baholash juda qiyin. Pedagogning kasbi aynan shundan iboratki, u rivojlanishning har bir aylanasi tarbiyalanuvchini o'zi

uchun yangidan kashf qiladi, unga ijobiy ta'sir muammolariga, ayniqsa muvaffaqiyatsizlik vaziyatida duch keladi. O'qituvchi hamma vaqt go'yo uning bola xulqining asoslari haqidagi ratsional va faqat qisman to'g'ri bo'lgan tasavvurlari asosiga qurilgan sa'y-harakatlari va ta'sir metodlari bir vaziyatda muvaffaqiyat keltirmaydigan va boshqasida bola bilan kontakt (aloqa)ni topishga yordam beradigan chegarada turadi.

Maxsus psixologiyaning ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning psixik rivojlanishini o'rganadigan bo'limi «tiflopsixologiya» nomi grekcha «tiphlos» – ko'r so'zidan olingan va mazmuni dastlab faqat ko'zi ojizlar psixologiyasidan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda tiflopsixologiyaning o'rganish obyekti nafaqat ko'zi ojizlar, balki ko'rishda chuqur nuqsonlari bo'lgan shaxslar hamdir.

Tiflopsixologiya ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar rivojlanishining qonuniyat va xususiyatlarini, ko'rish analizatori faoliyatining buzilishi, bu nuqsonning psixik rivojlanishga ta'siri bilan bog'liq bo'lgan axborot kamomadini to'ldirishni kompensator jarayonlarning shakllanishi; ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar rivojlanishining yoshga oid jihatlarini o'rganadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning izolatsiyalangan faoliyat sohalari tobora qisqarib borayotgani va zamonaviy jamiyatda faoliyatning turli shakllari o'rtasida aloqalarning kengayishi, ularning dunyo hamjamiyati faollik tizimiga kiritilishi tiflopsixologiya predmetini kengaytirishni, alohida shaxs va uning xususiyatlarini o'rganish bilan cheklanmasdan, uning oiladagi aloqalari va o'zaro munosabatlari, jamiyat, muayyan shaxslar va tashkilotlar tomonidan ko'zi ojizlarga munosabatni ham kiritishni talab etmoqda. Tiflopsixologiyaning fan sifatida ajralishi va rivojlanishi ko'zi ojizlarni maxsus maktablarda o'qitishni tashkil etish bilan bog'liq. Birinchi maktab Parijda Valentin Gayui tomonidan 1784-yilda ochilgan. Ko'zi ojizlar psixologiyasi tahlili esa birinchi marta fransuz psixologiyasida moddiyunchilik (materialistik) oqimining asoschisi Deni Didroning «Ko'radiganlarga nasihat tarzidagi ko'zi ojizlar haqida xat» asarida amalga oshirilgan.

Ilmiy psixologiyaning shakllanishi T.Geller, M.Kuns, K.Byurklen, P.Villey, A.A.Krogius, V.S.Sverlov, M.I.Zemsova,

Y.A. Kulagin, A.G. Litvak, N. Barrag, T. Cutsforth, M. Gottesman, Y. Hatwell, M. Tobin va boshqalarning ishlari bilan bog'liq. Biroq qator mualliflar, ayniqsa ko'zi ojizlar (P. Villey, F.I. Shoyev), ham ko'radiganlar uchun xos bo'lgan umumiy psixologik qonuniyatlarga asoslangan holda, tiflopsixologiya mavjudligini inkor etib keladi. Keyingi vaqtda pedagogika va psixologiya, sotsiologiya va ko'zi ojizlar hayoti, faoliyatini o'rganishni maqsad qilgan boshqa fanlarni birlashtirgan yangi «tiflogiya» tushunchasi iste'molga kiritildi.

Dunyo adabiyotlarida hanuzgacha ko'zi ojizlar psixologiyasi me'yorda ko'radiganlar rivojlanishiga qanchalik yaqinligi, yoki qanchalik o'ziga xosligiga nisbatan ikki xil nuqtayi nazar mavjud, bu esa psixik rivojlanishning o'z standartini yaratishni talab etadiki, har bir ko'zi ojizning rivojlanishi unga tenglashtirilgan.

Bu ikki nuqtayi nazar butunlay ko'r yoki zaif ko'ruvchi bolaga yondashuv bilan farq qiladi. Oxirgisi psixik rivojlanishda boshlang'ich deb ko'rish nuqsonini, uning funksional ahamiyati va rivojlanishiga ta'sirini tan oladi, bu muqarrar ravishda bolalarda polisensorik qayta qurish imkoniyatlarini kamsitishga olib keladi. Bu olimlar ongli yoki anglashilmagan holda rivojlanishning o'ziga xos, odatda, ko'radiganlarning rivojlanish darajasidan past darajasi psixologik standart nuqtayi nazarini yoqlaydi (Xayes, 1953; Tillmen, 1967; Uilz, 1970 va b.).

Ko'zi ojiz bolalarning psixik rivojlanish dinamikasini kuzatgan olimlarning birinchi guruhi (T. Katsfors, 1951; Gomulitskiy, 1961; Maksfild, 1936; V. Uilyams, 1968; M. Tobin, 1972; V.M. Kogan, A.G. Litvak, M.I. Zemsova, L.I. Solnseva) ishonch hosil qildiki, ko'zi ojiz va ko'radigan bolalarning ilk yoshdagi umumiy psixik maqomi o'rtasidagi sezilarli tafovutlar ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi yaxshilanishi natijasida asta-sekin barham topadi. M. Tobin (1972), masalan, har bir yosh guruhida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eng yaxshisi o'zining psixik rivojlanishida ko'radigan bolalardan o'zib ketishi mumkinligini ko'rsatib o'tgan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan va ko'radigan bolalarning rivojlanishini yaqinlashtirish pozitsiyasi bugungi kunga kelib mustahkamlandi, bunga ko'rish nuqsonini kompensatsiyalash va korreksiyalash nazariyasi va amaliyoti ko'maklashdi.

A.I. Skrebitskiy (1903), A.M. Shcherbina (1916) ko'zi ojizlarining bilish faoliyatida o'ziga xosliklar mavjudligini ta'kidlagan. Ko'zi ojizlar psixikasida o'ziga xosliklarni ortiqcha baholash oqibatida F. Sex (1913) alohida, ko'radiganlarnikidan farq qiladigan «ko'zi ojizlar tilini» yaratish zarurligi haqidagi fikrga keldi, K. Byurklen esa (1924) ko'zi ojizlarning izolatsiyalangan hayoti natijasida odamlarning alohida tipi yuzaga kelishi haqida xulosa chiqargan.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda psixik jarayonlar xususiyatlari turg'undir. L.S. Vigotskiyning anomal rivojlanishning mu-rakkab strukturasi haqidagi g'oyasi Rossiya defektologiya va tiflopedagogikasida, jumladan, R.M. Boskis (1963); I.M. Solovyov (1956); M.I. Zemsova (1956); V.S. Sverlov (1949) va boshqalarning ishlarida rivojlantirildi. Bu ko'p jihatdan keyingi yillarda butun dunyoda kuzatilayotgan ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tarkibining o'zgarishi bilan bog'liq.

Inson hayoti, faoliyatida ko'rish qobiliyatining ahamiyati va ko'ruvdagi buzilishlar oqibatlari

Ko'zi ojiz tushunchasi bugungi kunda uning asosida pedagogik jarayon olib boriladigan analizatorlarning yetakchi tizimini aniqlash nuqtayi nazaridan olib qaraladi. *Ko'zi ojiz* tushunchasi shu sababli bolalarning ikki toifasini zaruratga ko'ra o'z ichiga oladi: «0» vizusli va yorug'likni his qiladigan bolalar, shuningdek, yaxshi ko'radigan ko'zi bilan korreksiya yordamida 0,04 gacha qoldiqli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar, ularni o'qitish Brayl tizimi asosida paypaslash vositasida idrok etishga mo'ljallangan darsliklar bo'yicha olib boriladi.

Mamlakatimiz va xorij maktablarida o'qiydigan ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar tahlili ko'rsatadiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tarkibining o'zgarishi bir necha tendensiya va yo'nalishga ega.

L.I. Kirillova tomonidan Rossiya maxsus maktablari kontingenti saralab o'rganilganda qoldiqli ko'rishga (90% gacha) ega bolalar soni sezilarli darajada ortgani aniqlandi. Ko'zi ojizlar maktablarining 3–4% o'quvchisi total ko'rlikga, 7% — yorug'likni his qilishga, 10% — 0,06 dan yuqori vizusga ega.

Ikkinchi tendensiya bolalarning murakkab kompleks ko'rish kasalliklari ortishi sanaladi. Faqat ayrim bolalargina ko'rish funksiyalarining birlamchi buzilishi bilan tavsiflanadigan ko'rish nuqsoniga ega. Ko'zi o'qizlar maktablarida o'qiydigan bolalarni tahlil qilish materiallari ko'rsatdiki, o'rganilgan bolalarning ko'pchiligida ikki-uchtadan turli ko'z kasalligi kuzatilgan, bu mazkur toifadagi bolalarning soni yanada ortganidan dalolat beradi.

Uchinchi tendensiya ko'z kasalligiga hamroh qo'shimcha nuqsonlarning, jumladan, markaziy asab tizimi faoliyatining buzilishi bilan bog'liq, qo'shimcha nuqsonlarning ko'payishidan iborat. Ko'zi o'qizlar uchun maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilarining 77,6 % ida kasallik BTSP asoratlari (hodisalar qoldig'i) bilan, psixik rivojlanishning orqada qolishi, debillik darajasidagi oligofreniya, MAT organik zararlanish asoratlari, ensefalopatiya, nevrozga monand holatlari, gidrotsefaliya va nutq, harakat sohasi va boshqalar birlamchi buzilishlari bilan kechadi.

Bu ma'lumotlar R. Froydenrayx va R. Pastillening (R. Freudenberg, R. Pastille. *Populationsentwicklung in Blindenschulen. «Die Sonderschule»*, No 1, 1990. 107–113 b.) ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarda populyatsiya o'zgarishlari tahliliga bag'ishlangan materiallari bilan o'xshash.

Mualliflar retrolental fibroplaziyali bolalar sonining ortganini alohida ta'kidlaydi (AQSH da 1954 – 69%, Angliyada 1954 – 51,2%, Germaniyada 1948 – 22,3%). U, odatda, kislorodga ortiqcha to'yinish va chala tug'ilish kombinatsiyasi natijasi bo'lib, muddatidan ancha oldin tug'ilgan bolalarda kislorod terapiyasiz ham kuzatiladi.

Shu munosabat bilan bu toifadagi bolalarda ko'pincha miyada nuqsonlar namoyon bo'lishiga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Retrolental fibroplaziyali bolalarning deyarli hammasida qo'shimcha nuqsonlar yuzaga keladi, ularning 42% da aqliy yetishmovchilik kuzatiladi.

Homiladorlikning dastlabki davrlarida homilaning MAT buzilishlar va ko'zning rivojlanishi o'rtasidagi uzviy aloqadorlik miya faoliyati va ko'z kasalliklarining ehtimoliy umumiy sabablaridan dalolat beradi.

Ilk bolalikda miya faoliyati patologiyasi yuzaga kelish vaqti turlichaligi bilan bog'liq, bolaning hali rivojlanishda bo'lgan miyasi bilan aloqaga kirishgani sababli, odatda, bola rivojlanishiga tormozlovchi ta'sir etadigan etiologik va ekologik sabablarga ega bo'lishi mumkin. A.V. Xvatsovaning so'nggi tadqiqotlari ko'rsatadiki, Rossiyada bu toifadagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar soni keyingi yillarda sezilarli darajada ortgan. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, 88% ko'zi ojiz va 92% zaif ko'ruvchi tug'ma ko'rish patologiyasiga ega.

Shunday qilib, zamonaviy inson hayotining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari, shuningdek, tibbiyot ilmining rivojlanishi tiflopsixologiya obyektiga ta'sir o'tkazdi.

Vatanimiz va xorij amaliyotida ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning katta miqdordagi defitsitalari mavjud. Ular maqsadlar, shu ta'rif xizmat qiladigan narsalar — ko'rish bo'yicha nogironlarga zarur ijtimoiy yordamni aniqlash, ta'lim, o'qitish, kasbiy tayyorlik maqsadlari bilan bog'liq. Bu hollarda guruhlash mezonlari turlichadir.

Biz ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik jarayon uchun asos bo'ladigan analizatorlarning yetakchi tizimi nuqtayi nazaridan guruhlanishini ko'rib chiqamiz. Oftalmologik nuqtayi nazardan «0» vizusli va yorug'likni his qiladigan, shuningdek, korreksiya bilan yaxshi ko'radigan ko'zida 0,04 qoldikli ko'rish o'tkirligiga ega bolalar Brayl tizimi bo'yicha paypaslash asosida idrok etishga mo'ljallangan darsliklar bo'yicha, 0,05 dan 0,4 gacha vizusli bolalar esa ko'rish idroki asosida o'qitiladi.

L.P. Grigoreva rahbarligidagi oxirgi tadqiqotlar bolalarni guruhlash mezonlariga tizimli ko'rish obrazlarining shakllanish jarayonlarini tavsiflaydigan psixologik xususiyatlarni kiritish zaruratini ko'rsatdi. Bu va boshqa tadqiqotlar ko'rsatadiki, zamonaviy sharoitda pedagogik amaliyotda ko'plab mamlakatlarda qabul qilingan, aynan esa blind — ko'zi ojiz va low vision — zaif ko'ruvchi shaxs tarzida guruhlash maqsadga muvofiq. Qolaversa, zaif ko'ruvchilarga ta'lim jarayoni va kundalik amaliyotda qoldikli ko'rishdan u yoki bu darajada foydalanish ham kiradi.

Shunday qilib, tiflopsixologiyada ikki turlicha yoʻnalgan jarayon – koʻrishda nuqsoni boʻlganlarni nisbatan chuqur differentsiatsiyalash: total koʻzi ojiz; yorugʻlikni his qiladigan koʻzi ojiz; qoldiq-li koʻrishga ega koʻzi ojiz; chuqur zaif koʻruvchi; zaif koʻruvchi; boshqa tomondan esa – low vision zaif koʻruvchilarni integratsiyalash koʻzga tashlanadi. Bu tendensiyalar koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarning psixologik tavsifiga taʼsir oʻtkazadi, koʻrish patologiyasi turli shakllarining bolalar psixik rivojlanishiga taʼsir darajasi va kuchini, shuningdek, yakka tartibda ishlaganda va maxsus korreksiyalash mashgʻulotlarida ularni kompensatsiyalash imkoniyatlarini belgilaydi.

Koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalarning yuqori psixik maqomini shakllantirish amaliyoti koʻrsatadiki, umumiy psixologiyaning asosiy metodologik tamoyillari: determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyatda rivojlanishi tamoyillari tiflopsixologiyada ham konkretlashtiriladi.

Koʻrishda nuqsoni boʻlgan bolalar rivojlanishini ijtimoiylik va biologiklik belgilaydi. A.I. Zotov biologik (tipologik, yoshga oid va b.) hamda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda anomal biologik, biologik omillar namoyon boʻlishini niqoblovchi, qator hollarda esa buzib koʻrsatuvchi omillarni ajratdi. A.G. Litvak (Литвак А.Г. Теоритические вопросы тифлопсихологии: Учебное пособие. – Л.: 1973. –с. 45), unga qoʻshilib, taʼkidlaydiki, koʻzi ojiz va zaif koʻruvchilarning psixik rivojlanishi murakkab oʻzaro munosabatlarda boʻlgan biologik, anomal va ijtimoiy omillar yigʻindisi bilan belgilanadi. Bunda olim aniqlashtiradiki, biologik deganda tugʻilishdagi, irsiy, tabiiy nuqsonlar tushuniladi hamda nafaqat orttirilgan, balki tugʻma nuqsonlarni biologik deb boʻlmaydi (Литвак А.Г. Теоритические вопросы тифлопсихологии: Учебное пособие. – Л.: 1973. –С. 49).

Koʻzi ojizlik va zaif koʻruvchilik sabablari tahlili bu qarashning u qadar mustahkam emasligini koʻrsatadi. Avval aytilganidek, 92% zaif koʻruvchilik va 88% koʻzi ojizlik tugʻma xarakterda, ularning 30% dan ortigʻi irsiy shakllarga ega. Bunda bolalar koʻzi ojizligi sabablari orasida koʻrish aʼzosi rivojlanishining tugʻma anomaliyalari chastotasi ortib borishi kuzatiladi. Tugʻma koʻrish patologiyasi

M.I. Zemsova va L.I. Solnseva (1964) ishlarida 60,9%, A.I. Kaplan tadqiqotlarida (1979) 75%, L.I. Kirillova ishlarida (1991) 91,3% va A.V. Xvatsova ishlarida (1995) 92% zaif ko'ruvchi va 88% ko'zi ojizlarda kuzatiladi. I.L. Ferfilfaynda esa 84,2%.

Irsiy omillardan tashqari, ko'zi ojiz va qisman ko'ruvchi bolalarda homilaning embrional rivojlanish davrida ta'sir etadigan tashqi va ichki salbiy omillar natijasida ko'rish a'zosining rivojlanish anomalialari mavjud. Bu – homiladorlikning patologik kechishi, ona boshidan kechirgan virusli kasalliklar, toksoplazmoz, qizilcha va boshqalar.

Shunday qilib, amalda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini belgilaydigan anomal omillar biologik omillar tushunchasiga kiradi va ijtimoiylari bilan birga zaif ko'ruvchi va ko'zi ojiz bolalar rivojlanishining borishini belgilaydi.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq tadqiqotlar o'tgan asrning 80–90-yillaridagi rus defeknologiyasi asoschilari L.S. Vigotskiy, A.R. Luriya, M.M. Zemsova, A.G. Litvak, A.I. Zotov nazariyasiga tayanadi va korreksion ta'lim va tarbiya jarayonida bu toifadagi bolalarni kompensator rivojlantirishga yo'naltirilgan. Bugungi kun tiflopsixologiyasining asosiy muammosi (L.I. Solnseva, A.G. Litvak, I.S. Morgulis) rivojlanayotgan, psixik jarayonlar va shaxsning qirralari shakllanishida ko'rishning chuqur buzilishi natijasida yuzaga keladigan og'ishlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan insonning potensial imkoniyatlarini o'rganish sanaladi. Zamonaviy tiflopsixologlar nuqtayi nazarining o'ziga xosligi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishini anomal organizm (inson ayiruv ko'rish, ya'ni zarar, zararli, pasaygan) emas, balki faol rivojlanayotgan, sensorikaning bevosita nuqsonlarini kompleks vositalangan bilish faoliyati bilan to'ldiradigan shaxsning rivojlanishi sifatida tushunadi. Ko'rishda chuqur nuqsoni bo'lgan bolalarning kompensator rivojlanishining o'ziga xosligi psixik jarayonlar va sifatlar ansamblida ko'zi ojizlik va zaif ko'ruvchilikni kompensatsiyalashni ta'minlaydigan yangi aloqalarning hosil bo'lishida o'z ifodasini topadi.

Ko'rish analizatori faoliyatining zararlanishi chuqurligi va xarakteri sensor tizim rivojlanishiga ta'sir o'tkazadi, atrof-olamni

bilishning yetakchi tipini, tashqi olam obrazlarining modelligi, aniqligi va to'liqligini belgilaydi. Tashqi olamni aks ettirishning psixologik tizimi shu sababdan ko'rish analizatori turlicha zararlanganda turlichadir. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar atrof-olam bilan tanishish, faoliyatni amalga oshirish usullari kabi uni bajarishni nazorat qilish usullariga ko'ra ham farq qiladi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning psixik maqomida nuqsonni aniqlash vaqti katta rol o'ynaydi. Bu, ayniqsa, umuman ko'rmaydiganlarga taalluqli.

Adabiyotlar va amaliyotda ikki toifa: tug'ma ko'zi ojizlar va keyin ko'r bo'lib qolganlar farqlanadi. Tug'ma butunlay ko'rmaydigan va uch yoshgacha ko'r bo'lgan bolalar, odatda, ko'rish tasavvuriga ega emas, zero erta ko'r bo'lib qolgan bolalarda ko'rish obrazlari saqlanib qolmaydi va psixik rivojlanish jarayoni cheklangan sensor tizim asosida kechadi. Ko'rish nuqsonining erta yuzaga kelishi psixikaning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ko'rish qobiliyatining nisbatan keyin buzilishi ko'r bo'lib qolganlarga ko'rish asosida shakllanib ulgurgan aloqalarni bilish faoliyatida qo'llash imkonini beradi va nuqsonni kompensatsiyalashda o'zga tizimlarni hosil qiladi.

Shunday qilib, ko'rish nuqsonining yuzaga kelish vaqti ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar va kattalarning psixik rivojlanishida o'ziga xos omil sanaladi.

Ko'zi ojizlik va ko'rishning jiddiy buzilishi rivojlanish jarayoniga salbiy ta'siri bilish faoliyatining barcha turlarida og'ishlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq va ko'rish nuqsoni bolaning rivojlanishiga ta'sir etmaydigandek ko'rinadigan o'rinlarda ham namoyon bo'ladi. Bu olinadigan axborot miqdorining kamayishi va uning sifati o'zgarishida namoyon bo'ladi. Miqdor o'zgarishlari hissiy bilish sohasida, ko'rish hislari, idroki va tasavvurining jiddiy qisqarishi yoki mutlaqo yo'qligida namoyon bo'ladi, bu tasavvur va xotira obrazlari shakllanish imkoniyatlarini cheklaydi. Rivojlanishning o'ziga xos sifat xususiyatlari nuqtayi nazaridan birinchi galda psixik tizimlar: ularning strukturalari, tizim ichida aloqalar, funksiyalar va munosabatlarning shakllanish xususiyatlarini tilga olish joiz, analizatorlar o'zaro munosabatlar tizimida sifat o'zgarishlari bo'ladi, obrazlar,

tushunchalar, nutqning shakllanish jarayonida, fikrlash faoliyatida obrazlilik va tushunchaviylik nisbatida, makonda oriyentirlanish va sh.k. larda o'ziga xos xususiyatlar yuzaga keladi. Jismoniy rivojlanishda – harakatlar aniqligi, intensivligida jiddiy o'zgarishlar bo'ladi, yurish va boshqa harakat aktlari o'ziga xos ko'rinish kasb etadi. Demak, bolada o'zining, juda o'ziga xos, birlamchi nuqson tufayli rivojlanishning turli darajalarida bo'lgan jarayonlarni, shuningdek, rivojlanishning yangi kompensator yo'llari asosida uni korreksiyalashni o'z ichiga olgan bo's normal rivojlanayotgan bolaning biror tizimiga struktura jihatidan o'xshamaydigan o'ziga xos psixologik tizimi shakllanadi. Bundan ko'rinadiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda funksiyalararo aloqalar ham boshqacha, o'ziga xos amalga oshadi. Shu sababli psixologik tizimning shakllanishi va rivojlanishi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion ishlar va kompensator jarayonlar tizimini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

I.M. Sechenovning ta'kidlashicha: inson ko'zi 8 xil toifadagi materiyaning mavjud shakllarini ajrata olar ekan. Bularga: rang, shakl, kattalik, uzoqlik, yo'nalish, tana, tinchlik va harakat kiradi.

S.L. Rubinshteynning ta'kidlashicha, «Ko'rish predmetlarni to'la idrok etishga imkon beradi»¹. Ta'kidlab o'tish joizki, insonning atrof-muhitni bilishida asosiy analizator ham ko'zdir.

Ko'rish o'tkirligi

Ko'rlar yoki total ko'rlarga hech qanday yorug'likni sezmaydiganlar 0,04 gacha kiradi (salgina yorug'likni sezuvchilar). Shuningdek, qisman ko'rlar yoki porsial ko'rlar (yorug'lik va qorong'ulikni farqlovchilar). Shaklni farqlovchilarning ko'rish o'tkirligi 0,005 dan 0,04 gacha farqlanadi. Ko'rish maydonining torayishi ham ko'rlik yoki zaif ko'rishga olib kelishi mumkin.

Tiflopsixologiya fani ko'rish nuqsonli bolalarni faqat o'rganish bilan emas, balki bilish sohasida, ruhiy-hissiy iroda, psixosensor sohasidagi har xil kamchiliklarni korreksiyalash, to'g'rilash yo'nalishlarini ham belgilab berishi va amalga oshirishi zarur.

¹ S.A. Rubinshteyn. Umumiy psixologiya asoslari. – M.: 1946. 227-b.

Ko'zi ojiz va ko'rlar psixologiyasini o'rganishning murakkabligi, qiyinligi shundaki, bu nuqson o'zining xilma-xilligi, darajasi, chuqurligi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu nuqtayi nazardan ko'rish nuqsoni mavjud bo'lgan bolalarni, shaxslarni ko'rlikning qachon yuz berganligini hisobga olib ikki guruhga bo'lish mumkin.

1. Ko'r tug'ilganlar va uch yoshgacha turli salbiy taassurotlar natijasida ko'zi ko'r va zaif bo'lib qolganlar.

2. Uch yoshdan keyin ko'rish nuqsonini orttirganlar. Ko'rish nuqsonli shaxslarni bunday guruhlariga bo'lishdagi asosiy mezon ularda ko'zining sog'lomlik davrida (agar shunday davr bo'lgan bo'lsa) bola qanchalik hayot tajribasi, ko'ruv tasavvurlari to'plaganligi e'tiborga olinadi.

Birinchi guruhga asosan nutq paydo bo'lguncha ko'zi ko'r bo'lgan va zaif ko'ruvchilar kiritilgan bo'lib, ularda ko'ruv tasavvurlari va tajribasi yo'q yoki juda kam darajada.

Ikkinchi guruhga uch yoshdan keyin ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchilar kirib, ularda ozmi-ko'pmi ko'ruv obrazlari va ko'ruv xotirasi mavjud bo'ladi. Yana shuni ko'rsatib o'tish kerakki, kech ko'r bo'lganlarning ko'ruv tasavvurlari sog'lomlarnikidan farq qilmaydi.

Sog'lom ko'zning ko'ruv o'tkirlik birligi tibbiyotda 1,0 deb qabul qilingan. Ammo, ko'ruv o'tkirligi 1,5; 2,0 birlikdagi kishilar ham uchraydi.

Tiflopsixologiyaning **maqsadi** — ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar ruhiyatining rivojlanishi, kechish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Tiflopsixologiya fanining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Ko'r va zaif ko'ruvchi va sog'lom bolalar psixik rivojlanishini taqqoslab o'rganish.

2. Har xil darajadagi ko'ruv nuqsonida psixik rivojlanishning bosqichlarini o'rganish.

3. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslardagi psixik jarayonlar, individual xususiyatlarning o'ziga xos tomonlarini o'rganish.

4. Ko'rish nuqsoni mavjud bolalarning psixologik, ijtimoiy, pedagogik korreksiyasini aniqlash.

5. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning har xil muhitga moslashishi, ular bilan olib boriladigan abilitatsion va rehabilitatsion ishlar yo'nalishi aniqlanadi.

Tiflopsixologiyasining obykti ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi shaxslar sanaladi.

Tiflopsixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi

Tiflopsixologiya umumiy psixologiya, yosh va pedagogik-psixologiya, tiflotexnika va boshqa fanlar bilan chambarchas bog'langan bo'lib, tiflopsixolog o'zining amaliy va nazariy ish jarayonida yuqoridagi fanlarga tayanishi bilan birga yangi yuzaga kelayotgan soha – amaliy psixologiyaning yutuqlaridan ham foydalanadi.

Hamma ta'lim va tarbiya muassasalarida bo'lgani kabi, ko'r va zaif ko'ruvchilar maktab-internatlarida ham amaliy psixolog bo'lishi shart. Maxsus maktabdagi amaliy psixologning ish vazifasi umumta'lim maktabidagidan farq qilmaydi. Ammo, maxsus maktabdagi psixologning eng asosiy vazifasi:

– nogiron bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasini aniqlash;

– maktabda ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning bilim, hissiyroda sohasidagi va boshqa kamchiliklariga psixologik tashxis qo'yish;

– maxsus maktabda psixolog, madaniy-oqartuv ishlarini olib borish;

– maxsus maktab o'quvchilarining psixologik, ijtimoiy, pedagogik sohadagi aniqlangan kamchiliklarini korreksiyalash tadbiri va vositalarini belgilaydi va maktab jamoasi bilan amalga oshiradi;

– nuqsonli o'quvchilarning o'quv jarayonida ruhiy va asab kamchiliklarining paydo bo'lishi va kuchayishini o'z vaqtida aniqlash va oldini olishning chorasini ko'radi.

Tiflopsixologik tadqiqotlarning metodologik asosini determinizm, ong va faoliyatning birligi, ruhiyatning faoliyatda rivojlanishi tashkil etadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, tiflopsixologiya fani fan sifatida shakllanishida turli qarashlar, fikrlar, g'oyalar mavjud bo'lgan.

I.P.Pavlov bir necha bor ta'kidlagan «Ko'rlik va boshqa nuqsonlarni o'rganish asosida nafaqat nuqsonli ruhiyatga chuqurroq kirib borishga, balki me'yoriy ruhiyat holatlarini ham chuqurroq

tushunishimizga imkon beradi». Tiflopsixologiyaning taraqqiyotida L.S. Vigotskiyning nuqsonli bola rivojida «Madaniy va biologik» omillarning buzilishi, chetga chiqishi haqidagi fikrlari muhim o'rin egallaydi.

Shu bois, qator metodlar umumiy psixologiyadan olinadi. Me'yoridan nuqsonga qarab va nuqsondan me'yorga qarab tadqiqot ishlarini olib borish ishlarini V.M. Bexterev samarali usul sifatida tan olgan edi. Maxsus psixologiyada A.A. Krogius, G.I. Troshin tomonidan nisbiy o'rganish keng qo'llanilgan edi. Nisbiy tadqiqotga L.S. Vigotskiy ham alohida e'tibor bilan qaragan edi.

Tiflopsixologiya fani umumpsixologiya fanining determinizm, ong va faoliyat birligi, psixikaning faoliyat jarayonida rivojlanishi kabi metodologik prinsiplariga amal qiladi. Inson ruhiy olami bilan bog'liq har qanday ilmiy-tadqiqot, tekshirishlarining metodologik asosini uchta yo'nalish belgilaydi.

Birinchidan, ko'rish nuqsoni mavjud bolaning har xil yosh bosqichlarida yuz beradigan o'zgarishlarni va ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini sog'lom bolalar bilan taqqoslab tekshirish. Defektologiya fani asoschilaridan L.S. Vigotskiy sog'lom va nuqsonli bolalar ruhiy rivojlanishini taqqoslab tekshirishga katta e'tibor berdi. «Nuqsonli rivojlanishga to'g'ri ta'sir va tasnif berish mumkin, qachonki normal rivojlanish bilan uni taqqoslab o'rganilganda», degan edi olim.

Ikkinchidan, ruhiy rivojlanishni faqat faoliyat jarayonida har tomonlama va chuqur o'rganish mumkin. Ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilayotgan obyekt (nuqsonli bolani) qaysi faoliyat jarayonida tekshirishni aniqlab olishning nazariy va amaliy ahamiyati nihoyatda katta.

Uchinchidan, o'tkazish rejalashtirilayotgan ilmiy-tadqiqot qat'iy tizim asosida: tadqiqotning bosqichlari, metodlari, shart-sharoitlari, qatnashchilarini aniqlash va belgilash bilan olib boriladi.

Tiflopsixologiya fani umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya, yosh va pedagogik psixologiya va boshqa fanlarning metodlaridan foydalanish bilan birga, maxsus psixologiyada va tiflopsixologiya fanida yaratilgan maxsus tadqiqot uslub va usullaridan ham foydalaniladi. Ilm, fan-texnikaning yutuqlari ko'r va zaif ko'ruvchilarning

sezgi, idrok, tasavvur va boshqa ruhiy jarayonlarini tekshirish sohasida yangi, maxsus metodikalar, texnik vositalar yaratishga imkon bermoqda. Shunday aniq o'lchash texnik vositalariga elektron taxistoskop, anamaloskop, proyeksiyali perimetr, elektroensefalograf va boshqalar kiradi. Shular tufayli bizning bu toifa bolalar ruhiyati haqidagi bilimlarimiz to'la va aniq bo'lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotning asosiy shartlaridan biri: ko'r va zaif ko'ruvchi bola o'sib, tarbiyalangan ijtimoiy muhit bilan har tomonlama tanishish tadqiqotchiga ko'p narsa beradi. Nuqsonli bolaning qanday sharoitda tarbiyalanayotgani, ota-ona va boshqalarning bolaga munosabati, oiladagi intellektual, madaniy va ma'naviy muhit bola ruhiy rivojlanishida hal qiluvchi omillaridan hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bolaning oila a'zolariga, sinfdoshlariga, pedagoglarga munosabatlarini aniqlash zarur. Ikkinchi shart: tadqiqotchi nuqsonli bolani o'rganishni rejalashtirishdan oldin o'zi uchun quyidagi savollarga javob berishi shart:

1. Nuqsonli bola ruhiyatining qaysi sohasini o'rganish lozim?
2. Ruhiyatning bu sohasini o'rganishdan maqsad nima, ya'ni nimani aniqlamoqchiman?
3. Nuqsonli bola ruhiyatini va ayni ruhiyatning men tanlagan sohasini qaysi uslub bilan o'rganish eng qulay?
4. Uni o'tkazish tartibi va qoidalarini bilamanmi?
5. Rejalashtirilayotgan ilmiy-tadqiqotni qayerda (sinfda, alohida xonada, mehnat yoki o'yin jarayonida), qaysi vaqtda, qaysi sharoitda va qanday holatda o'tkazaman?

Uchinchi shart: nuqsonli bola bilan olib boriladigan so'rov yoki anketa savollari, shuningdek, suhbat davomida beriladigan savollar har tomonlama puxta o'ylangan, nuqsonli bolaning shaxsiyatiga tegmaydigan, odob-axloq doirasida bo'lishi shart. Ba'zan o'rinsiz berilgan savol nuqsonli bola bilan munosabatni buzib qo'yishi mumkin.

To'rtinchi shart: nuqsonli bolalarni sog'lom bolalar bilan taqqoslab tekshirishning o'zi chiqarilgan ilmiy xulosaning xato bo'lishiga olib kelishi mumkin. Nuqsonli bolaning ruhiy rivojlanishini uning oldingi tekshirishlardagi olingan natijalar bilan taqqoslab xulosa chiqariladi. Ya'ni nuqsonli bolaning o'zini o'ziga taqqoslaniladi.

Beshinchi shart: nuqsonli bolaning individual, yosh va psixologik xususiyatlari hisobga olingan holda ilmiy tadqiqot o'tkaziladi va uning natijalari e'tiborga olinadi.

Oltinchi shart: nuqsonli bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olib (begona joydan va odamlardan hadiksirashlari va hokazolar) ilmiy-tadqiqot ishlari asosan tabiiy sharoitda o'tkaziladi (bog'cha, maktab va boshqa joylarda).

Yettinchi shart: tiflopsixologiyada keng qo'llanilayotgan metodlardan biri – ilmiy-tadqiqot natijalarining miqdoriy ko'rsatkichlarini matematik-statistik qayta ishlash uslubi bo'lib, o'tkazilgan tekshirishlarning obyektivligini, haqqoniyligini, ishonchliligini, validligini ta'minlaydi. Statistik metod har xil ruhiy hodisalar va tadqiqot natijalari va ularning o'rtasidagi korreksiyaning – bog'liqlikni aniqlashga yordam beradi.

Ammo, matematik-statistik hisoblash natijalariga ehtiyotkorlik bilan yondashish, bu uslub bilan olingan ma'lumotlarga haddan oshiq e'tibor berish xato xulosalar chiqarishimizga sabab bo'lishi mumkin.

Shuningdek, har qanday katta yoki kichik ilmiy-tadqiqot o'tkazish jarayoniga bayonnoma yoziladi. Bayonnomada o'quvchi haqidagi hamma ma'lumotlar, vaqt, tekshirishda qo'llanilgan uslublarning nomi keltiriladi.

Ilmiy tadqiqot metodlari tadqiqotchining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Noeksperimental metodlarga kuzatuv, so'rov (anketa), suhbat, o'quvchining faoliyat mahsulotlarini tahlil qilish kiradi.

1.1. Kuzatuv, ma'lum bir reja va tizim asosida o'tkazilib, tadqiqotchidan kuzatilayotgan ruhiy jarayonga (hodisaga) odilona (obyektiv) yondashish talab qilinadi. Tadqiqotchi o'zi istagan narsani «ko'rmasligi», balki haqiqiy ma'lumotlarni, xatti-harakatlarni qayd qilishi zarur.

Kuzatuvning qo'shilgan holda va qo'shilmagan holda kuzatish usullari mavjud bo'lib, ilmiy adabiyotlarda kuzatuv turlari bayon etilgan. Keyingi vaqtlarda bolalarning o'zaro munosabatlarini, xulq-atvorini va boshqalarni kuzatishda Beylis metodidan keng foydalanilmoqda.

1.2. So'rov (anketa). So'rovdagi savollar ochiq va yopiq shaklda berilishi mumkin. Ochiq savollarga javob o'quvchining o'z istagicha berilishi mumkin. Yopiq shakldagi so'rovlarda javob tayyor holda (ha, yo'q, ba'zan, bilmayman va boshqalar) berilgan bo'ladi.

1.3. Suhbat. Bu metod tekshiruvchi uchun eng qulay uslub bo'lishi bilan birga, undan katta mohirlik ham talab qilinadi. Suhbat oldindan tuzilgan savollar yordamida o'tkaziladi. Bolalarning xarakter xususiyatlari, xulq-atvor va uning motivlari, atrofdagilarga va o'ziga munosabati, bahosi va boshqa juda ko'p ma'lumotlar bilan birga tarjimai holga oid ma'lumotlarni ham to'plash mumkin. Bolalar bilan o'tkaziladigan suhbatning asosiy shartlaridan biri, muloqotni bolaga yoqimli yoki neytral savollardan boshlash zarurdir. Bunday boshlangan suhbat o'zaro aloqani va munosabatni yaxshilaydi. Savollar bolaning yoshiga, individual va milliy xususiyatlariga qarab tuziladi. Bolalarning tez charchab qolishini hisobga olib, 10–20, ba'zan 30–40 minutdan oshmasligi kerak. Suhbatni tinch, yakka holda o'tkazish erkin muloqotni ta'minlaydi. Suhbat jarayonida axloqiy-etik shartlarga qat'iy rioya qilinadi. Masalan, o'quvchining matematika o'qituvchisiga munosabatini bilish uchun birinchidan «Sen matematika o'qituvchisini yoqtirasanmi?» deb so'rash, odobsizlik bo'ladi. Ikkinchidan, o'quvchilar bunday savolga odatda to'g'ri javob bermasligi mumkin.

1.4. Bolalarning faoliyat mahsulotlarining tahliliga bag'ishlangan. Rasmlar, har xil mahsulotlardan (plastilin, loy va boshqalardan) yasalgan narsalar, bolalar yasagan o'yinchoqlari, eng muhimi o'quvchilarning har xil fanlardan yozgan yozma ishlari, nazorat ishlarining tahlili kiradi. Noeksperimental metodlar bilan ko'r va zaif ko'ruvchilar orasida ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish qulaydir.

2. Eksperimental metodlar. Eksperimental metodlar yordamida har xil ruhiy jarayon, hodisalarning rivojlanishini o'zimiz istagan vaqtimizda takrorlashimiz, unga faol ravishda aralashishimiz, o'zgartirishimiz mumkin. Ilmiy adabiyotlarda tabiiy va laboratoriya eksperimental xillariga ta'rif berilgan. Keyingi vaqtlarda eksperimentni modellashtirish keng foydalanilmoqda. Eksperiment u yoki

bu psixologik hodisa, vaziyat sun'iy yuzaga keltiriladi va shu vaziyatda o'quvchi (o'quvchilarning) o'zini tutishi, munosabatlari, javob reaksiyasi kuzatiladi.

Shuningdek, pedagogika va psixologiya fanida shakllantiruvchi metodlardan ham keng foydalaniladi. Shakllantiruvchi metodlarning samaradorligi shundaki, bola ruhiyatining rivojlanishini, ruhiy hodisalarning mohiyatini o'rganish bilan shug'ullanmasdan, balki eksperiment natijasida ta'lim-tarbiya berish ko'zda tutiladi.

3. Diagnostik metodlar shaxs yoki jamoaning ruhiy va shaxsiy xususiyatlarini aniqlashda miqdoriy va sifat jihatdan aniq tasniflashga imkoniyat yaratganligi uchun psixologiya fanining hamma sohasida keng qo'llanilmoqda. Asosan bular testlardir. «Test» ingliz tilidan olingan bo'lib, sinov, tajriba degan ma'noni bildiradi. Hozirgi amaliyotda bir necha mingdan oshiq testlar mavjud bo'lib, afsuski, ularning ko'p qismi milliy xususiyatlar e'tiborga olinib o'zbek tiliga tarjima qilinmagan. Chet el, asosan g'arb psixologiyasida testlar bilan ishlash keng ommalashgandir. Testlar yordamida bolalarning aqliy rivojlanish darajasi (intellektual koeffitsienti), iqtidorlilik darajasi, ruhiy holati, shaxs xususiyatlari, o'ziga va boshqalarga bahosi, kasb qiziqishlari va kasbga yaroqliligi aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan ko'pgina metodikalarni tiflopsixologiyada, ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarni psixologik tekshirishda qo'llashning murakkab tomoni shundaki, o'quvchilar anketa va test savollarini o'zlari o'qishlari shart. Savollarni o'qib berish test natijalariga salbiy ta'sir etmaydimi, degan fikr mavjud. Tiflopsixologiyada ilmiy-tadqiqot o'tkazish uchun yangi metodlar yaratish, mavjud metodlarni moslashtirish, takomillashtirish shu kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Savol va topshiriqlar

1. Shaxs faoliyatida ko'rishning ahamiyati. Ko'rish analizatorlarining nuqsoni, uning oqibatlarini tushuntiring.
2. Ko'rlik nuqsoni, uning turlari haqida gapiring.
3. Tiflopsixologiya fanining predmeti nima?
4. Zamonaviy tiflopsixologiya fanining metodologik asoslarini tushuntiring.

5. Tiflopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi haqida.
6. Fan metodlarini yoriting.

Tayanch soʻzlar va tushunchalar

1. **Tiflopsixologiya** – maxsus psixologiyaning bir yoʻnalishi boʻlib, koʻrish nuqsoni boʻlgan shaxslar psixologiyasi bilan shugʻullanadi.
2. **Korreksiya** – toʻgʻrilash, yumshatish, hayotga moslashtirish, hayotda oʻz oʻrinlarini topishga koʻmaklashish.
3. **Diagnostik metodlar** – ruhiyatning maʼlum tomonlarini aniqlashga qaratilgan usullar.

12.2. Koʻr va zaif koʻruvchi bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari

Inson shaxsining toʻlaqonli, atroflicha, mukammal boʻlib rivojlanishi, shakllanishi uchun barcha analizatorlar sogʻlom boʻlishi lozim. Aks holda shaxs bir butun holda, meʼyorda rivojlanmaydi, aniqrogʻi rivojlana olmaydi. Analizatorlarning tuzilishi nafaqat atrofdan kelayotgan taassurotlarni qabul qilish, balki ularni tahlil qilish, faoliyatni nazorat qilish ham izdan chiqadi. Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, koʻrish analizatorining zararlanishi inson psixikasining turli tomonlariga bir xilda taʼsir etmaydi. Ayrim qismlar, holatlar, jarayonlar chuqur zarar koʻrsa, ayrimlari nisbatan yuzakiroq zarar koʻrishi mumkin. Koʻrlik muammosi insoniyat paydo boʻlibdiki, kishilarni oʻylantirib keladi. Afsuski, har doim ham ilm-fan yutuqlari koʻrlik ustidan toʻla gʻalaba qila olmaydi. Koʻrish jarayoni inson ruhiyatining rivojida alohida, kerak boʻlsa yetakchi oʻrinni egallaydi. Tugʻilgan chaqaloqning dastlabki kunlaridagi rivoji uchun, moʻljal olish faoliyati yetakchi oʻrinda turadi. Bu faoliyatning rivoji uchun esa koʻrish aʼzosi talab etiladi. Aks holda bola koʻrmasa, unda moʻljal olish reaksiyasi rivojlanmaydi. Lekin, koʻrish nuqsoni shaxsning turgʻun sifatlarining shakllanishida yetakchi ahamiyatga ega boʻlmasligi mumkin. Bu sohadagi kamchiliklar maxsus taʼlim-tarbiya orqali toʻgʻrilanib borishi mumkin.

Koʻrish nuqsoniga ega boʻlgan bolalarning ruhiy taraqqiyoti qator qiyinchiliklar, toʻsiqlar bilan birga kechadi. Buning boisi shundaki, koʻr yoki zaif koʻruvchilarning 90% tugʻma yoki ilk yoshlarda

orttirilgan bo'ladi. Ko'rish a'zosining chuqur zararlanishi natijasida *insonning atrofni qabul qilish faoliyatida qator nuqsonlar, qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bu nuqsonlar asosida inson faolligi keskin pasayadi. Bu faollik N.A. Bernshteynning ta'kidlashicha, biologik mohiyat kasb etib, shaxsning muhitga moslashishini qiyinlashtiradi. Shaxs faolligining dastlabki ko'rinishlari ontogenetik taraqqiyotida yuz berib qator shartsiz refleklar tarzida namoyon bo'ladi. Bularga misol qilib surish refleklarini ko'rsatish mumkin. Ko'rish nuqsoni, ayniqsa mo'ljallash, qidirish faoliyatlariga kuchli salbiy ta'sir etadi. Bolalardagi «bu nima ekan» refleksi shaxs rivojida alohida ahamiyatga ega. Shaxs faolligining rivojida nafaqat xohishlarni qondirishga bo'lgan ehtiyojlar, balki individni o'rab turgan muhit, ular ta'siri ham alohida ahamiyatga ega. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning atrof-muhitda kam harakat qilishi, siljishining chegaralanganligi ham ular ruhiyatining rivojiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi.*

Ko'zi ojiz bolalar faolligining sustligi, kamligi ayniqsa bog'chagacha va bog'cha davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. L.I. Solnsevaning ta'kidlashicha, normal bolaga nisbatan ko'r bola rivoji umumiy orqada qolish bilan farqlanadi. Sekinlashgan umumiy rivojlanish dastlab ulardagi ko'rish tasavvurlarining kamligi va zaifligi bilan bog'liqdir. Ayniqsa, atrof-muhitni bilishga bo'lgan faollikning kamligidir. Boshlang'ich sinfdagi bolalarda ham faollikning pasayganligini ko'rish mumkin. Ko'r bolalar faoliyatini ta'kidlar ekan B.I. Kovalenko va N.B. Kovalenkolar ko'rlik va uning asoratlari faollikni pasaytiradi, egallangan bilimlarni amalda qo'llay olishga to'sqinlik qiladi. Bu kamchiliklar ayniqsa tug'ma ko'rlarda, ilk yoshda ko'r bo'lganlarda, hamda qisman ko'rmaydigan bolalarda uchraydi, deb ko'rsatadilar. Ushbu ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarga qaramasdan muntazam olib borilgan ta'lim-tarbiya natijasida bu bolalarda sezilarli rivojlanishni ta'minlash mumkin. Ko'r bolalarda faollikning sustligini ular xulqida ko'rish mumkin. Yuqoridagi mualliflarning ta'kidlashlaricha – «Ko'r bolalar sezgilar va idrok qilishda haddan tashqari chegaralangandir. Ular juda faol emas va kam harakatdir. Ko'rish sezgilarining kamligi natijasida ushlar harakatlari juda kamdir. Bola intilmaydi, qo'l uzatmaydi, sudralmaydi, tik turmaydi, qo'llari bilan biror narsani ushlaymaydi.

Bog'chagacha va bog'cha yoshlarida sudralib yurishlari bir necha yilga orqaga suriladi. Ba'zan boshlarini ehtiyot qilish uchun oyoqlari bilan oldinga sudraladilar. Tik turish va yurishlari 2–3 yilga orqaga suriladi. Muloqotga bo'lgan ehtiyojining yetarli emasligi oqibatida ular nutqining rivojlanishi 3–4 yilga kechikadi»¹.

Shu kabi kamchiliklar rivojlanish nuqsonlari, zaif ko'ruvchi bolalarda ham uchraydi. Mo'ljal ola bilish refleksining salbiy natijalari o'z navbatida atrofni sezishga bo'lgan intilishning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. «Idrok qilishga xohish» pasayadi. Buning oqibatida tabiiy ravishda atrofni bilish ham pasayadi.

Shunday qilib, faollikning pasayishi, bilishga bo'lgan intilishlarning rivojlanmasligi natijasida bilish faoliyati ham bir butunligicha, to'laqonli rivojlanmaydi. Bularga qaramasdan qator ilmiy-tadqiqotlarning ko'rsatishicha yuqoridagi ta'kidlab o'tilgan kamchiliklarning ko'pchiligini ta'lim-tarbiya natijasida bartaraf etish mumkin ekan. Saqlangan, zararlanmagan analizatorlar ishini faollashtirish evaziga qator yutuqlarga erishish mumkinligini ko'rish mumkin. Ammo, nuqsonli bola aqliy rivoji o'ziga xos xususiyatlar bilan amalga oshadi. Shuni ta'kidlab o'tmoq lozimki, qator ruhiy jarayonlar, holatlar (sezgilar, idrok, tasavvur) nuqson chuqurligi bilan bevosita bog'liq bo'lsa, ayrim ruhiy jarayonlar (yorug'likni sezish, idrok tezligi) nuqson mazmuniga, mohiyatiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga ayrim ruhiy jarayonlar (tafakkur) boshqa ruhiy jarayonlar holati bilan bevosita bog'liq holda rivojlanadi. Bularga qaramasdan ruhiyatning shunday tarkibiy qismlari borki (dunyoqarash, ishonch, temperament, xarakter), ular na nuqson chuqurligi bilan, na nuqson mazmuni bilan bog'liq bo'lmaydi. Shular bilan yana shuni ta'kidlab o'tmoq joizki, bola ruhiyatining rivoji nafaqat ko'rish sezgilarining nuqsonlaridan, balki uning kechish, dinamikasi bilan ham uzviy bog'liqdir. Boshqacha aytadigan bo'lsak, ko'rish nuqsonlari aqliy taraqqiyotni sekinlashtiradi. Ammo, o'z vaqtidagi adekvat, o'ziga mos ta'lim-tarbiya, korreksiyalash ishlari orqali ruhiy rivojlanishni boshqarib borish mumkin. Hatto total ko'rlarda ham atrof-muhit

¹ Коваленко Б.И. и др. Тифлопедагогика. — М.: 1962.

haqida adekvat tasavvurlar, tushunchalar shakllantirish mumkin. Turli ko'nikmalar, odatlar, irodaviy sifatlarni tarbiyalash mumkinligini tajribalar ko'rsatdi. Shu kabi natijalarga erishish uchun uzoq yillar talab etiladi. «Atrof-muhitni idrok qilish odamning yerdagi hayotga moslashishining natijasidir. L. Feyerbax ta'kidlashicha, inson atrof-muhitni butunligicha idrok qilish uchun unda shuncha sezgililar mavjuddir». Demak, odamdagi mavjud sezgilarning kamayishi atrof-muhitni to'la idrok qilishga qarshilik qila boshlar ekan. Hatto aralash nuqson, ko'r-karlarda ham atrof-muhitni adekvat, mos qabul qilish saqlanar ekan. Lekin, gnostik bilishning 3 ta turi: ko'rish, eshitish va sezish sezgilari birgalikda kelgandagina bilish jarayoni birmuncha izdan chiqar ekan. I.M. Sechenov davridan buyon psixologik adabiyotlarda bayon etilishicha, ko'rish va sezish tasavvurlari o'xshash bo'lib, ko'z va qo'l predmetlarining bir xil xususiyatlarini ochib berar ekan. Buning isboti sifatida mashhur fiziolog P.K. Anoxin fikrlarini keltirish mumkin. Uning ta'kidlashicha, atrof-muhit turli o'lchovlarda, shakllarda, obrazlar tarzida miyada va ongda aks etar ekan. Bunga misol qilib ko'r, kar, soqov odamlarning xulqini ko'rsatish mumkin. Ko'rish nuqsoniga ega kishilarning atrof-muhitni idrok qilishlaridagi, tasavvurlaridagi farqlarga qaramasdan, me'yorda idrok etilayotgan narsalarga mos kelar ekan. Normal ko'ruvchi bolalar bilan zaif ko'rmaydigan bolalar tasavvurlarida qat'iy farqlar deyarli yo'q.

Ushbu mavzuda asosan ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktablarida ta'lim-tarbiya oluvchi bolalar tarkibi haqida so'z yuritiladi. Qaysi kasallikni boshidan kechirgan, qanday asoratlar qoldirgan, ko'z nurining o'tkirlik darajasi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Shu bilan birga murakkab nuqsonlilar: ko'rlik, zaif ko'rish nuqsoni bilan birga aqli zaiflik, harakat tizimining buzilishi va boshqa ruhiy-jismoniy nuqsonlarning qo'shilib kelish hollari haqida tushunchalar beriladi. Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilar maxsus maktab-internatida o'quvchilarga faqatgina umumta'lim ma'lumoti berilib qolinmasdan, o'quv-tarbiyaviy ishlar olib borilmasdan, balki ko'zi ojizlikni to'ldiruvchi, qoplovchi, davolovchi muassasa ham hisoblanadi. Bu o'quv muassasasida o'quvchilar, bolalar davolovchi shifokor-pediatr, oftalmolog, nevropatolog, tibbiyot hamshirasi-

ning doimiy nazoratida bo'ladilar. Ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab-internatga o'quvchilar maxsus tashkil etilgan tibbiy-pedagogik komissiya ko'rigidan o'tkazilib, ushbu komissiya xulosasiga binoan qabul qilinadi. Tibbiy-pedagogik komissiya viloyat, shahar xalq ta'limi bo'limlari qoshida tashkil etiladi. Respublikamizning turli tumanlaridagi oftalmolog shifokorlarning xulosasiga asosan tumanlar xalq ta'limi bo'limi ushbu tibbiy-pedagogik komissiyaga yo'llanma-murojaatnoma bilan murojaat qiladilar. Hozirgi kunda Respublikamizda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlar ishlab turibdi. Bu maxsus maktab-internatlarga har bir tuman hududida yashovchi, maxsus tiflopedagogik ta'limga muhtoj o'quvchilar jalb qilinadi:

a) ko'zi ojizlar uchun maxsus maktab-internatiga 0 dan — 0,4 gacha ko'z o'tkirligi (nuri)ga ega bo'lgan bolalar qabul qilinadilar;

b) tuzatish (korreksiya) bilan ko'z nuri 0,05—0,08 bo'lgan, gloukoma, yaqindan ko'rish, xoreoretinit, gidroftalm, qorachiqlarda qoplanish-katarakta, ko'z olmasining zararlanishi kasalliklari bilan kasallangan bolalar qabul qilinadilar.

Zaif ko'ruvchi bolalar uchun maxsus maktab-internatlariga ko'rish nuri 0,054—4 gacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi, bunda kasallikning xuruj qilishi, shakli, turi ham inobatga olinadi. Ko'z nuri 0,2 dan yuqori bo'lgan bolalar umumta'lim maktablarida o'qishlari lozim. Bog'cha bo'limiga 3—7 yoshgacha bo'lgan bolalar qabul qilinadi. Maktab-internatning 1-sinfiga bolalar 7 yoshdan qabul qilinadilar.

Aqli zaif bo'lgan ko'zi to'liq ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar yordamchi dastur asosida ta'lim-tarbiya beriladigan maxsus sinflarda o'qitiladi. Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi bolaning o'zlashtirish me'yorlarini aniqlash uchun aqli zaif deb topilgan bola kamida 1 yil maxsus maktab-internatning umumta'lim dasturi asosida o'qitiladi. O'quv-tarbiyaviy jarayon kuzatib boriladi, faqat shundan keyingina tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga asosan yordamchi dastur asosida 8 yil o'qitiladigan to'liq ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi o'quvchilarga maxsus bilimga ega bo'lgan defektolog-o'qituvchilar ta'lim-tarbiya beradilar.

Quyidagilar ko'zi ojiz bolalar maxsus maktab-internatiga qabul qilinmaydilar:

- a) imbetsil, idiot darajasida bo'lgan aqli zaif bolalar;
- b) organik xususiyatlarga ega, xulqida chuqur buzilishlarga ega bo'lgan bolalar (his-tuyg'ulari buzilgan);
- d) harakat-tayanch a'zolarining chuqur buzilishi. Mustaqil ravishda harakatlana olmaydigan, o'z-o'ziga xizmat qila olmaydigan bolalar;
- e) ko'r va kar-soqov bo'lgan bolalar qabul qilinmaydilar.

Bunday kasalliklarga uchragan bolalar xalq ta'limi bo'limlari qoshida tashkil qilingan tashxis markazlarining hamda maxsus tibbiy-pedagog komissiyaga yuboriladilar. Ularning xulosasiga asosan sog'liqni saqlash, xalq ta'limi va maishiy ta'minot vazirligi qoshidagi maxsus bolalar muassasalariga yuboriladilar.

Ko'zi ojizlar uchun maktablarda, maxsus maktab-internatlarida ta'lim maxsus nuqtalardan tashkil topgan Brayl tizimida olib boriladi.

Ko'rlik va zaif ko'rishning kompensatsiyasi

Ko'zi ojiz bolalarning asosiy ko'z kasalligi, ko'zning qo'shimcha kasalliklarini tuzatish, qoplashga (korreksiya, kompensatsiya) qaratilgan davolovchi xususiyatga ega bo'lgan maxsus mashg'ulotlar tashkil etiladi. Bu mashg'ulotlarni defektolog, tiflopedagog mutaxassislar olib boradilar. Maxsus maktab-internat o'quvchilari davlat ta'minotidirlar.

Ko'zi ojiz bolalar oliy asab faoliyatining xususiyatlari o'ziga xos tomonlari bilan ajralib turadi.

Ko'zi ojizlik nasldan naslga o'tish yo'li bilan bolaning ona qornida, ya'ni embrion davrida onaning turli og'ir, yuqumli kasalliklar (gripp, angina va b.) bilan kasallanishi oqibatida, bola hayoti davrida orttirilgan, ya'ni qizamiq, meningit, suvchechak va boshqa o'tkir yuqumli kasalliklarga chalinishi oqibatida, turli tan jarohatlari sababli yuzaga keladi. Bu davrda o'z-o'zidan bolaning asab faoliyatidagi o'zgarishlar bo'lishiga olib keladi. Ko'rish ne'matidan mahrum bo'lgan bola injiq, qaysar, qo'pol bo'lishi mumkin. Ba'zi bolalarda ko'rmaslik oqibatida boshni to'xtovsiz chayqash, ko'zni qo'l bilan ushlab turish, gavdani beixtiyor tebratish, yuz muskul-

larini o'ynatish, labni cho'chchaytirish, turgan joyida sakrash va boshqa yoqimsiz odatlar yuzaga keladi. Albatta, bu odatlar barcha ko'zi ojiz bolalarga xos deyish noto'g'ri, lekin to'liq ko'zi ojiz bolalarda bu odatlar tez-tez yuzaga keladi, ko'p holatlarda uchrab turadi. Ko'zi ojizlik bolaning gavda muskullariga ham ta'sir ko'rsatadi. Gavidani bir tomonga olib yurishga harakat qilish, bukchayib yurish, yuzni bir tomonga o'girib yurish, boshni osiltirib yoki orqa tomonga tashlab yurish, umurtqa pog'onasining qiyshayishi va boshqa o'zgarishlar kuzatiladi. To'liq ko'zi ojiz bolalarda qo'l silkitish, ko'z olmasini qo'l bilan ushlab turib gapirish, quloqni ding qilib turish kabi odatlar tez-tez uchrab turadi. Kattaroq yoshdagi bolalar o'z harakatlarining ortiqchaligini tushunsalarda, bu ularga xalaqit bermasligini ta'kidlaydilar. Chunki, bu odatlarning yuzaga kelishi ko'zi ojiz bolaning asab faoliyati bilan bog'liqdir. Ko'zi ojiz bolalarda eshitish sezgisi yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bu analizatorlar bir-birlarining faoliyatlarini to'ldirib turishi bilan izohlanadi. Ko'rish analizatori o'z faoliyatini to'xtatganida hid bilish, eshitish, teri sezgilari faoliyati kengroq rivojlanadi. Kam harakatlilik, hadiksirab harakatlanish, o'ta ehtiyotkorlik bilan qadam bosish kabi holatlar kuzatiladi. Tug'ma ko'zi ojiz bolaga nisbatan, orttirilgan ko'zi ojizlikka uchragan bolalarda bu odatlar, holatlar kam uchraydi. Bolaning tashqi muhitga moslashishida o'zi yashayotgan muhitga shart-sharoitlarning ham ahamiyati beqiyosdir. Ba'zi bir ota-onalar bola uchun hamma ishlarni o'zlari bajarishga harakat qiladilar. Ularni haddan ziyod ehtiyot qilishga urinadilar. Ko'zi ojiz bolaning mustaqil bo'lishiga, o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishi uchun qilgan harakatlari, intilishlarini so'ndiradilar. Ota-ona bu harakatlari bilan «bolaga yaxshilik qilyapman» deb o'ylaydilar. Aslida esa, bu g'amxo'rlik ko'zi ojiz bolaning imkoniyatlarini cheklab qo'yadi. Bunday bolalar maxsus maktab-internatga kelganlarida bolalar jamoasiga o'ta qiyinchilik bilan moslashadilar. O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikma-malakalarining shakllanish jarayoni juda sustlik bilan amalga oshadi.

Kichik yoshdan boshlab mehnat ko'nikma-malakalarini egalagan ko'zi to'liq ojiz bola esa bolalar jamoasiga osonroq moslashadi. O'quv-tarbiyaviy jarayonlarda o'z imkoniyatlarini namoyon

qilishga harakat qila boshlaydi. Bolada o'z kuchi, imkoniyatlariga ishonch paydo bo'ladi. «Men bu ishni bajara olaman, bajarishim kerak» — degan tushuncha hosil bo'ladi. Ko'zi to'liq ojiz bolada begona odamlarga nisbatan shubha hissi kuchli bo'ladi. Bu shubhalanish 9–11 yoshlardan boshlanib 12–14 yoshlarda kuchayadi, 15–17 yoshgacha, ba'zan esa bundan ham ko'proq yoshgacha davom etishi mumkin. Bu davrda bola o'ta hadiksirovchan, salga xafa bo'lib qoladigan, ko'proq yolg'izlikka moyil, tortinchoq bo'lib qoladi. Bolalarga xos bo'lgan o'tish yoshida ular o'z jismoniy kamchiliklarini yanada chuqurroq his qiladilar. Ayrim ko'zi ojiz bolalarda esa bu holatning aksi sodir bo'ladi. Uning axloqida salbiy o'zgarishlar yuz beradi. Sababsiz shovqin solish, keraksiz talablar qo'yish, yig'lashga moyillik, qo'pollik holatlarini kuzatish mumkin. Bularning hammasi ko'zi ojiz bolaning asab tizimi bilan bog'liqdir. Bolaning individual (yakka) xususiyatlarida o'z aksini topadi. Tug'ma ko'zi ojiz bolalarda ko'rish nuqsonining qay darajada chuqurligi yoki ko'z nurining saqlanganligi ham bola asab tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ko'zi ojiz bolalarda bosh og'rig'i xuruji tez-tez yuz beradi, biror-bir faoliyatda tez charchab qolish, uyquning buzilishi holatlarini ham kuzatish mumkin. Sog'lom bolalar tevarak-atrofdagi voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni eshitishga nisbatan 30 marta ko'p ko'rish analizatori orqali qabul qiladilar. To'liq ko'zi ojiz bolalar esa bunday imkoniyatga ega emas. Ularda eshitish qobiliyati, taktitl sezgilar yaxshi rivojlangan bo'ladi. XIX asrda yashab o'tgan ko'zi ojiz yozuvchi Moris de Sizeranning ushbu ta'rifi so'zlarimizga isbot bo'la oladi, deb o'ylaymiz. «Eshitish ko'zi ojiz odam uchun hayot demakdir. Eshitish orqali ko'zi ojiz odam ongida daraxt jonlanadi, tabiatning buyuk ovozi eshitiladi».

Ma'lumki, inson nutqi uning hissiy va aqliy kechinmalari bilan uzviy bog'liq. Har bir odam ovozi o'zining takrorlanmas ohangi, nutqining tuzilishi, til boyligi, ma'lumoti, saviyasi bilan ajralib turadi. Ko'zi ojiz bola odamlar nutqidagi nozik ohang, kayfiyatni, xarakter, tafakkur qilish xususiyatlarini tez ilg'ab oladi. Shu sababli ham ko'zi ojiz odamlar orasida musiqaga bo'lgan qiziqish kuchli. Ko'plab buyuk musiqashunoslar shular orasidan yetishib chiqqan.

Ko'z nurining pasayishi, zaifligi, bola diqqatining tarqoqligi, mahsuldorligi sifatiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ko'zi ojiz bolada atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, buyumlar haqida tushuncha, tasavvurlar hosil bo'lishida jonli muloqotning ahamiyati nihoyatda katta. Maxsus maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonida va atrof-dagi katta kishilarning yordami bilan, turmush tajribasining ortishi tufayli ko'zi ojiz bolalarda fazo, vaqt, harakatni idrok qilish imkoniyati kengayadi. O'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga harakat qiladilar. Darslarda olgan nazariy bilim, ko'nikma va malakalarini amaliy faoliyatda sinab ko'rish orqali ham ko'zi ojiz bolalarning idrok qilish faoliyati rivojlana boshlaydi, fikrlash qobiliyati o'sa boradi. Ko'zi ojiz bolaning aqliy rivojlanishida turli mavzulardagi suhbatlar, savol-javoblar, fikr almashuvlar muhim rol o'ynaydi. Ko'zi ojiz bolaning dunyoni tushinishi, ko'rishida kitoblarning ahamiyati beqiyosdir. Kitoblar ko'zi ojiz bolani atrof-muhitdagi voqea-hodisalar, odamlar, fan-texnika taraqqiyoti, madaniyati, san'at yangiliklari, ijtimoiy, siyosiy bilimlarini kengaytiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Tafakkur qilish uchun turli boy manbalarning mavjudligi, o'quv-tarbiyaviy ishlarning muntazam ravishda reja asosida olib borilishi ko'zi ojiz bola aqliy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola hayoti davomida orttirilgan ko'zi ojizlik oqibatida bola og'ir ruhiy kechinmalarni boshidan kechiradi. O'z vaqtida berilgan yordam, korreksion ishlarni erta boshlash ko'zi ojiz bolaning keyingi hayotida samarali iz qoldiradi. Ma'lumki, inson organizmida bir analizatorning faoliyati to'xtaganida, ikkinchi bir analizator kompensatorlik vazifasini bajaradi. Bolalikdan tug'ma ko'zi ojiz bolalar shunday hayot tarziga ko'nikib qoladilarki, agar biror kishi uning bu nuqsonini ta'kidlagan taqdirdagina buni esga oladilar hamda ko'zi ojizligini biladilar. Aks holda bola o'zining nuqsoniga e'tibor bermaydi, uni eslamaydi ham.

Chunki, ko'zi to'liq ojiz bola ko'rmaslikni o'zi uchun oddiy hol deb tushunadi. O'z oldiga qo'yilgan vazifani amalga oshirish uchun duch kelgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladi. Mehnat ko'nikma-malakalarini yaxshi egallab olishi ko'zi to'liq ojiz bola hayotini ancha yengillashtiradi.

Ko'zi to'liq ojiz bolalarni atrof-muhitda harakatlanish qoidalariga o'rgatib borilmasa, ular bir joyda uzoq o'tirib qolishga o'rganadilar. Natijada jismoniy jihatdan kuchsiz, tez charchab qoladigan, o'z harakat imkoniyatlarini cheklaydigan bo'lib qoladilar. Maxsus maktablarda ko'zi to'liq ojiz bolalar uchun atrof-muhitda harakatlanishga o'rganib borish mashg'ulotlari olib boriladi. Bu o'z navbatida ko'zi to'liq ojiz bola hayotini ancha yengillashtiradi, o'z-o'ziga xizmat qilish imkoniyatini kengaytiradi va bolani hayotga moslashtiradi.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rish nuqsoni bo'lgan shaxslarning asab tizimiga umumiy ma'lumot bering.
2. Kompensator imkoniyatlar nima?
3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Ko'rish nuqsonini korrektsiyalash** – turli asbob-uskunalar yordamida qoldiq ko'rish imkoniyatlarini ko'paytirish, kuchaytirish.
2. **Adaptatsiya** – tashqi sharoitlarga moslashish bo'lib, buning o'zi analizatorlarning o'zgarishlarni sezish bilan bog'liq fiziologik adaptatsiya va yangi guruhlardagi yangi faoliyat turiga moslashishdagi psixologik adaptatsiyalarga ajratiladi.
3. **Kompensatsiya** – zararlangan, ishdan chiqqan bir a'zo funksiyasini boshqa a'zoning qisman boshqarishi, to'ldirishi tushuniladi.

XIII bob. KO‘R VA ZAIF KO‘RUVCHI BOLALARNING BILISH FAOLIYATI

13.1. Ko‘r va zaif ko‘ruvchilarning sezgisi

Har qanday bilish dastlab oddiy sezgilardan boshlanar ekan. Oddiy tilda gapiradigan bo‘lsak, sezgilar bizni borliq bilan bog‘lab turuvchi vosita, ko‘prikdir. Ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta‘m bilish, teri sezgilar va boshqalar bizning sezgi bilimlarimizga asos bo‘la oladi. Sezgi bilimlarimizning tarkibi, tuzilishi insonning sensor tizimini tashkil etadi. Insonning sensor tuzilishi uning tarixiy-ijtimoiy taraqqiyoti davomida shakllanib, uning hayot va faoliyat mazmunini belgilaydi. Shu bois, ko‘rish tizimi boshqa analizatorlardan ustun turadi. Inson mehnat faoliyati jarayonining asosida ko‘rish-taktil-kinestetik bog‘lanishlar va optik-vestibulyar yo‘nalganlik yotadi. Ko‘rish analizatorining to‘la yoki qisman buzilishi zaif ko‘rishga, ko‘rlikka olib keladi. Buning natijasida analizatorlar orasidagi bog‘liqlik buziladi. Mutanosiblik yo‘qoladi. Buning oqibatida insonning sensor tuzilishida, birinchi navbatda mantiqiy bilish va tajribada me‘yordan chetga chiqish kuzatiladi. Agar inson ruhiyati dinamiklikka va egiluvchanlikka ega bo‘lmaganda edi, bularning barchasi qaytarilmas, takrorlanmas oqibatlarga olib kelishi mumkin edi.

1880-yillardan boshlab tiflopsixologik tadqiqotlarda sezish chegaralarini o‘rganish boshlangan edi. Qisman yoki zaif ko‘ruvchilardagi sezgi chegaralari o‘ziga xosligi bilan, nuqson chuqurligi bilan, uzviy bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Qator tadqiqotlarda absolyut sezish chegarasiga oid turli qarashlar, ma‘lumotlar bor. Normal bolalardagi sezish chegaralari bilan yaqinligi haqida ham ma‘lumotlar yetarli. Kompensator o‘zgarishlar ham o‘ziga xos tarzda amalga oshar ekan. Turli sezgilarning o‘zaro ta‘siri oqibatida ayrim analizatorlar faoliyati tezlashadi, ayrimlarining faoliyati susayadi. Ayrim hollarda sezgilararo aralashuvlar ham yuz berar ekan.

Tiflopsixologiya fan bo‘lib shakllana boshlagandan buyon qaysi sezgilar yetakchi bo‘lishi ustida tadqiqotlar olib boriladi. Keyingi yillardagi ilmiy tadqiqotlarning isbot etishicha, ko‘rish nuqsoni oqi-

batida asosan taktil va kinestetik analizatorlar faoliyati faollashar ekan. Total ko'rlarda haqiqatan shunday holat kuzatiladi. Bu haqida ikkilanish kerak emas. Ammo, qisman ko'ruvchi (0,005 dan yuqori) shaxslarda esa bu holat o'ziga xos mazmun kasb etadi. Lekin zaif ko'ruvchi bolalar, kattalarda esa asosiy sezgi sifatida ko'rish qo-laveradi. Ko'rish sezgilari ko'rish analizatori faoliyatining natijasi, mahsuli sifatida qoladi. Bunda ko'rish retseptorlari, ko'rish asab tolalari qo'zg'alishlarni bosh miyaga uzatuvchi sifatida, bosh miya orqa qismida joylashgan ko'rish analizatori yadrolari ma'lum dara-jada ko'rish jarayonining vazifalarini bajaradi. Ko'rish analizator-lari ayrim qismlarining zararlanishi uning faoliyatini qisman buzsa, analizator to'la buzilsa, ko'rlik yoki zaif ko'rishga olib kelishi mum-kin. Ko'rishning chuqur buzilishi natijasida eshitish sezgilarida ijobiy o'zgarishlar yuz bera boshlaydi. Bu holat ko'rlik oqibatida yuz bermaydi. Balki, eshitish analizatorining boshqa bir analizator-ning zararlanishi oqibatida faollashishi yuz beradi. Ko'rlarda eshi-tish normal taraqqiy etadi. Bu narsa ko'rish qobiliyati buzilgan shaxslarning to'laqonli bilim olishlari va olgan bilimlarini amalda qo'llay olish imkonini beradi. Normal ko'ruvchi shaxslarda narsa va atrof-muhitidagi holatlar ko'rish orqali idrok etilsa, ko'rlarda esa, teri sezgilari asosiy rol o'ynaydi. Shuning oqibatida ko'rish nuq-soni bor shaxslarda tana a'zolarining, ayniqsa inson bilish faoli-yatida, xususan mehnat jarayonida tutgan, egallagan o'rni keskin oshadi. Buning oqibatida sensibilizatsiya – taktil sezgilarining orti-shi kuzatiladi. Taktil sezgilar ko'rlarning barcha a'zo terilarida yuz bermasdan, balki ayrim qismlaridagina yuz beradi. Ayniqsa, qo'l, kaft qismida bu holat sezilarli darajada bo'ladi. Tadqiqotlarning is-bot etishicha, ko'r barmoqlaridagi sezgilar normal shaxslarnikidan ancha ustun ekan. Bunday o'sish ko'r shaxslarning o'qish tizimi – Brayl bilan uzviy bog'liqdir. Bunda asosiy rolni o'ng qo'ldagi ko'rsatkich barmoq egallaydi. Nafaqat teri sezgilar, tuyg'ulari balki, bu bolalarda harorat sezish qobiliyati ham, og'riq tuyish qobiliyati ham birmuncha ortar ekan. Bu sezgilar faoliyat jarayonida rivojla-nadi va shakllanib boradi. Haroratni sezish sezgilari ham bu bola-larda ancha o'sishga moyil ekan. Teri sezgilari majmuasida (kom-pleksida) yorug'lik va rang ta'sirlariga javob berish ham o'ziga xos

mazmunga ega ekan. «Teri orqali ko'rish» fenomeni – qobiliyati azaldan ma'lum. Tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, buning asosida tok, tok magnit tebranishlari yotar ekan. Harakat analizatori inson hayotining dastlabki kunlaridanoq yetakchi o'ringa chiqadi. Faoliyat jarayonida harakat analizatori differensirlashib boradi. Bunda ko'rish nazorati talab ham etilmaydi. Ko'rish faoliyatining kamayishi, ba'zan yo'qolishi natijasida kishida tebranish sezgilari orta boradi. Ma'lumki, total ko'rlar ma'lum masofa uzoqlikda turgan qimirlamas narsalar: daraxt, devor va boshqa narsalarni sezadilar. Bu sezgilar predmet mohiyatdan yiroq bo'lib, ko'rlar u narsa haqida ma'lumot berolmaydilar. Ko'rish a'zolari me'yordagi kishilar uchun ta'm bilish va hid bilish unchalik rol o'ynamaydi, ammo ko'rlar uchun bu sezgilar nisbatan katta ahamiyat kasb etadi. Ma'lum bo'lishicha, ko'rlar normal ko'ruvchilardan ko'ra bir qancha darajada hidni, uning yo'nalishini yaxshi bilar ekanlar. Total ko'rlarda vestibulyar apparatning roli nisbatan ortadi. Tana muvozanati uchun bu apparatning vazifasi katta. Bu apparat vazifasining o'zgarishi uning sezgirligining ortishiga olib kelar ekan. Qator tadqiqotlarning ko'rsatishicha, total ko'rlarda vestibulyar apparat normal ko'ruvchi shaxslarnikidan yaxshi rivojlanar ekan. Ko'rish nuqsoni bo'lgan shaxslardagi turli sezgilarning faollashishi, rivojlaniishi ularning hayotda oson moslashishlariga yordam beradi.

Joyni topish va mo'ljalga olishda sezgi a'zolarining ahamiyati. Ko'rish sezgisi. Sog'lom kishilarning atrof-muhitdagi, fazodagi yo'nalishni aniqlashlarida, yo'l topishlarda ko'ruv a'zosi – ko'zning ahamiyati katta. Ko'zi ojizlar, hatto ko'ruv o'tkirligi juda past ko'zi ojizlar ham katta maydonlarda, yo'llarda harakatlanganda ozgina bo'lsa ham qoldiq-qo'rquvdan foydalanadilar.

Ko'zi ojizlar nurni, yorug'likni sezib, katta narsa va obyektlarning shaklini xira bo'lsa ham sezgan holda o'shani mo'ljal qilib joyda harakatlanadilar. Qora va oq nur, soyalarning almashinuvi bilan ular oldinda to'siq borligini sezadilar. V.S.Sverlov ko'zi ojiz kishining joyda, yo'lni va yo'nalishni qanday topib yurishi haqidagi gaplarini keltiradi: «Atrofdagi hamma narsalar mening uchun kulrang tuyiladi. Lekin, bu rang ham tushlarga bo'linadi, ba'zi bir narsalar qora, boshqalari oqqa o'xshaydi. Men yo'l, ko'cha yorug'

bo'lsa, o'zimdanda bir necha metr naridagi devorni kulrang to'siq sifatida sezaman. Shu devor bo'ylab har kuni yurganim uchun, u yerda hamma narsalar menga tanish bo'lgani uchun ham tez yurib ketaman. Bu yo'lda har xil qora dog'lar ko'rinadi, bu daraxtlarning soyasi, qurib qolgan loy va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, bu soyalar menga tanish bo'lgani uchun ham, ular menga yurishimda mo'ljal bo'lib xizmat qiladi. Lekin, bordi-yu yo'l tanish bo'lsa-yu bu yo'lda soyalar ko'p bo'lsa juda ham qiynalaman. Agar yorug'lik va soyalar almashib turadigan joy bo'lsa ham menga qiyin».

Teri sezgisi. Ko'zi sog'lom kishi uzoqni ko'radi. Qo'l va oyoq bilan tevarak-atrofni tekshirish imkoniyati chegaralangan. Ammo, ko'rlarda teri-muskul – harakat analizatorlari yo'lni aniqlashda, fazoviy yo'nalishlarni tekshirishda asosiy rol o'ynaydi. Turmushda, o'quv va ishlab chiqarishda qo'l sezgisi predmetlarning faqat shaklini emas, balki ularning bir-birlariga nisbatan joylashuvini, yo'nalishning xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Qo'l va oyoqning imkoniyatlari chegaralangan joyda, ko'rlar atrofni tekshirish doirasini kengaytirish uchun hassadan foydalanadilar. Sinfxonasi, ish joyi, tanish yo'ldagi narsalarning joylashuvi ko'rlarning xotirasida yaxshi saqlanadi.

Eshituv sezgisi. Ko'rlar eshituv sezgisi va idroki yordamida o'z atrofidagi olamni, narsa va obyektlarni sezadi, idrok etadi. Ularning hajmi, joylashuvi, yo'nalishi (agar harakat qilayotgan bo'lsa) va boshqa sifatlari haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Narsalarga urilib qaytayotgan tovush aks-sadosi narsalarning shakli, kattaligi va boshqalar haqida aniq ma'lumot bermasa ham ko'rlar uni boshqa predmetlardan kelayotgan tovush bilan farqlab, shu narsaning uzoq-yaqinligi, katta-kichikligini va boshqa tomonlarini aniqlaydi. Masalan: ko'rlar ko'chada yurganida tovushlarni tahlil etib, odamlar haqida (har bir kishi o'ziga xos qadam tashlaydi), narsalarning bir-birlariga joylashuvi, mashina va boshqa harakatlanayotgan narsalarning yo'nalishini, o'zlariga zarur joyning mo'ljalini oladilar. Narsa va obyektlarning joylashuvi haqidagi tasavvur ko'rlarning har kungi turmushida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ko'rlar katta joylarda harakatlenganda yo'nalishni aniqlash va oldindagi narsalar va to'siqlarni aniqlashda tovushning aks-sa-

dosidan samarali foydalanadilar. Buning uchun ular qo'llarini bir-biriga urib qarsak chalish bilan, qo'lidagi hassasini biror narsaga urish bilan ulardan qaytgan aks-sadodan atrof-joy haqida ma'lumot to'playdilar. Bunday aks-sado o'sha narsaning mohiyati, mazmuni haqida ma'lumot beradi.

Hid bilish ko'rlarda bu sezgining ahamiyati katta. Ko'rlarni kuza-tish shuni ko'rsatadiki, ko'rlar kishilarni hidlar yordamida farqlash-lari mumkin. Ular har xil buyumlarni, ba'zi meva va sabzavotlarni, oziq-ovqatlarni hid bilish yordamida farqlaydilar. Ayniqsa, buzilgan ovqatlarni aniqlash yordamida, ko'rlar hid bilish yordamida amalga oshiradilar.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rlarda sezgilarning qanday xususiyatlari bor?
2. Zaif ko'ruvchi shaxslar sezgi xususiyatlari qanday?
3. Sezgilarni korreksiyalash, rivojlantirish imkoniyatlari haqida gapirib bering.

13.2. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning idroki

Idrok predmet va hodisalar mohiyatining, sifatining va obrazi-ning ongimizda butunligicha, to'raligicha paydo bo'lishidir.

Bola o'yinchoqlar, har xil predmetlar bilan faoliyat ko'rsatarkan, bu predmetlarning mohiyatini, tarkibiy qismlarini, tomonlarini o'rganadi.

Asta-sekinlik bilan bolaning sensor rivojlanishi jarayonida predmetlar va hodisalarning obrazi bolaning ongida butunligicha shakllanib boradi. Odatda, ko'ruv, eshituv, sezgi, hid va ta'm bilish idroklari farqlanadi. Ammo, predmet va hodisalarning ongimizda butunligicha va bir tuzilishda idrok etilishi bu analizatorlarning o'zaro birgalikda faoliyat ko'rsatishining natijasidir. Shuningdek, idrok faqat predmetlarning muhim belgilari va xossalarning bu-tunligicha ongimizda aks etishigina bo'lmasdan, balki predmet va hodisalarning mohiyati, mazmuni va ma'nosi, nomining ham bu-tunligicha anglanishidir.

A.A. Lyublinskaya ko'rsatib o'tganidek, predmetlar o'rtasida ma-kon munosabatlarini idrok etishda nutq, bolalarning makon muno-

sabatlarining nutqiy ifodalarini egallashi birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Makon munosabatlarini to'g'ri qayta yaratish bola harakatga hamroh nutqda predmetlarning makon munosabatlarini ko'rsatadigan so'zlarni qo'llagandagina mumkin bo'ladi.

L.A. Venger tomonidan maktabgacha yoshdagi bolalarda o'tkazilgan idrok rivojlanishini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar ko'rsatdiki, pretseptiv harakat bilish usullarini takomillashtirish jarayonida shakllanadi. Ilk yoshdan maktabgacha yoshga o'tishda, ya'ni 3 yoshdan 7 yoshgacha produktiv va konstruktiv faoliyat ta'sirida bolada pretseptiv analitik-sintetik faoliyatning murakkab turlari, jumladan, bu operatsiyalarni amaliy planda bajarishdan oldin, ko'rib turgan obyektни xayolan qismlarga ajratish va keyin ularni yaxlit birlikka birlashtirishga oid murakkab qobiliyat yuzaga keladi. Pretseptiv obrazlar predmetlar shakliga nisbatan yangicha mazmun kasb etadi. Predmetlar konturidan (chizgilaridan) tashqari ularning strukturasi, makon xususiyatlari va ularning qismlari nisbatlari ajratiladi.

L.A. Vengerning fikricha, idrok bilan bog'liq qobiliyatlar asosini pretseptiv harakatlar tashkil qiladi. Ularning sifati bolaning pretseptiv etalonlar maxsus tizimini o'zlashtirishiga bog'liq. Idrokda bu kabi etalonlar, masalan, shaklni idrok etishda geometrik shakllar, rangni idrok etishda — spektral gamma, o'lchamni idrok etishda — ularni baholash uchun qabul qilingan fizik kattaliklar sanaladi. Pretseptiv harakatlarni takomillashtirish va bunday harakatlarning yangi tiplarini o'zlashtirish yosh kattalashishi bilan idrokda progressiv o'zgarishlarni, ya'ni ular bo'laklash aniqligi ortishi va boshqa muhim sifatlarni egallashni ta'minlaydi.

L.I. Rudakova ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda ko'rish idroki rivojlanishi darajasini xarakterlab, bolalarda tahlil idrokining rivojlanganlik darajasi sensor etalonlar tizimini egallaganlik darajasi bilan belgilanishini ta'kidlaydi.

Ko'rish idroki. Ko'rish analizatorlari yordamida kishi predmetlarning rangini, shaklini, hajmini, katta-kichikligini, harakat va harakat yo'nalishini aniqlaydi.

Ko'rish idroki funksiyalarining buzilishi atrof-voqelikni bilishda katta qiyinchiliklar keltirib chiqaradi, bu predmetlar olami haqi-

dagi hissiy ma'lumot va uning nutqiy talqini o'rtasidagi uzilishda namoyon bo'ladi.

Ko'r va zaif ko'ruvchilarda ko'rish analizatorlari faoliyatining buzilishi analizatorlar ichida yoki analizatorlar orasida yangi bog'lanishlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ko'ruvchi shaxslarga nisbatan bularda u yoki bu analizatorlar tizimi faollashadi, rivojlanadi. Ko'r yoki zaif ko'ruvchi shaxslardagi ko'rish analizatorlaridagi bu nuqson oqibatida normal ko'ruvchi shaxslardagidan farqli ravishda, o'ziga xos analizatorlararo munosabatlar yuzaga keladi. Bu holat o'ziga xos bo'lgan, faqatgina shu toifa nuqsonlargagina tegishli bo'lgan xususiyatlardir. Ko'rishning zararlanish oqibatlari birinchi galda sezilarli ta'sir etadi.

Mashhur psixolog B.G. Ananyev g'oyalariga tayanadigan bo'lsak, sensor taraqqiyot normada ham nuqsonda, ham bir yo'nalishda ketib ularning qonuniyatlariga bo'ysunar ekan. Fiziolog A.A. Uxtomskiy ta'biricha, «eshitish — inson sezgi a'zolaridan eng asosiysidirki, insonning inson darajasiga yetishida katta rol o'ynaydi¹». Demak, ko'rishdan keyin inson hayotida, bilim egallashida, inson bo'lib yetishishida eshitish analizatorlari turar ekan. Ma'lumki, ko'rlar qatoriga, toifasiga ko'rish o'tkirligi 0 dan 0,04 gacha bo'lganlar kirsas, zaif ko'ruvchilarga 0,05 dan 0,2 gacha bo'lgan shaxslar kiradi. Ko'rlar uchun eshitishning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlab, A. Krogius shunday yozadi: «Ko'rlik haqida gapirganda aslida tuyish sezgilari orqali olingan bilimlar haqida fikrlaymiz. Ammo, ko'rlarni uzoq muddat kuzatishlar asosida shunga amin bo'ldimki, bizlarga ko'rish qancha ahamiyatga ega bo'lsa, eshitish ko'rlar uchun shunchalik ahamiyat kasb etar ekan». Bu fikrlar R. Dyufoga tegishli fikrlardir. Ko'rlar va zaif ko'ruvchi shaxslar uchun eshitish dunyoni bog'liqli bilishda, fazoviy va ijtimoiy moslashuvlarida katta rol o'ynaydi. Hid bilish jarayonlari ham ko'rlarda o'ziga xos tarzda rivojlanar ekan. O.I. Skoroxodova bemalol non, oziq-ovqat, sanoat va boshqa tur magazinlarni hech bir qiyinchiliksiz farqlay olgan.

¹ Ухтомский А.А. Танланган асарлар. — ТДУ. 220-бет.

Idrok ruhiy va asab tizimida o'ta murakkab jarayon bo'lib, uning maxsus markazi bosh miyada joylashgan. Shaxsning hayot tarzi, ish faoliyatining harakatiga qarab biror analizator dominant – yetakchi bo'ladi. Ushbu shaxsda o'sha idrok turi kuchli bo'ladi. Ko'pgina sog'lom kishilarda ko'ruv idroki yetakchidir. Ammo, ko'ruv o'tkirligi jiddiy pasayganda (0,03–0,02 gacha va undan past) va total ko'rlarda teri-mexanik, harakat analizatorlari yoki teri sezgi idroki yetakchilik qiladi.

Ammo, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'ruv o'tkirligining eng past darajasida ham, ko'rlar ko'p hollarda ko'ruv idrokidan faol foydalanadilar.

Total ko'rlarda atrof-olamni idrok etish asosan eshituv analizatorlari yordamida amalga oshadi.

Lekin, eshituv sezgisi va idroki tashqi olam va undan narsalar haqida bir tomonlama, ya'ni ularning fazodagi holati va fizikaviy mohiyati haqida juda tor tushuncha beradi. Insonning tashqi olamni sezishini – idrok etish jarayoni polisensor tarzda hamma mavjud sezgi analizatorlari va idrok turlari qatnashgan holda kechadi. Faqat, shunday holatda narsa va hodisalarni butunligicha, ongli – tushunib, umumlashgan holda, tanlab idrok etish yuz beradi. Masalan: ko'rlarda tashqi olamdagi narsalar va obyektlarni tanlab idrok etishning chegaranlanganligi, yo'qligi, narsalarning go'zalligidan hissiy ta'sirlanishning kamligi natijasida his-tuyg'u va qiziqishlar doirasining torligi kelib chiqadi.

Ko'rlarda predmet va obyektlarni keng va chuqur idrok etish teri va harakat analizatorlari yordamida amalga oshadi. Bu esa idrok etilayotgan narsalarning mohiyati, tarkibi, hamma xossalari haqida yetarli, keng ma'lumot olishga kamlik qiladi. Natijada, ko'rlarda sensor tajriba kam bo'lib, predmet va hodisalarni ongli va butunligicha idrok etish buziladi.

Ko'zi ojizlarda ko'ruv idroki ko'rish a'zolari nuqsonining darajasiga va narsalarning katta-kichikligi, uzoq-yaqinligi, xonaning yorug'ligiga bog'liq, sog'lom inson atrofidagi narsalarni ikkala ko'zi bilan ko'rganda (binokulyar ko'ruv) obrazlar – idroki to'liq bo'ladi, ammo ko'zi ojizlarda ko'zning ko'rish o'tkirligi past yoki

bir ko'zi umuman ko'rmasligi mumkin. Bunday holatda narsa va obyektlarning fazoda tomonlarini aniq ko'rish buziladi.

Ko'zi ojizlar narsalarni, rasmlarni tanishga qiynaladilar. Ko'zi ojizlar rasmlarni, ayniqsa murakkab rasmlarni butunligicha idrok eta olmaganlari uchun, rasmdagi narsalar, personajlar o'rtasidagi bog'liqlik buziladi. Rasmning muhim qismini ko'ra olmaganligidan tasvirning asosiy (asl) mazmuni haqida xato fikr paydo bo'lishi mumkin. Rasmni butunligicha (fazodagi narsa va obyektlarni ham) idrok etish uchun uni uzoqdan, yaqindan, keyin har tomondan turib tomosha qilinadi. Shunday tomosha qilinganda narsa va obyektlar (rasmlar) haqida, ularning muhim qismlari yetarli darajada aniq idrok qilinadi. Ko'zi ojizlarda ko'ruv o'tkirligining pastligi, ko'ruv doirasining torligi uchun ham bu jarayon qiyin kechadi. Natijada ularda harf va bo'g'inlarni, sonlarni, geometrik figuralarni idrok etish tezligi keskin kamayadi.

Ayniqsa, ko'r va ko'zi ojizlar uchun fazoda harakat qilayotgan narsalarni (qush, samolyot va boshqalar) idrok etish ancha qiyin. Bu kamchiliklar ularning o'qish, yozish malakalarini egallashlarini qiyinlashtiradi.

Ular ko'pincha daftardagi chiziqni yaxshi ko'rmaganliklari uchun qiyshiq yozadilar, harflarning elementlari tushib qoladi, baland-past yoziladi va hokazo nuqsonlarni ko'plab uchratish mumkin.

Narsalarning shaklini va hajmini idrok etish. Narsalarning asosiy belgisi – sensor mazmuni uning shaklidir. Shakl – narsa, uning mohiyati va mazmuni haqida ko'p ma'lumot beradi (Yer sharining kichik shakli – globusni eslang). Narsalarning katta-kichikligi, hajmini bir vaqtning o'zida ko'ra olish idrokning sifatiga ta'sir etadi. Ko'zi ojiz bolalar va kattalar narsa va obyektlarni tekshirayotgan vaqtda uni hamma tomondan ko'ra olmasliklari, ko'z soqqasini predmetni tartib bilan – tizimli ko'rib chiqishga xalaqit berishi, shuningdek, ko'zning tez charchab qolishi natijasida olingan axborot kam, noaniq bo'lishi mumkin. Narsalarning shakli, hajmi, proporsiyasi haqidagi ma'lumotlar ham ko'zi ojiz bolalarda aniq bo'lmasdan qoladi.

Rang va tuslarni idrok etish. Insonning diqqatini o'ziga jalb qiluvchi narsa bu rangdir. Rang yordamida narsalar haqidagi bilimlarimiz boyiydi, mazmun kasb etadi.

Ayniqsa, rang insonda his-tuyg'uni uyg'otadi. Ko'zi ojiz bolalarda rangni idrok etish qiyinlashgan bo'ladi. Ayniqsa, ular qizil, ko'k, yashil ranglarni qiyinchilik bilan idrok etadilar. Tuslarni idrok etish katta qiyinchilik tug'diradi.

Ko'zi ojizlar aniq yaqqol chiziqlar bilan chizilmagan ko'rgazmali qurol, rasmlarni farqlashga qiyinaladilar. Shuning uchun ham ko'zi ojizlar uchun chiqariladigan ko'rgazmali qurollar, chizma va rasmlar murakkab ranglarda bo'lmasdan, balki qora-qalin chiziqlar bilan chizilgan aniq va yaqqol bo'lishi shart.

Harakatni idrok etish. Narsalarning fazodagi holatini idrok etish ko'zi ojiz bolalar va kattalarda ko'ruv doirasining torligidan, ko'ruv o'tkirligining pastligi, ko'z soqqasining harakatchanligining pastligi (kamligi)dan sust kechadi.

Eshituv idroki. Bola o'sib borishi bilan eshituv idroki murakkablashib, tovushning uzoq-yaqinligini, tanish-notanishligini, yo'nalishini va boshqa xususiyatlarini farqlashga o'rganib boradi. Tovushlarni aniq va nafis idrok etish asosan maktabgacha va kichik maktab yoshida shakllanadi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar eshituv yordamida tashqi muhitni idrok etadilar. Ular eshituv bilan faqat tovushlarni, fazoni idrok etib qolmasdan, joyning tuzilishini, narsalarning katta-kichikligini, hatto go'zalligini ham idrok etadilar.

Masalan: barglarning shitirlashi, qushlarning sayrashi va boshqa narsalar tabiat va uning tuzilishi haqida, go'zalligi haqida bu toifa bolalarga ko'plab axborot beradi.

Teri yoki paypaslab idrok etish. Teri yordamida inson og'irlikni, bosimni, yuzaning xossalarini, zichlikni, issiq-sovuqni, og'irlikni va boshqalarni sezadi va idrok etadi. Inson ko'ruv yordamida narsa va obyektlarning 8 xil belgilarini farqlasa, teri yordamida paypaslab 11 xil toifadagi belgilarni farqlay oladi. Mehnat jarayonida chap va o'ng qo'llarning ish bajarishdagi vazifasida taqsimlanish yuz beradi. O'ng qo'l asosan mehnatda, mehnat qurollaridan foydalanishda yetakchi rol o'ynaydi, chap qo'l yordamchi vazifani va nazorat vazifasini bajaradi. Shuningdek, barmoqlar ham ma'lum ish bajarishga ixtisoslashgan. Masalan, o'ng qo'lning ko'rsatkich barmog'i bu toifa o'quvchilarda relyefli nuqtalarni topish va farq-

lashga moslashgan bo'lsa, chap qo'lning ko'rsatkich barmog'i shu olingan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi.

Paypaslab idrok etish uch xil yo'l bilan amalga oshadi.

1. Passiv shaklda paypaslash. Bunday idrok teri yuzasidagi analizatorning nisbatan tinch vaqtida amalga oshadi. Narsalarning zamon va makondagi moddiy, fazoviy xususiyatlari, og'irligi, shakli, hajmi, uzun-kaltaligi, issiq-sovuqligi va hokazolar aniqlanadi. Ammo, passiv shaklda idrok etishda predmetlarning ko'pgina jihatlari: hajmi, shaklini yetarli idrok etish yuz bermaydi va natijada predmetning mohiyati va mazmuni haqida yaxshi tushuncha shakllanmaydi.

2. Shaklda paypaslash – gaptika. Narsa va obyektlarni faol ravishda paypaslash – gaptika deyiladi. Bunday idrok etishning teri mexanik va harakat analizatorlarining o'zaro hamkorlikda, integrativ faoliyati yotadi. Faol paypaslash jarayonida predmet va obyektlarning fazodagi hajmi, belgi va munosabatlari, moddiy dunyosining jismiy mohiyati yetarli va faol tekshiriladi, aniqlanadi.

3. Har xil asboblarda vositasida narsa va obyektlarni sezish – idrok etish. Bunga ko'r va ko'zi oqizlarning hassa yordamida joyini va yo'nalishni aniqlash yoki grifel yordamida relyefli-nuqtali shriftni o'qishni misol qilib ko'rsatsa bo'ladi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar joyning past-balandligi, yumshoq-qattiqligini va boshqa xossalarini, yerning relyefini oyoq kiyimi yordamida sezadilar.

Inson faoliyatining asosiy turlari: o'yin, o'qish va mehnat jarayonida paypaslab sezishning o'rnini hech narsa bosa olmaydi (hatto ko'ruv sezgisi ham). Shaxsning paypaslab sezish qobiliyati ko'rlikni kompensatsiya qilishning asosiy vositalaridan hisoblanadi. Hatto, sog'lomlarda ham qo'l bilan ish bajarilganda, paypaslab sezish asosiy boshqaruv vazifalarini bajaradi. Ko'rlarda paypaslab sezish bilish va nazorat qilish vazifasini bajaradi. Ammo, paypaslab sezish ko'rishning o'rnini bosa olmaydi. Birinchidan, teri, muskul-bo'g'in sezgisi narsalarning hamma belgisini o'zida aks ettira olmaydi. Ikkinchidan, paypaslab sezishda tekshirish doirasi chegaralanganidir.

Shunga qaramasdan paypaslab sezish atrof-olam va tashqi muhit haqida ko'rlarga zarur ma'lumotlarni olishga yordam beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rlarda idrokning qanday xususiyatlari kuzatiladi?
2. Zaif ko'ruvchi shaxslarda idrok xususiyatlari qanday bo'ladi?
3. Idrokni korreksiyalashning qanday imkoniyatlari mavjud?

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Illuziya** – borliqning noto'g'ri idrok etilishidir.
2. **Idrokning konstantligi** – idrok sharoiti o'zgarsada, idrok qilinayotgan narsalarning nisbatan o'zgarماسligi tushuniladi.

13.3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning xotira xususiyatlari

Xotira, xotiro, esda saqlash, esga tushirish, unutish... bu so'zlar, jumlar mohiyatining inson hayotida tutgan o'rnini, ahamiyatini oddiy tilda, bir og'iz so'z bilan tushuntirib bo'lmas, negaki, bu masalani, xotira deb atalmish – fenomenni oddiy tushuntirish bilan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bu muammo atrofida buyuk shaxslar necha bor qalam tebratganlar, tebratmoqdalar va yana uzoq vaqtlar qalam tebratishlari haqiqat. Qaysi bir alloma, «xotiradan ajralgan inson abadiy «chaqaloqdir» degan, qaysi bir donishmand esa xotirani «oppoq taxtaga» qiyoslagan, yana bir ruhiyat mutaxassisi esa, xotirani «ruhiyatning ustuni» deb ta'riflagan. Ko'rinib turibdiki, xotira oddiy, sodda, yuzaki, ikkinchi darajali ruhiy jarayon emas ekan. Shu bois, bu masalaga jiddiy yondashish talab etiladi. Xotira keng qamrovli muammolar, jarayonlar qatoriga kiritilar ekan, demak, uni o'rganish, talqin etish va u haqda ma'lum mushohada qilishning o'zi oson kechmaydi. Xotiraga turli tomonlardan yondashib o'rganish maqsadga muvofiq deb bilamiz. Xotiraning turlari, jarayonlari mavjud. Shuni e'tirof etmoq joizki, xotira ham turli manbalarda turli ko'rinishlarda, shakllarda, xususiyatlarda bayon etiladi. Xotirani turlarga bo'lish masalasini osonlashtirish maqsadida «nimani eslash, qanday eslash va qancha muddatga eslashga» ko'ra xotirani turlarga bo'lsak, o'quvchida, o'rganuvchida yaxlit va bir butun tushuncha paydo bo'ladi, deb umid qilamiz.

Demak, xotira nima eslanishiga ko'ra: harakat, hissiy, obrazli va so'zli turlarga bo'linadi. Qanday eslanishiga ko'ra, xohlabmi,

tasodifanmi, demak irodaning aralashuviga ko'ra ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlarga ajratiladi. Materialning qancha muddatga eslanishiga ko'ra esa: qisqa muddatli, uzoq muddatli va operativ xotira turlariga bo'linadi. Xotira haqida umumiy ma'lumotlarni berdik. Endi esa ko'rish qobiliyati buzilgan bola va katta kishilarda xotira qanday kechadi, rivojlanadi? O'ziga xos tomonlari qanday? Kamchilik, yetishmovchiliklarni qay yo'sinda to'g'rilash, korreksiya qilish mumkinligi haqida mulohaza yuritamiz. Ta'kidlanishicha, inson bilimlarning 80% qismini ko'rish a'zosi orqali olar ekan. Qolganlarini esa eshitish va boshqa sezgi a'zolarimiz orqali qabul qilish ekanmiz. Ko'rlik muammosining naqadar jiddiyligi shundan ko'rinib turadi. Xotira – eslash, esda olib qolish, unutish, bilish, qayta esga tushirish jarayonlari kishining ijtimoiy mehnat faoliyatining asosini tashkil etadi. Maxsus psixologiya fanida qilingan va qilinayotgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'rlarda xotira normal ko'ruvchi shaxslar xotirasidan nafaqat hajmi jihatidan, balki o'ziga xos ko'rinishlari, rivojlanish xususiyatlari bilan ham ajralib turar ekan. Ko'rish analizatorining zararlanishi shartli bog'lanishlarning yuzaga kelishiga, differensirlashishiga xalaqit berar ekan. Buning uchun ko'p hajmli mustahkamlash ishlari olib borish talab etiladi. Demak, ko'rlik nuqsoni qo'zg'alish va tormozlanish deb nomlangan asab jarayonlarining mutanosibligini ham buzar ekan. Buning oqibatida, xotira tezligi pasayadi. Olib borilgan tadqiqotlar bu toifa bolalarning materiallarni eslab qolishlari kam samaradorligi bilan izohlanar ekan. Bu bolalar xotirasi nafaqat hajmi jihatidan, balki eslanayotgan materialni tushunib eslashlari ham buzilar ekan. Ma'lumki tushunib eslash yoki mantiqiy eslash idrok jarayoni bilan uzviy bog'liq. Demak, eslab qoluvchi shaxs materialni ko'rmagach uni to'la, atroflicha idrok eta olmaydi. Bu yog'i esa barchaga ma'lum. To'la idrok etilmagan narsa va hodisalar tushunib qabul qilinmagach, uzoq muddat eslab qolinmaydi. Buning oqibatida, «zanjir reaksiyasi» kabi bola tafakkurini tashkil etuvchi tahlil, tasnif, umumlashtirish, ... jarayonlar yuzaki, samarasiz amalga oshadi. Buning oqibatida esa yana yuqoridagi kamchilik fikrlash kamchiliklari yuz beradi. Normal bolalarda ma'lumki, berilayotgan materiallarning bolalar tomonidan boshi

va oxiri yaxshi o'zlashtiriladi. Ko'rish nuqsoni bor bolalarda bu holat boshqacha namoyon bo'lar ekan. Ya'ni, bu bolalar berilayotgan materiallarning boshlang'ich qismini yaxlit o'zlashtirib, tez charchashlari oqibatida oxirida berilayotgan materiallarni qi-yin yoki kam o'zlashtirar ekanlar. Shu narsa diqqatga sazovorki, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar xotira hajmida, eslab qolish tezligida, mexanik xotira va mantiqiy xotira jarayonlari bo'yicha bir-biridan keskin farq qililar ekanlar.

Individual farqlar turli xil sabablar oqibati bo'lishi mumkin. Bunga nuqson darajasi, yuz bergan vaqti, asab tizimi xususiyatlari, aqliy taraqqiyot darajasi, sezgilar, tajriba va boshqa sabablar kiradi. Bu kabi kamchiliklar bo'lishiga qaramasdan ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda xotira jarayonlarining kechishi, taraqqiyoti normal ko'ruvchi bolalar xotira qonuniyatlari bo'yicha amalga oshishi aniqlangan. Tadqiqotchilar ko'r bolalar xotira jarayonlarining sekin rivojlanishini, bu bolalardagi ko'rgazma-harakat tajribalarining kamligini, ularning tez charchashlari, hamda bu toifa bolalarni o'qitish ishlarining yuqori darajada takomillashmaganligi bilan bog'laydilar. Bu bolalarda xotira hajmining kamligi, sekin eslab qolish, tez esdan chiqarish holatlari bevosita ko'rlik oqibati bo'lmasdan, balki nuqson asosida bola ruhiyatida yuz beradigan chetga chiqishlar natijasidir. Ko'r bolalar xotira jarayonlarini o'rganish asosan ular tasavvurini o'rganish orqali amalga oshirilgan. Qator tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar xotirasi ustida muntazam mashqlar olib borilmasa, ular xotirasi pasayib borishga moyil ekan. Hatto, 1–3 oylik vaqt oraliqlari ham salbiy ta'sir etar ekan. Egallangan materiallarni tez esdan chiqarishga sabab bo'luvchi omillardan yana biri bu takrorlashlarning yetarli emasligidan ham yuz berar ekan. Bu borada F.N. Shemyakin tadqiqotlari e'tiborlidir.

Ma'lumki, tasavvurlarning saqlanishi ko'rish o'tkirligiga ham bog'liq. Ko'r va zaif ko'ruvchilarni ko'rgazma-harakat tarzda o'qitish xotira jarayonlariga birmuncha ijobiy ta'sir etar ekan. Ko'rlar tomonidan narsalarni bilish normal bolalarga qaraganda birmuncha sekin, hamda to'la bo'lmaydi. Bu toifa bolalarga xos narsalardan yana bir tomoni, ular narsalarni o'ziga xos xususiyatlar bilan bilib

olar ekanlar. Bu bolalar egallangan materiallarning bir qisminigina esga tushira olar ekanlar. Bu bolalar oliy asab tizimlarida tormozlanish jarayonlarining ustunligi oqibatida ham, egallangan bilimlarini qayta esga tushirishda ma'lum qiyinchiliklar sezar ekanlar. Shu bois bo'lsa kerak, bu toifa bolalarda reminissensiya (oldin unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyin esga tushishi) normal ko'ruvchi bolalardan ko'proq uchraydi. Ko'r bolalar xotirasining holati berilayotgan materiallarning sifat va mazmuniga ham bog'liqdir. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarda xotiraning barcha turlari (so'z-mantiq obrazli, hissiy) va harakatni maxsus ta'lim-tarbiya orqali shakllantirish, rivojlantirish mumkin.

Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarni ongimizda qayta gavidalanishini tasavvur qilamiz. Xotira ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko'z o'ngimizda mavjud bo'lmagan narsalarning obrazlarini ko'z o'ngimizda maqsad qilib qo'yamiz. Masalan: ertaklar, romanlar, umuman biror asarni o'qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko'z o'ngimizda gavidalanishi xayoliy tasavvurdir.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'rishda nuqsonga ega shaxslarda ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotiraning o'ziga xosligini ochib bering.
2. Ko'rishda nuqsonga ega shaxslarda qisqa muddatli va operativ xotira qanday ahamiyatga ega?
3. Ko'rishda nuqsonga ega shaxslarda xotirani korreksiyalash yo'llari va imkoniyatlari haqida so'zlab bering.

13.4. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning tafakkuri

Qator mualliflar (T.P.Golovina (1975), L.P.Grigoreva (1985), M.I.Zemsova (1956, 1973), V.G.Ermakov (1989), A.L.Zamulin (1990), G.M.Milayeva (1974), L.I.Plaksina (1982), L.V.Rudakova (1982), L.I.Solnseva (1967) va b.) ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar normal ko'radiganlar kabi fikrlash operatsiyalarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, ko'rish qobiliyati buzilgan bolalarda tahlil qilish idroki sekin, fragmentar, ko'p bosqichli tarzda kechadi. Bu zaif ko'ruvchilarning obrazli tafakkuri rivojlanishini qiyinlashtiradi. Predmet va hodisalarni xayolan bo'laklashda, keyinroq ularni sin-

tezlashda turli belgilar obrazlarining yaxlitlik va bir paytlilik kabi sifatleri zarar ko'radi

Normal ko'radiganlar muhitida yashayotgan va ishlayotgan ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi hayotida shunday vaziyatlar bo'ladiki, u butun vaziyatni yaxlit idrok etolmaydi va vaziyatni o'z idroki uchun qulay bo'lgan alohida elementlar asosida tahlil qilishiga to'g'ri keladi. Bunday hollarda vaziyatni qayta yaratish va baholash uning alohida belgilari tahlili va sintezi, ularni anglab yetish va mavjud bilim hamda tasavvurlar tizimiga, hayot va ta'lim jarayonida yaratilgan umumiy konsepsiyaga kiritish asosiga quriladi. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar hayoti va faoliyatida tafakkurning katta ahamiyat kasb etishidan dalolat beradi.

Tiflopsixologiyada tafakkur ko'rish nuqsonini psixologik kompensatsiyalash va atrof-olamni bilish usullarini shakllantirish jarayonining eng muhim omillaridan biri sanalishi haqida fikr anchadan beri mavjud. Biroq tafakkur jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan aniq eksperimental tadqiqotlar ko'p emas. A.G. Litvak¹ va A.F. Samoylov² ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar tafakkuri rivojlanishining uchta konsepsiyasini ta'kidlaydi: ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilar tafakkurining tezlashgan rivojlanish nazariyasi; ko'rish nuqsonining tafakkur rivojlanishiga salbiy ta'siri nazariyasi va tafakkur rivojlanish darajasining ko'rish nuqsonlariga bog'liq emasligi konsepsiyasi.

Har uchala konsepsiya konkret faktlarga tayanadiki, ular o'z g'oyalari ta'kidlash uchun huquq beradi. Biroq ularning hech biri yo xayoliy obrazlar, yo tafakkurning shakllanish jarayonidagi o'ziga xoslikning mavjudligini inkor etmaydi.

Birinchi konsepsiya ko'zi ojizlarning nutqiy-mantiqiy tafakkuri nisbatan yuqori rivojlanganligi fakti haqidagi kuzatishlar, talqinlar va fikrlarga asoslanadi (S.F. Struve, 1810; A.M. Shcherbina, 1929; A.R. Krogius, 1926; K. Bryuklen, 1934; B.I. Kovalenko, 1962). Ikkinchi konsepsiya ko'zi ojizlar va ayniqsa zaif ko'ruvchilar bilan olib borilgan hissiy bilishdagi kamchiliklar tafakkurda va noaniq umumlashmalar hamda ularning formal tushunchalari ho-

¹ Литвак А.Г. Тифлопсихология. — М.: Просвещение, 1985. — с.188—191.

² Самойлов А.Ф. Проблема мышления в тифлопсихологии // Психологические особенности слепых и слабовидящих школьников. — Л.: ЛГПИ, 1981. — с.39—69.

sil bo'lishida aks etishini aniqlab bergan tadqiqotlarga tayanadi (M.I. Zemsova, F.N. Shemyakin). Uchinchi konsepsiya ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchilarning fikrlash faoliyati rivojlanish darajasini uni shakllantirish jarayonini boshqarish va dasturlashtirish sifati bilan bog'laydi (A.I. Zotov va uning izdoshlari).

Ko'rishda nuqsoni bo'lganlarda tafakkurni eksperimental tadqiq qilish asosan genetik jihatdan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda normal ko'radiganlar uchun ishlab chiqilgan metodikalardan foydalanib olib borilgan. Natijalar ko'radigan bolalarda olingan natijalar bilan solishtirganda ko'p jihatdan metodikalarni ko'zi o'jiz va zaif ko'ruvchilar foydalanishi uchun o'zgartirishlar kiritish va tajribalarni o'tkazish sharoitlariga bog'liq bo'lib chiqqan. Maktabgacha va maktab yoshidagi ko'zi o'jiz bolalar tafakkur darajasini o'rganishga oid tadqiqotlar J. Piaje metodikalari bo'yicha olib borilgan.

J. Piaje olib borgan normal ko'radigan bolalarning intellektual rivojlanishini o'rganishga oid tadqiqotlar unga rivojlanish bosqichlarini ajratish va hal qilinishi maktabgacha yoshdagi bolalarning tafakkuri xarakterli xususiyatlarini ochib beradigan va bolalarning o'z ilmiy tafakkuriga o'tishini belgilash imkonini beradigan qator vazifalarni ishlab chiqish imkonini berdi. «Piaje topshiriqlari» va «Piaje fenomeni» — P.Y. Galperin va D.B. Elkonin bolalar obyekt xossalariidan biri o'zgarganda modda miqdori saqlanishi qonunini tushunadigan fikrlash vazifalarini taqdim etishdan iborat metodikalarni shunday nomlagan. J. Piaje tadqiqotlari natijalariga ko'ra, 7–8 yoshli bolalar miqdorning saqlanishi qonunini tushunishga qodir, bu ularda ilmiy tafakkurning yuzaga kelganidan dalolat beradi.

Angliya, Fransiya, AQSH, Avstraliyada J. Piaje vazifalaridan foydalanib, ko'zi o'jiz bolalar tafakkurini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan (M. Canning, 1957; J. Hatwell, 1966; S.K. Milleg, 1969; B. Tepens, 1972; M. Tobin, 1972; R. Crome, 1973; M. Gottesman, 1976 va b.), tadqiqotchilar quyidagi natijalarga erishgan, ularga ko'ra ko'zi o'jiz bolalar saqlanish qonunini tushunishda ko'radigan bolalardan 4–8 yilga orqada qoladi (B. Stepens, 1972 va b.), qachonki, M. Tobin (1972), M. Gottesman va b. ta'kidlashicha, ko'zi o'jizlarda to'g'ri va noto'g'ri yechim am-

plitudasi ko'radigan bolalarnikidan qancha katta bo'lsa-da, ko'zi o'jizlarning eng yaxshilarini ko'radiganlarning eng yaxshilari bilan tenglash mumkin.

M. Gottesman tadqiqotlari unga ko'zi o'jiz bolalar tafakkur rivojlanishida albatta anomal emas va intellektning rivojlanishida hech bir kechikishga ega emas degan xulosaga kelish uchun asos berdiki, u idrok etiladigan axborotni integratsiyalay olmaslikdan dalolat berishi kerak edi. Tadqiqotchi ko'rsatib berdiki, ko'zi o'jiz bolalar tafakkur rivojlanishida aynan o'sha bosqichlarni taxminan o'sha yosh davrida o'tadi va Piaje vazifalarini ko'rish idrokiga tayanmasdan yecha oladi.

Ko'rish qobiliyati buzilganda o'xshashlik va tafovutning ko'plab belgilari ilg'ab olinmaydi. Qiyoslash tafakkur operatsiyalari ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalar tomonidan belgilarning cheklangan miqdori bo'yicha bajariladi, bu umumlashtirishni qiyinlashtiradi. Zaif ko'ruvchi bolalarda eng ko'p qiyinchilik predmetlar o'rtasidagi makon aloqalari va munosabatlarini baholashda yuzaga keladi

Ko'ruv nuqsonida tashqi olamni sezish, his etish nuqsonning darajasiga qarab ozmi-ko'pmi buziladi. Bu o'z navbatida tashqi olamni aniq, chuqur va farqlangan holda sezish va idrok etishni susaytiradi. Bu ham o'z navbatida bilish jarayoniga, aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir etadi. Ko'ruv nuqsoni natijasida idrok etish jarayoni qiyinlashadi. Ayniqsa, obrazlarning yaxlit holda shakllanishidagi kamchiliklar, narsalar va hodisalarni farqlashdagi kamchiliklar, ularning muhim qismlarini ajratishdagi yetishmovchiliklar tafakkurning eng muhim jarayoni bo'lgan umumlashtirishni qiyinlashtiradi. Aynan shuning uchun ham, ko'rlar idrokining sxematikligini – chizgi shakldaligini, fragmentarligini va hissiy sezishning boshqa kamchiliklarini yengib o'tish uchun ko'p mehnat qilishga to'g'ri keladi. Ko'rlarda ruhiy rivojlanishdagi nuqsonlarni kompensatsiya qilishda, o'rnini qoplashda, sensor sezish sohasidagi kamchiliklarni bartaraf etishda tafakkurning xizmati shundaki, har xil turdagi xulosa, hukmlar chiqarish bilan mavhum fikrlashni amalga oshiradi. Ko'r bola idrok eta olmagan yoki idrok etish imkoniyati bo'lmagan narsalar va hodisalarning mohiyatini ochishga tafakkur jarayonlari yordam beradi va yordam berishi zarur.

Ba'zi bir g'arb olimlari ko'rlardagi ko'ruv nuqsoni, ularda mantiqiy tafakkurlarining sog'lomlarga nisbatan yuqoriroq rivojlanishiga sabab bo'ladi, deb da'vo qiladilar. Bu fikrga ular asos qilib: ko'r shaxs fikrini chalg'itadigan narsa va hodisalarni ko'rmaganliklari uchun ichki fikrlash imkoniyati katta bo'ladi, ular chuqur fikrlash qobiliyatiga ega deb hisoblaydilar. Lekin, bunday fikrlar uzoq kuzatuvlar va tajribalar natijasining yakuni bo'lmasidan balki, empirik jihatdan qilingan, tasdiqlanmagan farazlardir xolos, yuqorida aytganimizdek, ko'rlarda sezgi, idrokda kamchiliklar ularning narsa va hodisalarning muhim qismlarini farqlash va taqqoslash yetarli kechmaydi.

Ayniqsa, notanish narsalarni taqqoslash va umumlashtirish ularning tasodifiy belgilari yordamida va taxminiy amalga oshgani uchun ham ko'rlardagi bilishlarda verballik ustunlik qiladi. Tahlil va tasnif jarayonining amalga oshishi asosan taqqoslash bilan, taqqoslash jarayoni esa tahlil va tasnif bilan bog'liqligi uchun ko'ruv nuqsonida narsalarni farqlash va solishtirishdagi nozik va murakkab jarayonni amalga oshirish qiyinlashadi.

Taqqoslash jarayonining qiyinligiga sabab esa, tahlil va tasnif jarayonining yetarli amalga oshmasligidir. Ko'rlarda tahlil va tasnif jarayonining qiyinligiga sabab: bir tomondan narsa va obyektlarning belgi va mohiyatlarini sezish – idrok etishning qiyinligi bo'lsa, ikkinchi tomondan, idrok etilayotgan narsa va obyektlarning qisman – suksessiv, fragmentar idrok etilishidir. Narsalarni har tomonlama, chuqur tahlil qilishning imkoniyati chegaralanganligi natijasida, narsalarni yuzaki bilish, muhim qismlarni sezmasdan qolish yuz beradi.

Ko'rlar narsalarning muhim qismlarini ajratishga qiynalishlari yoki faqat umumiy belgilarnigina farqlashlari natijasida narsalarni bir tizimga solishda, guruhlashda qiyinchilik kelib chiqadi. Shunday qilib, ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning sensor sohasidagi kamchiliklari hissiy bilishni qiyinlashtiradi va kambag'allashtiradi.

Bu o'z navbatida tafakkurning rivojlanishiga salbiy ta'sir etadi. Fikrlash jarayonida tushunchalarning to'g'ri shakllanishi katta ahamiyatga ega. Tushunchalar asosan tasavvur yordamida, uning obrazlaridan hosil bo'ladi. Masalan: sog'lom bola «dars» so'zini ko'p marta eshitadi, lekin dars haqidagi haqiqiy tushuncha uni ko'rgandan so'ng

paydo bo'ladi. Ko'rlarda tushuncha va uning haqiqiy obrazi o'rtasida ajralish (divergentsiya) yuzaga keladi. Tushunchalarning mantiqiy va hissiy ajralishi ko'pincha noto'g'ri yoki formal, yuzaki, soxta xulosa chiqarishiga sabab bo'ladi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda ba'zan hayotdan – reallikdan ajralib qolgan tushunchalar yuzaga keladi.

Idrokni rejali ravishda tashkil etish bilan, tasavvurlar doirasini kengaytirib borish bilan tushunchalar shakllantiriladi. Bu bilan o'qituvchi ko'rlarda fikrlash jarayonlarida tafakkurni izchil tarzda rivojlantirib borishi mumkin. Ko'rlar ko'pgina narsa va hodisalar haqida so'z yordamida ma'lumot oladilar. Lekin, bu bilimlar shaxsiy tajribada sensor malaka va ko'nikmalar yordamida mustahkamlanmaganligi uchun ham bu bilimlar yuzaki, hayotdan uzoq bo'ladi. Bu kamchiliklar tushunchalarning mazmunini ham buzadi. Bu kamchiliklarni bo'rtma ko'rgazmali qurollar yordamida narsa va obyektlarning natural shakli bilan tanishtirish yordamida bartaraf etiladi. Ayniqsa, o'qituvchilar ko'rlarda tushunchalarni shakllantirish ustida iloji boricha psixologik-pedagogik korreksiya ishlarini erta boshlashlari va izchil ish yuritishlari ijobiy natijalar beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarda tafakkur jarayonlari qanday kechadi?
2. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarda tafakkur kamchiliklari qanday korreksiyalanadi?

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Tafakkur jarayonlari** – tafakkur qilish jarayonlari tushuniladi.
2. **Tafakkur shakllari** – tafakkur qilish shakllari: hukm, xulosa, tushunchalar tushuniladi.

13.5. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli¹.

¹ Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – T.: 1998. 25-b.

Bolaning hissiy bilish tajribasi shakllanishi murakkab tizimli ko'rish-eshitish, ko'rish-taktik, ko'rish-harakatli aloqalar asosiga quriladi, bular bilish faoliyati oliy shakllarining keyingi rivojlanishi uchun fiziologik asos sanaladi.

L.S. Vigotskiyning fikricha, ko'rish obrazlari, hissiy, keyinchalik esa nutqiy-mantiqiy tajribaning ortib borishi bilan turli psixik funksiyalar qorishmasiga aylana boradi, ular tashqi sharoitlar ta'sirida doimo o'zgarib turadi va qayta quriladi. Bu so'zlarning predmet ma'nolari va bolalar foydalanadigan leksik-grammatik kategoriyalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Nutqning muayyan mazmunini ko'rish obrazlari bilan normada boyitish bolaning psixik rivojlanishi davomida bevosita hissiy va nutqiy-mantiqiy bilish o'rtasida to'g'ri nisbatning hosil bo'lishiga ko'maklashadi.

Psixolog va defektologlarning tadqiqotlari ko'rsatadiki, bolada ilk yoshda ko'rish idrokining buzilishi uning sensor tajribani mustaqil tarzda to'plashida qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa nutqning psixik bazasi shakllanishini kechiktiradi. Sensor jarayonlarning past darajasi, o'z navbatida, saqlangan psixik funksiyalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (L.S. Volkova, L.S. Vigotskiy, T.P. Golovina, L.P. Grigoreva, M.I. Zemsova, V.A. Kruchinin, A.G. Litvak, I.S. Morgulis, L.I. Plaksina, L.A. Rudakova, L.I. Solnseva, K. Becker, W. Belmer, H. Fekden, H. Suhrweir, C. Urwin, L. Zeuthen va b.). Shu sababli ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning va ko'rishning buzilishi murakkab nuqson bo'lib, ularda nutqiy va ko'rish nuqsonlarning ma'lum aloqa va o'zaro ta'siri kuzatiladi.

Nutqiy va psixik funksiyalarning shakllanmaganligi nafaqat bilish faoliyatining shakllanishiga ta'sir o'tkazadi, balki zaif ko'radigan bolalarning xususiyatlari: ehtiyojlar dinamikasida, ularni qondirishning qiyinligi bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni (perseptiv qobiliyatlarning yetarlicha rivojlanmasligi); hissiy tasavvurlar sohasidagi cheklanganlik bilan belgilangan qiziqishlar doirasining torligi; nazoratni talab qiladigan faoliyat turlariga qobiliyatlarning sustlanishi; ichki holatlarning tashqi namoyon bo'lishi, cheklanganligi va boshqalarni keltirib chiqaradi (I.G. Kornilova va b.).

Ko'rish nuqsonlarining mavjudligi xarakter qirralarining (ayniqsa, emotsional-irodaviy sohada) shakllanishiga salbiy ta'sir qiladigan sharoitlarning yuzaga kelishiga ko'maklashadi, natijada egosentrizm, mustaqillikning yo'qligi, ishonuvchanlik, negativizm, qiziquvchanlikning yo'qligi va b. shakllanadi.

Ko'rish faoliyatining buzilishi ijtimoiy aloqalarni qisqartirib, makonda mo'ljalga olishni va faoliyatning ma'lum turlari bilan shug'ullanishni cheklab, atrof voqelikni bilishda katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ko'pchiligida aloqalarning nutqiy tizimlari ko'rgazmali obrazlarga yetarlicha tayanchsiz shakllanadi, shu sababli so'zlarning muayyan ma'nolari qashshoqlashishi, zarur so'z zaxirasining yo'qligi, nutqning mazmun tomoni yetarlicha rivojlanmasligi kuzatiladi.

Hozirgi kunda nutqni rivojlantirish muammosining dolzarbligi mazkur psixik jarayon inson faoliyati istalgan shaklining ajralmas tarkibiy qismi ekani bilan belgilanadi. Keyingi vaqtda psixologik-pedagogik adabiyotlarda nutqning bilimlarni to'laqonli o'zlashtirish, mantiqiy tafakkur, ijodiy qobiliyatlar va psixik faoliyatning boshqa sohalari rivojlanishining asosi sifatida maktabga tayyorlash uchun alohida ahamiyati haqidagi masala tobora ko'p qo'yilmoqda.

Ko'rish patologiyasi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanishi ko'radigan boladagidan ko'ra murakkab sharoitlarda kechadi. Bolalarda nutqning buzilishi va ko'rishdagi buzilishlar murakkab nuqson bo'lib, bunda nutqiy va ko'rishdagi kamchiliklar o'rtasida ma'lum aloqadorlik va o'zaro ta'sir kuzatiladi.

Tiflopedagog va tiflopsixologlar (L.S. Vigotskiy, T.P. Golovina, M.I. Zemsova, A.G. Litvak, L.I. Solnseva va b.) tadqiqotlarida aniqlanishicha, ko'rish nuqsoni tufayli tarbiyalanuvchilarning 30% dan ortig'ida nutqiy yetishmovchilik kuzatiladi.

L.S. Volkova, A.L. Lukoshevichene, S.A. Pokupneva, I.V. Pokupneva, I.V. Novichkova, Y.V. Shlay va boshqalar ishlarida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nafaqat nutqning yaxlit funksional tizim sifatidagi buzilishi bilan kechadigan tizimli buzilishlar (nutqning to'liq rivojlanmaganligi, fonetik-fonematik nutq kamchiligi), balki idrok, xotira, diqqat, tasavvur va mantiqiy fikrlash jarayonlari rivojlanishida og'ishlar ham kuzatilishi o'z tasdig'ini topgan. Shu

sababli bunday bolalar sujetni mustaqil rejalashtirish, leksik-grammatik kategoriyalar bilan mustaqil operatsiyalash, nutqiy materialni grammatik rasmiylashtirishda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladi. Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni bog'lanishli monologik nutqqa (ya'ni, o'z fikrini aniq va izchil, mantiqiy tizimli va tugal, leksikadan foydalanishda va mazmunan aniq, grammatik rasmiylashtirishga ko'ra to'g'ri, mustaqil va erkin bayon qilish, jummalarni qurishga) o'rgatish korreksion-pedagogik jarayonda alohida o'rin tutadi.

Ko'rishning yo'qligi yoki uning og'ir nuqsoni sensor defitsit hosil qiladi, bu hissiy idrok va bilishning rivojlanish darajasi pasayishiga olib keladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi ko'zi ojiz bolalarning tasavvurlari, jumladan jonsiz tabiat obyektlari haqidagi tasavvurlar ham, spontan shakllanishida ko'rish obrazlarining to'liq yoki qisman tushirib qoldirilishi va reduksiyalanishi hisobiga toraygan bo'ladi. Ularda fragmentar, sxematik, umumlashganlik darajasi past bo'ladi (V.S. Izotova).

Ko'zi ojiz bolalar atrof-olamdagi predmetlar bilan tanishish jarayonida his qiladigan qiyinchiliklar bolalarning idrok etishning zarur usullarini yetarlicha egallamagani bilangina emas, balki ko'p jihatdan nutqiy rivojlanishning xususiyatlari bilan ham belgilanadi.

Bolaning to'g'ri nutqiy rivojlanishi ko'p jihatdan tashqi olamdagi predmet va hodisalarni faol hamda doimiy bilish va ularning nomlarini atrofda odamlar bilan til muloqoti jarayonida o'zlashtirish bilan belgilanadi. Lisoniy ifodalarni o'zlashtirish uchun normal eshitish idroki zarur, so'z ma'nolari asosida yotadigan predmetli tasavvurlarning to'laqonli rivojlanishi uchun, eng avvalo, ko'rish analizatorining ishtiroki zarur. Analizatorlar funksiyalari yoki fikrlash analitik-sintetik jarayonlari buzilganda nutqiy rivojlanishda turli og'ishlar kuzatiladi.

Ko'zi ojiz bolalar nutqi L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev va boshqalar ta'kidlaganidek, yoshga oid rivojlanishning umumiy qoidalariga bo'ysunadi va yetakchi faoliyat (o'yin, o'qish) bilan belgilanadi, biroq uning shakllanishi normal ko'radigan bolalarnikidan murakkabroq sharoitda kechadi. Ko'rish qobiliyati og'ir nuqsoni sharoitida atrof makonni hamda predmetlarni distant va bir paytda ko'rib chiqish,

ularni yaxlit idrok etish va ko'rgazmali qiyoslash imkoniyati keskin cheklangan bo'ladi.

Qator mualliflarning ma'lumotlariga ko'ra, ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning nutqi tiklanishi muloqot jarayonida xuddi ko'radiganlaridagi kabi u yoki bu qonuniyatlar asosida amalga oshadi (A.I. Kaplan, N.S. Kostyuchek, N.A. Krilova). Ayrim tadqiqotchilar maktabgacha yosh davrida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanish sur'atlari pasayishini ta'kidlaydi. Boshqa tadqiqotchilar fikricha, rivojlanish sur'atlari ko'radigan bolalarniki bilan taxminan bir xil (L.I. Solnseva). Shu bilan birga ko'zi ojiz bolalarda normal ko'radigan bolalardan boy lug'at kuzatilgan hollar ham ma'lum (N.S. Kostyuchel). Biroq bunga qaramay, tadqiqotchilarning ko'pchiligi ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining konkret mazmun bilan yetarlicha boyitilmaganligi to'g'risida bir xil xulosaga kelgan.

Nutqning semantik va leksik tomonlari o'rganilganda ma'lum bo'lishicha, normal ko'radigan bolalar ko'rishda nuqsoni bo'lgan tengdoshlaridan ustunlikka ega.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan 7 yoshli bolalarning bilish mustaqilligini o'rganib, T.P. Sviridyuk ularning predmetli axborotdan foydalana olmasligi, kuzatish qobiliyati yetarlicha rivojlanmaganligini aniqlagan. Bular idrok va og'zaki nutq jarayonlari rivojlanishiga bevosita bog'liq.

N.G. Morozovaning tadqiqotlari hissiy bilish sohasining torayishi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalarning predmetlar, ularning belgilari bilan, harakatlar bilan mustaqil tanishishiga to'sqinlik qiladi, bu o'z navbatida, zarur tasavvurlarning to'planishi sekinlashishiga olib keladi.

Qator tadqiqotlarda aytilishicha, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning bog'lanish nutqi yetarlicha rivojlanmaganligi hissiy va predmetli-amaliy tajribaning cheklanganligi, ularni o'qitish va tarbiyalash metod hamda usullari takomillashmaganligi bilan belgilangan. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanishiga bag'ishlangan ishlarning soni ko'pligiga qaramay, nutqning hamma tomonlari yetarlicha yoritilmagan. Maxsus adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanishi

shu masalalari yetarlicha o'rganilmagan va juda umumiy tarzdagina aks ettirilgan.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Nutq** — odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishi.
2. **Nutq madaniyati** — muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish.
3. **Nutqni korreksiyalash** — nutqda mavjud bo'lgan ovoz, talaffuz nuqsonlarini to'g'rilash.

13.6. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvur, xayol va fazoda mo'ljal olish xususiyatlari

Tasavvur oldin idrok etilgan narsa va hodisalarning xotiramizda qolgan obrazlaridir. Narsa va hodisalar sezgi organlarimizga bevosita ta'sir etmayotgan bo'lsa, ularni istagimiz, xohishimiz bilan ongimizda qaytadan hosil etsak, bu jarayon tasavvurdir. Tasavvur idrokka nisbatan ancha yuqori bosqichdagi jarayon bo'lib, «u ko'rgazmali — hissiy obrazdir» va u ancha umumlashgan holda namoyon bo'ladi.

Tasavvur xotirada obrazlarning ko'rgazmali va umumlashgan holda paydo bo'lishi bilan tafakkurga o'tish bosqichi hisoblanadi. Tasavvur mustahkamlanmasa, vaqti-vaqti bilan takrorlanmasa, vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, xiralashishi, sxematik yoki umumlashgan holga kelib qolishi mumkin. Kuchli his-tuyg'u bilan bog'liq tasavvurlar o'ta yorqin va bo'rttirilgan holda xotiramizda uzoq vaqt saqlanib qolishi mumkin.

Ko'ruv nuqsoni ko'ruv idrokini qiyinlashtiradi yoki unga to'sqinlik qiladi. Bu nuqson o'z navbatida tasavvurni ham zaiflashtiradi. Ko'rlardagi tasavvurning o'ziga xos tomoni shundaki, ularda ko'ruv obrazlari torligi (ko'zi ojizlarda) yoki uning umuman yo'qligi (ko'rlarda) uchun ham tasavvur doirasi keskin kamaygan bo'ladi. Bu toifa bolalardagi tasavvur jarayoni sog'lomlarga nisbatan miqdor jihatdan kamligi bilan birgalikda, u sifat jihatdan ham farq qiladi. Ko'rlarda tasavvurning miqdor jihatdan kamligini saqlanib qolgan analizatorlar yordamida (asosan paypaslab — teri sezgisi) kompensatsiya qilish mumkin. Ammo ko'rish, masofadan ko'rishning o'rnini hech narsa bosa olmaydi.

Ko'rlardagi obrazlar sog'lom shaxslarnikidan fragmentarligi, sxematikligi, kam umumlashganligi bilan ajralib turadi.

Ko'r va ko'zi ojizlarda obrazlarning fragmentarligi shu bilan xarakterlanadiki, ularning tasavvuridagi narsa va obyektlarning muhim qismi yetishmaydi, to'liq emas, ba'zan tasavvur etilayotgan narsa va obyektning real tasviriga mos kelmaydi. Narsa va obyekt-larning obrazlarida muhim qismlari yetishmaydi. Narsa, rasm, tanishda ularning muhim qismi tushib qoladi. Masalan, ko'r bola uchun tulkining obrazidagi eng muhim narsa uning katta dumi, quyonning obrazida esa quloqlari va kalta dumi muhim belgi hisoblanadi. Bunday belgilarning fragmentarligi va sayoz umumlash-ganligi narsa va obyektlarning haqiqiy obraziga ko'r bola tasav-vuridagi obrazning mos kelmasligi va tasavvurlarning fragmentar bo'lishi teri yordamida sezish yoki ko'ruv idrokining suksessivligi (suksessivlik – narsa va obyektlarni bir butunligicha emas, bal-ki birin-ketin idrok etishdir. Bunday idrok ko'r shaxslarda ko'ruv analizatorlari tekshirish maydonining torligi yoki chegaralangan-ligidan kelib chiqadi).

Sog'lom shaxslarda joyni, narsa va obyektlarni idrok etish ko'pincha simultan tarzda (ya'ni joy, narsa va obyektlarni yaxlit, bir butunligicha) idrok etish yuz beradi.

Tashqi ko'rinishi o'xshash, tashqi ko'rinishida alohida ajralib turuvchi qismlari kam bo'lgan narsalarni idrok etganda sxematik idrok shakllanadi. Ko'rlar bunday narsalarni bir-biridan farqlashga qiynaladilar. *Bir xil ko'rinishdagi qushlar* (musicha, kaptar, qarg'a va hokazolar)dan, o'simliklarning (arpa, bug'doy va boshqalar) tashqi ko'rinishi bir-biriga o'xshashligi sababli farqlashga qiynali-shadi. Eng muhim belgilar – shakl, tashqi ko'rinish, rang, tashqi a'zolarining o'ziga xos xususiyatlari e'tibordan chetda qoladi. Nati-jada ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning tasavvurida narsa va obyekt-larning obrazlari sxematik-chizgi tarzida shakllanadi.

Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning tasavvur xususiyatlaridagi yana bir kamchilik narsalar va hodisalar haqidagi obrazlarning yetarli umumlashmaganligidir. Ko'ruv nuqsonida sensor tajribaning kam-ligi, narsa va obyektlar mohiyati va mazmuni, qismlari va qismlar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi bilim va tajribalarning kamligi

bir turga, bir sinfga kiradigan o'simliklar, hayvonlar va boshqa narsalarni farqlashda qiyinchilik yaratadi. Ayniqsa, maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning atrof-muhit haqidagi bilim va tajribasining kamligi umumlashtirishdek muhim ruhiy qobiliyatning kuchsizligiga sabab bo'ladi.

Ko'r shaxslar atrof-olam haqidagi asosiy bilim va ma'lumotlarni so'z yordamida, ya'ni atrof-dagi kishilarning (ota-ona, o'qituvchilar, radio, televizor va boshqalar) yordamida to'playdi. Ko'rlar atrof-olam haqidagi bilim va ma'lumotlarni sog'lom bolalarga nisbatan ko'proq qiziqish bilan tinglaydilar. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolada atrofga qiziqishi, ehtiyoji verbal yo'l bilan qondiriladi va mustahkamlanadi. Buning oqibatida ko'rlarda ko'ruv tasavvurlar va obrazlarning kamligi (ko'rlarda umuman yo'qligi) narsa va hodisalarning real va verbal mazmuni, mohiyati o'rtasidagi ajralish (divergensiya)ga sabab bo'ladi.

Umumiy psixologiya kursidan ma'lumki, tasavvurning shakllanish jarayoni uch bosqichda kechadi.

Birinchi bosqich — predmet va obyektlarni farqlash kuchsiz, ularning o'zaro munosabatlari yetarli anglanmagan.

Ikkinchi bosqich — farqlash murakkablashib boradi. Narsa va obyektlarning muhim belgilarini farqlash malakasi paydo bo'ladi.

Uchinchi bosqich — narsa va obyektlarning muhim qismi va belgilari haqida mustahkam bilim paydo bo'ladi. Bu qism va belgilar o'rtasidagi aloqalar — munosabatlar anglab yetiladi. Bu tasavvurning oliy bosqichidir.

Ko'rlarda ham tasavvur shakllanishi yuqoridagi bosqichlarda kechadi. Lekin, bosqichlararo vaqt uzoq va qiyinroq kechadi. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar hatto atrof-muhitdagi sog'lomlar uchun yaxshi tanish narsalarni sog'lomlarga nisbatan qiyin tasavvur etadilar.

Sog'lom bola 4-sinfga chiqqanda tasavvur etish qobiliyati oliy bosqichga yetgan bo'ladi. Ko'rlar esa maktabda maxsus ta'lim orqali malaka va ko'nikmalarni egallagandan so'ng ham tekshirilgan o'quvchilarning 1/20 qismining tasavvurlari oliy bosqichga yetishi aniqlandi.

Ko'pchilik ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning tasavvurlari 1 yoki 2-bosqichda qolib ketadi.

Ko'rlarning ko'ruv doirasidan (ko'zi ojizlarda) ko'rlarning paypaslab tekshirish doirasidan uzoqda joylashgan narsa va obyektlar sxematik, fragmentar tarzda yoki umuman idrok etilmasdan qolib ketadi. Tasavvur obrazlarining xotirada saqlanishi va mustahkamlanishi uchun, faoliyat davomida uning qayta-qayta idrok etilishi katta ahamiyatga ega Ko'rlarda qayta idrok etishning qiyinligi ham tasavvurlarning I-II bosqichda qolib ketishiga yoki xotiradan yo'qolib ketishiga sabab bo'ladi. Obrazlar bordi-yu yo'qolib ketmasa ham xira bo'ladi. Fragmentarligicha yoki yetarli farqlanmaganligicha qolib ketadi.

Erta ko'r bo'lganlarning xotirasida ko'ruv obrazlari juda oz bo'ladi. Faqat ko'zi sog'lom davrda kuchli his-hayajon uyg'otgan narsa va hodisalar (chiroyli o'yinchoq, yong'in va boshqalar)ning yorqin obrazlari yaxshi saqlanib qoladi. Maktab yoshida ko'zi ko'r bo'lganlarning ko'ruv xotirasi ancha yaxshi bo'lib, maxsus ta'lim jarayonida bilim va tajriba olish faolligi yana oshadi. Katta yoshga kirib ko'r bo'lganlarning ko'ruv tasavvurlari sog'lom kishilarnikidan farq qilmaydi.

Ammo, tasavvurlarining mustahkamligi nisbiydir, tasavvurlar vaqti-vaqti bilan mustahkamlanib turilmasa, ular asta-sekin xiralashadi va yo'qolib ketishi ham mumkin. Ko'rlarning tasavvur xususiyatlarini rivojlantirish uchun oilada, maktabgacha va maktab ta'limi jarayonida quyidagi ishlar olib borilishi kerak:

1. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar va o'quvchilarni narsa va obyektlarni kuzatish va paypaslab tekshirishga o'rgatish.

2. Narsa va hodisalarni, obyektlarni tekshirish malakasiga va ko'nikmasiga o'rgatish.

3. Narsa va obyektlarning muhim qismlarini, unchalik muhim bo'lmagan qismlaridan farqlash va topish.

4. Qismlar, narsalar orasidagi bog'liqlikning qonuniyatlarini tushuntirish.

5. Sensor tajribani oshirishda mumkin qadar hamma analizatorlardan foydalanish.

Ko'r va ko'zi ojizlarda fazoviy tasavvurlar va mo'ljalga olish o'ziga xos ma'no kasb etadi.

Fazoviy tasavvurlar deb predmetlarning fazodagi o'rni, shakli, holati, tuzilishi va harakatining ongimizda aks etishiga aytiladi.

Inson o'zining turgan jo'yini va yo'nalishini aniqlash uchun o'zini va atrofdagi predmetlarning joylashuvini belgi qilib oladi. Natijada kishi atrof-muhitning, fazodagi narsa va obyektlarning shaklini, katta-kichikligini aniqlaydi va eslab qoladi.

Buning uchun u o'zini bitta nuqta deb olsa, atrofdagi predmetlardan bittasini yoki bir nechtasini mo'ljalga olish nuqtasi deb hisoblaydi.

Uch o'lchamli fazoda inson atrofdagi narsalarning balandligini, uzunligi, enini va boshqa o'lchovlarini aniqlash uchun bu narsani o'z bo'yi yoki boshqa biror narsa bilan solishtirib mo'ljalga oladi. Mo'ljalga olishda va joyini topishda biz quyidagi oddiy usullardan foydalanamiz.

Notanish joyga mehmonga borgan vaqtimizda, ikkinchi marta shu yerga kelganda adashmaslik uchun (shahardagi uylar bir-biriga juda o'xshash), shu uy yonidagi qandaydir narsani: simyog'och, do'kon va boshqalarni belgi-mo'ljal qilib olamiz. Keyingi safar shu joyga kelganda bizga zarur uyni topishga oldingi safar ko'z ostiga olib qo'ygan «belgilari»miz yordam beradi.

Dengizda bunday belgilar yo'qligi sababli qadim-qadimdan kishilar suv oqimi, shamol va yulduzlarga qarab yo'nalishni belgilaganlar.

Sahro va o'rmonlarda esa tepaliklarning joylashuvi, daraxt va o'simliklarning, shamol esishi va yulduzlarga qarab kishilar o'zlarining turgan joylarini, joyning tomonlarini va boshqa zarur yo'nalishlarni aniqlaganlar.

Hind okeanida joylashgan mayda orollarda ibtidoiy tizimga yaqin sharoitda yashovchi xalqlar bir oroldagi kishilar, ikkinchi oroldagi tanishlarinikiga kichik kemachalarda mehmonga borib qaytib kelishadi. Vaholanki, ba'zi bir orollar orasidagi masofa 1000 km.

Bu xalqlarni tekshirgan olimlar, ular ochiq okeanda suv oqimiga, to'lqinlarga, shamolga va nihoyat quyosh va yulduzlarga qarab kemalarni boshqarishlarini aniqlaganlar. Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa kelib chiqadi, har bir kishining tasavvurida fazoning

(atrof-muhitning) «kartasi» bo'ladi. U o'ziga zarur joyni topishi uchun o'z xotirasidagi «karta» obraz bilan, atrofdagi joyni taqqoslab mo'ljal oladi. Joyni topish uchun uchta vazifa bajariladi:

1. Zarur yo'nalishni tanlash.

2. Shu yo'nalishni davom ettirish va ongimizdagi joyning, yo'nalishning obzori «karta»si bilan solishtirish.

3. Kerakli joyni topish.

Fazodagi obyektlar va narsalarning jo'yini, holatini, shaklini aniqlashda, ularni farqlashda va topishda hamma analizatorlar qatnashadi. Birorta analizatoridagi nuqson fazodagi yo'nalishni aniqlash va mo'ljalga olishni qiyinlashtiradi. Ko'rlarda bunday holatga quyidagilar sabab bo'ladi:

Birinchidan, ko'rlar idrok etish maydoni torayadi, idrok etishdagi narsalarni o'zaro taqqoslash, topish, aniqlik kiritish buziladi.

Ikkinchidan, fazoni masofadan turib idrok etish buziladi. Shu sababli ko'rlarda fazoviy yo'nalish malakalarining shakllanishi va uning avtomatizatsiyasi qiyinlashadi yoki umuman yo'qqa chiqadi. Ko'zi sog'lar o'zining turgan jo'yini, zarur yo'nalishni, joydagi sharoitni, yo'nalish va yo'lning tuzilishini avtomatik ravishda topadi va yuradi. Siz kamdan kam hollarda ish yoki o'qish joyingizga borish yo'lini oldindan rejalashtirasiz va yo'l davomida bu haqda o'ylaysiz.

Biz har kuni odatdagi yo'l, odatdagi transport vositasidan foydalangan holda hamma harakatni beixtiyor ravishda bajaramiz. Faqat odatdan tashqari hollardagina diqqatimiz kuchayib, sezgirligimiz ortadi.

Aynan shu jarayonni (avtomatizatsiya), ko'rlar doimo ong osti nazorati bilan bajarishga majbur.

Yo'lda yurish, joyni topish, to'siq va boshqalardan o'tish ko'rlardan kuchli diqqat, xushyorlik va «kuzatuvchanlik»ni talab etadi.

V.S.Sverlov ko'rlarning quyidagi fazoviy yo'nalishlarini farqlaydi:

1. Fazoviy kichik narsalarni topish va aniqlash:

a) juda kichik narsalarni, masalan: ignaga ip o'tkazish, gulning g'unchasini tekshirish va hokazolar. Bu ishlarni bajarishda ko'rlar ba'zan tildan ham foydalanadilar;

b) bir barmoq yoki bir necha barmoq bilan sezish mumkin bo'lgan predmetlar;

d) kaft bilan ushlab mumkin bo'lgan predmetlar.

2. Yashash va ish joyidagi narsalarni topish va aniqlash: oshxonadagi, xonalardagi narsalar, sinf xonasi, ustaxonadagi narsalar.

3. Katta joylardagi narsalar va obyektlar: katta sport xonalari, teatr, kino zallari, ochiq maydonchalarda narsa va obyektlarni topish va aniqlash.

Topografik tasavvurlar

Topografik tasavvur – bu joyni tasavvur etish, joyning tuzilishini (relyefini), joydagi narsalarning shaklini, kattaligini, uzoq-yaqinligini va boshqa xususiyatlari obrazlarining xotiramizda yaxlit tarzda mujassamlashishidir.

Ko'rlardagi fazoviy tasavvurlarni tekshirish shuni ko'rsatdiki, ularda ham topografik tasavvurlar mavjud. F.N.Shemyakinning fikricha, topografik tasavvur ikki xil bo'ladi: «karta-yo'l» va «karta-tasvir» shaklida tasavvurlar hosil bo'ladi. «Karta-yo'l» tarzidagi tasavvurda joyni tasavvur etish «sukcessiv» tarzda, ya'ni topish zarur bo'lgan obyektga – mo'ljal olinayotgan yo'nalish, obyektgacha masofa hamma tomonlama taqqoslanadi va qayta eslanadi (xotiradagi jarayon).

«Karta-tasvir» – topish tasvirini fikran bir vaqtning o'zida – yaxlit holda ko'z oldiga keltirish.

Joyni, katta obyektlarni bunday xilda tasavvur etish, «karta-yo'l» tarzidagi tasavvurdan so'ng shakllanadi.

Lekin, «Karta-tasvir»da ham joyning tasviri ko'pincha «chegaralangan» holda tasavvurimizda paydo bo'ladi. Masalan: ma'lum bir joyning tuzilishi, «plan» ko'rinishida bir vaqtning o'zida hamma tomondan qayta xotiramizda namoyon bo'ladi.

Asosiy yo'nalishlar, obyektlar orasida masofa umumlashgan holda paydo bo'ladi.

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, ko'rlar har xil joyda harakat qilar ekan, yo'nalish haqida, masofa haqida va boshqa fazoviy tushunchalar haqida to'g'ri tasavvurlar shakllanadi. Keyin shu tasavvurlar ko'rlarda verballashadi.

Bu shuni ko'rsatadiki, ko'rlarda ham «Karta-tasvir» tasavvur turi mavjud bo'ladi va ular joyni simultan tarzda (bir vaqtning o'zida) tasavvur eta oladilar. Ko'rlardagi joyni simultan tarzda tasavvur etishda tafakkurning analiz va sintez faoliyati va joyning grafik (qabariq-relyefli) tasviri bilan oldindan tanishish yordam beradi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarda predmet va hodisalar haqidagi tasavvurlar kengayadi, boyiydi, shakllanadi. Yoshi katta bo'lib borishi bilan tasavvurlar yorqinroq va aniqroq bo'ladi. Lekin, izchil, tizimli ravishda olib boriladigan rejali yordam bu toifa bolalar tasavvurlarining rivojlanib borishini ta'minlaydi.

Ko'rlarda tasavvurlarning shakllanishini boshqarish idrokka asoslangan holda quyidagicha amalga oshadi:

1. Predmetlarni so'z bilan tasvirlash va iloji bo'lsa uni paypaslash bilan tekshirish.

2. Narsa va hodisalarni og'zaki nutqda-xotirada qanchalik mustahkamlanganligini tekshirish uchun qayta hikoya qildirish.

3. Og'zaki tanish bo'lgan narsalarni plastilindan, loydan va boshqa narsalardan yasash.

4. Ko'zi ojizlarga shu narsalar va hodisalarni chizdirish.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'r bolalar tasavvur xususiyatlari haqida so'zlab bering.

2. Zaif ko'ruvchi shaxslarda tasavvur qanday xususiyatlarga ega?

3. Tasavvur va xayolni farqlab, tushuntirib bering.

4. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarda tasavvurni korreksiyalash yo'llari haqida so'zlab bering.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Tasavvur** — sezgi a'zolarimizga qachonlardir ta'sir etgan narsa va hodisalarning yaqqol asosiy obrazidir.

2. **Tasavvurni korreksiyalash** — tasavvurni to'g'rilash, rivojlantirish ishlari tushuniladi.

XIV bob. KO'RISH NUQSONI BO'LGAN BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARI

14.1. Tiflopsixologiyaning shaxs muammolari

Ma'lumki, individ shaklida dunyoga kelgan kishi alohida ijtimoiy fazilat kashf etib, shaxs bo'lib yetishadi. «Shaxs» va «Individ» tushunchalarining bir-biriga o'xshashligini barcha yetakchi psixologlar — B.G. Ananov, A.N. Leontev, B.F. Lomov, S.L. Rubinshteyn va boshqalar inkor etganlar. Demak, ular tasavvurida «Shaxs individ emas».

«Shaxs» va «individ»lik tushunchalari ham bahstalar masalalar sirasiga kiradi. Shaxs tuzilishida albatta biologik omillar ham ma'lum o'rin egallaydi. Shaxs tuzilishida individ ichkarisidagi holat alohida ahamiyatga ega. Buni **intra**individ (ichki) deb nomlanadi. Individdan tashqi bo'shliq — interindivid va individning ustki ko'rinishi **meta**individ deb nomlanadi. Shaxs va uning faolligi, yo'nalganligi ham muhim xislatlardan biridir.

Z. Freyd qarashlariga ko'ra kishi unda hayvonot dunyosiga mansub ajdodlaridan meros qilib olgan instinktiv mayllar va jinsiy instinkt, o'zini himoya qilish instinkti bo'lganligi bois faol ekan.

A. Kardiner, E. Fromm, K. Xorni va boshqalar shaxs faolligini tushunish borasida shahvoniy mayllarning ustunligi fikridan voz kechdilar. Ular fikricha, shaxsning muhitga bog'liqligi birinchi o'ringa qo'yiladi. Tiflopsixologlardan K. Rodjers, A. Maslou, G. Olport va boshqalar «insonparvarlik psixologiyasi» kelajakka, o'zligini eng ko'p darajada namoyish qilishga, o'zini faollashtirishga intilishni shaxs faolligining asosiy belgisi deb baholadilar.

Shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmuyi kishi shaxsining yo'naltirilganligi deb ataladi. Shaxs tizimida qiziqishlar ham ma'lum rol o'ynaydi. Qiziqishlar — bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Qiziqishlar mazmuniga, maqsadlariga, miqyosi va barqarorligiga ko'ra tasnif qilinishi mumkin.

O'z-o'ziga baho berish — shaxsning o'zi tomonidan o'ziga, o'z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga

baho berilishidir. Shaxsning o'zini anglab yetishi tushuniladi. O'z-o'ziga baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, tartibga solib turiladi. Shaxs o'ziga o'zi baho berishni qay tarzda amalga oshiradi?

Shaxs boshqa bir kishining fazilatlarini bila borib, o'zining xususiy bahosini ishlab chiqishga yordam beradigan zarur ma'lumotlarga ega bo'ladi. Xususiy «men»ning allaqachon tarkib topgan baholari shaxs o'zida kuzatishlarini boshqa odamlarda ko'rganlari bilan doimiy ravishda taqqoslab borishning natijasi hisoblanadi. Kishi o'zi haqida ba'zi narsalarni allaqachon bilgan holda boshqa kishiga razm solib boradi. O'zini u bilan solishtirib ko'radi, u ham uning shaxsiy fazilatlariga, xatti-harakatlariga, faolligiga nisbatan befarq qola olmaydi, deb taxmin qiladi. Ana shularning hammasi shaxsning o'ziga o'zi baho berishiga kiradi va uning psixologik kayfiyatini belgilaydi. Boshqacha so'zlar bilan aytganda, shaxsda hamisha referent guruh (rasm yoki xayoliy) bo'lib, u bilan hisoblashgan holda ish ko'radi. Undan o'ziga qadriyatli mo'ljallar oladi. Shaxs munosabat jarayonida o'zini hamisha allaqanday andoza bilan taqqoslaydi va tekshirish natijalariga ko'ra o'zidan mamnun bo'ladi yoki ko'nikmaydi. O'z fazilatlaridan mamnunligining umumiy baholanishi juda katta ahamiyatga egadir. O'ziga o'zi tomonidan behad, yuqori va behad past baho berilishi shaxs manfaatlarining ichki manbayi bo'lib chiqishi mumkin. O'ziga o'zi tomonidan yuksak baho berilishi kishini hech qanday asos bo'lmagan vaziyatlarda ham o'zining bahosini oshirib yuboradigan qilib qo'yadi. Natijada u ko'pincha tevarak-atrofdagilar tomonidan uning da'volari rad etilib, qarshilik ko'rsatishiga duch keladi. Jahli chiqadi, hadiksiraydigan, har narsadan gumonsiraydigan, yoxud ataylab takabburlik qiladigan, tajovuzkor bo'lib qoladi. Oqibat natijada tegishli darajadagi shaxslararo aloqalarni yo'qotib, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolishi mumkin. O'ziga haddan tashqari past baho berish norasolik deb atalmish xislatlar kompleksining, o'ziga qat'iyon ishonchsizlikning, tashabbuskorlikdan voz kechishning, befarqlikning, o'zini o'zi koyishning va qo'rquvning kuchayganligidan darak berishi mumkin.

Ammo, shaxsning nuqtayi nazarini ta'riflash uchun, aftidan, birgina o'ziga o'zi baho berishini bilish yetarli emas. O'ziga o'zi

baho berish, kutilgan baho, guruhning shaxs tomonidan baholani-shi shaxsning tuzilishiga kiradi.

Jiddiy ahamiyatga molik barcha baholar shaxsning anglanilgan hayoti jarayonida tarkib topishini unutmaslik kerak. O'zini o'zi baholash orqali shaxsiy sifatlar shakllanib boradi. «Shaxsning shakllanishi» ikki xil ma'noda qo'llaniladi.

1. Shaxsning shakllanishi uning rivojlanishi, ana shu rivojlanish jarayoni va uning natijasi ekanligidir.

2. Shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalash sifatidagi shakllantirishdir.

Nuqsonli bolalarda yuqoridagi holatlar qanday, qay tarzda kechadi? Shu narsa ma'lumki, ko'r bolalardagi o'zlarini baholash xususiyatlari birmuncha kechroq yuzaga kelar ekan.

Lekin yuqori sinflarga kelib, ko'r bolalarda o'zlariga tanqidiy qarash holatlari yuzaga kela boshlar ekan. Aqlan nogiron bolalar ustida qilingan tadqiqotlarning ko'rsatishicha¹ bu toifa bolalarda quyidagicha kechar ekan:

– yillar o'tishi bilan normal bolalarda ham, ko'rish nuqsoniga ega bolalarda ham o'ziga o'zi baho berishlari obyektiv holat kasb etib borar ekan;

– ko'rish nuqsoniga ega bolalarda o'z-o'zlariga baho berishlari barcha o'rganilgan yosh davrlarda o'zining adekvat emasligi bilan normal bolalardan farq qiladi.

Muammoga oid kengroq, atroflicha ma'lumotlarni yuqoridagi manbadan olish mumkin. Xo'sh, bu masala ko'rish nuqsoniga ega bo'lgan bolalarda qanday kechadi?

Shu narsa aniq bo'ldiki, bu toifa bolalarda ham boshqa toifa nogironlar singari o'ziga o'zi baho berishlari adekvat mos emas ekan. Ya'ni ko'pchiligi o'z imkoniyatlariga ortiq, kam baho berar ekanlar.

Nuqsonli bolalarni o'z vaqtida faoliyatga kiritish ularni jamiyatimizning teng huquqli a'zolari sifatida o'zlariga va Vatanga xizmat qilishlarini ta'minlaydi. Ko'rlar va zaif ko'ruvchilar faoliyat yordamida atrofdagi narsalar va voqelik bilan bevosita munosabatda bo'ladilar. Mehnat jarayonida bilim, tajriba va malakalar shaklla-

¹ Мамедов К.К. Особенности динамики самооценка учащихся вспомогательной школы. В сборнике. – Т.: 1986. 14–23.

nadi. Atrof-muhit va odamlar bilan munosabatda bo'ladilar. Ularda aqliy va jismoniy faoliyat yordamida axloqiy shaxsiy sifatleri: mehnatsevarlik, iroda, mustaqillik, hamjihatlik, tartib-intizom, javobgarlik paydo bo'ladi, ya'ni shaxs sifatida shakllanadi. Eng muhimi mehnat jarayonida, ayniqsa jamoadagi mehnatda yuqoridagi sifatlar yanada mustahkamlanadi.

Ko'r va zaif ko'ruvchilarni mehnat faoliyatiga kiritish va moslashishlari uchun quyidagi shart-sharoitlarni hisobga olish ijobiy natijalar beradi:

1. Ko'rish nuqsoni va uning jismoniy va ruhiy asoratlarini to'liq hisobga olish mehnat turi va kasb turini tanlashda ota-ona va kasb tanlashga yordam beruvchi mutaxassislarining diqqat markazida bo'lishi zarur.

2. Nuqsonli bolaning mehnat faoliyatiga faol ravishda kirishi uchun mehnat faoliyatining dastlabki bosqichlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'ziga, hayotga, mehnat faoliyatiga ishonchsizlikni, salbiy munosabatni yengish. Bu ruhiy to'siq depressiya yoki frustratsiya tarzida paydo bo'lishi mumkin. Bu bosqichda ko'r shaxs «men endi ishga yaroqsizman, qo'limdan hech ish kelmaydi» kabi salbiy fikrlar tarzida namoyon bo'lishi mumkin.

Ko'rish nuqsoniga ega kishilarda yuqorida keltirilgan salbiy shaxs sifatlarini bartaraf etish uchun ular bilan qator psixologo-pedagogik tarbiyaviy tadbirlar va treninglar o'tkaziladi.

3. Ko'rlar iloji boricha kichik yoshlardan boshlab oddiy mehnat malaka va ko'nikmalariga o'rgatib boriladi. Umuman mehnat tarbiyasi va kasb tanlash ishlari qancha erta boshlansa shuncha, ijobiy samara beradi. Buning uchun maxsus maktab-internatlarda kasb tanlash ishlari bilan shug'ullanish ishlari darajasini yuqori ko'tarish shu kunning dolzarb vazifasidir.

4. Nuqsonli bolalar bilan boshlang'ich sinflardan boshlab, har bir dars va darsdan tashqari jarayonlarda ijtimoiy mehnatga qiziqish uyg'otish har bir o'qituvchining burchidir.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **O'z-o'ziga baho berish** – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi tushuniladi.

2. **Shaxsning yo'nalganligi** – shaxsning faoliyatini yo'naltirib turadigan va mavjud vaziyatlarga nisbatan bog'liq bo'lmagan barqaror motivlar majmuyi tushuniladi.

3. **Shaxsning qiziqishlari** – qiziqish biron-bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqelikni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivlardir.

14.2. Ko'ruv nuqsonida faoliyat va kompensatsiya

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarni A.N. Leontev ilgari surgan va D.B. Elkonin tomonidan rivojlantirilgan yetakchi faoliyat nazariyasi asosida tahlil qilinganda uning faoliyat obyektlari kabi uning subyektlarining obrazlari qiyin shakllanishi bilan bog'liq o'ziga xosligi aniqlanganki, bu yetakchi faoliyat ichida yangi tuzilmalarning yuzaga kelishida kechikish va ularning yoshga oid rivojlanish davrlari cho'zilishi, uzayishida o'z ifodasini topgan.

Shunday, tashqi olam obyektlaridan atrofdagi kishilarni va o'zini kech ajratish yetakchi faoliyatning ilk shakli – muloqotning tiklanishiga ta'sir o'tkazgan, predmetli va o'yin faoliyatida aks etgan.

Faoliyatning psixologik xususiyatlarini tavsiflar ekan A.A. Krilov «Faoliyatning tashqi vositalari moslashuvi» nomli ishida (Криллов А.А. Адаптация внешних средств деятельности // Психология. – М.: Проспект, 1998. -с. 467) faoliyatning muvaffaqiyatlilikiga va natijaliligiga ko'maklashadigan uchta tashqi vositasi haqida so'z yuritadi: insonning ko'rish, eshitish yoki boshqa sensor kanal orqali axborot olishini ta'minlaydigan vositalar; o'zining harakat qobiliyatlari yoki ovozi vositasida axborot kiritishni ta'minlaydigan vositalar; nihoyat, faoliyatning u yoki bu turini tanlashni ta'minlaydigan vositalar.

Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarda axborot olish nafaqat tashqi, balki to'liq axborotni ta'minlamaydigan ichki biologik sabablar, shuningdek, rivojlanish va harakat sohasini egallashning qiyinligi bilan bog'liq. Bu ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda faoliyatning turli shakllari kechishining o'ziga xosligi va ularning umumiy psixik rivojlanishga ta'siri haqida fikr yuritishga imkon beradi. Biroq, birinchi navbatda, faoliyatning turli shakllarining ularning rivojla-

nishidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishdagi katta rivojlantiruvchi va kompensatsiyalovchi rolini ta'kidlash kerak.

Faoliyatning ko'rish nuqsonlarini kompensatsiyalashdagi roli hozirda deyarli har bir tiflopsixologik tadqiqotda e'tirof etiladi. L.S.Vigotskiy buni madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida ko'rsatib berdi. Tiflopsixologiyada M.I.Zemsova va uning «Пути компенсации слепоты» (Ko'zi ojizlikni kompensatsiyalash yo'llari) kitobi katta o'rin tutadi, uning asosini turli faoliyat shakllarini tashkil etish jarayonida ko'zi ojizlarni rivojlantirish, kompensatsiyalash va rehabilitatsiyalash masalalari tashkil etadi. Ko'zi ojiz bolalarning ilk va maktabgacha yosh davrini genetik tadqiq qilish (L.I.Solnseva) ko'zi ojiz maktabgacha yoshdagi bolalarning kompensator jarayonlari shakllanishi hamda ularning umumiy psixologik rivojlanishida predmetli-amaliy, o'yin va o'quv faoliyatining rolini yoritib berdi.

Faoliyatda yangi psixik tuzilmalar hosil bo'ladi va u bolaning eng yaqin rivojlanish zonasini yaratadi. Ko'rishda chuqur (og'ir) nuqsoni bo'lgan bolalar uchun faoliyatning turli shakllari sekin shakllanishi xos. Ularning hammasi faoliyat elementlari, ayniqsa uning ijrochilik qismiga maxsus yo'naltirilgan o'qitishga muhtoj, zero ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchilarning harakat sohasi nuqsonga tobora yaqin va uning harakat sohasiga ta'siri eng kuchli bo'ladi. Shu sababli yetakchi faoliyatning faol va rivojlantiruvchi roli ko'p vaqtga cho'ziladi. Masalan, maktabgacha yoshda ko'zi ojizlarda yetakchi faoliyatning o'zaro almashinadigan shakllari predmetli va o'yin sanaladi (L.I.Solnseva), kichik maktab yoshida esa — o'yin va o'qish (D.M. Mallayev). Uch yoshgacha davrda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishda sezilarli orqada qolishi kuzatiladi, bunga sabab atrof-olam haqidagi noaniq tasavvurlarda, predmetli faoliyatning turlicha rivojlanmaganligi, sekin rivojlanadigan amaliy muloqot, makonda oriyentirlanish (mo'ljal olish) va mobillikdagi nuqsonlarda namoyon bo'ladigan ikkilamchi buzilishlar sanaladi.

Shuningdek, A.M.Vitkovskaya predmetli harakatlar shakllanishining sur'ati sekinlashgani, ularni mustaqil faoliyatga ko'chirishning qiyinligini ta'kidlaydi. Maktabgacha yosh davrida

predmetli faoliyatning tiklanishiga uning motivatsiyasi va predmetlarning funksional vazifalarini tushunishni ta'minlaydigan nutq faol kirishadi.

Tobora qiyin komponent ko'zi o'jizlarning manual qobiliyatlari-ga asoslangan ijrochilik funksiyasi bo'lib qolaveradi, bu predmetli harakatlarning takomillashmagani natijasidir. Predmetning funksional vazifasini tushunish va predmet bilan muayyan harakatni amalga oshirish imkoniyati o'rtasida katta tafovut kuzatiladi.

Bu yoshda predmetli harakatni egallash ko'p jihatdan ko'zi o'jiz bola va katta yoshli kishining hamkorlikdagi harakatiga asoslanadi, bunda katta yoshli kishining hamkorlik elementi yetakchi sanaladi. Biroq ko'plab ko'zi o'jiz bolalarning mustaqil xulqida N.A. Bernshteyn (1947) juda primitiv va bir xildagi harakatlar bilan makon maydoni bosqichi sifatida tavsiflagan harakatlar kuzatiladi. Ko'rib taqlid qilishning yo'qligi passiv harakatlarni o'zlashtirish va takrorlash, ya'ni passiv harakatni propriotseptiv sezgirlik va harakatni bajarishni nazorat yordamida tahlil qilishni o'z ichiga olgan nisbatan murakkab akt sanaladigan harakatga taqlid hisobiga kompensatsiyalanadi. U anchagina rivojlangan o'z harakatlari va o'rgatuvchi harakatlarini tahlil va nazorat qilish malakasiga tayanadi.

Kichik yoshdagi ko'zi o'jiz bolalarning jismoniy va psixik rivojlanishi o'zaro bog'liqligini kuzatar ekan, E. Myuller (1954) ko'rsatadiki, ko'zi o'jizlarning jismonan chaqqonligi cheklanganligi ularning psixik rivojlanish va aqliy qobiliyatlari darajasiga ta'sir etadi. Shu bilan bog'liq holda ko'zi o'jizga manipulyativ qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam hamma vaqt ham ko'nikmalarga oddiy o'rgatishdan ko'ra ko'prog'ini anglatadi. Shu tufayli kichik yoshdagi ko'zi o'jizlarni va ko'zi o'jiz-karlarni predmetli harakatlarga o'rgatish amaliyotida qo'llanadigan hamkorlikdagi va bo'lingan harakat metodi turli operatsiyalarni va harakatlarni ajratish, yagona harakatni uni tashkil etadigan harakatlarga bo'lish va ularning ketma-ketligini o'zlashtirish jarayoni sanaladi.

Predmetli harakatlarga o'zini o'zi o'rgatish ilk va maktabgacha yoshda, odatda, o'yinchoqlardan foydalanish bilan bog'liq. Ular bilan o'ynash o'yinchoqlarning vazifalari bilan tanishishni talab

etadi va o'yinchoqning o'zida harakat faolligi namunasi mujassamdir. Predmetli harakatlarni o'zlashtirishning qiyinligi shunga olib keladiki, hatto ko'pchilik katta yoshdagi bolalarning spontan xulqi predmetli-amaliy faoliyat darajasida qoladi.

A.N. Leontevning (1983) faoliyat psixologik nazariyasida predmetlilik tamoyili predmet subyekt harakati qaratilgan obyekt sanalgan yadro sifatida ajratiladi. Ko'zi ojizlarning predmetli harakatlarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari faoliyatning barcha turlari, jumladan o'yinning ham tiklanishiga ta'sir o'tkazadi.

Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun xuddi ko'radiganlari kabi tobora mustaqil faoliyat o'yin sanaladi (Sh.A. Amonashvili, D.M. Mallayev). Rivojlanishi anomaliali bolalar hayotining senzitiv davrlarini qamrab olib, o'yin ularning reabilitatsiya imkoniyatlarini oshiradi, ko'rlik bilan bog'liq nuqsonlarni korreksiyalar va kompensatsiyalashga ko'maklashadi. Bolaga rivojlanishining eng yaqin zonasi o'yin tiflopsixologiyada atrof-olamni bilish usullarini har tomonlama rivojlantirish, shaxsda ijobiy sifatlarni tarbiyalash vositasi sifatida qaraladi. Ammo ko'rish analizatorining chuqur nuqsoni yoki funksiyasi cheklanishi o'yin faoliyatining barcha strukturaviy komponentlarini egallashda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi: bolalarda o'yin sujeti, mazmunining qashshoqligi, o'yin va amaliy harakatlar sxematizmi kuzatiladi.

Ko'rish nuqsonlari ishchan erkin muloqotni jiddiy tarzda murakkablashtiradi va qiyinlashtiradi. Ular uchun atrofdagilar bilan muloqotdan qochish, o'zining ichki olamiga oriyentirlanish, «izolatsiya» pozitsiyasini yaratish xos.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning o'yin faoliyati tiflopsixologik tadqiqotlarda turli jihatlardan o'rganiladi: uning kompensator jarayonlarini rivojlantirishda (L.I. Solnseva), ma'naviy sifatlarni shakllantirish va o'smirlarning sinfdan tashqari ishlarda ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirishda (E.M. Sternina, I.P. Chigrinova), predmetli va o'yin harakatlarini shakllantirishda (S.M. Xorosh), ko'rish idrokini rivojlantirishda (L.I. Plaksina), jismoniy rivojlanish va makonda oriyentirlanishda (V.A. Kruchinin, R.N. Azaryan, V.P. Nikitin), muloqot vositalarini korreksiyalash va rivojlantirishdagi ijobiy rivojlantiruvchi roli ko'rsatib berilgan.

O'yinda bolalar ijtimoiy xulqining turli tiplari namoyon bo'ladi. D.M. Mallayev o'yin faoliyatini amalga oshirishda ko'rishda nuqsoni bo'lgani uchun xarakterli bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning to'rt darajasini ko'rsatib beradi.

O'yinda ijtimoiy xulq darajalari bolalarning o'yin faoliyatini egallaganlik xarakteri, o'yin harakatlarini egallaganlik darajasi va sujet bo'yicha o'yin g'oyasining mavjudligi bilan nisbatlanadi. Bolalar o'yin rivojlanishida bir necha bosqichni o'tadi: o'yin sujeti mavjud bo'lmagani o'yinchoqlar bilan nospetsifik harakatlar; o'yin sujetisiz o'yinchoqlar bilan elementar harakatlarning yuzaga kelishi; o'yin harakatlarining paydo bo'lishi va o'yin g'oyasining beqarorligi; o'yin harakatlarini o'yin g'oyasi bilan nisbatlash va g'oyaga muvofiq harakatlanish ko'nikmalarining shakllanishi.

O'yin jarayonida nizoli vaziyatlarning paydo bo'lishi ko'rish nuqsonlari bo'lganda ko'p jihatdan hamkorlikdagi o'yinni tashkil etish, o'rtoqlari harakatlarini nazorat qilish, o'ziga olingan rolni bajarishda funksional munosabatlarni tushunishning qiyinligi, o'yin vaziyatini tushunishga ko'maklashadigan maxsus aksessuarlarning mavjud emasligi bilan bog'liq.

Faoliyat har doim shaxsning o'ziga o'zi yashayotgan muhitga va birovga faol ravishda ta'sir etish, subyekt va obyektini o'zgartirishga yo'naltirilgan harakati tushuniladi. Faoliyat ko'pincha ehtiyoj bilan bog'liq bo'lib, shaxs o'zining qandaydir ehtiyojlarini qondirish uchun harakatga, izlanishga yoki faoliyat ko'rsatishga majbur bo'ladi. Motivlarsiz faoliyat bo'lmaydi. Tashqaridan motivsiz ko'ringan faoliyat ham ong osti sohasida yillar davomida shakllangan motivlarning ta'siri natijasida yuz beradi. Masalan, ko'zi ojiz o'quvchi maktabni bitirgandan so'ng ota-onasi va boshqalarning noroziligiga qaramasdan tibbiyot bilim yurtiga kirishga urinadi. Nogiron o'spirin bu istagi motivini asoslab bera olmaydi. Chuqurroq tekshirishlarda esa, oila a'zolarining tez-tez kasal bo'lishi, o'zining nogironligidan, nochor ahvoli uni shu xatti-harakatga yo'naltirganligi aniqlandi.

Shaxs faqat faoliyat jarayonida shakllanadi va rivojlanadi. Insoniyat hayotini faoliyatsiz tasavvur etib bo'lmaydi, u ongli, maqsadga yo'naltirilganligi bilan hayvondan farq qiladi. Psixologik adabiyotlarda ko'pincha uchta yetakchi faoliyat turi farqlanadi.

Bu maktabgacha yoshda o'yin faoliyati, maktab yoshida o'quv faoliyati va maktabdan keyingi hayotdagi mehnat faoliyatidir. Ammo, ma'lum bir yosh bosqichlarida biron-bir faoliyat turining shaxs shakllanishida yetakchi ekanligi tajribalarda tasdiqlanmagan. Shaxsning har tomonlama yetuk shaxs bo'lib o'sishi uchun har bir yosh bosqichida biron-bir faoliyat turi yetakchi bo'lishi mumkin emas. «Yetakchi faoliyat» tushunchasi pedagogika va psixologiya fanida ma'lum bir yosh bosqichlaridagi faoliyat turini yaxshiroq tasavvur etish uchun qabul qilingan. Maktabgacha yoshdagi ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarning xatti-harakatini kuzatish shuni ko'rsatadiki, bu yoshdagi bolalar o'yin bilan birgalikda atrof-olam haqidagi, ijtimoiy hayot haqidagi, bilim va tajribalarni faol ravishda o'rganadilar. Nogiron bolalarni ayniqsa shu yoshda mehnatga o'rgatmasa keyingi yosh bosqichlarida bu faoliyat turining malaka va ko'nikmalarini, eng muhimi mehnatsevarlik his-tuyg'usini shakllantirish qiyin kechadi. Ko'rish nuqsonining kompensatsiyasida faoliyatning o'rnini katta bo'lib, ayniqsa, maktabgacha yoshda rejali, ongli va maqsadga yo'naltirilgan tarbiya va ta'lim jarayoni katta samara beradi. Jismoniy va ruhiy nuqsonlarni kompensatsiyalashda faoliyatning ahamiyati haqida ko'pchilik tadqiqotchilar, ayniqsa L.S. Vigotskiy tomonidan nazariy va amaliy fikrlar bildirilgan. Bu ilmiy-tadqiqotlar orasida M.I. Zemsovaning «Ko'rlikni kompensatsiyalash yo'llari» monografiyasi alohida o'rin tutadi. Tadqiqotda erta va kech ko'rlik oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ruhiy kamchiliklarning oldini olishda ruhiy rivojlanishni ta'minlovchi har xil faoliyat turlarining o'rnini hech narsa bosa olmasligi tajribalar bilan isbotlangan. Ko'rish a'zolaridagi nuqson bolaning psixomotor sohasiga: o'z vaqtida turib yurishini, harakatlanishini kechiktiradi. Bola qancha kech yura boshlasa, o'rnidan tursa, atrofidagi narsa va hodisalar haqida shuncha kam ma'lumotga ega bo'ladi.

Natijada ko'r va zaif ko'ruvchi bola narsa va obyektlarning joylashuvi, tomonlari, tashqi ko'rinishi, umumiy mohiyati haqida kam ma'lumotga ega bo'ladi. Lekin, ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar maktabgacha yoshda faqat narsalar haqida emas, balki shu yoshda «yetakchi» faoliyat turi — o'yin faoliyatiga ham yetarli kirisha ol-

maydi. Ayniqsa, harakatli va sherikli o'yinlarga teng huquqli a'zo sifatida qatnashishga qiyinaladilar.

Chunki, tengdoshlari bilan o'ynash uchun bola o'yinning mazmunini, qoidasini, o'zining o'yindagi vazifasi va rolini yaxshi bila olishi zarur bo'ladi. 4–7 yoshdagi bolalarda ko'pgina o'yinlar harakatlanish (yugurish, yashirinish va hokazolar) bilan bog'liq bo'ladi. Ko'rish nuqsonida bolaning harakatlanish doirasi torligi uchun u tengdoshlari bilan o'ynay olmaydi. Shuningdek, ko'rlik rejalashtirish, bajarish jarayonini nazorat qilish kabi faoliyat bosqichlarining kechishiga salbiy ta'sir etadi. Maktabgacha ta'lim muassasalari ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarni o'yin, o'quv va mehnat faoliyatiga kiritish, elementar va ko'nikmalarni shakllantirishdagi roli juda katta.

Ayniqsa, tug'ma va erta ko'r bo'lganlarni maktabgacha yoshda har xil faoliyatga kiritish ularning kompensator moslashuviga ijobiy ta'sir etadi. Kech ko'r bo'lganlar bilan o'tkaziladigan rehabilitatsiya ishlari asosan faoliyat jarayonida amalga oshadi. Kech ko'r bo'lgan shaxs o'zi uchun yangi sharoitga moslashishi uchun xatti-harakatini o'zgartirishi, u ko'proq faoliyatda faol va mustaqil bo'lishi talab qilinadi.

Reabilitatsiya – ko'r shaxsni o'z imkoniyatlari doirasida normal hayotga va mehnatga qaytarishdir. Ko'rlarda fazoviy tasavvurlarni va yo'nalishlarni topish malakasi qanchalik erta boshlansa va u mustaqil izlanish bilan bog'liq bo'lsa samarali kechadi. Doimiyonida hamroh bilan yurgan ko'rlarda fazoviy yo'nalishlarni topish va mustaqil yo'l topib yurish malakasi paydo bo'lmas ekan.

M.I. Zemsova erta ko'r bo'lganlarni iloji boricha ertaroq har xil faoliyatga kiritish ularni hayot to'siqlarini yengishga, tushkunlik kayfiyatidan saqlashga, parokandalik va markaziy asab tizimini degenerativ o'zgarishlardan saqlashi mumkinligini tajribalar yordamida tasdiqladi.

Ko'rlar faol faoliyatga kirgandan so'ng, ularda kayfiyatning keskin yaxshilanishi, ko'tarinkilik kuzatiladi.

O'yin, keyinroq, o'quv va mehnat faoliyati bolalarning ruhiy va asab tizimiga ijobiy ta'sir etib, analizatorlar ishini ham jonlantiradi. Markaziy asab tizimida qo'zg'alish va tormozlanish izga tushadi,

boshqarish va nazorat etish vazifasi mustahkamlanadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim va tarbiya jarayonida kamchiliklarni kompensatsiyalash va korreksiyalashni yengillashtiradi. Maktabda o'quv faoliyati bilan yaqindan bog'liq bo'lgani uchun ham o'zaro bilish va tajribalar almashinish yuz beradi. Shuning uchun ham birinchi sinfda o'quv yilining boshlarida ba'zi o'quvchilarda kuzatiladigan muloqotdan qochish, kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi, affektiv holatlar asta-sekin yo'qolib, o'quvchilarda o'z imkoniyatlarini boshqalar bilan taqqoslash, boshqalarga yetib olish, muloqotga intilish paydo bo'ladi.

Ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarda — boshlang'ich sinflardagi mutelik, qiziqishlar va intilishlarning pastligi, faqat buyurilgan topshiriqni bajarish bilan chegaralanish, o'rta va yuqori sinflarda faoliyatda mustaqillik, faollik, hatto o'zi qiziqqan muammoga ijodiy yondashish bilan almashadi. Chunki, nuqsonli bolaning yoshi o'sishi bilan faoliyat motivlari (ijtimoiy, axloqiy, bilim va boshqalar) ham o'sib boradi. Ko'r va zaif ko'ruvchi o'quvchilarda boshlang'ich sinflardan yuqori sinflarga qarab faollikning o'sib borishiga sabab: yuqorida aytganimizdek, «Men boshqalardan kammanmi?» deb o'quvchining o'zini faqat nogiron tengdoshlari bilan emas, balki sog'lom tengdoshlari bilan o'zini doimo taqqoslashi natijasida har tomonlama, o'sish, rivojlanish yuz beradi. Ya'ni o'z-o'ziga ta'sir, o'z faoliyatini boshqarish va o'zini o'zi nazorat qilish paydo bo'ladi.

Albatta, faoliyatning shakllanishida tarbiyachi va o'qituvchilarning yo'naltiruvchi, tashkillashtiruvchi va korreksion ishlari katta ahamiyatga ega.

A.T. Litvak fikricha, agar ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar bilan kichik yoshligidan bir tizim asosida ish olib borilmasa, ko'pincha bolalarda kompensator moslashish to'satdan va stixiyali boshlanadi. V.M. Koganning ko'rsatishicha, stixiyali mustahkamlangan kompensator moslashish nuqsonli bolalarda umumlashtirish va tajriba o'sishini rivojlantirmas ekan. Shuningdek, to'satdan, rejasiz boshlangan va tartibsiz kechgan kompensator moslashish soxta kompensator moslashishni keltirib chiqaradi. Ko'rlarning boshini orqaga tashlab yurishi (peshanalarini to'siqqa urib olishdan qo'rqishadi), ko'zi ojizlarning egilib-boshlarini doimo egiltirib yu-

rishlari (ular oyoq ostlarini yaxshilab ko'rish uchun shunday qili-shadi) soxta kompensator moslashuvga misol bo'la oladi. Ba'zi bir ko'rlarning gavda a'zolarini har xil tutishi, beo'xshov qiliqlari ham shu sabablardan kelib chiqadi. Natijada gavdani to'g'ri ushlab, to'g'ri yurish, nozik harakatlar shakllanmasdan qoladi. Sog'lom kishi o'z faoliyati va qo'l harakatini ikki tomonlama nazorat qiladi. Harakat-ning ko'z va muskul-harakat, taktil sezgilari bilan nazorat qilini-shi uchun ham ko'pgina harakatlar avtomatlashgan tarzda kechadi. Biz paxta terish, stanokda ishlash uchun har doim ham qo'l va barmoqlar harakatini ko'z bilan nazorat qilmaymiz, bu harakatlar dinamik stereotip tarzda, avtomatik shaklda bajariladi. Ko'rlik nuq-soni faoliyatni qisman chegaralaydi va unga o'ziga xos o'zgarishlar kiritadi. Ya'ni butunlay ko'rlarda qo'l ham mehnat vositasi, ham nazorat qilish vazifasini bajaradi.

Ko'rlar faoliyatida ko'z nazorati bo'lmaganligi uchun ularning mehnat faoliyat doirasi ham torayib, ular tez harakatlanadigan, ay-lanadigan mexanizmlar bilan ishlashlari hayotlari uchun xavflidir. Ko'r va zaif ko'ruvchilarga mehnat turlari kasb tanlashda ularning bu xususiyatlarini e'tiborga olishni taqozo qiladi.

Savol va topshiriqlar

1. Ko'r va zaif ko'ruvchilar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ko'r va zaif ko'ruvchilarning o'ziga xos faoliyat motivlari qanday?
3. Ko'rlarning ijtimoiy mehnat rehabilitatsiyasi haqida so'zlang.

Tayanch so'zlar va tushunchalar

1. **Faoliyat** – ehtiyojlar tufayli paydo bo'lib, ong bilan boshqa-riladigan, tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta ko'rishga yo'naltirilgan faollikdir.
2. **O'yin** – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bu bolalarning katta-lar faoliyatini, ularning ish harakatlarini, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdan borliqni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — Toshkent, O'zbekiston, 1992.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. — Toshkent, 1997.
3. O'zbekiston «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni. 1997.
4. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. — T., O'zbekiston, 2011.
5. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. — Toshkent, 1999.
6. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. «Tafakkur» jurnali bosh muharririning savollariga javoblari. — 1998. 2-son.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — Toshkent, 2008.
8. O'zbekiston Respublikasi «Nogironlar huquqini ijtimoiy himoyalash to'g'risida»gi qonun. — Toshkent, 1991.
9. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik, saylanma. Xalq merosi. 1993.
10. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» \ tuzuvchi M. Mahmudov — T., Xalq merosi. 1993.
11. Abdurahmonov F., Davletshin M. Odamlar bilan qanday muloqotga kirishish va yondashish kerak. — Toshkent, 1996.
12. Adizova S. «O'qituvchilarning shaxslararo munosabatlarini psixologik diagnostikasi va korreksion ishlari». — T., 2002.
13. Адизова Т., Усманова Э. Психологические трудности в обучении младших школьников. — Т., 1995.
14. Axmedjanov E.R. Psixologiya testi. — T., 1996.
15. Айтметова С.Ш. — Особенности психического развития учащихся вспомогательной школы. — Т., Ўқитувчи, 1986.
16. Ауурова М. Logopediya. — T., 2011.
17. Беляков И.В. Запоминание стихотворных текстов умственно отсталыми школьниками при разных способах восприятия. Вопросы психологии познавательной деятельности. — М., 1984
18. Berdiyev G. Boshlang'ich sinflarda shaxslararo munosabatdagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish. — Toshkent, 1995.

19. Berdiyev G. Shaxslararo munosabati va o'qituvchi. Xalq ta'limi jurnali, 5-son. – Toshkent, 1997.
20. Браженкова И.М. Психология умственно отсталого школьника. – М., 1987
21. Бурлачук Л.С. Психодиагностика: Учебник для вузов. СПб., – Питер, 2001.
22. Davletshin D., Mamedov K. Ibn Sinoning psixologik qarashlari. Ilmiy-omtabor to'plam. – T., 2002.
23. Davletshin M.G., To'uchiyeva S.M. Umumiy psixologiya. – Toshkent, 2002.
24. Дети с особенностями развития в России: Итоги и перспективы / Под.ред А.М.Шербаковой. – М., 1998.
25. Детская практическая психология. (Под ред. Т.Д.Марсиновской) – М., 2000.
26. Элконин Д.Б. Психология развития: Учеб. пособие для студентов высших и средних специальных учебных заведений. –М., Академия. 2001.
27. Эмоционально-волевые процессы и познавательная деятельность умственно отсталых детей. Сб.науч.гр. – М., 1993.
28. G'oziyev E. va boshqalar. Psixologiya muammolari. – T., 1999.
29. G'oziyev E. Yosh psixologiyasi. – T., 1994.
30. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. 1, 2- kitob. – T., 2002.
31. Гуревич. Психологическая диагностика // Проблемы исследования. – М., Педагог, 1981.
32. Исследования познавательных процессов детей – олигофренов: Сб.науч.гр. Под.ред. В.Г.Петровой. – М., 1987.
33. История, состояние и перспективы развития высшего дефектологического образования в Республике Узбекистан. Сборник посвящается 10-летию юбилею дефектологического факультета. – Под ред Л.Р. Муминовой. – Ташкент, 1996.
34. Колягин В.А., Овчинникова Т.С. Психолого-педагогическая диагностика детей и подростков с нарушениями речи. С-Пб., – КАРО. 2005.

35. Лебединский В.В. Нарушение психического развития у детей: Учеб. пособие. – М., Изд-во Моск. ун-та, 1985.
36. Лисина В.С. Детская психология. – М., 1985.
37. Логопедия. Под ред. Л.С.Волковой, С.Н.Шаховской. – М., Владос, 2004.
38. Литвак А.Г. Тифлопсихология. – М., 1985.
39. Литвак А.Г., Сорокин В.М. Практикум по тифлопсихологии. – М., 1989 г.
40. Мамедов К.К. и др. Особенности динамики самооценка учащихся вспомогательной школы. В сборнике. – Т., 1986.
41. Mamedov K.Q., Shoumarov G'.B. Aqli zaif bolalar psixologiyasi. – Т., «O'qituvchi», 1994.
42. Mamedov K.Q. Maktabgacha yoshdagi bolalar va o'quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlari (psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida). Doktorlik dissertatsiya, 1994.
43. Mamedov K.Q., Shoumarov G'.B., Podobed V.L. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. – Т., 1992.
44. Mamedov K.Q., Soatov M.I., Po'latova P.M. Oligofrenopedagogika asoslari: Pedagogika institutlari defektologiya fak. talabarlari uchun o'quv qo'llanma. – Т., O'qituvchi, 1994.
45. Mavlyanova R., Turayeva O., Xolikberdiyev K. Pedagogika. –Т., O'qituvchi, 2001.
46. L.R. Mo'minova. Logopediya. – Т., 2006.
47. L.R. Mo'minova, M.Y. Ayupova. Logopediya. – Т., 1993.
48. L.R. Mo'minova. Nutqida kamchiligi bor bolalarning psixologik-pedagogik diagnostikasi. – Т., 2012.
49. L.R. Mo'minova, D. Nazarova. Maxsus ta'lim atamalarining izohli lug'ati. – Т., 2010.
50. Немов Р.С. Психология: Учебник для студентов высших и средних специальных учебных заведений. 2-ое изд. – М., Владос, 1995.
51. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi, 2005.
52. S. Nishonova. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent, Istiqlol, 2003.
53. Новоселова С.А., Развития мышления в раннем возрасте. – М., 1998.

54. Нудельман В.А. и др. Особенности психического развития глухого ребенка. – М., 1975.

55. «Коррекционно-воспитательная направленность обучения и воспитания во вспомогательной школе». – Ташкент, 1986, сборник научных трудов.

56. Ochil S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. – Т., O'qituvchi, 1995.

57. Основы специальной психологии. Учеб. пособие для студентов высших и средних специальных учебных заведений. Под ред. Л.В. Кузнецовой. – М., Академия. 2002.

58. Петрова В.Г., Белякова И.В. Психология умственно отсталых школьников. 2-е издания. – Москва, АКАДЕМИЯ, 2004.

59. Певзнер М.С. Дети – олигофрени. – М., 1999.

60. Психологические проблемы коррекционной работы во вспомогательной школе (Под. Ред. Ж.И. Шиф., В.Г. Петровой, Т.И. Головиной. – М., 1980)

61. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. – Т., 1998.

62. Po'latova P.M. Maxsus pedagogika, Oligofrenopedagogika «G'afur G'ulom». – Т., 2005.

63. «Практикум по психологии умственно отсталого ребёнка». – М., 1985.

64. Романова Б.С. Психологическая диагностика развития школьников в норме и патологии. – М., 1989.

65. Розенгарт Г.Л. – Пупко. Реч и развитие восприятие в раннем возрасте. – М., 1998.

66. Рубинштейн С.А. Основы общей психологии. – М., 1998.

67. Рубинштейн С.А. Психология умственно отсталого школьника. – М., 1986.

68. Самойлов А.Ф. Проблема мышления в тифлопсихологии. Психологические особенности слепых и слабовидящих школьников. – Л., ЛГПИ, 1981.

69. Шоумаров Ф.Б. Дифференциально-диагностические критерии детей с умственной отсталостью от задержки психологического развития. РТМ. 2. П.л. – Т., 1998.

70. Shoumarov G'.B. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. – T., O'qituvchi, 1993.

71. Шоумаров Ф.Б. Социально-психологические проблемы молодой семи выпускников специальной школы для детей с задержкой психического развития: Автореф. ...докт. псих.наук. – Т., 1990.

72. Шоумаров Ф.Б., Мамедов К.К. Дифференциальная диагностика и психологические особенности детей с ЗПР. – Т., 1984.

73. Shoumarov G'.B., Mamedov K.Q. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar diagnostikasi. – T., 1987.

74. Солнцева Л.И. Тифлопсихология детства. – М., 2002.

75. Специальная психология. Под.ред. В.И. Лубовского. М., 2005.

76. Стадненко И.М. Особенности мышления учащихся вспомогательной школы. – К., 1980.

77. Sunnatova R.I., Irgasheva N.G., Tadjiyeva S.X. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. – T., 2008.

78. Светкова Л.С. Нейропсихология и афазия: новый подход. – М., Воронеж Моск.психол. социальный ин-т НПО «Модек», 2001.

79. Трошин О.В., Й.В.Жулина. Логопсихология. – М., 2005.

80. Усанова О.Н. Специальная психология. – М., 1990.

81. Uxtomskiy A.A. Tanlangan asarlar. – TDU.

82. Вигоцкий Л.С. Мышление и реч. – М., 1996.

83. Вигоцкий Л.С. Педагогическая психология. – М., Педагогика, 1991

84. Вигоцкий Л.С. Проблемы дефектологии. – М., 1995.

85. Вигоцкий Л.С. Проблемы развития психики // Вигоцкий Л.С. СС в 6 т. –Т.3. – М., 1982.

86. Волкова Г.А. Заикание и дизонтогенез // Хрестоматие по логопедии: Учеб. пособие для студентов высших и средних специальных учебных заведений. В 2-х томах. –Т.1. – М., ВЛАДОС, 1997.

87. Хрестоматия по логопедии. – М., 2-х томах 1997.

88. O'zbek pedagogikasi antologiyasi. – Toshkent, O'qituvchi, 1999.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	3
I bo‘lim. OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA	5
I bob. OLIGOFRENOPSIXOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI	5
1.1. Aqli zaif bolalar psixologiyasi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va uslublari	5
1.2. Oligofrenopsixologiya fanining yuzaga kelish tarixi.	7
1.3. Oligofrenopsixologiya fanining boshqa fanlar bilan bog‘liqligi	10
1.4. Oligofrenopsixologiya fani metodlari	11
1.5. VIII turdagi maxsus mehnat ta’limi maktabi o‘quvchilarining psixologik tavsifnomasi.	13
II bob. AQLI ZAIF O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATI	20
2.1. Aqli zaif o‘quvchilarning idroki	20
2.2. Aqli zaif bolalarning tafakkuri	31
2.3. Aqli zaif bolalar xotirasi	37
2.4. Aqli zaif o‘quvchilarning diqqati	41
2.5. Aqli zaif bolalar nutqi. Aqli zaif bolalarda nutq buzilishining o‘ziga xosligi	45
III bob. AQLI ZAIF O‘QUVCHILAR SHAXSI	59
3.1. Aqli zaif o‘quvchining shaxsi va shaxslararo munosabat xususiyatlari	59
Emotsional rivojlanish xususiyatlari	61
3.1. Aqli zaif bolalarning o‘z-o‘zlariga baho berish xususiyatlari	63
3.2. Aqli zaif bolalar faoliyati	67
II bo‘lim. SURDOPSIXOLOGIYA	70

IV bob. SURDOPSIXOLOGIYANING NAZARIY ASOSLARI	70
4.1. Surdopsixologiya fani hamda uning metodlari mohiyati. . .	70
4.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar ruhiy rivojlanishining o'ziga xosligi	74
4.3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning pedagogik tasnifi.	76

V bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILISH FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI.	81
5.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar sezgi va idrokining o'ziga xos xususiyatlari	81
5.2. Eshitish qobiliyati buzilgan shaxslarning diqqat xususiyatlari	84
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar diqqati tekshirish va korreksiyalash metodikasi	86
5.3. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalar xotirasining o'ziga xos xususiyatlari	87
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda xotira funksiyasi va xususiyatlari	87
5.4. Eshitishida nuqsoni mavjud bolalarning tasavvuri va uning xususiyatlari.	91
Kar o'quvchilar ijodiy tasavvurining elementar shakllari haqida	92
5.5. Eshitish qobiliyati buzilgan bolalarning xayol xususiyatlari	94
5.6. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkurini rivojlantirish	96

VI bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR NUTQINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	101
6.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar og'zaki nutqining psixologik asosi.	101
6.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni shakllantirishning psixologik asoslari.	103

6.3. Daktilologiya va imo-ishora nutqi eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqi sifatida	105
6.4. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqni idrok etishi	108

VII bob. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI 110

7.1. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar shaxsini o'rganishning umumiy masalalari	110
7.2. Eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar hissiy emotsional iroda sferasining tavsifi.	111
7.3. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar faoliyat jarayonining o'ziga xosligi	115

III bo'lim. LOGOPSIXOLOGIYA. 120

VIII bob. LOGOPSIXOLOGIYANING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI. 120

Logopsixologiya fani predmeti, maqsadi, vazifalari va tamoyillari	127
Logopsixologiya fanining tamoyillari va metodlari	128
8.1. Normal va nuqsonli rivojlanishning umumiy va o'ziga xos qonuniyatlari	138
8.2. Nutq nuqsonlarining kelib chiqish sabablari. Nutq nuqsoniga ega bolalar ijtimoiy moslashuvi masalalari. . .	147
8.3. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalarning umumiy psixologik tavsifnomasi	151

IX bob. NUTQ KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING BILISH FAOLIYATI 162

9.1. Nutq kamchiligi bo'lgan bolalar idroki	162
Nutq buzilishlarida uchraydigan idrok jarayonining o'ziga xos xususiyatlari	164
9.2. Nutqda kamchiligi bo'lgan bolalarning diqqati	168
9.3. Nutqda kamchiligi bo'lgan bolalarning xotirasi	170

9.4. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tasavvuri	173
9.5. Nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar tafakkuri	176

X bob. NUTQ KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARNING SHAXSI VA SHAXSLARARO MUNOSABAT

XUSUSIYATLARI	181
O'qish va yozuv kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarning shaxs va shaxslararo munosabat xususiyatlari	181
Dizartriyada shaxs xususiyatlari	182
Nutqning temp-ritm buzilishlarida shaxs xususiyatlari	182
Sistemali nutq buzilishlarida shaxs xususiyatlari	184

XI bob. NUTQIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALAR MOTORIKASI

BOLALAR MOTORIKASI	187
-------------------------------------	------------

IV bo'lim. TIFLOPSIXOLOGIYA.

XII bob. TIFLOPSIXOLOGIYA FANINING UMUMIY MASALALARI

UMUMIY MASALALARI	190
12.1. Tiflopsixologiya fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va metodlari	190
Ko'rish o'tkirligi	199
Tiflopsixologiyaning boshqa fanlar bilan aloqasi	201
12.2. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning ruhiy rivojlanish xususiyatlari	207

XIII bob. KO'R VA ZAIF KO'RUVCHI BOLALARNING BILISH FAOLİYATI

BILISH FAOLİYATI	217
13.1. Ko'r va zaif ko'ruvchilarning sezgisi.	217
13.2. Ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning idroki	221
13.3. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning xotira xususiyatlari	228
13.4. Ko'r va zaif ko'ruvchi shaxslarning tafakkuri	231
13.5. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanish xususiyatlari	236
13.6. Ko'rish nuqsoni bo'lgan bolalarning tasavvur, xayol va	

fazoda mo'ljal olish xususiyatlari	241
Topografik tasavvurlar	247

XIV bob. KO'RISH NUQSONI BO'LGAN

BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARI249

14.1. Tiflopsixologiyaning shaxs muammolari. 249

14.2. Ko'ruv nuqsonida faoliyat va kompensatsiya 253

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR262

L.R. Mo‘minova, Sh.M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova,
M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanova, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova

MAXSUS PSIXOLOGIYA

o‘quv qo‘llanma

Muharrir *M. Akbarov*
Musahhah *H. Zokirova*
Dizayner sahifalovchi *D. Ermatova*

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.
100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko‘chasi, 32-uy.
Tel.: 236-55-79; Faks: 239-88-61.

Nashriyot litsenziyasi: AI №216, 03.08.2012.

Bosishga ruxsat etildi 05.10.2013. «Uz-Times» garniturası. Ofset usulida chop etildi. Qog‘oz bichimi 60×84¹/₁₆. Bosma tabog‘i 17,0. Nashr hisob tabog‘i 17,5. Adadi 500 nusxa. Buyurtma № 34.

«START-TRACK PRINT» MCHJ bosmaxc

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko‘chasi, 5 /-uy.

**O'ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY
JAMIYATI NASHRIYOTI**

ISBN 978-9943-391-63-5



9 789943 391635